

*A.Abdusamatov*

# **ORGANIK KIMYO**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
tegishli oliy o'quv yurtlari uchun darslik sifatida  
tavsiya etgan*

**Qayta ishlangan va to'ldirilgan  
i<sup>kk</sup>inch nashri**

Ushbu darslik Toshkent Davlat agrar universiteti va qishloq xo'jaligi institutlarining ta'labalari uchun mo'ljallangan. Darslikda organik kimyoning nazariy qismi, organik moddalarning O'zbekistondagi asosiy manbalari, ularning olinishi, ajratilishi va tuzilishini zamonaviy usullarda tahlil qilish uslublari, organik kimyoning asosiy bo'limlari xalq xo'jaligi, ayniqsa qishloq xo'jaligi bilan bog'lab yoritilgan. Darslik yangi dastur asosida oddiy va tushunarli tarzda yozilganligi uchun, undan tibbiyot, farmatsevtika oliv o'quv yurtlari va biologiya fakultetlari talabalari, shuningdek, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari ham foydalanishlari mumkin.

**T a q r i z c h i l a r :** akademik **A.A. Abduvahobov;**  
professor **Q.N. Ahmedov.**

---

---

## SO‘ZBOSHI

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi» va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta’lim sohasidagi Qarorlari asosida respublikamizning Oliy o‘quv yurtlarida hozirgi zamon talabiga javob beradigan bakalavriat va malakasi bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashga imkon yaratildi. Bu qarorlarda mutaxassislarning milliy, ma’naviy-ma’rifiy o‘zligini anglashi, zamonaviy iqtisodiy tafakkurni, tashkilotchilik ishlarini, o‘z faoliyatiga tatbiqan elektron-hisoblash mashinalaridan foydalanish usullarini bilishi, kasbiga taalluqli fanlarmi to‘liq o‘zlashtirishi, kasbining fidoyisi bo‘lishligi ko‘rsatilgan.

Barcha qishloq xo‘jaligi bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha o‘qitiladigan fanlarning asosini, ya’ni poydevorini organik kimyo fani tashkil etadi. Shuning uchun qishloq xo‘jaligining turli sohalarida ishlaydigan mutaxassislar organik kimyonini yaxshi bilishlari taqozo etiladi. Organik kimyoning nazariy asoslarini puxta o‘rganish, avvalo, bo‘lg‘usi mutaxassisiga tirik tabiatdagi (hayvonot va o‘simliklar dunyosidagi) jarayonlarni, tabiiy qazilma boyliklar hosil bo‘lish jarayonlarini va ulardan kimyoviy moddalarni olish texnologik usullarini o‘zlashtirishga yordam beradi. Shuningdek, organik birikmalarning fizik-kimyoviy xossalarni va tuzilishini o‘rganishda to‘g‘ri mulohaza yuritishga olib keladi.

Hozirgi vaqtida xalq xo‘jaligining biron tarmog‘i yo‘qli, unga kimyo fani yutuqlari kirib bormagan bo‘lsin. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligida ishlatilayotgan polietilen quvurlar, plyonkalar, ekinlarning hosildorligini oshirishda va o‘simliklarga oziq sifatida berilayotgan mikroo‘g‘itlar va organik o‘g‘itlar, o‘simliklarning har xil kasalliklariga qarshi ishlatilayotgan fungitsidlar, har xil zararkunandalarga qarshi qo‘llaniladigan insektitsidlar, begona o‘tlarni yo‘qotishda foydalaniladigan gerbitsidlar va boshqa kimyoviy moddalarning deyarli hammasi organik birikmalardir.

Umuman olganda, qishloq xo'jaligida yetishtiriladigan mahsulotlar organik birikmalarning asosiy manbayi hisoblanadi. Demak, bo'lajak qishloq xo'jalik mutaxassislari organik kimyo fanini qanchalik yaxshi o'zlashtirsalar, ular qishloq xo'jaligida ishlataladigan kimyoviy preparatlardan unumli foydalanib, ekinlardan yuqori va sifatli hosil olishga erishadilar.

Ushbu darslikni ko'rib chiqib, o'zlarining qimmatli fikr va mulohazalarini bildirgan akademik A.A.Abduvahobovga, kimyo fanlari doktorlari, professorlar Q.N.Ahmedov, E.U.Urinovlarga muallif chuqur minnatdorchilik bildiradi.

Darslikning ikkinchi nashri qishloq xo'jaligi bakalavriat yo'nalishlari bo'yicha Davlat ta'lim standartlari, namunaviy o'quv rejasiga asosida yozilgan bo'lib, unda kimyo fanining oxirgi yutuqlari, O'zbekiston kimyogarlarining qo'shgan hissalarini va tabiiy qazilma boyliklari, ularni qayta ishlash usullari va ularidan olinadigan moddalarning xalq xo'jaligida ishlatalishi bilan to'ldirilgan.


---

## KIRISH


**Organik kimyo fani.** Organik kimyo — organik moddalarni tashkil qiluvchi uglerod birikmalarining kimyosini o'rganuvchi fan.

Organik moddalar kishilarga qadimdan ma'lum, ular organik bo'yoqlarni (alizarin, purpur, indigo), uzum sharbatini bijg'itib sirka hosil qilishni, o'simliklardan shakar hamda moy olishni, yog'larni ishqorlar bilan qaynatib sovun hosil qilishni bilganlar va bu moddalardan foydalanganlär. Ammo uzoq vaqtgacha organik moddalar aralashma holida ishlatilib kelingan. IX asrga kelib arab alximiklari sirkadan sirka kislotani, musallas ichimligidan etil spirtni sof holda ajratib olishga tuyassar bo'ldilar. XVI asrda etil spirtni sulfat kislotasi bilan ishlash natijasida etil efir olindi. Organik moddalarni sof holda olish va ularni o'rganish XVIII asrning oxiri XIX asming boshlariga kelib kuchaydi.

1824- yilda nemis kimyogari F.Veler laboratoriya sharoitida disiandan o'simlik organizmida uchraydigan oksalat kislotani oladi:



F.Veler 1828- yili oddiy anorganik tuz — ammonik sianatdan hayvon organizmida hosil bo'ladigan mochevinani sintez qiladi.



1842- yili buyuk rus olimi N.N.Zininning nitrobenzoldan anilin olishi, 1845- yili nemis kimyogari Kolbening sirka kislotani sintez qilishi, 1854- yili fransuz kimyogari I.Bertloning yog'ni hosil qilishi va 1861- yili rus olimi Butlerovning oddiy chumoli aldegididan

shakarsimon moddani sintez qilishi organik kimyo fanining rivojlanishiga katta yo'l ochdi.

Organik moddalar tarkibida uglerod elementining albatta bo'lishi XVII asrda uzil-kesil isbotlandi. Shu bilan birga ko'pchilik organik birikmalar tarkibida uglerod elementidan tashqari vodorod, kislorod, azot va boshqa elementlar borligi aniqlandi.

1861-yili Qozon universitetining professori Aleksandr Mixaylovich Butlerovning organik moddalarning kimyoviy tuzilish nazariyasini yaratishi organik kimyoning rivojlanish tarixida olamshumul ahamiyatga ega bo'ldi.

A.M. Butlerov o'zining «Organik kimyoni to'liq o'rganishga kirish» degan kitobida uglerodli birikmalar anorganik birikmalarga nisbatan beqaror ekanligini, uglerod boshqa elementlar bilan birikib xilma-xil birikmalar hosil qilishini, uglerodli ko'pchilik birikmalar bir xil empirik formulaga ega bo'lib, tuzilish va xususiyatlari jihatidan farqlanishini ko'rsatib bu hodisani izomeriya deb atadi.

Shunday qilib, XIX asrning boshida organik kimyo fanga alohida qism bo'lib kiradi.

Organik moddalarning fizik va kimyoviy xossalari hamda ularning tuzilishi ularda uglerod atomining borligi bilan belgilanadi.

Organik moddalar (yoki uglerodli birikmalar), tabiiy yoki sun'iy (sintetik) bo'lishiga qaramay, boshqa birikmalardan quyidagi belgilari bilan farqlanadi:

1. Organik birikmalar anorganik birikmalarga qaraganda uncha barqaror emas, qizdirilganda oson o'zgaradi va yonadi.

2. Uglerodli birikmalarning atomlari o'zaro kovalent bog'langan. Shu tufayli bunday birikmalarning reaksiyasi (ayrim hollarni hisobga olmaganda) sekin boradi. Ma'lumki, anorganik birikmalarda, odatda, reaksiyalar juda tez sodir bo'ladi. Ko'pgina organik birikmalar reaksiyasi oxirigacha bormaydi va kutilgan reaksiya mahsulotining unumi 100 % bo'lmaydi. Anorganik birikmalarning o'zaro reaksiyalarida buning aksidir.

3. Birgina uglerod atomini vodorod, kislorod, azot va boshqa element atomlari bilan birikib, hozirgacha hosil qilingan organik birikmalarning soni anorganik moddalarning soniga qaraganda XIX asr yarmida 20 marotaba, hozir esa 30 marotaba oshib ketdi.

Buning sababi, organik birikmalarga izomeriya hodisasi xos bo'lib, bu hodisa anorganik birikmalarda kam uchraydi.

Organik birikmalarning ko'pchiligi tirik organizmlarning yashashisha hayotiy rol o'yndaydi.

**Akademik A.E.Favorskiy** (1860—1945)ning maktabida asosan asetilen, allen va diyen uglevodorodlarning kimyosi ustida ilmiy ishlar olib borildi. A.E.Favorskiy asetilen va allen uglevodorodlarni izomerizatsiyaga uchratib shu tipdagi turli uglevodorodlarni olish mumkinligini ko'rsatdi.

**Akademik N.D.Zelinskiy** (1861—1953) kimyogarlarning eng yirik matabini tashkil qilib, uglevodorodlar ayniqsa neft kimyosining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. To'yingan va to'yinmagan siklik uglevodorodlarning xossalari va sintezi chuqur o'rGANildi. N.D.Zelinskiy katalitik organik sintezning birinchi asoschisidir.

**Akademik A.N.Nesmeyanov** organik kimyoda element-organik birikmalar sintezini va ularning kimyoviy xossalarni hamda kimyoviy tuzilishini o'rGANadigan yirik matab yaratdi.

**Akademik N.N.Semyonov** shogirdlari bilan uglevodorodlarning galoidli birikmalarini olish xossalarni aniqlash va reaksiya mexanizmini o'rGANish sohasida ko'p ishlar qildi. To'yingan uglevodorodlarga galogenlar ta'sir ettirilganda reaksiya radikal mexanizmi bo'yicha davom etishi ko'rsatilib, bu jarayon orqali oksidlanish, polimerlanish va boshqa reaksiyalarning mexanizmini tushuntirishga muvaffaq bo'lindi.

### **Bilasizmi?**

— 1827- yilda birinchi organik kimyo darsligini I.Berselius yozgan.

— Organik kimyoning ta'rifini birinchi bo'lib A.Kekule XIV asrning 50- yillarida yozgan organik kimyo darsligida beradi.

— A.M.Butlerov «Organik kimyoni to'liq o'rGANishga kirish» degan kitobida organik birkmalarda izomeriya mayjudligini bayon etadi.

— Kimyo tarixida dastlab sintez qilingan organik moddalar oksalat kislota va mochevinalardir (nemis kimyogari F.Veler, 1824, 1828).

— Akademik S.Y.Yunusov XX asrning ikkinchi yarmida O'zbekistonda o'sadigan o'simliklardan 500 dan ortiq yangi alkaloidlar ajratib olib, ularning tuzilishini aniqlaydi.

Organik kimyo fanining rivojlanishiga quyidagi O'zbekiston olimlari o'zlarining katta hissalarini qo'shganlar.

**Akademik S.Y.Yunusov** (1909—1995)ning mактабида izoxinolin, eritrin, diterpen, xinolin, indol, xinozolidin, xinazolin, steroil, pirolizidan, piridin, tropan va oltengugurt saqlovchi sinflarga oid alkaloidlar bilan ilmiy ishlari olib borildi.

S.Y.Yunusov o'simliklarning har xil a'zolarida alkaloidlarning dinamik to'planish qonuniyatini yaratdi va shogirdlari bilan O'rta Osiyoda, ayniqsa, O'zbekistonda o'sadigan shisobaxsh o'simliklardan 800 dan ortiq alkaloidlar ajratib olib, ulardan 500 ta yangisini tuzilish formulasini aniqlab, O'zbekiston alkaloidlar kimyosini dunyoda yetakchi o'ringa olib chiqdi. Uning shogirdlari orasidan N.K.Abubakirov, X.A.Abduazimov, F.Y.Yuldashev, Z.F.Ismailov, S.T.Akramov, R.N.Nuriddinov, M.S.Yunusov, S.I.Iskandarov kabi taniqli kimyogarlar yetishib chiqdi. Atoqli olim S.Y.Yunusov «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan va texnika arbobi», A.Beruniy nomidagi O'zbekiston davlat mukofoti laureati, D.I.Mendeleyev nomidagi oltin medal laureati va «Mehnat Qahramoni» unvonlari bilan taqdirlangan.

**Akademik O.S.Sodiqov** (1913—1987) dunyoga tanilgan o'zbek kimyogar olimi va fan tashkilotchisidir. 1966- yildan 1983- yilgacha O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Prezidenti bo'lgan. Uning ilmiy ishlari O'rta Osiyoda o'sadigan yovvoyi va madaniy o'simliklar va tabiiy birikmalar kimyosini o'rganishga bag'ishlangan. U yaratgan maktabda yetishib chiqqan shogirdlar O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Armaniston, Mo'g'uliston, Vyetnam va Polshanning taniqli kimyogarları hisoblanadi.

Atoqli va iqtidorli olim O.S.Sodiqov «Iqtisodchi», «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan va texnika arbobi», A.Beruniy nomidagi O'zbekiston davlat mukofoti laureati, «Mehnat Qahramoni» unvonlari bilan taqdirlangan.

**Akademik I.P.Sukervanik** (1901—1968) «Aromatik birikmalarni alkillash va asillash» sohasi bo'yicha izchil va keng qamrovli tadqiqotlar o'tkazgan, shu yo'nalishda tanilgan organik kimyogarlar maktabini yaratgan ulug' olimdir.

U spirtlar va alkillashning mexanizmini ishlab chiqqan, anomal alkillash borishini ham ko'rsatgan, yangi reaksiya ochgan, tadqiqotlarning natijalarini defoliant va gerbitsid preparatlari sifatida qishloq xo'jaligida qo'llagan.

**Akademik X.U.Usmonov** (1916—1994) makromolekular kimyo sohasida yetuk olim bo'lgan. O'zbekistonda polimerlar

kimyosini rivojlanishiga asos solgan va tabiiy polimerlarni o'rganish mifiktabini yaratgan. Uning rahbarligida g'o'zaning o'sish davrida paxta tolasining shakllanishi va selluloza molekulasing tuzilish fibrillo genezisi o'rganilgan. Respublikada paxta tozalash sanoatlarining chiqindilaridan va g'o'zapoyadan selluloza ishlab chiqarish texnologiyasini yaratgan.

Sellulozani eterifikatsiyalash yo'li bilan har xil funksional guruuhlar kiritib, yangi modifikatsiyalangan sun'iy ipak tolalar olingen hamda vinil ftorid bilan payvandlangan polimer moddlarini sintez qilingan va xossalari o'rganilgan.

U Beruniy nomidagi davlat mukofoti va O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan va texnika arbobi unvonlari bilan taqdirlangan.

Uning shogirdlari orasidan Y.T.Tashpulatov, R.S.Tillayev, A.A.Yulchibayev, U.N.Musayev, K.X.Roziqov kabi taniqli kimyogarlar yetishib chiqdi.

**Akademik A.A.Abduvahobov** O'zbekistonda element-organik birikmalari kimyosi mifiktabini yaratgan olim. U shogirdlari bilan birga element-organik birikmalar kimyosi, nozik organik sintez muammolari, molekular darajada quyi molekular bioregulator ta'siri mexanizmining kimyoviy mohiyatini aniqlash, fazoviy kimyo bo'yicha organik kimyo fanining rivojiga katta hissa qo'shib kelmoqda.

A.A.Abduvahobov rahbarligida O'rta Osiyo mintaqasida birinchi bo'lib ferromonlar komponentlarining sintez usullari ishlab chiqilgan. Olingen moddalar g'o'za o'simligini zararli hasharotlardan himoya qilishda, ularni o'ziga jalb qiluvchi moslamalar yordamida yo'qtishda, paxta yetishtirishda, uning hosildorligini oshirishda keng qo'llanilgan.

**Akademik M.A.Asqarov** polimerlar kimyosi va texnologiyasi sohasida O'zbekistonda ilmiy mifiktab yaratgan, ko'zga ko'ringan yirik olimdir. Uning ilmiy ishlari aromatik dinaminlarning alifatik ikki asosli kislotalar bilan polikondensatlanish, yangi monomerlarning polimerlanish reaksiyalarini chuqur va har tomonlama o'rganishga, tarkibida azot, kislorod va oltingugurt bo'lgan plastmassalar olishga va ularning xossalari yaxshilashga qaratilgan.

U pardal hosil qiluvchi polimerlar xossalari yig' sanoati chiqindilaridan olingen stabilizatorlar ta'sirida yaxshilash asosidagi ishlarni polimer pardalar va linoleumlar ishlab chiqarishga joriy qilgan.

**Akademik S.Sh.Rashidova** yuqori molekular birikmalar kimiyozi sohasidagi yirik olimadir. Uning ilmiy izlanishlari ma'lum kimiyoiy tuzilishga ega bo'lgan biologik faol polimerlarning sintezi, ko'p qirrali xossaga ega bo'lgan polimerlar asosidagi dorilar, o'simliklarni himoya qilish vositalarini tanlashning nazariy asoslari ni ishlab chiqishga va ularni amaliyatga qo'llashga bag'ishlangan. Bu tadqiqotlar asosida «Kovilon» deb nomlangan plazma o'rnnini bosuvchi dori va chigit, sholi va qandlavlagi urug'larini ekishdan oldin polimer moddalar bilan kapsullash masalalari o'rganilgan. Fransiya, Shvetsiya olimlari bilan ilmiy hamkorlik amalgalash oshirilgan.

Organik kimyo fani biologiya, tibbiyot, agrokimyo, o'simlik moddalari kimiyozi, o'simlikni muhofaza qilish va boshqa fanlar hamkorligida rivojlanmoqda.

Organik kimyo fanining yutuqlaridan xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida foydalilanmoqda. Kimyo sanoati plastmassalar, organik shisha va sintetik tolalarmi sintez qilish sanoatining, avtomobilsozlik, samolyotsozlik, elektr, radio, to'qimachilik kabi tarmoqlarining rivojlanishiga katta hissa qo'shamoqda. Sintetik materiallar o'zining chidamliligi jihatidan metall va boshqa qurilish materiallaridan ustun va arzon turadi. Qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini oshirishda, zararkunanda va turli kasalliklarga qarshi kurashishda sanoatda olinayotgan organik preparatlardan insektitsid, fungitsid, gerbitsid va defoliant xususiyatiga ega bo'lgan moddalar katta rol o'yinamoqda.

### **Organik moddalarning tuzilish nazariyasi**

XIX asrning boshlari organik kimyoda minglab yangi organik moddalarning kashf etilishi va sintez qilinish davri bo'ldi, ammo ularda sodir bo'layotgan kimiyoiy o'zgarishlami va qonuniyatlarini asoslab beruvchi nazariyaning yo'qligi organik kimyoning yanada rivojlanishiga to'sqinlik qildi.


Mashhur nemis kimyogari Y.Libix o'zining shogirdlari bilan

achchiq bodom mag'zidan benzoy aldegid  $C_6H_5-C=O$ , benzoy

kislota  $C_6H_5COOH$  va undan benzoil xlorid  $C_6H_5-C(=O)Cl$  olishga

muvaffaq bo‘lib, ularning tarkibida o‘zgarmaydigan guruh  $C_6H_5CO$  borligini aniqladi. Ko‘pchilik kimyogarlar organik moddalar reaksiyaga kirishib boshqa moddalarga aylanganda ularning molekulalarida atomlarning ma’lum bir guruhlari o‘zgarmasligini kuzatdilar.


Masalan:



Bu reaksiyada  $\text{CH}_3$  guruhi o‘zgarmay qoladi. Bunday atomlar guruhini radikallar deyilib, organik moddalar radikallardan tashkil topgan degan fikr paydo bo‘ldi. Shu tufayli, o‘z kuzatishlariga asoslangan holda 1815- yilda L.Gey-Lyussak, 1823- yilda F.Veler va 1832- yilda Y.Libix organik moddalarni bir sistemaga solish maqsadida radikallar nazariyasini ko‘tarib chiqdilar.

Bu nazariyaga ko'ra, radikallar organik moddalarda atom vazifasini bajarib, hech qanday kimyoviy o'zgarishlarga uchramaydi. O'sha vaqtdagi organik birikmalarning radikallariga qarab guruhlarga ajratilishi kimyoning qisman rivojlanishiga yo'l ochib berdi. Ammo radikallar nazariyasi uzoqqa bormadi, chunki uning tarafdorlari radikallarni molekula tuzilishidagi tutgan o'mini isbotlay olmadilar. Keyinchalik, radikallardagi vodorod atomlarining reaksiyaga kirishishi mumkinligi isbotlanganidan so'ng bu nazariya o'z mavqeini butunlay yo'qotdi.


Masalan, sırka kislotaga xlor ta'sir ettirilsa, metil radikalidagi vodorod atomlari birin-ketin xlor atomiga o'rın almashgan, hosil bo'lgan moddalarda kislota xususiyati saqlanib qolgan:




Organik kimyoning rivojlanishi bilan 1840—1854- yillarda radikallar nazariyasi o‘rniga tiplar nazariyasi vujudga keldi. Bu nazariyaning tarafdorlari J.Dyuma, Sh.Jerar, A.Loran, A.Kekule va boshqalar organik moddalarning tuzilishini tajriba yo‘li bilan aniqlab bo‘lmaydi, ularni faqat molekulalarning reaksiya natijasida o‘zgaradigan qismiga qarab tiplarga bo‘lish mumkin,

deb hisobladilar. Tiplar nazariyasiga ko'ra organik moddalarning tuzilishi va xossalari anorganik birikmalarниغا о'xshash bo'lib, ulardagи bir yoki bir necha vodorod atomi o'rniga radikallar alma-shinishidan organik moddalar hosil bo'ladi. Bunda organik birikmalar quyidagi beshta tipga: vodorod, suv, vodorod xlorid, ammiak va metan tipiga bo'linadi:


1) vodorod tipi — bunda vodorod molekulasidagi bir yoki ikki vodorod atomi o'rniga radikallar almashgan bo'ladi:




2) suv tipi — suv inolekulasidagi bitta yoki ikkita vodorod atomi o'rniga har xil radikallarning almashinishi tufayli spirt, efir, kislota, kislota angidridi va boshqa kislordli birikmalar hosil bo'ladi:




3) vodorod xlorid tipi — bu tip orqali galogenli organik birikmalarning hosil bo'lishi va tuzilishi ifodalananadi:



4) ammiak tipi — bu tip orqali aminlar, aminokislotalar va boshqa birikmalar sistemaga solingan, tuzilishi tushuntirilgan:



5) metan tipi — bu tipni 1858- yili nemis kimyogari A.Kekule taklif qilib, metanning vodorod atomlari o'rniga atomlar guruhi almashinishidan uglevodorodlar, spirtlar, galogenli va boshqa birikmalar hosil bo'lishi ko'rsatiladi:



Tiplar nazariyasi organik kimyoning rivojlanishiga ancha katta hissa qo'shdi. Ammo molekulasida har xil atomlar guruhi bor yuqori molekular organik birikmalarning tuzilishini tiplar nazariyasi asosida tushuntirish ancha qiyin bo'lib qoldi.

### A.M.Butlerovning moddalarning kimyoviy tuzilish nazariyasi

XIX asrning 60-yillariga kelib, molekular massani aniqlashda atom massasining ishlatalishi, atomlarning molekulada o'zaro bog'langan holda bo'lishining aniqlanishi ayniqsa, shotland kimyogari A.Kuper va nemis kimyogari A.Kekulelarning organik birikmalarda uglerod elementi doimo to'rt valentli bo'lishini kashf etganliklari yangi, to'g'ri nazariyaning paydo bo'lishiga zamin tayyorlaydi.


Organik kimyodagi yig'ilgan faktlarga va o'zining boy tajribasiga asoslangan holda rus olimi Aleksandr Mixaylovich Butlerov 1861- yilda organik birikmalarning kimyoviy tuzilish nazariyasini yaratdi.

Bu nazariya atom va molekulalar moddalarning real mavjud bo'lgan qismidir, atomlar molekulada ma'lum tartibda birikkan va ularning birikish tartibini kimyoviy usullar yordamida isbotlash mumkin, degan xulosaga asoslanadi.

A.M.Butlerov moddalarning xususiyatlarini o'rganish bilan ularning tuzilishini aniqlash va ayniqsa, moddaning tuzilishiga qarab xossalarni aytib berish mumkinligini isbotladi.

1823-yilda nemis kimyogari Y.Libix tomonidan aniqlangan organik moddalarda izomeriya hodisasining sabablarini Butlerov-

ning nazariyasi to'g'ri tushuntirib berdi. Butlerov molekulaning kimyoviy xossalari molekuladagi atomlarning o'zaro joylashishiga bog'liq ekanligini isbotlab berdi. Masalan:



Metanda, metil spiritda to'rttadan vodorod bor, ammo metil spiritdagi gidroksil guruh vodorodi qolgan vodorodlarga nisbatan reaksiyaga tez kirishadi. Metil spiritdagi gidroksil guruh vodorodi chumoli kislotadagi gidroksil guruh vodorodidan farq qiladi. Masalan, bu ikkala moddaga ishqor ta'sir ettirilsa, faqat chumoli kislotaning gidroksil guruh vodorodi reaksiyaga kirishadi.

Bunga sabab, chumoli kislotada gidroksil guruh karbonil guruh  $> \text{C} = \text{O}$  bilan bog'langan va u molekulaga kislota xossalarni beradi.

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, Butlerovning kimyoviy tuzilish nazariyاسining asosiy holatlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

- Organik modda molekulalari haqiqiy mayda zarracha bo'lib, aniq kimyoviy tuzilishga ega, ya'ni molekulalarni tashkil qiluvchi atomlar bir-biri bilan ma'lum izchillikda bog'lanib doimo bir-biriga ta'sir qilib turadi.

- Moddalarning fizik va kimyoviy xossalari molekulalarning tarkibi hamda ularning tuzilishiga bog'liq. Molekulasining tarkibi, molekulyar massasi bir xil bo'lib, ammo kimyoviy tuzilishi va xossalari har xil bo'lgan moddalar izomerlar deyiladi.

- Kimyoviy tuzilish — molekuladagi atomlarning birikish tartibidir. Har bir molekula o'ziga xos yagona kimyoviy tuzilishga ega.

- Organik moddalarning kimyoviy tuzilishi ularning xossalarni o'rganish va klassik kimyoviy reaksiyalar orqali aniq tuzilishga ega bo'lgan moddalar hosil qilish orqali aniqlanadi. Molekulaning tuzilishi shu molekulani sintez qilish yo'li bilan isbotlanadi.

- Organik moddalarda uglerod elementi doimo to'rt valentli bo'lib, boshqa elementlar bilan birikishdan tashqari, o'zaro birikib to'g'ri, tarmoqlangan va halqasimon zanjirlar hosil qila oladi.

|A.M.Butlerovning tuzilish nazariyasi organik kimyo fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

D.I.Mendeleyevning elementlar davriy sistemasi yangi elementlar borligini oldindan aytishga imkon bergan bo'lsa, A.M.Butlerovning tuzilish nazariyasi hali topilmagan yangi moddalarning borligini aytib berib, ularning tuzilishini ko'rsatib berdi hamda uning shu kabilar bir nechtasini sintez qilib olishga muyassar bo'ldi.

### *Savol va mashqlar*

1. Organik kimyo fani nimalarni o'rgatadi?
2. Organik kimyo fani umumiyligi kimyo tarkibidan qachon va nima sabablar bo'lib mustaqil fan sifatida ajrab chiqdi?
3. A.M.Butlerovning organik moddalarning tuzilish nazariyasi vujudga kelguncha organik kimyoning rivojlanishidagi qiyinchiliklarni tushuntiring.
4. Organik moddalarning anorganik moddalardan tafovutlarini har taraflama izohlab bering.
5. A.M.Butlerovning organik moddalarning tuzilish nazariyasining asosiy holatlari misollar keltirish bilan tushuntiring.
6. A.M.Butlerovning organik moddalarning tuzilish nazariyasi organik kimyo fanini rivojlanishiga qanday nazariy va amaliy hissa qo'shdi?
7. O'zbekistonda kimyo fanini rivojlanishiga o'zlarining katta hissalarini qo'shgan, Mehnat Qahramoni unvoniga muyassar bo'lgan o'zbek kimyogarlari S.Y.Yunusov va A.S.Sodiqovlarning hayoti va ijodi haqida so'zlab bering.

## **ORGANIK MODDALARNING ASOSIY MANBALARI**

Tabiiy gaz, neft, toshko'mir, qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi mahsulotlari organik birikmalarini olishda asosiy xomashyo manbalaridan hisoblanadi.

Prezidentimiz I.A.Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» nomli asarining geografik-strategik imkoniyatlar va tabiiy xomashyo resurslari bo'limida O'zbekiston noyob tabiiy xomashyo imkoniyatlariga ega ekanligi tahlil qilinib, shunday deyilgan:

«O'zbekiston o'z yer osti boyliklari bilan haqli suratda faxrlanadi — bu yerda mashhur Mendeleyev davriy sistemasining

deyarli barcha elementlari topilgan. Hozirga qadar 2,7 mingdan ziyod turli foydali qazilma konlari va ma'dan namoyon bo'lgan istiqbolli joylar aniqlangan»<sup>1</sup>.

**Tabiiy gaz.** Tabiiy gaz sanoati yildan-yilga rivojlanib bormoqda. Qidirib topilgan Ustyurt, Buxoro—Xiva, Janubi-g'arbiy Hisor, Surxondaryo va Farg'onan mintaqalaridagi gaz konlaridagi gazning hajmi 2 trillion kubometrga ega. Respublikamizda ikkita gazni payta ishlaydigan Sho'rtan va Muborak zavodlari ishlab turibdi.

Gazdan polimer materiallar — polietilen, polivinilklorid, nitril akril kislota va undan nitron tolosi olish mumkin.


O'zbekistonda gaz sanoatining rivojlanishi juda ko'p shahar va qishloqlarni gazlashtirish, o'nlab sanoat korxonalarini gazga ko'chirish, bir necha yirik issiqlik elektr stansiyalarini qurish imkonini berdi. O'zbekiston gazi gaz quvurlari orqali qo'shni Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston respublikalariga va boshqa MDH davlatlariga yetkazib berilmoqda.

Tabiiy gazning 94—98 % ini metan, 2—6 % ini etan, propan va butan tashkil etadi. U eng yaxshi yoqilg'i, to'liq yonadi va juda katta issiqlik beradi (45,990—51,170 kJ/kg).




Boshqa yog'ilg'ilardan farq qiladi (toshko'mir 29,270—33,450 kJ/kg; kerosin 41,800 kJ/kg). Hozirgi vaqtida tabiiy gaz kimyo sanoatida har xil sintetik va organik birikmalar olishda asosiy xomashyo hisoblanadi.


Metanni 1500 °C gacha qizdirib, asetilen va vodorod olinadi:



Elektrokimyokombinatlarda asetilenden sirka aldegid, benzol, sirka kislota, etil spirit, kauchuk va boshqa moddalar, vodoroddan esa ammiak, nitrat kislota, kaliy, natriy va ammoniy selitralar olinadi. Metanni suv bilan 800 °C gacha qizdirib is gazi va vodorod olinadi. Bu aralashma sintez gaz deyiladi:




Sanoatda metil spirit sintez gazdan olinadi:



<sup>1</sup> I. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: «O'zbekiston», 1997. 227—236- betlar.

Tabiiy gazni oksidlab formaldegid olinadi:



Formaldegidga fenol ta'sir ettirib, fenol-formaldegid smola hosil qilinadi. Bu smoladan polimer materiallar olishda foydalaniladi.


Tabiiy gazdan Navoiy va Chirchiq elektrokimyo kombinatlarida qishloq xo'jaligi uchun eng zarur bo'lgan organik o'g'itlar (karbamid-mochevina) olinadi.

**Neft.** Neft to'q jigarrang moysimon suyuqlik bo'lib, uglevodorodlarning asosiy manbayidir. Neft tarkibidagi to'yingan, karbosilik va aromatik uglevodorodlarning miqdori qazib olinadigan joyiga qarab har xil bo'ladi.

Respublikamizning Farg'ona, Andijon, Namangan, Buxoro, Surxondaryo, Qashqadaryo va boshqa mintaqalarida 160 dan ortiq neft konlari mavjud.

Yildan-yilga avtomobil va aviatsiya transportini ishlab chiqarish sanoati rivojlanmoqda. Bu transportlarni benzin va kerosin yonilg'ilari bilan ta'minlash uchun neftni qayta ishlash usullarini yaratish kerak edi.

Neftni qayta ishlashda kreking usuli qo'llanib benzin mahsuloti oshirildi. Kreking so'zi inglizcha bo'lib «parchalash» demakdir. Demak, bu usulda yuqori molekula uglevodorodlarni kichik molekulalarga parchalab olinadi:



Sanoatda termik kreking va katalitik kreking usullari ishlatiladi.

Termik krekinglashda yuqori molekulali uglevodorodlar 450 °C dan yuqori temperaturada va yuqori bosim ostida parchalanadi.

Katalitik krekinglashda esa uglevodorodlarni parchalash jarayoni alumosilikat katalizatorlari ishtirokida 450 °C dan pastroq temperaturada va atmosfera bosimiga yaqin bosim ostida olib boriladi.

Bu usullar bilan benzin miqdori 80% gacha oshiriladi.

Neftni haydash natijasida (150 °C gacha — birinchi fraksiya) gazolinni qayta haydab petroleyn efir, aviatsion benzin, birinchi va ikkinchi sort benzinlar olinadi. Ikkinchi fraksiya (150—300 °C gacha) — har xil tarkibiga ega bo'lgan kerosin olinadi.

Uchinchi fraksiya — 300 °C dan yuqori temperaturada mazut olinadi. Mazutni qayta ishlab birinchi navbatda solyar moyi, so'ngra surkov moyi va qoldig'idan gudron moddasi olinadi. Solyar moyi yonilg'i sifatida va vazelin moyi tayyorlashda ishlatiladi. Surkov moyidan mashina qismlarini va mexanizmlarini moylash uchun moylar olinadi. Gudron yo'llarni asfalt qilishda ishlatiladi.

Buxoro neftni qayta ishslash zavodining ishga tushirilishi respublikamizning neft mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini to'la qondirishga imkon yaratdi.

Neftni qayta ishslash jarayonida ko'p miqdorda etilen, propilen, butilen, amilenlar hosil bo'ladi. Ulardan sintetik materiallar — plastmassalar, kauchuklar, spirtlar, aldegidlar, kislotalar va yuvuvchi moddalar olinadi.

**Toshko'mir.** O'zbekiston katta ko'mir zaxiralari ega. Uning geologik zaxiralari bo'yicha O'rta Osiyoda ikkinchi o'rinda turadi. O'zbekistonda ko'mir — Angren, Shargun va Boysun konlariда qazib chiqariladi. Ularning umumiyligi zaxirasi — 2 milliard tonna.

Toshko'mirni quruq haydab uning smolasi olinadi. Toshko'mir smolasi tarkibida 400 dan ortiq aromatik va geterosiklik birlitmalar bo'ladi. Undagi organik birikmalar fraksiyalarga bo'lib ajratiladi.

Birinchi fraksiya (yengil moy fraksiyasi 170 °C gacha) — benzol, toluol, ksilol, tiofen, uglerod sulfid, piridin va boshqa moddalar olinadi.

Ikkinci fraksiya (fenol fraksiyasi 170—210 °C da) — fenol, krezzollar, naftalin, inden, kumaron, tarkibida azot va oltingugur bo'lgan moddalar olinadi.

Uchinchi fraksiya (naftalin fraksiyasi 210—230 °C da) — naftalin, metilnaftalin, tionaften, indol va boshqa moddalar olinadi.

To'rtinchi fraksiya (yutib olish fraksiyasi 230—270 °C da) — naftalining hosilalari (asenaften, fluoren, indol va boshqa moddalar) olinadi.

Beshinchi fraksiya (antrasen fraksiyasi 270—360 °C da) — antratsen, fenantren, karbazol, parafin va boshqa moddalar olinadi.

Oltinchi fraksiya (toshko'mir pek fraksiyasi 360 °C dan yuqori temperaturada) — parafinlar, piren, xrizen va boshqa moddalar olinadi.

Bu olingan moddalarning ko'pi va ular asosida olingan preparatlar tibbiyotda va qishloq xo'jaligidagi keng ishlatiladi.

**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari.** Qishloq xo'jaligida yetishtiriladigan jami mahsulotlar organik birikmalarning asosiy manbayi hisoblanadi.

O'zbekiston paxtani, xom ipakni, lub ekinlarini, qorako'lni va guruchni yetishtirishda dunyoda yetakchi o'rnlarda turadi.

Paxta tolasining 90—92 % ini kletchatka (selluloza) moddasi, donlarning 65—75 % ini kraxmal moddasi, qand lavlagining asosini saxaroza moddalari tashkil etadi. Yetishtirilayotgan poliz ekinlari, bog'dorchilik mevalari organik kislotalar, uglevodlar, vitaminlar va boshqa organik birikmalarni saqlaydi. Masalan, olmada olma kislota, limonda limon kislota bilan limonen terpen uglevodorodi, uzumda — glukoza, uzum kislota va boshqa moddalar bor.

O'rmon xo'jaligi mahsuloti bo'lgan daraxtlarni yog' och qismini maydalab quruq haydash natijasida metil spirt (yog' och spirt), aseton, sırka kislota, fenollar, furfurol va boshqa organik birikmalar olinadi. O'rmon atroflarida bitmas-tuganmas boylikka ega bo'lgan shifobaxsh o'simliklar o'sadi. Ularning bargi, guli, mevasi, urug'i, po'stlog'i va ildizlaridan dori-darmon sifatida foydalanishdan tashqari, u biologik faol organik birikmalar — efir moylari, yog'lar, oqsillar, uglevodlar, terpenlar, glikozidlar, alkaloidlar, vitaminlar ajratib olinadi.

Organik modda manbalariga hayvonot ołami, suv osti o'simliklari va hayvonlari kiradi. Ulardan oqsillar, vitaminlar, azot va galoidli organik moddalar olinadi.

### ***Bilasizmi?***


— O'zbekistonning tabiiy gaz, neft, ko'mir konlari va qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi mahsulotlari organik birikmalarning asosiy manbalari hisoblanadi.

— Hozirda ochilgan tabiiy gaz konlaridagi gazning hajmi 2 trillion kubometrga ega.

### ***Savol va mashqlar***

1. O'zbekistonning qaysi viloyatlarida tabiiy gaz konlari joylashgan va ularni qayta ishlab, xalq xo'jaligida ishlatalish uchun qanday mahsulotlar va materiallar olinishini gapirting.
2. Tabiiy gaz boshqa yoqilg'ilarga qaraganda va xomashyo sifatida kimyo sanoatida ishlatalishi bilan qanday afzalliklarga egaligini tushuntiring.

3. Quyidagi o'zgarishlarni amalga oshirish reaksiya tenglamalarini yozing:



4. Tabiiy gaz neftning yo'ldosh gazlaridan nima bilan farq qiladi?
5. O'zbekistonda gaz, neft va toshko'mirlar qanday zaxiralarga ega ekanligini va ularni qazib chiqarishni so'zlab bering.
6. Neftni qayta ishlab olinadigan mahsulotlarni va ularning ichida qaysi birlari eng muhim mahsulot ekanligini ko'rsating.
7. Nima uchun neft mahsulotlarini neftni to'g'ridan-to'g'ri haydar olmasdan, uni termik kreking va katalitik kreking etib olinadi?
8. Termik kreking, katalitik krekingdan nima bilan farqlanadi va olinayotgan mahsulotning qaysi qismida farq qiladi?
9. Koks toshko'mirdan qanday olinadi va u nima maqsadda ishlatiladi?
10. Toshko'mir smolasini qayta ishlashda qanday aromatik uglevodorodlar olinadi va ularni ichida qaysi biri yuqori foiz bilan ajralib chiqadi?
11. 0,5 litr propanni yoqish uchun necha litr havo kerak bo'ladi?
12. 2 mol izooktan yonganda, necha litr  $\text{CO}_2$  hosil bo'ladi?

### **ORGANIK MODDALARNI OLISH, AJRATISH, TOZALASH, TAQQOSLASH VA TUZILISH FORMULARININI ANIQLASH**

Har bir talaba organik moddalarni olish, ajratish, tozalash ishlarni bajarishdan avval, laboratoriya da ishlash qoidalarini, ishlatiladigan reaktivlarning va erituvchilarining xossalarni yaxshi bilishi kerak, bu esa ish jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan ko'ngilsiz hodisalarining oldini oladi.

Masalan, dietil efir, metil spirt, etil spirt, benzol, toluol, aseton, benzin, petroleyni efir va hokazolar oson uchuvchan hamda tez yonuvchan erituvchilar. Bu moddalar bilan ishlashda asboblarning to'liq yig'ilishiga, alanga, ochiq plitka bo'lmasligiga va ishslash xonasida chekmaslikka ahamiyat berish kerak, aks holda yong'in chiqishi mumkin. Agar yong'in chiqib qolsa, alanga manbalari o'chiriladi, yong'in kichik bo'lsa jun to'shama bilan yopib o'chiriladi, yong'in kattalashsa o't o'chirish asboblardan foydalanib tezda o't o'chirish komandasiga xabar beriladi. Biror talaba kuyib qolsa, kuygan joyni tezda spirt yoki kaliy permanganat eritmasi

bilan yuvib, so'ngra kuyganda surtiladigan mazdan surtiladi va tez yordam mashinasi chaqiriladi. Talaba reaksiya uchun olingan reaktivlarning xossalari bilish bilan birga reaksiyada hosil bo'ladigan oraliq mahsulotlarni, shuningdek so'nggi mahsulotlarning xususiyatlarini ham bilgani ma'qul.

Bu bilan tajriba o'tkazayotgan talaba, birinchidan o'zining, ikkinchidan atrofidagilarning sog'ligini va muhitni ifloslanishdan saqlaydi.

Organik moddalarni sintez qilishda ishlatiladigan moddalarning ko'pi zaharli. Masalan, metanol, piridin, dioksan, tetragidrofuran, akrilonitril, anilin, benzol, xlorangidridlar, vodorod sulfid, simob, brom va boshqalar.

Ayniqsa, konsentrangan kislotalar, ishqoriy metallar, ayrim organik moddalar ishlash vaqtida bosimni yuqori va past qilinishi natijasida portlashi mumkin. Shuning uchun tajriba vaqtida himoya ko'zognagi taqilib, rezina qo'lqop va xalat kiyiladi, organik shishadan yasalgan himoya ekrani tushirib qo'yiladi. Agar kuchli portlash natijasida badanga kislota sachrasa, o'sha yer dastlab suv bilan, so'ngra sodaning 3 % li eritmasi bilan yuviladi, ishqor sachranda esa avval suv bilan, so'ngra sirkalari kislotaning 1 % li eritmasi bilan yuviladi.

Shunday qilib, student ish boshlashdan avval xalat kiyib, suv, elektr energiyasi va gaz borligini tekshirib, mo'rili shkafning ishlayotganligiga, yig'ilgan asbobning to'g'riligiga ishonch hosil qilgandan so'ng tajriba boshlashi kerak.


Organik birikmalar tabiatda doimo harakatda ekanligini va bir shakldan ikkinchi shaklga o'tib turishini tushungan holda, ularning kimyoiy o'zgarishlarini boshqaruvchi qonunlarni o'rganish va bilish lozim. Buning uchun organik moddalarni olish va tozalash usullarini o'rganish kerak.

Organik birikmalar asosan ikki xil usul bilan olinadi.

Birinchisi, tabiatda (o'simlik, hayvonot olamida va hokazo) to'plangan tayyor organik birikmalarni ekstraksiya qilish yo'li bilan olinadi.

Ikkinchisi, sintez yo'li bilan, bunda ikki yoki undan ortiq ma'lum moddalarni qo'shib yangi organik birikmalar olinadi.

Yuqoridagi ikki usulda organik birikmalar aralashma holda ajratib olinadi. So'ngra ularni sof holda ajratib olish uchun quyidagi usullardan foydalilanildi.



**1- rasm.** Atmosfera bosimida oddiy haydash asbobi.

**Haydash.** Organik moddalarini ajratib olishda va tozalashda haydash usuli keng qo'llaniladi. Bu usul qaynash temperaturasi turlicha bo'lgan suyuq moddalar aralashmasini bir-biridan ajratishda foydalaniadi. Haydash ikki xil sharoitda — oddiy sharoitda va past bosimda, ya'ni vakuumda olib boriladi. Suyuq moddalar aralashmasi qaynash temperaturasida o'zgarmaydigan va parchalanmaydigan bo'lsa

birinchi usul qo'llaniladi. Qaynash temperaturasigacha qizdirilganda parchalanib, o'zgarib ketadigan suyuq moddalar aralashmasini tarkibiy qismlarga ajratishda vakuumda haydash usulidan foydalilaniladi. Bosim qancha kam bo'lsa, organik moddalar shuncha past temperaturada qaynaydi. Haydash uchun ishlatiladigan asbob (1- rasm) yumaloq tubli kolba — Vyurs kolbasi, termometr, sovutgich, forshtos (alonj) va yig'gich kolbadan iborat.

Agar aralashmadagi suyuq moddalarning qaynash temperaturasi bir-biriga juda yaqin bo'lsa, u holda qo'shimcha deflegmator yoki rektifikatsion kolonkalardan foydalilaniladi.

Haydashning yana bir usuli suv bug'i bilan haydashdir. Bu usulda maxsus qaynatgichdan chiqayotgan suv bug'i shisha naycha orqali modda aralashmasi solingen kolbadan o'tkaziladi, bunda suv bug'i o'zi bilan ayrim moddalarni olib chiqadi va sovutgichdan kondensatlanib, yig'gich kolbaga yig'iladi. Bu usul kimyo sanoatida o'simliklardan efir moylarini, ko'mir smolasidan har xil mahsulotlarni va boshqa organik birikmalarni sof holda ajratib olishda keng foydalilaniladi.

**Qayta kristallahsh.** Bu usul qattiq moddani qaynoq erituvchida eritib, so'ngra sovutilganda kristallar hosil bo'lishiga asoslangan. Masalan, bir necha qattiq moddalar aralashmasini qaynoq erituvchida eritib so'ngra sovitilsa, hosil bo'lgan eritma qaysi modda uchun o'ta to'yingan eritma hisoblansa, shu modda kristallga tushadi. Har qanday organik birikma ma'lum bir erituvchida yaxshi eriydi, kristallarning shakli ham o'ziga xos bo'ladi.


## *Ehtiyyot bo‘ling!*

- 1) Dietil efir, metil va etil spirtlar, benzol, aseton, benzin va petroliy efirlar oson uchuvchan va tez yonuvchan erituvchilardir.
- 2) Konsentrangan kislotalar, ishqoriy metallar va ayrim moddalar ishlash vaqtida bosimni yuqori va past qilinishi natijasida portlashi mumkin.
- 3) Metanol, piridin, dioksan, anilin, benzol, vodorod sulfid, simob va bromlar zaharli moddalar hisoblanadi.

**Sublimatsiya.** Qattiq moddaning qizdirilganda suyuqlanmay gaz holatiga o‘tib yana haydash asbobining sovitilayotgan qismida kondensatlanib kristallanish jarayoniga *sublimatsiya* deyiladi. Organik moddalarni tozlashaning bu usuli kristallantirish yo‘li bilan tozalanishi qiyin bo‘lgan moddalarni tozalashda qo‘l keladi. Bunday moddalarga benzoy kislota, naftalin, kamforalar misol bo‘la oladi. Ko‘p hollarda uchuvchan moddalarni ulardagagi uchishi qiyin bo‘lgan aralashmalardan tozalash uchun qiyin va uzoq davom etadigan kristallantirish o‘rniga bir marta quruq haydash kifoyadir. Bu usul bilan moddalarni tozalashning afzalligi shundaki, olingen modda juda toza bo‘ladi. Agar modda sekin uchuvchan bo‘lsa, quruq haydashni tezlatish uchun u vakuumda olib boriladi.

**Xromatografiya.** Moddalarning sifat analizida va sof holda ajratib olishda qo‘llaniladigan xromatografiya usullaridan biri qog‘ozda taqsimlanish xromatografiyasidir. Xromatografiya usulini birinchi marta 1906- yilda rus olimi M.S.Svet kashf etgani.

Taqsimlanish xromatografiyasida moddalarning tozaligi va ularning nechta birikmadan tashkil topganligi aniqlanadi. Bu usul maxsus tayyorlangan filtr qog‘ozdan ma’lum uzunlik va kenglikda qirqib olinadi. So‘ngra tekshirilayotgan modda eritmasidan qog‘ozning bir tomoniga ingichka kapillar orqali bir nechta tomchi tomiziladi va qog‘ozning eritma tomizilgan tomoni maxsus kameradagi sistemaga (erituvchiga) botirib qo‘yiladi. Erituvchi qog‘ozga shimilib, moddani start nuqtasidan suradi va chegaraga yetgandan so‘ng xromatogramma — qog‘oz kameradan olinib quritiladi, so‘ngra maxsus rang beruvchi reaktiv bilan ishlanadi, qog‘ozda surilib chiqqan moddalar — dog‘lar hosil qilib bo‘yaladi. Bu moddalar dog‘larning qiymati moddalarning taqsimlanish *Rf* qiymati bilan o‘lchanadi (2- rasm).



2- rasm. Qog'oz xromatogramma.

O'lchamdag'i ( $8 \times 15$ ,  $15 \times 20$  sm va hokazo) shisha plastinkalarda yupqa qatlama gega bo'lgan adsorbentlar (aluminiy oksid, silikagel, selluloza, poliamid va hokazo) da olib boriladi. Bu usulning afzalligi 10—30 minut vaqt ichida moddaning tozaligini aniqlash, sof holda ajratib olish va moddalarning xossalariiga qarab xohlagan adsorbentlarni ishlatish mumkin. Bu usul bilan moddalarni faqat aniqlash emas, balki aralashmadan kamroq miqdorda toza individual modda ajratib olish ham mumkin.

Keyingi vaqtarda yuqoridagi usullar bilan bir qatorda gaz suyuqlik xromatografiya usuli ham keng qo'llanilmoqda.

Yuqorida aytib o'tilgan usullarda sof holda ajratilgan moddalarning tozaligi birinchi navbatda fizik konstantalarni o'rGANISH bilan aniqlanadi.

Fizik konstantalar (suyuqlanish, qaynash temperaturasi, nisbiy solishtirma massasi, sindirish ko'rsatkichi va hokazo) moddalarni identifikasiyalashda va ularning tuzilishini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

**Suyuqlanish temperaturasi.** Moddaning qattiq holatdan suyuq holatga (fazaga) o'tish vaqtidagi temperaturasi suyuqlanish temperaturasi deb ataladi.

Moddalarning ingichka shisha kapillarda suyuqlanish temperaturasini aniqlash eng qulay va ko'p qo'llaniladigan usul bo'lib, bunda juda oz miqdorda faqat bir necha milligramm modda sarf bo'ladi.

Moddalarning  $Rf$  qiymati start chizig'idan to dog' markazigacha bo'lgan masofaning ( $x$ ) nuqtadan to front chegara-sigacha bo'lgan masofa ( $y$ ) ga nisbatiga teng:

$$Rf = \frac{x}{y}.$$

Rus olimlaridan N.A.Izmaylov va M.S.Shrayberlar birinchi bo'lib yupqa qatlamlari xromatografiyanı taklif etdilar. Bu usul qog'ozdag'i xromatografiyaga o'xshashdir. Bunda moddalarning xromatografiyasi turli

Modda solingan kapillar naycha rezina halqa yordamida termometrga shunday biriktiriladiki, bunda modda termometrning simobli sharchasi bilan baravar tursin. Tele asbobida yoki mis — latundan yasalgan maxsus metall bloklarda aniqlanadi.

Toza modda juda kichik temperatura oralig'ida ( $0,5-1^{\circ}\text{C}$ ) suyuqlanadi. Ba'zi organik moddalar parchalanish bilan suyuqlanadi, bunda modda qorayib ketadi, ba'zida tuz pufakchalar hosil bo'ladi. Agar modda tarkibida ozroq aralashma bo'lsa, ya'ni modda toza bo'lmasa, uning suyuqlanish temperaturasi pasayib ketadi. Ko'p hollarda har xil moddalar bir xil yoki bir-biriga yaqin temperaturalarda suyuqlanishi mumkin. Shuning uchun, faqat moddalarning suyuqlanish temperaturasiga asoslanib tekshirilayotgan modda bilan ma'lum moddaning bir xil ekanligini isbotlash mumkin emas. Isbot uchun aralashmaning suyuqlanish temperaturasi aniqlanadi. Agar bu modda bir xil bo'lmasa, ularning suyuqlanish temperaturasi toza moddaga nisbatan pasayib ketadi, ya'ni depressiya sodir bo'ladi. Agar moddalar bir xil bo'lsa, aralashmaning suyuqlanish temperaturasi dastlabki ma'lum moddaning suyuqlanish temperaturasi bilan bir xil bo'ladi, ya'ni depressiya bermaydi. Shunday qilib, ma'lum va yangi moddalarning suyuqlanish temperaturasi aniqlanadi.

**Qaynash temperaturasi.** Suyuq moddaning to'yigan bug'bosimi atmosfera bosimiga tenglashgandagi temperatura qaynash temperaturasi deyiladi. Suyuqliklarning qaynash temperaturasi moddaning molekular massasi, tarkibi, tuzilish va bosimiga bog'liq bo'ladi. Bosim kamayishi bilan suyuqlikning qaynash temperaturasi ham pasayadi.

Suyuqliklarning qaynash temperurasini aniqlashda oddiy haydash asboblaridan foydalilanadi. Bunda termometrning simobli uchi kolbadan chiqarilgan naycha og'zidan kamida  $0,5$  sm pastroqda joylashtiriladi. Suyuq modda isitilganda uning bug'lari kolbaning yuqori qismiga ko'tarilib, termometrning simob ustuni yuqoriga ko'tariladi va temperatura moddaning qaynash temperurasiga yetganda termometrning simob ustuni o'zgarmaydi. Termometrning ana shu ko'rsatkichi ayni suyuqlikning qaynash temperaturasi deyiladi.

Agar haydalayotgan modda toza bo'lsa, haydash vaqtida termometrning simobli ko'rsatkichik o'zgarmaydi.

**Nisbiy zichlik.** Bu konstanta suyuqlik moddalar izomerlari aralashmasini identifikatsiya qilish hamda molekulyar refraksiyani hisoblash uchun, ayniqsa muhimdir.

Moddaning zichligi uning massasining hajmiga nisbati bilan o'chanadi:

$$d = \frac{m}{V},$$

bunda:  $m$  — moddaning massasi, g hisobida;  $V$  — moddaning hajmi,  $\text{sm}^3$  hisobida.

Moddaning nisbiy zichligi ( $d$ )  $4^\circ\text{C}$  dagi suvning massasiga nisbatan aniqlanadi. Moddaning nisbiy zichligi temperaturaga bog'liq. Shuning uchun moddalarni nisbiy zichligi ko'rsatilganda bu zichlik qanday temperaturada aniqlanganligini ham ko'rsatish kerak. Odatda nisbiy zichlik  $15^\circ\text{C}$  yoki  $20^\circ\text{C}$  da o'chanadi. Masalan,  $d_4^{20}$ , bu  $20^\circ\text{C}$  temperaturada moddaning  $4^\circ\text{C}$  dagi massasiga nisbatan aniqlangan nisbiy zichligini ko'rsatadi.

Suyuqliklarning nisbiy zichligini aniqlashda areometr, piknometr va gidrostatik tarozilardan foydalilanadi.

Suyuqlikning nisbiy zichligi (piknometrda aniqlangan bo'lsa) quyidagi formula bo'yicha topiladi:

$$d = \frac{m_1 - m}{m_2 - m},$$

bu yerda:  $m$  — bo'sh piknometrning massasi, g hisobida,  $m_1$  — zichligi aniqlanishi kerak bo'lgan suyuqlik solingan piknometrning massasi,  $m_2$  — suv solingan piknometrning massasi.

**Optik faollik.** Bu konstanta moddalarning xususiyatlari va tuzilishlarini aniqlashda katta ahamiyatga ega. Suyuq organik moddalardan yoki ularning eritmalaridan qutblangan nur o'tkazilganda qutblanish tekisligini o'ngga yoki chapga burilishi aniqlangan. Ana shunday xususiyatga ega bo'lgan moddalar optik faol moddalar deyiladi. Moddalarning bu xususiyatlari polyarimetr asboblari orqali moddaning optik faolligini ifodalovchi solishtirma buruvchanlik ( $d$ ) aniqlanadi.

Umuman, konsentrasiyasi  $1 \text{ gr}/\text{ml}$  bo'lgan  $1 \text{ dm}$  qalinlikda olinagan optik faol moddaning kuzatilgan burish burchagi solishtirma buruvchanlik deyiladi.

Moddalarning optik faolligi ulardagagi assimetrik markazga bog'liq.

1951-yili kimyogarlardan R.S.Kan, K.Ingold va V.Preloglar assimetrik uglerodli atomlar yoki guruhining katta-kichikligiga va joylanishiga qarab, assimetrik markazni o'ngga yoki chapga buriishini ifodalovchi sistema yaratdilar.

Yuqoridagi fizik konstantalar aniqlangandan so'ng sifat va miqdoriy analiz qilinib, tuzilish aniqlanadi.


### ***E'tibor bering!***

Tajriba boshlashdan oldin xalat kiyib, suv, elektr energiya, gaz borligini tekshirish va mo'rili shkafning ishlashini bilish kerak.


**Sifat analizi.** Bu analizda toza organik moddalar tarkibidagi elementlar (C, N, H, Cl, S va boshqalar) anorganik birikmalarga o'tkazilib, so'ngra anorganik yoki analitik kimyo usullari bilan aniqlanadi.

**Uglerod va vodorodni aniqlash.** Ba'zi birikmalar chinni tigelga solib asta-sekin qizdirilganda oldiniga ko'mirga aylanadi, so'ngra yonib ketadi, bu hol modda tarkibida uglerod elementi borligini ko'rsatadi. Ammo ba'zi organik moddalar qizdirilganda uchib ketadi. Bunday moddalar avval mis (II)-oksid bilan aralashitirilib, so'ngra probirkaga solib qizdiriladi. Bunda uglerod karbonat angidridga, vodorod esa suvgaga aylanadi. Buni aniqlash uchun reaksiyadan chiqayotgan mahsulotlar suvsiz mis sulfat va ohakli suv orqali o'tkaziladi.



Mis sulfatning ko'karib mis kuporosiga ( $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$ ) aylanishi reaksiya mahsulotlarida suv borligini ko'rsatadi:




Ohakli suvning loyqalanishi yoki cho'kma paydo bo'lishi esa karbonat angidrid hosil bo'lganligini ko'rsatadi:




**Azot va oltингugurtни aniqlash.** Organik modda natriy metalining bo'lakchasi bilan qo'shib qattiq qizdirilganda modda tarkibida uglerod, azot va oltингugurt bo'lsa natriy sianid va natriy sulfid hosil bo'ladi. Bularni berlin lazuri va qo'rg'oshin sulfid hosil qilish bilan topish mumkin:






**Galoidlarni aniqlash.** Birikma tarkibidagi galoidlarni tez aniqlashda Beylshteyn usuli keng qo'llaniladi. Buning uchun tekshiriluvchi modda eritmasidan mis to‘riga bir-ikki tomchi tomiziladi va alangaga tutiladi, agar alanga ko‘k-yashil rangga bo‘ysa, bu modda tarkibida galoid borligini ko‘rsatadi. Masalan, xloroform mis (II)-oksid ishtirokida quydagicha yonadi:



Galoidlar Stepanov usuli bo‘yicha ham aniqlanadi. Bu usulda birikmalaming spirtli eritmasi natriy metali bilan qizdiriladi. Hosil bo‘lgan vodorod birikmadan galoidni vodorod galogenid holida saqib chiqaradi. Unga nitrat kislota va kumush nitrat eritmasi qo‘shilsa, kumushning galoidli tuzi — oq cho‘kma hosil bo‘ladi:



**Miqdoriy analiz.** Organik birikmalar tarkibidagi elementlarning miqdorini aniqlash miqdoriy analiz deb ataladi. Elementlarni miqdoriyaniqlashda ikki xil analiz usulidan foydalaniladi. Birinchisi makroanaliz — analiz uchun 0,2—0,5 g gacha modda sarflanadi, ikkinchisi mikroanaliz — analiz uchun 0,001—0,005 g gacha modda sarflanadi. Organik kimyoda, ko‘pincha, mikroanaliz usulidan foydalaniladi, chunki yangi topilgan organik birikma, odatda, juda oz miqdorda bo‘ladi. Elementlarning miqdoriy analizida sifat analizidagi kabi reaksiyalardan foydalaniladi.

**Uglerod va vodorodni aniqlash.** Bu elementlarni miqdoriyaniqlash usulini birinchi bo‘lib nemis kimyogari Y.Libix taklif qilgan. Tarozida tortib olingan birikma mis (II)-oksid bilan aralashtirilib, maxsus shisha naychada qizdiriladi, ajralib chiqadigan suv va karbonat angidridning massasi ma’lum yutgichlar — kalsiy

xlorid va o'yuvchi kaliyning konsentrangan eritmalaridan o'tkaziladi. So'ogra kalsiy xlorid va o'yuvchi kaliy qaytadan tarozida tortiladi va keyingi massasidan oldingi massasi ayirib tashlanib, suv va karbonat angidridning massasi topiladi. Shundan so'ng uglerod bilan vodorodning prosent miqdori aniqlanadi. Masalan, 4,3 m/l modda yondirilganda  $10,2 \text{ mg CO}_2$  va  $1,5 \text{ mg H}_2\text{O}$  hosil bo'ladi, deylik. Karbonat angidrid va suvning massasiga qarab moddalardagi uglerod bilan vodorodning foiz miqdori quyidagicha topiladi:

$$1) \quad 44 - 12 \quad x = \frac{10,2 \cdot 12}{44} = 2,8 \text{ mg}$$

$$10,2 - x$$

$$2) \quad 4,3 - 100 \quad y = \frac{2,8 \cdot 100}{4,3} = 65$$

$$2,8 - y$$

**Azotni aniqlash.** Azotning miqdori Dyuma va Keldal usullari bilan aniqlanadi. Dyuma usulida organik birikmalar mis (II)-oksidga aralashtirib qizdiriladi. Hosil bo'lgan  $\text{CO}_2$ ,  $\text{H}_2\text{O}$  va  $\text{N}_2$  ishqor eritmasi orqali o'tkazilib, azotmerga yuboriladi. Ishqor eritmasiga  $\text{CO}_2$  va  $\text{H}_2\text{O}$  yutiladi. Azotmerda yig'ilgan azotning hajmiga qarab uning miqdori aniqlanadi.

Keldal usulida organik birikma konsentrangan sulfat kislota bilan qaynatiladi. Birikmalarning parchalanishi tufayli undagi azot ammoniy sulfatga aylanadi. Unga ishqor ta'sir ettirib, sof holda chiqayotgan ammiak konsentratsiyasi ma'lum bo'lgan kislotaga ( $\text{HCl}$ ,  $\text{H}_2\text{SO}_4$ ) yuttiladi va u orqali azotning foiz miqdori aniqlanadi.

**Kislorodni aniqlash.** Birinchi usul. Organik birikma C, H, O elementlaridan tashkil topgan bo'lsa, analizda topilgan uglerod bilan vodorodning foiz miqdori yig'indisi aniqlanadi. Masalan, uglerod 69,5 %, vodorod 7,5 % bo'lsa, u holda modda tarkibida

$$69,5 \% + 7,5 \% = 77 \%,$$

$$100 \% - 77 \% = 23 \%$$

kislorod bo'ladi.

Ikkinci usul M.O.Korshun usuli bo'lib, bunda ma'lum massadagi moddani ko'mir bilan aralashtirib shisha naychada qizdiriladi; birikmadagi kislorod uglerod bilan birikib, uglerod (II)-oksid hosil qiladi va yod (V)-oksid orqali o'tkaziladi.

Bunda siqib chiqarilgan yodni tiosulfat bilan titrlab, kislorodning miqdori aniqlanadi.

**Galoidlarni aniqlash.** Tarozida tortib olingan birikma nitrat kislota bilan kumush nitrat ishtirokida qizdiriladi va hosil bo'lgan kumush galoidning foiz miqdori aniqlanadi.

**Moddaning empirik formulasini chiqarish.** Miqdoriy analiz natijasida noma'lum modda 62,21 % va 10,36 % H, 27,43 % O borligi aniqlandi deylik. Bu foiz miqdorlarni atom birligida ifodalash uchun ular shu elementlarning atom massalariga bo'linadi:

$$C = 62,21 : 12,01 = 5,1; \quad H = 10,36 : 1,008 = 10,2;$$
$$O = 27,43 : 16 = 1,7.$$

Atomlar molekulada butun son bo'lganligi uchun bu kattaliklar atomlar miqdorini ko'rsatuvchi eng kichik songa bo'linadi:

$$C = 5,1 : 1,7 = 3; \quad H = 10,2 : 1,7 = 6;$$
$$O = \frac{1,7}{1,7} = 1$$

Demak, noma'lum birikmaning empirik formulasi  $C_3H_6O$ .


**Molekular massani aniqlash.** Birikmaning molekular massasi shu birikmani tashkil qilgan atomlar massalarining yig'indisiga teng.  $C_3H_6O$  formulada 1 atom kislorodga uglerodning 3, vodorodning 6 atomi to'g'ri keladi.  $C_6H_{12}O_2$ ,  $C_{12}H_{24}O_4$  birikmalarda ham elementlarning formulalarini to'g'ri chiqarish uchun ularning molekular massasini aniqlash kerak. Avagadro-Jerar qonuniga muvofiq moddalarning molekular massasi ularning bug' (gaz) holatidagi zichligini vodorod bo'yicha ikki marta ko'paytirilganiga teng:

$$M = 2D.$$


Ayrim moddalar bug'lanmaydi, bunday hollarda moddaning molekular massasi ma'lum erituvchida qaynash temperaturasining oshishi (ebulioskopik) yoki muzlash temperaturasining pasayishiga (krioskopik) qarab aniqlanadi. Hozirgi vaqtida organik moddalarning molekular massasi mass-spektroskopiya yo'li bilan oz modda sarflangan holda tez aniqlanadi.

Shunday qilib, moddalarning molekular massasini to'g'ri aniqlash ularning tuzilishini isbotlashga imkon beradi.

**Organik birikmalarning tuzilishini fizik-kimyoviy usullar bilan aniqlash.** Sof organik moddalarning tuzilishini aniqlash uchun ularning tashqi ko'rinishi, suyuqlanish va qaynash temperaturasi, sindirish ko'rsatkichi xossalaringin asosli, kislotali yoki neytral ekanligi va molekulada qanday funksional guruhlar borligi aniqlanadi. So'ngra hozirgi zamon fizika (spektral) metodlari yordamida birikmalarning UB — ultrabinafsha, IQ — infraqizil, PMR (proton-magnit rezonansi) va mass-spektrometriya spektrlarini o'rganish natijasida birikmalarning tuzilishi isbotlanadi. Shu bilan birga, kimyoviy an'anaviy usullar (oksidlanish, qaytarish, gidroliz va boshqa reaksiyalar) yordamida ham moddalarning tuzilishi o'rganiladi. Masalan,  $C_3H_6O$  formulali birikmalarning tuzilishini aniqlaylik. Birikma nazariy jihatdan quyidagi uch xil tuzilishdan biriga ega bo'lishi kerak:



Shuni aniqlash uchun moddaning spektrlari o'rganiladi.  $C_3H_6O$  moddaning ultrabinafsha (UB) spektrda 380 nm da va infraqizil (IQ) spektrda  $1745\text{ cm}^{-1}$  da maksimum yutilish chiziqlariga ega bo'lishi molekulada aldegid guruhiga xos bo'lgan guruhnинг valentlik tebranishini ko'rsatdi. Mass-spektrlarda moddalarning manbayidan otildi elektronlar oqimi ta'sirida ionlarga yoki zaryadlangan bo'lakchalarga parchalanishi ko'rsatiladi. Yuqorida moddaning spektrida 58 m// (massa birligi)ga ega bo'lgan molekular ion molekular massani ko'rsatadi va u quyidagi 29 m// ga ega bo'lgan ionga parchalanadi:




Shunday ionning bo'lishi aldegidlarga xosdir. Birikmaning proton-magnit rezonansi (PMR) spektrining kuchli maydon qismida uchta chiziqli (triplet) signal uchta metil guruhi protonlarining ta'sirida hosil bo'ladi. Spektrning kuchsiz maydon qismida esa to'rtta chiziqli 2 ta protonga teng bo'lgan signal bo'lib,

u metilen guruhi protonlarini ko'rsatadi. Bu chiziq metilen guruhi protonlariga yonidagi metil guruhi protonlarining ta'sirida hosil bo'ladi.

Spektrning yana ham kuchsiz maydonida bitta proton ko'rsatuvchi bir chiziqli singlet bo'lib, u aldegid guruhidagi protonga xosdir.

Yuqoridaagi spektrlarning natijalariga asoslangan holda moddarning molekular massasi 58, tarkibida aldegid guruhi bilan etil radikal bor, tuzilishi esa quyidagicha deya olamiz:



Bu tuzilishni kimyoviy usul bilan isbotlash uchun moddaga **kumush** oksidni ammiakdagi eritmasi  $\text{Ag}[(\text{NH}_3)_2]\text{OH}$  ta'sir ettirib tuzilishi aniq bo'lgan propion kislota olinadi:



Demak, noma'lum  $\text{C}_3\text{H}_6\text{O}$  modda propion aldegid ekan. Shunday qilib, fizik va kimyoviy usullarda olingan natjalarni bir-biriga taqqoslab, yangi organik birikmaning tuzilishi isbotlanadi.

### *Savol va mashqlar*

1. Organik birikmalarni olinishini gapiring.
2. Suyuq moddalarni ajratish uchun qanday usullar qo'llaniladi va ularni ichida qaysinisi afzal hisoblanadi?
3. Xromatografiya usulini birinchi bo'lib qaysi olim yaratgan va bu usulning boshqa usullardan afzallik tomonlarini ko'rsating.
4. Organik birikmalarni fizik birliklariga nimalar kiradi va ular qanday aniqlanadi?
5. Organik moddalarni asosini qanday elementlar tashkil etadi, ularni ichida qaysi element doimiy hisoblanadi?
6. Organik moddalarni tashkil etadigan elementlarni qanday usullar bilan sifat analiz qilinadi?
7. Organik moddalarni tashkil etgan elementlarni foizini aniqlab va u asosida moddaning empirik formulasini topishni yechib bering.

Kimyoviy bog'lanish nazariyasi kimyoning eng muhim muammolaridan biridir. Kimyoviy bog'lanish nazariyasi atomlarning bir-biri bilan birikishini, shuningdek, ularni har qanday nisbatda birikavermasligini, buning sabablarini va shunga o'xshash masalalarni batafsil tushuntirib beradi.

Kimyoviy bog'lanishning tabiatini, ya'ni molekulalarda atom va ionlarni o'zaro bog'lovchi kuchni atom tuzilishining hozirgi zamон nazariyasi asosida tushuntirishi mumkin.

Kimyoviy bog'lanishning bir necha turi bo'lib, quyida biz ulardan eng asosiyлари bilan tanishib chiqamiz.

**Ionli (geteropolyar) bog'lanish.** 1916-yilda Kossel ion bog'-lanish nazariyasini taklif etdi. Bu nazariyaga muvofiq atomlar kimyoviy bog'lanish hosil qilishda sirtqi elektron qavatlarini barqaror dublet yoki oktet holatiga intiladi. Elektronlar bunday barqaror oktet hosil qilish uchun elektron qabul qiladi yoki chiqaradi. Natijada zaryadli zarrachalar — ionlar hosil bo'ladi. Elektron chiqargan atom musbat, qabul qilgan ion esa manfiy bo'ladi.

Bunday qarama-qarshi zaryadli ionlarning elektrostatik tortishuvi tufayli molekula vujudga keladi.

Qarama-qarshi zaryadli ionlarning o'zaro elektrostatik kuch ta'siri ostida vujudga keladigan kimyoviy bog'lanish ionli yoki elektrovalent bog'lanish, ba'zan geteropolyar bog'lanish deb ataladi.



Atomlari o'zaro reaksiyaga kirishadigan elementlarning ionlanish energiyasi va elektromanfiyligi bir-biridan keskin farq qilsagina ionli bog'lanish vujudga keladi. Biror element atomining elektromanfiyligi shu elementning elektron biriktirib olish qobiliyatidir. Tipik metallmaslarning (masalan, F) elektron qabul qilish qobiliyati kuchli, ya'ni ularning elektromanfiyligi katta. Aksincha, tipik metallarning (masalan, Na) elektromanfiyligi kichik (1-jadval). Shuning uchun Mendeleyev davriy jadvalining I guruhi

(ishqoriy metallar va VII guruhida (galogenlar) joylashgan elementlarning o'zaro ta'siri natijasida ionli bog'lanish sodir bo'ladi.


*I-jadval*

### Atomlarning elektromansiyligi (Poling bo'yicha)

Atom	Elektromansiylik	Atom	Elektromansiylik
K	0,8	I	2,6
Na	0,9	S	2,6
Li	1,0	Br	2,8
Mg	1,2	Cl	3,0
Si	1,8	N	3,0
H	2,1	O	3,5
P	2,1	F	4,0
C(sp <sup>3</sup> )	2,5	C(sp <sup>2</sup> )	2,8
		C(sp)	3,1


Kossel nazariyasi nima sababdan bir xil atomlar o'rtasida bog'lanish yuzaga keladi, degan savolga javob bera olmadi.

**Kovalent bog'lanish.** Kovalent bog'lanish nazariyasiga (Lyuis) ko'ra, molekulalarni hosil bo'lishida elektronlar bir atomdan ikkinchisiga o'tmaydi, balki ular birikuvchi atomlar uchun umumiy bo'ladi va bir necha elektrod juftlar hosil qiladi. Masalan, vodorod molekulasi quyidagicha hosil bo'ladi. Vodorodning ikki atomi bir-biriga yaqinlashganda ikkala yadro maydonida harakat qiluvchi umumiy elektron just hosil qiladi:




Hosil bo'lgan elektron just har ikkala atom uchun umumiyyidir. Boshqacha aytganda, har ikkala atomning elektron qavatida ikitidan elektron mavjud, ya'ni geliy atominiki singari barqaror dublet yoki oktet qavat hosil bo'ladi.


Misollar:



umumiy bir just



umumiy ikki just




Bunday tip bog'lanish *kovalent* yoki *gomopolyar bog'lanish* deyiladi. Ko'pgina organik birikmalar kovalent bog'langan.

**Donor-akseptor bog'lanish.** Ba'zi element atomlari (masalan, azot kislород birikmalarida kovalent bog'lanish hosil qiluvchi umumiy juft elektronlardan tashqari) umumlashmagan elektron juftiga ham ega bo'ladi.

Masalan,  $\text{NH}_3$  molekulasidagi azot atomida bitta, chumoli aldegididagi kislород atomida ikkita umumlashmagan «erkin» elektronlar jufti bor:



$\text{NH}_3$  va  $\text{HCl}$  molekulalari o'zaro reaksiyaga kirishib, ammoniy xlorid ( $\text{NH}_4\text{Cl}$ ) molekulasini hosil qiladi. Bunda ammiak molekulasidagi azot atomi o'zining «erkin» elektron juftini  $\text{H}$  (vodorod ioniga beradi. Natijada bu juft har ikkala atom ( $\text{H}$  va  $\text{N}$ ) uchun umumiy bo'lib qoladi:




Bog'lanish vujudga kelishi uchun o'zining umumlashmagan juft elektronini beradigan atom yoki ion donor ( $\text{NH}_3$  molekulasidagi N), u elektron juftini qabul qiladigan atom yoki ion esa akseptor ( $\text{H}^+$  ion) deyiladi. Shuning uchun bunday bog'lanishni donor-akseptor yoki koordinatsion bog'lanish deb ataladi. Donor-akseptor bog'lanish kovalent bog'lanishning bir turi bo'lib, yangi elektron juftlar hosil bo'lmaydi, bunday bog'lanishni birikuvchi atomlardan faqat birining umumlashmagan elektron juftlarini hosil qiladi.


Organik kimyoda donor-akseptor bog'lanish ko'pincha semipolyar bog'lanish deb ataladi.

**Vodorod bog'lanish.** Vodorod bog'lanishning hosil bo'lishi vodorod atomining tabiatiga bog'liq. Vodorod atomi bitta elektron yo'qotib,  $H^+$  ioniga aylanadi. Vodorod ionlarining elektronlari uning yaqinlashishiga qarshilik qilmaydi. Shu sababli vodorod ioni boshqa atomlarning elektron qavatiga yaqinlashadi va uning ichiga kira oladi. Shunday qilib,  $H^+$  ning molekuladagi atomlarning elektron qavatlariga tortilishi natijasida ular o'rtaisdagi o'ziga xos bog' hosil bo'ladi. Bunday bog'lanish vodorod bog'lanish deyiladi.

Vodorod bog'lanish nuqtalari bilan ko'rsatiladi. Vodorod bog'lanish ikkita bir xil yoki turli molekulalar orasida vujudga kelsa, bunday bog'lanish molekulalararo vodorod bog'lanish deyiladi.



Vodorod bog'lanish faqat birgina molekula atomlari orasida ham bo'lishi mumkin. Bunday bog'lanish ichki molekular vodorod bog'lanish deyiladi:



Vodorod bog'lanish odatda kimyoviy bog'lanishdan ancha bo'sh bo'ladi. Vodorod bog'lanish energiyasi 1–8 kkal/mol orasida bo'lib, bu bog'lanish moddalarning kimyoviy va fizik xossalarini aniqlashda katta rol o'ynaydi. Bu bog'lanishning vujudga kelishi assotsiatsiyaga, suyuqliklarning uchuvchanligiga, qovushqoqligiga va boshqa fizik xossalariga ta'sir qiladi.

Masalan, suv molekulasi dietil efir ( $C_2H_5-O-C_2H_5$ ) ga nisbatan -4 marta kichik bo'lsa ham suvning qaynash temperaturasi efirnikiga qaraganda 3 baravar yuqoridir. Bunga sabab suv molekulalari orasidagi vodorod bog'lanishdir.

## **Bilasizmi!**

1) Kimyoviy bog'lanish 4 xil bo'ladi: ion, kovalent, metall va vodorod bog'lanishlar.

2) Kovalent bog'lanishning asosiy xossalari — uning energiyasi, pishiqligi, to'yinuvchanlik va yo'naluvchanligidir.

**Bog'lanish energiyasi.** Molekulaning barqarorligi shu molekulaning bog'lanish energiyasi bilan tavsiflanadi. Kimyoviy bog'lanish hosil bo'lganda energiya ajralib chiqadi. Kimyoviy bog'lanishning hosil bo'lishida qancha energiya ajralib chiqsa, shu bog'ni uzish uchun shuncha energiya sarflash kerak bo'ladi. Bog'lanish energiyasi deganda shu bog'ni uzish uchun zarur energiya tushuniladi. Bu energiya asosan termokimyo va spektroskopik metodlar bilan aniqlanadi, kJ/mol hamda kkal/mol kattaliklari bilan o'lchanadi.

Kimyoviy bog'lanish energiyasi qanchalik katta bo'lsa, shu bog'lanish shunchalik mustahkam bo'ladi.

Simmetrik molekulalarda, ularni hosil qilgan atomlarning elektromanfiyligi 2—2,5 o'rtaida bo'lsa, bog'lanish energiyasi anchaginiyuqori bo'ladi.

Masalan, N—N bog'ining energiyasi 437,6 kJ/mol, C—C esa 33561 kJ/mol ga teng. Bundan tashqari, bog'lanish energiyasi shu bog'ni hosil qiladigan atomlar bilan bog'langan o'rribosarlarning tabiatiga ham bog'liq.

Qo'sh bog' energiyasi oddiy bog' energiyasidan katta, lekin ikkita oddiy bog' energiyasining yig'indisidan kichik (2-jadval).

*2-jadval*

### **Kimyoviy bog'lanish energiyasi**

Bog'lanish	Energiya (kkal/mol)	Bog'lanish	Energiya (kkal/mol)
C—H	99	O—H	110
C—C	81	N—H	93
C=C	146	N—N	39
C≡C	199	C—Cl	78
C—O	88	C—Br	65
C=O	173	C—I	57
C—N	142	O—O	85
C≡N	212	—H...O< vodorod	-5
		—H...N vodorod	-2

## KOVALENT BOG'LANISHNING FIZIK TABIATI

Kovalent bog'lanishning fizik tabiatini, uning hosil bo'lish mexanizmi atom tuzilishi va hozirgi zamonda kvant mexanikasi bilan uzviy bog'liqdir.

1913- yilda yaratilgan N.Borning planetar tuzilish nazariyasini ko'pgina spektroskopik dalillarni va atomlarning elektron tuzilishini tushuntirib bera olmadi. A.Zommerfeld kvant mexanikaga ikkinchi kvant soni  $l$  — azimutal kvant sonini kiritadi va elektronlar faqat sferik orbitalarda harakatlanmasdan balki elliptik orbitalarda ham harakatlanadi, degan fikrni ilgari suradi.

1924- yilda fransuz olimi De Brogl elektron to'lqin hamda zarracha xususiyatiga ega degan fikrni aytди. Elektronning to'lqin xossasi tajribalarda isbotlandi. 1927- yilda V.Geyzenberg o'zining aniqsizlik munosabatini yaratdi. Bu munosabatga ko'ra elektronning tezligini va fazodagi koordinatlarini bir vaqtning o'zida aniqlab bo'lmaydi, balki uning atomini u yoki bu yerda bo'lish ehtimolligi to'g'risida fikr yuritish mumkin. 1926- yilda E.Shredinger elektronning to'lqin va zarracha xususiyatini bir-biriga bog'lovchi quyidagi tenglamani tavsiya etdi:

$$\left( \frac{y^2}{yx^2} + \frac{y^2}{yy^2} + \frac{y^2}{yz^2} \right) \Psi + \frac{8\pi^2 m}{h} (E - V) \Psi = 0,$$

bunda:  $h$  — Plank doimiysi;  $m$  — elektron massasi;  $\frac{y^2}{yx^2} + \frac{y^2}{yy^2} + \frac{y^2}{yz^2}$  — to'lqin funksiyasi  $\Psi$  ning koordinatalari ( $x, y, z$ ) bo'yicha olingan ikkilamchi hosilalarining yig'indisi;  $E$  — elektronning to'la energiyasi;  $V = \frac{1}{2}$  — elektronning potensial energiyasi.

Bu tenglama elektronning to'liq energiyasi ( $E$ ) va elektron holatini aniqlovchi to'lqin funksiyasi orasidagi munosabatni aniqlaydi. Bu tenglamaga ko'ra, elektronning atomdagi holati vaqt va koordinatalar  $x, y, z$  funksiyasi bo'lgan funksiya bilan aniqlanadi, ya'ni  $\Psi(x, y, z)$ .

To'lqin tenglama yechimlari  $\Psi$  to'lqin funksiyalar ma'lum bo'lsa, elektron bo'lishi mumkin bo'lgan sohaning shaklini grafik tarzda ifodalash mumkin. Buning uchun Shredinger tenglamasidan


foydalanib, koordinatalar ( $x$ ,  $y$ ,  $z$ ) ning turli qiymatlari uchun ehtimolligi ( $\Psi^2$ )ning turli qiymatli hisoblab topiladi va shunga asoslanib elektron ko'p bo'ladigan sohaning shakli aniqlanadi.

Yadro atrofidagi elektronning bo'lish ehtimolligi eng katta bo'lgan fazo orbital deb ataladi. Unda elektron bulutining 90 % ga yaqini qamralgan bo'ladi.

Atom orbitallar, asosan  $s$ ,  $p$ ,  $d$  orbitallarga bo'linadi,  $s$ -tipdagi atom orbitallarni shakli sferik simmetriyaga, ya'ni shar shakliga ega bo'ladi. Bunga vodorod atomining orbitali misol bo'la oladi.  $s$ - orbital (3- rasm) bo'ylab harakatlanadigan elektron  $s$ - elektron deyiladi.  $p$ - tipdagi AO (atom orbital) gantelsimon yoki hajmi sakkiz raqamiga o'xshash shaklda bo'lib, bundan orbitallar ravshan yo'naluvchanlikka ega. Uchta  $p$ - orbitallarning elektron bulutlarni o'zaro perpendikular, ular fazoviy koordinatalarning o'qlari bo'ylab yo'nalgan, shu sababli ko'pincha  $p_x$ ,  $p_y$  va  $p_z$  orbitallar deb belgilanadi. Bunday belgilash  $p$ -OA ning fazoda yo'nalganini ko'rsatadi (4- rasm).

Agarda  $p$ - orbital  $x$  o'qida joylashgan bo'lsa, u holda elektronning  $x$  o'qi yaqinida bo'lish ehtimolligi eng katta bo'ladi. Bu sohada harakatlanadigan elektronlar  $p$ - elektronlardir. 5 ta  $d$ - tipdagi AO mayjud bo'lib, ulami fazoviy shakli va konfiguratsiyasi ancha murakkab. Bundan tashqari  $f$ - tipdagi AO mayjud bo'lib ular organik birikmalarda deyarli uchramaydi.


**Orbitallarning gibridlanishi.** Uglerod atomining elektron konfiguratsiyasiga binoan ( $1s^2$   $2s^2$   $2p_x$ ,  $2p_y$ ) birinchi elektron pog'onada ikki juft elektron  $1s^2$  ikkinchi elektron pog'onada esa 2 juft  $2s^2$  elektron va shu pog'onaning  $2p$ -AO da esa bittadan juftlashmagan ikkita  $2p_x$  va  $2p_y$  elektronlar joylashgan bo'lib,  $2z$  orbital



3- rasm.  $s$ - orbital elektron bulutning shakli.


4- rasm.  $p$ - orbital elektron bulutning shakllari va fazoda yo'nalishi.

esa bo'sh qolgan. Bunday holatda uglerod o'z birikmalarida 2 valentli bo'lishi kerak. Lekin organik birikmada uglerod 4 valentlidir. Buning sababi shuki, uglerod atomi osongina «qo'zg'algan» holatga o'tadi, bunda  $2s^2$  dagi juftlashgan elektronlardan biri  $2p_z$  orbitalga o'tadi. Buni sxema tarzida quyidagicha ko'rsatish mumkin.



Demak, uglerod bog'lanish hosil qilganda bitta  $s$  va 3 ta  $p$ -orbitallar bilan qatnashadi. Metan molekulasining hosil bo'lishida uglerodning to'rtta AOlari vodorod atomining 1s- orbitallari bilan qoplanadi.

Ma'lumki, uglerodning reaksiyaga qatnashadigan bu to'rtta AO lari bir-biridan farq qiladi (energiyalarning qiymatlari va yo'naluvchanligi), buni uglerodning elektron konfiguratsiyasidan ko'rish mumkin.



Demak, uglerod atomining bog'lanishlari mustahkam va boshqa xossalari bilan o'zaro farqlanishi kerak.

Metanning kimyoviy xossalarni hamda undagi bog'lanishlarning mustahkamligini o'rganish teskari natija beradi; metandagi to'rtala bog' ham bir xil tabiatga (energiya, uzunlik) ega.

Bu hodisani L.Poling orbitallarning gibridlanishi, ya'ni ularning aralashuvi hamda shakl va energiyalarning tenglashuvi bilan tushuntirdi. Gibridlanish nazariyasiga ko'ra, metan molekulasini hosil bo'lishida uglerod atomining 1 ta  $s$  hamda 3 ta  $p$ - orbitallari qo'shilib, 4 ta oraliq orbital hosil bo'ladi va u **gibrid orbital** deb ataladi. Bunday gibrid orbitallar bir xil shakl va energiyaga ega bo'lib qoladi. Bunday gibridlanish  $3p^3$ - gibridlanish deyiladi.

Gibridlangan orbitalning kimyoviy bog'lanishi gibridlanmagan (sof, qo'shilmagan) orbitalnikiga qaraganda ancha mustahkam bo'ladi, chunki gibridlanishda bulutlar bir-birini ko'proq qoplaydi.

Uglerod atomining gibridlangan to'rtta  $sp^3$ - orbitallari bilan to'rtta vodorod atomining  $s$ - orbitallari bir-birini qoplashi natijasida to'rtta ekvivalent bog'lanishga ega bo'lgan mustahkam metan molekulasi hosil bo'ladi. Gibrid orbitallarning yo'nalishi orasidagi burchak  $109^{\circ}28'$  ni tashkil etadi (5- rasm).


Birikayotgan atomlarning markazlarini birlashtiruvchi to'g'ri chiziq, bo'ylab orbitalarning bir-birini qoplashi natijasida yuzaga keladigan bog'lanish  $\delta$ - bog'lanish deyildi. Ma'lumki, metan molekulasida 4 ta  $\delta$ - bog'lanish bor. Birikayotgan atomlar o'zaro bittadan ortiq  $\delta$ - bog' hosil qila olmaydi. Shu sababli uglerod-uglerod orasidagi oddiy bog'  $\delta$ - bog'lanish bo'ladi.

To'yingan uglevodorodlar molekulasida  $\delta$ - bog'lanishni hosil bo'lishida doimo gibridlangan  $sp^3$ - orbitallar ishtirot etadi. Masalan, etan molekulasida ettita  $\delta$ - bog'lanish bitta  $sp^3-sp^3$  ( $C-C$ ) va oltita  $sp^3-s$  ( $C-H$ ) bog'lanish bor (6- rasm).


**$sp^2$ - gibridlanish.** To'yinmagan birikmalarning tuzilishini tushuntirishda gibridlanishning boshqa turlari mavjuddir. Masalan, qo'shbog'dagi uglerod atomida bitta  $s$  va ikkita  $p$ - orbitallar gibridlanib uchta tenglashgan orbitallar hosil qiladi. Ular bitta tekislikda  $120^{\circ}$  burchakda joylashadi (7- rasm). Bunday gibridlanish  $sp^2$ - gibridlanish yoki *trigonol gibridlanish* deyiladi.

Har qaysi uglerod atomida bittadan  $p$ - orbitallar gibridlanmagan bo'lib, u gibridlangan orbitallar tekisligiga perpendikular joylashgan bo'ladi.


Etilen molekulasida ikkita uglerod atomi  $sp^2$ - gibridlangan holatda bo'lib,  $\delta$ -bog'lanish hosil qiladi. Har qaysi uglerod atomidagi boshqa ikkita gibridlanmagan orbitallar vodorod atomlari bilan




5- rasm. Metanning tetraedr molekulasida  $s$ - bog'larining hosil bo'lishi.



6- rasm. Etan molekulasingin elektron tuzilishi.



7- rasm. Uglerod atomining  $sp^2$ - gibrildanishi.




8- rasm. Etilen molekulasida kimyoviy bog'larning hosil bo'lishi:

a)  $\sigma$ - bog'lar; b)  $\pi$ - bog'lar.

to'rtta  $\delta$ - bog'lanish hosil qiladi. Foydalanimay qolgan ikkita orbital C va H atomlari joylashgan tekislikning ustidan hamda ostidan ikki marta (gantelsimon) bir-birini qoplaydi. Natijada  $\pi$ - bog'lanish vujudga keladi.  $\pi$ - bog'lanishni hosil bo'lish sxemasi 8- rasmda ko'rsatilgan.

Shunday qilib, etilen molekulasida C — C bog'ining bittasi  $\delta$ , ikkinchisi  $\pi$ - bog'lar, etilenda jami 5 ta  $\delta$  va bitta  $\pi$ - bog'lanish bor. Uglerod atomlari orasidagi qo'shbog' oddiy bog'ga nisbatan qisqa: etan molekulasida uglerod atomlarini yadrolari orasidagi masofa  $1,54 \text{ \AA}$  ga, etilen molekulasida  $1,34 \text{ \AA}$  ga teng.  $\pi$ - bog'-lanish oddiy bog'lanishga nisbatan bo'shroq bo'ladi. Shu sababli  $\pi$ - bog'lanish kimyoviy reaksiyalarda oson uziladi va etilen hosilalari paydo bo'ladi.

**$sp$ - gibrildanish.** Agar gibrildanish bitta  $s$  va bitta  $p$ - orbitallar hisobiga sodir bolsa, bunday gibrildanish  $sp$ - gibrildanish deyiladi.



9- rasm. Asetilen molekulasida kimyoviy bog'larning hosil bo'lishi:

a)  $\sigma$ - bog'lar; b)  $\pi$ - bog'lar.

Bunda hosil bo'lgan 2 ta gibrild orbital bir-biri bilan  $180^\circ$  burchak ostida joylashadi. Qolgan ikkita  $p$ - orbital sofligicha (gibrildlanmay) qoladi. Bunday  $sp$ - gibrildanishga uchlamchi bog'lanishni (asetilen molekulasini) hosil bo'lishi misol bo'la oladi. Asetilen molekulasida uglerodning  $sp$ - gibrildanish holatida turgan ikkita atomi  $\delta$ -bog'lanish hosil qiladi. Har qaysi atomdan bittadan gibridlangan orbital vodorod atomlari bilan ikkitadan  $\delta$ - bog'lanishlar hosil qilishga sarflanadi. Bularning hammasi  $H - C \equiv C - H$  molekulasiga chiziqli shakl beradi va to'rtta atom bir chiziqda yotadi (9-a rasm).

Bundan tashqari har qaysi uglerod atomining ikkita  $p$ - orbitali bir-birini qoplashi natijasida ikkita  $\pi$ -bog' hosil bo'ladi. Bu bog'lar o'zaro perpendikular ikki tekislikda joylashgan (9-b rasm). Demak, asetilen molekulasida uchta  $\delta$ -bog'lanish va ikkita  $\pi$  bog'lanish mavjud. Uchlamchi bog'lanish qo'shbog'ga nisbatan qisqa ( $1,20 \text{ \AA}$ ). Kimyoviy reaksiyalarda  $\pi$ - bog'lar oson uzilib uchlamchi bog' qo'shbog'ga, qo'shbog' esa birlamchiga aylanadi.

Uchlamchi bog' birikmalarining reaksiyaga kirishish xususiyati qo'shbog'li birikmalarga qaraganda kuchliroq bo'ladi.

### *Savol va mashqlar*

1. Ionli bog'lanish deb qanday bog'lanishga aytiladi va uni osh tuzi molekulasining hosil bo'lishida tushuntirib bering.
2. Kovalent bog'lanishning qanday ko'rinishlari bor, ularni misollar bilan tushuntiring.
3. Vodorod bog'lanish xususiyatlari modda xossalariiga qanday ta'sir etishini misollarda ko'rsating.
4. Ko'pchilik ion birikmalar odatdagagi sharoitda qattiq modda. Shunga asoslanib hamma qattiq jismlar ion bog'lanishga kiradimi?


5. Donor-akseptor bog'lanishni tushuntirib bering va u organik birikmalarda qanday nomlanadi?
6. Bog'lanish energiyasiga asoslanib, ba'zi reaksiyalar ekzotermik, ba'zilari — endotermik ketishligini tushuntiring.
7.  $sp$ -,  $sp^2$ -,  $sp^3$ - gibrildanishlarga asoslanib, moddalar molekulalarining hosil bo'lishini misollar bilan tushuntiring.

II bob

## KIMYOVİY REAKSİYA MEXANİZMI


### INDUKSION EFFEKT

Simmetrik molekulalarda ( $H - H$ ,  $Cl - Cl$ ,  $CH_3 - CH_3$ ) kovalent bog'lanishning elektron juftlari har ikki atom yoki atomlar gruppasi o'rtaida keng taqsimlangan. Bunday bog'lanish qutbsiz bog'lanish deyiladi. Agar molekulada elektromanfiyligi turlicha bo'lgan atom yoki atom gruppasi bo'lsa (masalan,  $H - Cl$ ,  $CH_3 - Cl$ ,  $CH_3 - OH$ ), kovalent bog'lanishni hosil qilgan elektron just atomlardan biriga qarab siljiydi. Kovalent bog'lanishni bu turi qutbli bog'lanish deyiladi. Bunday molekulalarda elektronlar juftini  $\delta$ - bog' bo'ylab siljishiga induksion effekt deyiladi. Atom yoki atomlar guruhi  $\delta$ - bog'lar elektron bulutini o'ziga tortsa, bu atom yoki guruhlarda elektron zaryadining bir qismiga teng manfiy zaryad yig'iladi. Uglerod atomida esa shuncha miqdorda musbat zaryad hosil bo'ladi:



Elektron bulutining siljishi strelka orqali ham ko'rsatiladi:  $CH_3 \rightarrow Cl$ . Keltirilgan misolda xlor atomining induksion effekti manfiy deb qabul qilingan ( $-J$ ). Agarda biror atom yoki atomlar guruhining elektron buluti uglerod atomi tomon siljisa, bu atom yoki atomlar guruhining induksion effekti musbat bo'ladi ( $+J$ ). Masalan,  $CH_3Na$ .

Bir necha uglerod atomi va elektromanfiy atom bo'lgan zanjirda, elektronlar zichligi (bulutning siljishi) shu zanjir bo'yicha taqsimlanadi va elektromanfiy atomdan uzoqlashgan sari uglerod atomida hosil bo'lgan zaryadning kattaligi (induksion effekt) kamayib boradi:




Induksion effekt molekulaning tabiatiga, dipol momentiga va qutblanuvchanligiga bog'liq bo'ladi.

Ma'lum masofada teng joylashgan qarama-qarshi  $e^+$  va  $e^-$  zaryadlardan tuzilgan sistema dipol deyiladi. Zaryad orasidagi masofa  $e$  ko'payishi dipol momenti  $\mu$  ni hosil qiladi:


$$\mu = e \cdot l$$

Umuman, qutblanmagan molekulalar elektr maydonida qutblanadi va dipolga aylanadi. Elektr maydoni ta'sirida hosil bo'lgan dipol induksiyalangan dipol deb ataladi. Molekulaning dipol momenti qancha katta bo'lsa, gruppva atomning induksion ta'sir kuchi shuncha katta bo'ladi.

Qo'sh bog' tutgan uglerod atomi bilan bog'langan atom (yoki guruhning) elektromanfiyliqi qancha yuqori bo'lsa, qushbog' tutgan guruhning induksion effekti ham shuncha katta bo'ladi. Masalan:  $-J_{C=O} > J_{C=NH}$ . Uch bog' tutgan guruhning induksion effekti qo'sh bog'ning induksion effektidan yuqori:



Demak, gibridlanish darajasi ham induksion effektga ta'sir qilar ekan:




Induksion effekt organik birikmalarda juda ko'p uchrab, organik birikmalarning xossalari va kimyoviy reaksiyalarning yo'nalishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

## MEZOMER (REZONANS) EFFEKT

Bunday effekt odatda va qo'sh bog'lar navbatlashib keladigan birikmalarga (diyenlar) hamda qo'sh bog' tutgan uglerod atomi bilan bog'langan atom o'zida umumlashmagan elektron justi tutgan hollarda kuzatiladi.

Molekulada elektron bulutning  $\pi$ -orbitallar ishtirokida qayta taqsimlanish hodisasiga mezomer effekt (oralatma bog'lanish) deyiladi.

Butadiyen  $CH_2 = CH - CH = CH_2$ , molekulasi misolida mezomer effekt bilan tanishhib chiqamiz. Butadiyen molekulasi idagi to'rttala uglerod atomi  $sp^2$ - gibridlanish holatida bo'lib, har qaysi uglerod atomida «sof»  $p$ - orbital mavjud. Bu orbitallarning qoplanishi natijasida  $C_1 - C_2$  va  $C_3 - C_4$  uglerod o'rtaida qo'shbog'




**10- rasm.** Butadiyen molekulasida orbitalarning qoplanishi.

hosil bo‘ladi.  $C_2 - C_3$  atomlar o‘rtasida  $p$ - orbitallar bir-birini qoplab turadi (10- rasm).

Demak, to‘rtta uglerodning  $p$ - orbitallari bir-birini qoplab yagona  $\pi$ -molekular orbital hosil bo‘ladi. Boshqacha aytganda, molekuladagi lokallahgan elektronlar zichligi qaytadan bir tekis taqsimlanib


(delokallashib), molekulaning barcha qismida elektron zichligi bir xil bo‘ladi.  $\pi$ - elektronlarning delokallanishi natijasida molekula barqaror bo‘ladi.

Butadiyendagi elektronlarning delokallanishi valent bog‘lar sxemasida quyidagicha ko‘rsatiladi:



Bunday delokallanish natijasida uglerod atomi yadrolari birbiridan bir xil uzoqlikda joylashadi, ya’ni barcha bog‘larning uzunligi teng bo‘ladi.

Butadiyenda barcha bog‘larning uzunligi bir xil bo‘lib, oddiy ( $0,146$  nm) va qo‘shbog‘lar ( $0,135$  nm) orasidagi masofa  $0,148$  nm ga teng. Shunday qilib qo‘shbog‘ va oddiy bog‘lar navbatlashib keladigan hollarda  $\pi$ -elektronlarning delokallanish natijasida mezomeriya (oralatma bog‘lanish effekti) vujudga keladi. Mezomor effekti qo‘s sh bog‘dagi uglerod atomlaridan biri o‘zida umumlashmagan elektron jufti tutgan atom bilan bog‘lashgan hollar da ham yuzaga kelishi mumkin. Masalan, vinil xlorid molekulasida:




## ORGANIK REAKSIYALARING TASNIFI VA MEXANIZMI


Elektron nazariyasiga qadar organik reaksiyalarning quyidagi asosiy tiplari ma’lum edi: 1) o‘rin olish; 2) birikish; 3) ajralish; 4) qayta guruhlash. Ayrim adabiyotlarda o‘rin olish reaksiyasi — *S*, birikish reaksiyasi — *A* va ajralish reaksiyasi — *E* harflari bilan ifofda etiladi.

Elektron nazariyasi barcha organik reaksiyalarning mohiyatini va ularning mexanizmini tushuntirib beradi. Bu nazariya nuqtayi nazaridan barcha kimyoviy reaksiyalar 2 xil gomolitik va geterolitik mexanizmda boradi. Qoidaga ko‘ra, reaksiyada ishtirok etuvchi organik birikma «substrat», reaksiyaning ikkinchi komponenti esa shartli ravishda «reagent» deb qabul qilinadi.




**Gomolitik (radikal) mexanizm.** Bunday reaksiyalarda kovalent bog‘ uzilib o‘zida juftlashmagan elektron tutgan atom yoki atomlar guruhini, ya’ni erkin radikallar hosil bo‘ladi:




Hosil bo‘lgan radikallar boshqa molekulalar bilan to‘qnashib yangi molekula va yangi radikal hosil qiladi:




Bunday tipdagи reaksiyalar radikal o‘rin olish reaksiyasi deyiladi va  $S_R$  bilan belgilanadi. To‘yingan uglevodorodlarning xlorlanish reaksiyasi  $S_R$  mexanizmda boradi. Masalan:




**Geterolitik (ionli) mexanizm.** Bunday mexanizm reaksiyaga kirishuvchi molekulaning kovalent bog‘i uzilganda elektron just bitta atomda qoladi:



Bunday holatda reagent  $x^{\cdot} :$  o‘z elektron justi yordamida uglerod atomi bilan birikadi,  $y^{\cdot} :$  esa o‘z elektron juftidan ajralib chiqib anionga aylanadi. Misol:



yoki



Ionli mexanizm bo'yicha boradigan reaksiyalar «reagent»ning xarakteriga qarab 2 xil tipga bo'linadi. Agar reagent yangi bog' hosil qilish uchun elektron juft bersa nukleofil reagent, bunday reagentlar ishtirokida boradigan reaksiyalar esa nukleofil reaksiyalar deyiladi. Nukleofil reagentlar manfiy zaryadlangan ionlardir. Masalan:



Ko'pgina o'rin olish reaksiyalarini nukleofil reaksiyalarga misol bo'la oladi  $[S_N]$ . Nukleofil o'rin olish reaksiyasining kinetikasi chuqur o'rganilgan bo'lib, asosan ikki xil mexanizmda boradi:

$S_N^1$  — monomolekular va  $S_N^2$  — bimolekular.


Yuqorida ko'rib o'tgan misolimiz  $[S_N^2]$  bimolekulyar o'rin olish reaksiyasidir. Bunday reaksiyalarda  $[S_N^2]^-$  ning birikishi va yoki guruhining ajralishi bir vaqtda sodir bo'ladi. Reaksiya bir bosqichli bo'lib, oraliq o'tish holati orqali boradi. Biomolekular nukleofil reaksiyalarda reaksiya tezligiga reagentning va substratning kon-sentratsiyasi bir xil ta'sir qiladi.

$S_N^1$  — monomolekular nukleofil o'rin olish reaksiyasi (ikki bosqichli). Birinchi bosqich eng sekin boradigan bosqich bo'lib, bunda molekulalar ionlarga parchalanadi. Ikkinci bosqichda esa hosil bo'lgan ionlar tez reaksiyaga kirishib yangi modda hosil qiladi:




Bunday reaksiyaning amalga oshishi eng sekin bosqich, ya'ni  $\text{R}-\text{X}$  ning dissotsiatsiyalanishiga bog'liq bo'lgani uchun monomolekular nukleofil o'rin olish reaksiyasi deyiladi. Nukleofil reaksiyalarning qaysi mexanizm bilan borishi  $[S_N^2]^- \text{yoki } S_N^1] \text{R}-\text{X}$  moddani tashkil qilgan R va X atom yoki atomlar guruhining tabiatiga bog'liq.

Agar R ning elektronodonorlik xususiyati yuqori bo'lsa, uning ionlanishi oson bo'ladi va reaksiya  $S_N^1$  mexanizm bo'yicha boradi. Galoid alkillarning gidrolizi  $S_N^1$  mexanizmi bo'yicha quyidagicha tartibda o'zgarib boradji:



$\text{CH}_3\text{X}$  yoki  $\text{C}_2\text{H}_5\text{X}$  gidrolizi  $\text{X} = \text{Hal}$   $S_{\text{N}}^2$  mexanizm hisoblanib «oraliq o'tish holati» orqali boradi:





Bunday reaksiyalarda manfiy zaryadli  $\text{OH}^-$  — (nukleofil zarracha) galoid alkil molekulasining qisman musbat zaryadlangan uglerod atomiga galoidga qarama-qarshi tomondan hujum qiladi, natijada «oraliq holat» hosil bo'ladi. Bu holatda  $\text{HO}-\text{C}$  bog'lanish hali to'liq bo'lmasagan,  $\text{C}-\text{X}$  bog' esa to'liq uzilmagan bo'ladi, gidroksil ion uglerod va galoid atomlari bir chiziqda, uchta vodorod va uglerod atomlari esa bir tekislikda yotadi. Uchlamchi galoid alkil-larning  $(\text{CH}_3)_3\text{CX}$  gidrolizi asosan  $S_{\text{N}}^2$  mexanizm bo'yicha boradi.

$S_{\text{N}}^2$  mexanizmda nukleofil reagent  $\text{OH}^-$  dastlabki modda molekulasiga ta'sir qilmaydi, reaksiyaning tezligi faqat galoid alkilning ionlashishiga bog'liq bo'ladi.


Agar kimyoiy reaksiyalarda yangi bog'lanish hosil qilish uchun reagent juft elektron bermasa, bunday reagent elektrofil reagent, reaksiya esa elektrofil reaksiya deyiladi. Bu vaqtida substrat elektrodonor xossasini namoyon qiladi. Eng ko'p uchraydigan elektrofil reagentlar:

$\text{H}^+$ ;  $\text{H}_3\text{O}^+$ ;  $\text{NO}_2^+$ ;  $\text{R}_3\dot{\text{C}}$ ;  $\text{R}-\dot{\text{C}}=\text{O}$ ;  $\text{BF}_3$ ;  $\text{AlCl}_3$  va hokazo.


Aromatik birikmalarning nitrolash, galogenlash va sulfolash reaksiyalari elektrofil o'r'in olish reaksiyalariga misol bo'la oladi:



To'yinmagan uglevodorodlar (alkenlar)ning galogenlar, galogenid kislotalar, sulfat kislota va hokazolar bilan birikish reaksiyalari esa elektrofil birikish reaksiyalaridir:



Simmetrik bo'lmagan alkenlarga vodorod galogenidlarning elektrofil birikishi V.V. Markovnikov qoidasiga muvofiq boradi. Masalan, propilen molekulasida ikkita (birlamchi va ikkilamchi) karbkation hosil bo'lishi mumkin. Tabiiyki, ikkilamchi karbkation anchagini barqarordir. Shuning uchun ham galogen anioni bu barqaror karbkationga birikishga ulguradi:



Agar reaksiya sharoiti o'zgartirilsa, ya'ni reaksiyalar peroksidlar ishtirokida borsa (M.Xarash) birikish radikal mexanizm bo'yicha ketadi va Markovnikov qoidasiga bo'ysunmaydi.

### *Bilasizmi?*




- 1) Reaksiyalar asosan 4 tipga bo'linadi: o'rin olish, birikish, ajralish va qayta guruhlash.
- 2) O'rin olish, birikish va ajralish reaksiyalarning asosini oksidlanish-qaytarilishi reaksiyasi tashkil etadi.

### *Savol va mashqlar*



1. Kimyoviy reaksiyalar qanday xususiyatlariga asoslanib, sinflarga bo'linadi?
2. Qanday reaksiyalar nukleofil, elektrofil deyildi? Ularni misollar bilan tushuntiring.

## **ORGANIK BIRIKMALARNING TUZILISH FORMULALARINI IFODALASH. GOMOLOGIYA VA IZOMERIYA**


Hozirgi vaqtida organik birikmalarni tuzilish formulalari ikki uglerod atomi va uglerod bilan boshqa element atomlari o'tasidagi bog'lanishni bir chiziqcha (birlamchi bog'), ikki chiziqcha (ikkilamchi bog') va uch chiziqcha (uchlamchi bog') orqali ifodalanadi. Masalan:




Tuzilish formulałari, odatda, biroz qisqartirib yoziladi, ya'ni vodorod atomlari bilan uglerod atomlari o'rtasidagi bog' ko'rsatilmaydi.





Ba'zi hollarda, ayniqsa, siklik birikmalarda, tuzilish formulalar yanada soddalashtirib yoziladi. Masalan:




yoki




siklopentan ( $\text{C}_5\text{H}_{10}$ )



yoki fenol ( $\text{C}_6\text{H}_5\text{OH}$ )




yoki




Bitta sinfga oid uglevodorodlarning bir vakilidan ikkinchi vakiliga o'tish uchun uglevodorodga  $>\text{CH}_2$ , ya'ni metilen guruhini qo'shish kerak. Bir-biridan bitta yoki bir necha  $>\text{CH}_2$  guruhiga farqlanadigan, kimyoviy tuzilishi va kimyoviy xossalari o'xshash bo'lgan birikmalar gomologlar deyiladi.

**Izomeriya hodisasi** uglerod birikmalarining eng xarakterli xususiyatidir. Izomerianing turlari ko'p. Biz ularning eng asosiylariga qisqacha ma'lumot berib o'tamiz, xolos. Chunki ularni ba'zi muhim turlarini kurs davomida tegishli mavzuni o'tayotganimizda yanada boyitamiz (takomillashtiramiz).

**I. Skelet izomeriya**, ya'ni uglerodning har xil zanjir hosil qilishidan kelib chiqqan izomeriya:




*n*-butan (to'g'ri zanjir)



izobutan (tarmoqlangan zanjir)

**2. Funksional guruhning joylashgan o'miga qarab hosil bo'lgan izomeriya:**



propanol-1



propanol-2

Bu ikki spirtda uglerod zanjiri bir xil, faqat funksional gidroksil guruhlari har xil uglerod atomida joylashgan.



**3. Geometrik izomeriya** yoki sis-trans izomeriya.

**4. Dinamik izomeriya**, boshqacha aytganda, tautomeriya. Bu izomeriyaning boshqa izomerlardan farqi undagi izomerlarning bir-biri bilan ma'lum muvozanatda bo'lishidir.




**5. Optik izomeriya.** Bunday izomeriya assimmetrik uglerod atomi bor birikmalarda uchraydi.

**Organik birikmalarning tasnifi.** Organik birikmalarning ko'pligi va xilma-xilligi, ularning tuzilishiga qarab sinflarga bo'lib o'rGANISHNI talab etadi. Shuning uchun organik birikmalar uglerod atomlarining molekulada joylashishiga yoki ularning hosil qilgan skeletlariga ko'ra uchta asosiy sinfga bo'linadi.

**1. Asiklik birikmalar.** Alifatik yoki yog' qatori birikmali. Bu sinfga uglerod atomlaridan tashkil topgan to'g'ri yon tarmoqlangan zanjirli birikmalar kiradi:




Asiklik birikmalar to'yingan va to'yinmagan birikmalarga bo'linadi. To'yinmagan birikmalarda uglerod atomlari o'zaro qo'sh va uch bog'lar orqali birikkan bo'ladi:




**2. Karbosiklik birikmalar.** Bu sinfga uglerod atomlaridan tashkil topgan halqasimon (siklik) birikmalar kiradi. Ular ikkiga bo'linadi:


a) Alisiklik birikmalar:



b) Aromatik birikmalar tarkibida  $C_6H_6$  guruh – benzol halqasi bo'ladi:



**3. Geterosiklik birikmalar.** Bu sinfga molekulasida ugleroddan boshqa element (kislorod, azot, oltingugurt va hokazo) atomlari ham bor halqali (siklik) birikmalar kiradi:





Organik birikmalarning kimyoviy xususiyatlari ularning tarkibiga kiruvchi atomlardan tashkil topgan guruhlarning xususiyatlariiga bog'liq. Molekuladagi bu guruhlar funksional guruhlar deb ataladi. Masalan, molekulada karboksil – COOH funksional guruh bo'lsa, modda kislota, amino- $NH_2$ , funksional guruh bo'lsa, asos

xususiyatiga ega bo'ladi. Yuqoridagi uchta asosiy sinf birikmlarining bitta yoki bir necha vodorod atomi tegishli funksional guruhgaga almashinishi natijasida bu birikmalarning hosilalari — yangi sinf birikmlari olinadi. Masalan, galoidlar (F, Cl, Br, I) ga o'rin o'lmashinishidan galoidli birikmalar, gidroksil ( $-OH$ ) guruhgaga almashinganda spirtlar, karbonil  $> C = O$  ga almashilsa aldegid va ketonlar, karboksil — COON da kislotalar, amino- $NH_2$  guruhidagi aminlar, nitro- $NO_2$  guruhidagi nitrobirikmalar, molekulada ham gidroksil, ham karboksil guruhlari bo'lsa, oksikislotalar, amino ham karboksil gruppalari bo'lsa, aminokislotalar bo'ladi.

Uglevodorodlar organik birikmalarning kenetik asosini tashkil etib, ulardagagi bitta yoki bir nechta vodorod atomlarini funksional guruhlarga o'rin almashinishi natijasida yangi organik birikmalar sinflari hosil bo'ladi:

Uglevodorodlar	$CH_4$	$C_6H_{12}$	
Galoid birikmalar	$CH_3Cl$	$C_6H_5Cl$	$C_6H_{11}Cl$
Spirtlar	$CH_3OH$	—	$C_6H_{11}OH$
Fenollar	—	$C_6H_5OH$	—
Oddiy efirlar	$CH_3-O-CH_3$	$C_6H_5O-C_6H_5$	
Aldegidlar	$CH_3-C=O$	$C_6H_5-C=O$	
Ketonlar	$CH_3-C(=O)-CH_3$	$C_6H_5-C(=O)-C_6H_5$	
Karbon kislotalar	$CH_3COOH$	$C_6H_5COOH$	
Murakkab efirlar	$CH_3COOC_2H_5$	$C_6H_5COOC_2H_5$	
Tiospirtlar	$CH_3SH$		
Oksikarbon kislotalar	$CH_2-COOH$   OH	$C_6H_4COOH$   OH	
Nitrobirikmalar	$CH_3NO_2$	$C_6H_5NO_2$	
Aminlar	$CH_3NH_2$	$C_6H_5NH_2$	



Element organik birikmalar  $\text{CH}_3\text{MgI}$ ,  $\text{R}-\text{MgX}$



Shunday qilib, organik moddalarning kelib chiqishini aniqlashda ularning tasnifini o'rganish katta ahamiyatga ega.

III bob



## UGLEVODORODLAR

Uglevodorodlar uglerod va vodorod atomlaridan tashkil topgan organik birikmalar. Uglevodorodlar molekuladagi uglerod atomlarining o'zaro bog'lanishiga va ulardag'i vodorod atomining nisbatiga qarab qo'yidagi sinflarga bo'linadi:



1. Alkanlar — to'yingan uglevodorodlar:




2. Alkenlar — etilen qatori uglevodorodlari:



3. Alkinlar — asetilen qatori uglevodorodlari:




#### 4. Diyen uglevodorodlar:




butadiyen

#### 5. Arenlar — aromatik uglevodorodlar:




benzol




naftalin

#### 6. Alisiklik uglevodorodlar:



siklopropan




siklobutan


### TO'YINGAN UGLEVODORODLAR

**Tayanch iboralar.** Parafin, gomologik qator, radikal, izomeriya, nomenklatura; konformatsiya, birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi, to'rtlamchi uglerod atom, Vyurs reaksiyasi, izomerlanish, degidrolanish va zanjir reaksiyalar.

Organik modda molekulasi dagi uglerod atomlari o'zaro oddiy bog' ( $\delta$ ) bilan bog'lanib, qolgan valentliklari vodorod atomlari bilan to'yigan bo'lsa *to'yigan uglevodorodlar* deyiladi:



metan



butan

To'yingan uglevodorodlarda uglerod atomlari  $sp^3$ - gibridlangan holatda bo'ladi va uglerod-uglerod, uglerod-vodorod atomlari o'zaro kovalent bog' hosil qilib, ularning elektron buluti, atomlarning bog'lanish o'qlari bilan bir chiziqdagi joylashadi. Bunday bog'lanish turi oddiy bog'lanish deb,  $\delta$  — sigma belgisi bilan ifodalanadi. Elektron zichligining asosiy massasi atom yadrolari o'rtasida kichik masofada joylashgani uchun oddiy bog' juda mustahkam bo'ladi. Bu uglevodorodlarni birinchi vakili metan. Metandagi to'rtta vodorod atomini birini —  $CH_3$ , guruhga almashtirsak alkanlarni ikkinchi vakili etan hosil bo'ladi. Vodorod atomini metil guruhga almashtirishni davom ettirilsak, kimyoviy tuzilishi jihatidan o'zaro o'xshash, tarkibi bir-biridan  $CH_3$ , guruhga farq qiladigan birikmalar gomologlar hosil bo'ladi. Gomologlar guruhi gomologik qator deyilib, ular o'rtasidagi « $CH_3$ » guruh farqini gomologik qator tafovuti deyiladi. Alkanlarning gomologik qatorining umumiy formulasi  $C_nH_{2n+2}$  bilan ifodalanadi.

To'yingan uglevodorodlar molekulasidan bitta vodorod atomi tortib olinsa, bir valentli radikal hosil bo'ladi. Radikallar orqali murakkab organik moddalar nomlanadi.

Radikal nomi to'yingan uglevodorodlar nomidagi «an» qo'shimchasi o'rniga «il» qo'shimchasini qo'shish bilan hosil bo'ladi:


$CH_3$ — metan	$CH_3$ — metil radikal
$C_2H_6$ — etan	$C_2H_5$ — etil radikal
$C_3H_8$ — propan	$C_3H_7$ — propil radikal
$C_4H_{10}$ — butan	$C_4H_9$ — butil radikal

va hokazo.

## IZOMERIYASI

Izomeriya grekcha ikki so'zdan tashkil topgan bo'lib, *isos* — teng va *meros* — qism ma'nosini bildiradi.

Demak, moddalarning umumiy formulasi bir xil bo'lib, tuzilish formulasi va fizik-kimyoviy xossalari har xil bo'lgan moddalar izomerlar deyiladi. Organik kimyoda izomerianing turli tiplari uchraydi. Uglevodorodlarni tarkibi bir xil, ammo uglerod zanjirini birikish tartibi har xil bo'lgan birikmalar struktura izomerlarga ega bo'ladi. To'yingan uglevodorodlarda bu tip izomeriya butandan boshlanadi.



n-butan




izobutan

Uglerod atomlari o'zaro birikib to'g'ri zanjir hosil qilsa *normal* (n), tarmoqlangan bo'lsa *izo-birikmalar* deyiladi.


**E'tibor bering!** Molekulada uglerod atomlarining soni ortib borishi bilan izomerlar soni keskin ko'payadi.

Masalan, pentanda 3 ta, geksanda 5 ta, geptanda 9 ta, oktanda 18, nonanda 35, dekanda 75 ta izomer bor.


Uglerod atomi bitta uglerod bilan bog'langan bo'lsa birlamchi ( $\text{C}^I$ ), ikkita uglerod atomi bilan bog'langan bo'lsa ikkilamchi ( $\text{C}^{II}$ ), uchta uglerod atomi bilan bog'langan bo'lsa uchlamchi ( $\text{C}^{III}$ ), to'rtta uglerod atomi bilan bog'langan bo'lsa to'rtlamchi ( $\text{C}^{IV}$ ) deyiladi:



Masalan, birgina izooktan formulasida to'rt xil uglerod atomini ko'rish mumkin:




**Konformatsiya** — molekulalarning fazodagi shakli bo'lib, molekulalarda atomlarning o'zaro normal joylashishini, ma'lum burchak va masofada bo'lishligini o'rgatadi. Normal sharoitda ikki valentli uglerod atomi orasidagi burchak  $109^\circ 28'$  ni tashkil etishi kerak. Shuning uchun ham oddiy zanjir uzunligida joylashgan uglevodorodlar ham quyidagi ko'rinishga ega:



Bu holatda uglerodlar ( $C-C$ ) o‘z o‘qi atrofida oson aylanadi. Bir xil moddaning bir necha xil konformatsiyada bo‘lishi molekuladagi funksional guruhlarning holatiga bog‘liq. Ular bir-biriga oson aylanishi mumkin.

Masalan, etan molekulasida bitta metil guruhi oddiy bog‘ ( $C-C$ ) orqali  $360^\circ$  ga aylanib, *A* holatdan *B* holatga o‘tadi.






Etan molekulasi Nyumen formulasi bo‘yicha ifoda etilsa, *A* holatda vodorod atomlari orasidagi masofa yaqin bo‘lib, ularning bir-biriga ta’siri kuchli bo‘lishini yaqqol ko‘rish mumkin. Molekulaning turg‘un holati ikkinchi metil guruhi  $60^\circ$  ga aylanganda vujudga keladi. Chunki bu ikki holatda sarflanayotgan energiyaning tafovuti 3 kkal/mol ni tashkil etadi. Oddiy sharoitda *A* va *B* izomerlar aralashmasi bo‘lib, ularning asosiy qismini *B* shakl tashkil etadi.

## NOMENKLATURASI




Organik birikmalarning ko‘plab kashf etilishi natijasida ko‘pchilik organik moddalarga trivial (tasodify) nomlar berilgan. Masalan, to‘yingan uglevodorolarning birinchi to’rtta vakiliga метан, etан, пропан va бутан deb tasodify nom berilgan. Pentandan boshlab алканлarning nomiga molekula таркебидаги углерод атоми сонинг грекча nomiga «ан» qo‘sishmchasini qo’shib hosil qilinadi. Masalan, pentan —  $C_5H_{12}$ , гексан —  $C_6H_{14}$ , гептан —  $C_7H_{16}$  va октан —  $C_8H_{18}$ .

XIX asrdan boshlab organik moddalarni nomlashda ratsional (lotincha «ratio» — fikrlash demakdir) nomenklatura qo’llanildi.


Metanning hosilalarini nomlashda radikallar nomi oxiriga metan so‘zi qo’shib o‘qlidi:




Radikallarning nomi oddiydan murakkabga qarab qo‘yiladi va ular bir nechta bo‘lsa, radikallar oldiga grek sonlari: di (ikki), tri (uch), tetra (to‘rt) yoziladi:



Ratsional nomenklatura oddiy moddalarni nomlashda qulay, ammo murakkab va tarmoqlangan zanjirli organik moddalarni nomlab bo‘lmaydi. Masalan, quyidagi formula bir qancha




metan markazi bo‘lgani uchun bu nomenkulatura bo‘yicha nomlash qiyin. Shuning uchun 1892- yil Jenevada xalqaro kimyogarlar kongressida yangi nomenklatura qabul qilindi. Jeneva nomenklaturasi bo‘yicha moddalardagi asosiy zanjir raqamlanilib, radikal nomining oldiga ushbu radikalning asosiy zanjirdagi qaysi uglerod atomiga birikkanligini ko‘rsatuvchi raqam qo‘yiladi:




1960- yilda IUPAC (Internatsional Union of Pure Applied chemistry) – IYUPAK (Sof va amaliy kimyo xalqaro ittifoqi) komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan yangi nomenklatura e’lon qilindi. Bu nomenklaturada Jeneva nomenklaturasi takomillash-

tirilgan, ya'ni u tartibga solingan va unga ayrim tuzatish hamda qo'shimchalar kiritilgan. Bu nomenklatura sistematik nomenklatura nomini oladi.


To'yingan uglevodorodlarni sistematik nomenklatura bo'yicha nomlash uchun avvalo asosiy zanjir (uglerod zanjiri) raqamlanadi. Raqamlash radikal joylashish yoki chetga yaqin turgan tomondan boshlanadi.



Agar radikallar asosiy zanjirming ikki uchidan baravar uzoqlikda joylashgan bo'lsa, raqamlash oddiy radikallar joylashgan tomondan boshlanadi:



Agar zanjirda bir necha bir xil radikal joylashgan bo'lsa, raqamlash radikallar ko'p joylashgan tomondan boshlanib, ularning sonini ko'rsatish uchun radikallar nomi oldiga di-, tri-, tetra- so'zлari yoziladi. Radikallarni uglerod atomiga birikkan joylari raqam bilan ko'rsatiladi:




Shunday qilib, sistematik nomenklatura bo'yicha moddalarni nomlashda molekuladagi asosiy zanjir aniqlanib, undagi uglerod atomlari raqamlanadi. Uglerod atomlarida joylashgan oddiy va murakkab radikallarni ko'rsatuvchi raqamlar radikal nomi oldiga defis orqali qo'yiladi va ular asosiy zanjirga mos keluvchi uglevodorodlar nomi oldiga qo'shib o'qiladi.

## TABIATDA UCHRASHI VA OLINISHI


To‘yingan uglevodorodlar, asosan, tabiiy gazdan (96–98% metan, qolgan foizini etan, propan va butanlar tashkil etadi), neftdan, tog‘ mumidan va o‘simliklardan olinadi. Shu bilan birga alkanlar sintez qilib olinadi:

1) To‘yingan uglevodorodlar fransuz kimyogari Adolf Vyurs (1855) reaksiyasi bo‘yicha galoidalkillarga natriy metalini ta’sir ettirib olinadi:




Ikki molekula etil yodiddan butan, bir molekula metil yodid va bir molekula etil yoddidan propan olinadi.

Yuqori molekular ikki xil galoid alkillar bu reaksiya natijasida uch xil to‘yingan uglevodorodlar aralashmasini hosil qiladi.





Bu reaksiya mexanizmini P.P.Shorigin aniqladi. Galoid alkil birinchi navbatda alkilning metali bilan natriy-organik birikmani, so‘ngra u galoid alkilning ikkinchi molekulasi bilan reaksiyaga kirishib to‘yingan uglevodorodni hosil qiladi:




A.Vyurs usuli universal, ya’ni bu usul bilan uglevodorodlarni olish va ularning tuzilishini aniqlash mumkin.


2. Alkanlarning galogenli hosilalarini katalizator ishtirokida vodorod atomlari yoki vodorod yodid bilan yuqori temperaturada qaytarib olinadi:



3. Alkanlar to'yinmagan uglevodorodlarni qaytarish yo'li bilan olinadi:



4. Alkanlar istagan karbon kislota tuzlarini ishqorlar bilan qizdirib olinadi:



## FIZIK XOSSALARI

A.M. Butlerov nazariyasiga asosan moddalarning fizik xossalari ularning tarkibiga va tuzilishiga bog'liq. Masalan, to'yingan uglevodorodlarning fizik xossalari o'zgarishini ularning gomologik qatorida ko'rish mumkin (3-jadval).

3- jadval

Nomi	Formulasi	Suyuqlanish temperaturasi, °C	Qaynash temperaturasi, °C	$d_4^{20}$
Metan	$\text{CH}_4$	-184	-162	-
Etan	$\text{C}_2\text{H}_6$	-172	-88	-
Propan	$\text{C}_3\text{H}_8$	-190	-42	-
Butan	$\text{C}_4\text{H}_{10}$	-135	-0,5	-
Izobutan	izo- $\text{C}_4\text{H}_{10}$	-140	-10	-
Pentan	$\text{C}_5\text{H}_{12}$	-132	36	0,6261
Izopentan	izo- $\text{C}_5\text{H}_{12}$	-161	28	0,6197
Geksan	$\text{C}_6\text{H}_{14}$	-94	69	0,6603
Geptan	$\text{C}_7\text{H}_{16}$	-90	98	0,6834
Oktan	$\text{C}_8\text{H}_{18}$	-57	126	0,7031
Nonan	$\text{C}_9\text{H}_{20}$	-54	151	0,7182
Dekan	$\text{C}_{10}\text{H}_{22}$	-30	174	0,7301
Undekan	$\text{C}_{11}\text{H}_{24}$	-26	196	0,7400
Dodekan	$\text{C}_{12}\text{H}_{26}$	-10	216	0,7490
Tridekan	$\text{C}_{13}\text{H}_{28}$	-6	234	0,7570
Tetradekan	$\text{C}_{14}\text{H}_{30}$	5,5	252	0,7640
Pentadekan	$\text{C}_{15}\text{H}_{32}$	10	266	0,7690

3-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, metan, etan, propan, butan va izobutanlar gaz, pentandan geksadekangacha suyuqlik bo‘lib, ular o‘ziga xos benzin va kerosin hidiga ega, geksadekandan boshlab esa qattiq moddalardir. Molekula massasi ortishi bilan to‘yingan uglevodorodlarda suyuqlanish, qaynash temperaturalari va solishtirsa massa oshib boradi.

Normal zanjirli uglevodorodlarning qaynash temperaturasi ularning izo-holati qaynash temperaturasida yuqori bo‘ladi. Masalan, n-pantan 36 °C da, izopentan esa 28 °C da qaynaydi.

Aksincha, normal uglevodorodlarning suyuqlanish temperaturasi tarmoqlangan uglevodorodlarning suyuqlanish temperatura-sidan past bo‘ladi.



To‘yingan uglevodorodlar qutbsiz erituvchilarda (benzol, efir, xloroform) yaxshi eriydi, kuchli qutbli erituvchilarda ( $H_2O$ ) erimaydi.

## KIMYOVIY XOSSALARI


To‘yingan uglevodorodlar kimyoviy inert moddalar bo‘lib, oddiy sharoitda oksidlanmaydi va reaksiyaga kirishmaydi. Shuning uchun ular parafinlar (lotincha *parum officin* — aktivmas) deb ataladi. Buning sababi, uglerod-uglerod va uglerod-vodorod mustahkam oddiy bog‘larga ega bo‘lib, ularning bog‘lanish energiyasi 83 kkal/molga teng. To‘yingan uglevodorodlar barcha uglerod atomlarining bog‘lari to‘yingan bo‘lganligi ular birikish reaksiyasiga kirishmaydi.

Ammo katalizatorlar ishtirokida, temperatura, yorug‘lik va ultrabinafsha nurlar ta’sirida alkanlar gomolotik o‘rin olish reaksiyalariga kirishadi.


**Galogenlash.** Metan bilan xlor yorug‘lik ta’sirida reaksiyaga kirishib, metandagi vodorod atomlari asta-sekin xlor atomlari bilan o‘rin almashadi:



Metan va xlor aralashmasi quyosh nuri ta’sirida portlaydi, natijada vodorod xlorid va uglerod hosil bo‘ladi:



**Nitrolash.** To'yingan uglevodorodning bitta vodorod atomi o'miga nitroguruh —  $\text{NO}_2$  almashinishiga nitrolash deyiladi. 1888-yilda rus olimi M.I.Konovalov suyultirilgan nitrat kislotani uglevodorodlar bilan yuqori bosim ostida qizdirib ( $140^\circ\text{C}$ ) nitrobirkimlar hosil qiladi:




Nitrolash reaksiyasida moddalardagi uchlamchi uglerod atomidagi vodorod nitroguruhga oson almashadi.


Sanoatda nitrobirkimlar to'yingan uglevodorodlarga nitrat kislota bug'i yoki azot (IV)-oksid ta'sir ettirib olinadi.

Nitrobirkimlar surkov moylari, bo'yoq va sintetik moddalarni olishda xom ashyo sifatida ishlatiladi.

**Sulfoxlorlash.** Alkanlar sulfit angidrid va xlor bilan ultrabinafsha nur ta'sirida reaksiyaga kirishib alkansulfonilxloridlar hosil qiladi:




Alkansulfonilxloridlarga ishqor ta'sir ettirilsa, ulaming natriyli tuzlari — sulfonatlar hosil bo'ladi:




Bu tuzlar sintetik yuvish vositalari sifatida ishlatiladi.


**Oksidlanish reaksiyalari.** Oddiy sharoitda kaliy permanganat va xromli aralashma normal uglevodorodlarga ta'sir etmaydi. Uchlamchi uglerod atomini saqlaydigan uglevodorodlar oson oksidlanadi. Uglevodorodlar marganesli katalizatorlar ishtirokida  $200^\circ\text{C}$  da havodagi kislород ta'sirida oksidlanadi va natijada parchalanib kam uglerod atomiga ega bo'lgan kislород saqlovchi birikmalar hosil qiladi:




Uglevodorodlar  $300^\circ\text{C}$  dan yuqorida havoda yonib,  $\text{SO}_2$  va  $\text{H}_2\text{O}$  hosil qiladi:



**Kreking.** Yuqori temperaturada to'yingan uglevodorodlarning uglerod-uglerod bog'lari uzilib radikallar hosil qiladi va natijada uglerod atomi kam bo'lgan alkan va alkenlar aralashmasi hosil bo'ladi. Bu jarayon *termik kreking* deb ataladi:



Agarda parchalanish katalizatorlar ishtirokida olib borilsa, *katalitik kreking* deyiladi. Bu usulda normal uglevodorodlardan izomer molekulalar ham hosil bo'ladi.



### Bilasizmi?

- Fransuz kimyogari A.Vyurs alkanlarni universal sintetik usulini 1855- yil yaratdi.
- Rus kimyogari M.I.Konovalov alkanlarning nitrolash reaksiyasini 1888- yil amalga oshirdi.
- N.N.Semyonov va S.N.Xinshelvud zanjir reaksiyalarning mexanizmini o'rGANISH bo'yicha katta ishlari uchun Nobel mukofotiga sazovor bo'lishgan (1956- y.).

## ALKANLARNI IDENTIFIKATSİYALASH

O'rganilayotgan birikma funksional guruhlarga xos reaksiyalarga kirishmasa, kimyoviy jihatni sust bo'lsa, uni alkanlar sinfiga mansubligidan dalolat beradi. Sof organik moddalarning tuzilishini aniqlash uchun ularning tarkibi, fizik xossalari aniqlangandan so'ng, spektral metodlar — UB — ultrabinafsha, IQ — infraqizil, PMR (proton-magnit rezonansi) yordamida spektrlari o'rganiladi.


UB- spektrda 200 nm dan yuqorida alkanlarda yutilish chiziqlari kuzatilmaydi. Alkanlarning IQ- spektrida o'ziga xos yutilish chiziqlari bo'ladi:  $\nu_{C-H} = 2850 - 3000 \text{ cm}^{-1}$ ;  $\nu_{C-H}$  CH<sub>2</sub> guruhlarda — 1460—1470  $\text{cm}^{-1}$ ;  $\nu_{C-H}$  CH<sub>3</sub> guruhlarda esa 1380  $\text{cm}^{-1}$  ga teng. PMR- spektrda alkanlarning protonlari kuchli maydonda (0,8—1,7 m.d.) joylashgan bo'ladi: metil guruh protonlari — CH<sub>3</sub> (0,8—1,3 m.d.) metilen guruh protonlari > CH<sub>2</sub> (1—1,2 m.d.) metin guruh protonlari esa > CH (1,5—1,7 m.d.) qismida joylashgan. Spektral metodlarning hamma turlari bir-birini to'ldiradi va ularni solishtirib chuqur o'rgangandan so'ng birikmaning tuzilishi aniqlanadi. Agarda birikmaning tuzilishida ikkilanish bo'lsa, u holda ularning hosilalari olinib, spektarlarini o'rganiladi.

2,4-dimetilpentanning PMR- spektrda to'rtta ekvivalent metil guruh protonlari yonidagi C—H protoni ta'sirida 12 protonga teng bo'lgan dublet (0,86 m.d.) hosil qilgan, C—H dagi metin protonlari esa metil guruhlardi va > CH<sub>2</sub> dan protonlar ta'sirida (1,60 m.d.) 2 protonli murakkab multplet hosil qilgan, metin protonlar ta'sirida metilendagi protonlar (1,04 m.d.) dan 2 protonli triplet hosil qilgan.

## TO'YINGAN UGLEVODORODLARNING ISHLATILISHI

To'yingan uglevodorodlar, asosan, yonilg'i sifatida avtomobil, samolyotsozlik va metallurgiya sanoatida ishlatiladi.

Metan metanol, sirka kislota, sintetik kauchuk, sintetik benzin va bo'yoqlar olishda dastlabki xomashyodir. Ularni sanoatda sintez qilishda sintez-gaz deb ataluvchi gazdan foydalilanadi. U metandan ikki xil usul bo'yicha 800—900 °C va katalizatorlari ishtirokida olinadi:






Metanning xlорли бирікмалардан xlорметан  $\text{CH}_3\text{Cl}$  соғытгіч иншруттарда, дихлорметан  $\text{CH}_2\text{Cl}_2$ , трихлорметан (хлороформ)  $\text{CHCl}_3$  ва тетраклорметан —  $\text{CCl}_4$  лар ертуvчи сифатта ішләтіләди.

To'yingan uglevodorodlarning yuqori molekular vakillaridan алкан сульфонаттар синтетик yувиш восталари сифатта, вазелин moyi ( $\text{C}_{10}\text{H}_{44} - \text{C}_{15}\text{H}_{32}$ ), вазелин ( $\text{C}_{12}\text{H}_{26} - \text{C}_{25}\text{H}_{52}$ ) ва qattiq parafin ( $\text{C}_{19}\text{H}_{40} - \text{C}_{36}\text{H}_{74}$ ) лар медитсинада ішләтіләди.

### *Savol va mashqlar*

- Organik бирікмалarda izomeriya hodisasini ko'p uchrashiga sabab nima?
- A.M. Butlerov qaysi alkanning tuzilishini va mavjudligini oldindan aytib sintez qilgan?
- Quyidagi uglevodorodlarning nomlarini yozing.




- Vyurs reaksiyasi bo'yicha метил ва этил yодидлардан qандай алканлар оlish mumkin?
- Nima uchun алканларни «parafinlar» deb atalgan?
- Алканлarning xlорланыш reaksiyasi qандай reaksiya turiga kiradi?
- Метани degidrogenlab асетилен оlish ва undan xalq xo'jaligida ішләтіладиган мoddalarni оlish reaksiya tenglamalarini yozing.
- 11,2 / butanni yoqish uchun qancha hajm kislород kerak bo'ladi?

**Tayanch iboralar:** alkenlar, geometrik (sis- va trans) izomeriya, gidrolanish, hidratlanish va polimerlanish reaksiyalari; V.V. Morkovnikov qoidasi; Xarash effekti; telomerlanish

### TO'YINMAGAN UGLEVODORODLAR


Molekulasida oddiy  $\delta$ - bog'lar ( $C-C$ ,  $C-H$ ) bilan birga  $\pi$ -bog'lar saqlaydigan uglevodorodlarga *to'yinmagan uglevodorodlar* deyiladi. Ular  $\pi$ - bog'larni soniga va joylashishiga qarab, asosan, uchga bo'linadi: alken, alkin va diyen uglevodorodlar. Bu uglevodorodlarni o'zaro ( $2H$ ) vodorod atomlari bilan farq qilishiga izologik qator uglevodorodlari deyiladi.




**Alkenlar** (bir qo'sh bog'li uglevodorodlar, olefinlar). To'yingan uglevodorodlardan ikki vodorod atomiga kam bo'lgan, shu hisobiga bitta  $\pi$ -bog' (qo'sh bog') saqlaydigan uglevodorodlarga alkenlar deyiladi. Ularning gomologik qatorining umumiy formulasi —  $C_nH_{2n}$  bo'lib, birinchi vakili etilen  $C_2H_4$  dir. Golland kimyogarlari etilenden moysimon etilen xlorid oladi, shu sababli etilenga moy hosil qiluvchi gaz (lotincha *gaz olefiant*) degan nom berdilar. Shuning uchun etilen uglevodorodlarni olefinlar ham deb yuritiladi.

### NOMENKLATURASI


Etilen uglevodorodlarning oddiy vakillari tegishli to'yingan uglevodorodlar nomidagi «an» qo'shimchami o'rniغا «ilen» qo'shimchasini qo'shib o'qish bilan nomlangan.



etilen





propilen




izobutilen


Ratsional nomenklatura bo'yicha alkenlar nomi molekuladagi radikallar nomiga etilen so'zini qo'shib o'qishdan hosil bo'ladi va etilen uglerod atomlari  $\alpha$  hamda  $\beta$  harflari bilan ifodalanadi:

 $\alpha$ -etiletien $\alpha$ -metil- $\beta$ -etiletien


Sistematik nomenklatura bo'yicha alkenlar nomi to'yingan uglevodorodlar nomidan «an» qo'shimchasi o'rniiga «en» (qo'sh bog'ni bildiruvchi) qo'shimchasini qo'shib o'qishdan va uni tutgan uglerod atomini ko'rsatishdan hosil bo'ladi. Qo'sh bog' saqlagan asosiy zanjir, qo'sh bog' yaqin joylashgan uglerod atomi tomonidan raqamlanadi:




2-buten (yoki buten-2)

2-metil-3-etyl-2-geksen  
(yoki 2-metil-3-etylgeksen-2)


Alken radikallar nomi ularning nomiga «il» qo'shimchasini qo'shib o'qish bilan hosil bo'ladi. Radikaldagi uglerod atomlari valentligi bo'sh bo'lgan uglerod atomidan boshlab raqamlanadi.



2-propenil (allil)




etenil (vinil)

izopropenil  
1-metiletenil

## IZOMERIYASI

Etilen uglevodorodlar molekulaning tuzilishiga qarab uch xil izomerga ega bo'ladi. Birinchi xil izomeriya uglerod zanjiridagi qo'shbog'ning turlicha joylanishidan va ikkinchi izomeriya uglerod zanjirining tarmoqlanishidan hosil bo'ladi. Bu ikki izomeriyani buten  $\text{C}_4\text{H}_8$  izomerlaridan ko'rish mumkin.




**Qo'sh bog'li molekulaning ayrim xususiyatlari.** Molekuladagi qo'sh bog' (C—C)ning uzilishi uchun 146 kkal/mol energiya sarflanadi, oddiy bog'ga esa C—C 81 kkal/mol, demak bog'ning uzilishi uchun  $146 - 81 = 65$  kkal/mol kerak bo'ladi. Bundan ko'rinish turibdiki,  $\pi$ - bog'  $\delta$ -bog'ga nisbatan oson uziladi va natijada birikish reaksiyasi sodir bo'ladi. Bu hol va  $\pi$  va  $\delta$ -elektronlar bulutlari molekulada teng tarqalganligini ko'rsatadi.


Shu bilan birga uglerod atomlarini C=C oraliq masofasi 0,134 nm ni tashkil etadi, oddiy bog'langan uglerod atomlarida C—C masofa 0,154 nm ga teng. C=C da oraliq masofaning kam bo'lishi hisobiga, qo'sh bog' atrofida atomlar guruhi erkin aylanmaydi.

Buning natijasida etilen uglevodorodlarda uchinchi xil izomeriya fazoviy izomeriya vujudga keladi. Bu fazoviy izomerianing o'zi ikki xil izomeriyaga ega bo'ladi.

Agar uglerod atomlaridagi vodorod atomlari qo'sh bog' orqali o'tgan tekislikning bir tomonida joylashgan bo'lsa sisizomer, qarama-qarshi tomonda joylashgan bo'lsa trans-izomer deyiladi:



sis-2-buten




trans-2-buten

### *E'tibor bering!*


Etelen uglevodorodlardagi sis- va trans-izomerlar qo'sh bog' tutgan uglerod atomlaridagi vodorod atomlarning yoki guruh atomlarning joylashishiga bog'liq.

## OLINISH USULLARI


1. Neftni qayta ishlash zavodlarida kreking jarayonida hosil bo'lgan gazlardan etilen uglevodorodlar olinadi.
2. Laboratoriya sharoitida spirtlardan (temperatura ostida) quyuq sulfat kislota ishtirokida olefinlar olinadi:




3. Monogaloid alkanlarga o'yuvchi kaliyning spirtli eritmasini ta'sir ettirib olinadi:




4. Diagaloid alkanlardan Mg yoki Zn metallari ta'sirida olinadi:



5. Alkinlarga Pt va Pd katalizatorlari ishtirokida vodorod molekulasi biriktirib olinadi:



6. Alkanlarni yuqori temperaturada ( $350-400^{\circ}\text{C}$ ) degidrogenlab, etilen uglevodorodlar olinadi:



## FIZIK XOSSALARI

Etilen uglevodorodlar gomologik qatorining birinchi uch vakili gazlar,  $\text{C}_5$  dan  $\text{C}_{18}$  gacha suyuqlik, bulardan yuqori molekulalilari qattiq moddalardir. Molekula massasining ortib borishi bilan suyuqlanish va qaynash temperaturasi ortib boradi (4- jadval).

Alkenlar suvda umuman erimaydi, organik erituvchilar (xloroform, uglerod (IV)-xlorid, benzol, efir)da yaxshi eriydi.

Brom va kaliy permanganatlarning suvli eritmalaridan alkenlar o'tkazilganda eritmalarining rangi o'chadi. Bu holat molekulada qo'sh bog' borligini ko'rsatadi.

Hozirgi fizik usullar yordami bilan alkenlarning xossalari aniqlanadi. IQ- spektrda qo'sh bog'ning tebranishi  $1650 \text{ cm}^{-1}$  yutilish chizig'iiga ega. UB- spektrda esa etilen uglevodorodlarning yutilish maksimumi  $180-200 \text{ nm}$  ni tashkil etadi. PMR- spektrda vinil protonlar, spektrning kuchsiz maydonida  $4,5-6,5 \text{ m.d.}$  paydo bo'ladi. Bu usullar yordamida alkenlarni taqqoslash ancha qulay.

### Alkenlarning fizik xossalari

№	Nomi	Formulasi	Temperaturasi, °C		$d_4$ qaynash tempera- turasida
			suyuq- lanish	qaynash	
1.	Eten	C <sub>2</sub> H <sub>4</sub>	-169	-104	0,5700
2.	Propen	C <sub>3</sub> H <sub>6</sub>	-185	-47,7	0,5170
3.	Buten-1	C <sub>4</sub> H <sub>8</sub>	-185	-6	0,5960
4.	Penten-1	C <sub>5</sub> H <sub>10</sub>	-165	30	0,6430
5.	Geksen-1	C <sub>6</sub> H <sub>12</sub>	-138	63,5	0,6730
6.	Gepten-1	C <sub>7</sub> H <sub>14</sub>	-119	93,6	0,6970
7.	Okten-1	C <sub>8</sub> H <sub>16</sub>	-102	122,5	0,7150
8.	Nonen-1	C <sub>9</sub> H <sub>18</sub>	-78	146	0,7310
9.	Detsen-1	C <sub>10</sub> H <sub>20</sub>	-66,3	170,6	0,7400


#### *Bilasizmi?*

Moddalarning qaynash temperaturasi oshib borishi ularning molekula massasining og'irligiga bog'liq.


### KIMYOVIY XOSSALARI

Etilen uglevodorodlardagi qo'sh bog' ( $\text{C}=\text{C}$ ) mustahkam  $\delta$ - bog' va mustahkam bo'limgan  $\pi$ -bog'lardan tashqil topgan bo'lib,  $\pi$ - bog'nинг yengil uzelishi hisobiga biriktirib olish reaksiyasiga ega. Bu xususiyat etilen uglevodorodlar uchun xarakterli hisoblanadi.

**Vodorodlarning birikishi.** Alkenlarga yuqori temperatura (150—200 °C) da nikel yoki platina katalizatorlari ishtirokida ikki atom vodorod birikib, alkanlar hosil qilishini fransuz kimyogari Nobel mukofoti laureati P.Sabate kashf etdi:




**Galoidlarning birikishi.** Molekuladagi qo'shbog' hisobiga Cl<sub>2</sub> va Br<sub>2</sub> lar oson birikib, digaloid birikmalar hosil qiladi:




Bu reaksiya mexanizmi quyidagicha: birinchi navbatda galoidning elektrofil zarrachasi alkendagi qo'shbog'ning  $\pi$ - elektroni bilan


$\pi$ -kompleks hosil qiladi, so'ngra bu moddaning guruhlanishi natijasida hosil bo'lgan xlor anioni ta'sirida digaloid birikma hosil bo'ladi:




**Galoidvodorodlarning birikishi.** Alkenlarga galoidvodorodlarning birikishi natijasida galoidalkillar hosil bo'ladi:





Qo'sh bog' yonidagi uglerod atomlaridagi vodorod atomlari teng bo'lganda galoidvodorodning vodorod va galoid atomlarini qaysi uglerod atomiga birikishining ahamiyati yo'q.



Qo'sh bog' yonidagi uglerod atomlaridagi vodorod atomlari teng bo'lmaganda, galoidvodorodlarning birikishi rus olimi V.V. Markovnikov (1869) qoidasiga asosan boradi. Bu qoidaga binoan galoidvodorodning vodorod atomi vodorod atomi ko'p bo'lgan uglerod atomiga, galoid atomi esa vodorod atomi kam bo'lgan uglerod atomiga birikadi:




**Suv va sulfat kislotaning birikishi.** Alkenlarga suv va sulfat kislota molekulalari V.V. Markovnikov qoidasi bo'yicha birikadi:




Bu reaksiyalarni sanoatda alkenlardan har xil spirit olishda keng foydalaniladi.


**Oksidlanish reaksiyaları.** Alkenlar kislotali muhitda qattiq sharoitda kaliy permanganat bilan oksidlansa, qo'sh bog' tutgan joydan parchalanib keton va kislotalar hosil qiladi:



Bu reaksiyaga asoslanib, molekulada qo'sh bog'ning qaysi uglerod atomlari orasida joylashganligi aniqlanadi. Rus olimi E.E.Vagner etilen uglevodorodlarni kaliy permanganatning suvli eritmasida ohistalik bilan neytral sharoitda, uy haroratida ikki atomli spiritglikollar hosil qiladi:





**Ozonlash reaksiyasi.** Etilen uglevodorodlar ozon ( $\text{O}_3$ ) bilan oksidlaniq ozonidlarni hosil qiladi. Ozonidlar beqaror birikma bo'lganligi uchun suv ta'sirida tezda aldegid va ketonlarga parchalanadi:




**Polimerlanish reaksiyasi.** Oddiy alkenlarning qo'shilishi natijasida yuqori molekular birikmalar hosil bo'lish reaksiyasiga *polimerlanish* deyiladi.

Ikki molekulaning qo'shilishidan – dimer va uchtadan – trimerlar hosil bo'ladi:



Sanoqsiz etilen molekulalarining bosim ostida va ozgina O<sub>2</sub> ta'sirida qo'shilishidan polietilen hosil bo'ladi:



Ishlatiladigan polietilenning o'rtacha molekular massasi 6000–12000 ga teng bo'lib, 215–420 tasi —CH<sub>2</sub>—CH<sub>2</sub>— zvenodir. Polietilen asosan plyonkalar, ro'zg'or idishlar, suv quvurlari va hokazo materiallar tayyorlashda keng ishlatiladi. Polietilen materiallar qishloq xo'jaligi va issiqxonalarda keng ishlatiladi.


### Bilasizmi?

— Qishloq xo'jaligining paxtachilik sohasida g'o'zaning har qanday obi-havoda rivojlanishini ta'minlashda ishlatiladigan polietilen plyonkasi etilenden olinadi.

— Rus olimi E.E.Vagner alkenlarni KMnO<sub>4</sub> ning suvli eritmasida oksidlab glikollar hosil qildi (1888).


— Rus olimi V.V.Makovnikov alkenlarga galoidvodorod va suvlarni birikish qoidasini yaratdi (1869).

Propilen molekulalari (C<sub>2</sub>H<sub>5</sub>)<sub>3</sub>Al va TiCl<sub>4</sub> ishtirokida polimerlanib polimer — polipropilen hosil qiladi.




Polipropilen mustahkam, chidamli polimer bo'lganligi uchun undan sintetik tolalar olinib, bu tolalardan har xil matolar tayyorlanadi.

Sanoatda etilenni uglerod (IV)-xlorid bilan sopolimerlanish jarayonida ishlatalishi telomerlanish deyiladi. Bu jarayon quyidagi mexanizm bo'yicha boradi. Etilen bilan uglerod (IV)-xlorid aralashmasiga erkin radikal beruvchi modda ta'sir ettirilsa, undan hosil bo'lgan radikal uglerod (IV)-xloriddan  $\text{CCl}_3$  radikalini siqib chiqaradi:  $\text{R}^\bullet + \text{CCl}_4 \rightarrow \dot{\text{C}}\text{Cl}_3 + \text{RCl}$  va natijada oxirgi radikal  $\text{CCl}_3^\bullet$ , etilen molekulalarining polimerlanishiga yordam beradi:




Bu molekulaning kattalashishi yangi molekula — uglerod (IV)-xlorid qo'shish bilan to'xtaydi:



Hosil bo'lgan  $\dot{\text{C}}\text{Cl}_3$  radikal yangi polimer zanjirini boshlab beradi.

Shunday qilib, oddiy molekulalarning polimerlanishi natijasida hosil bo'lgan yuqori molekular zanjirning oxirida galoid atomlarini saqlagan birikmalarga telomerlar deyiladi. Telomerlarni gidrolizlab har xil molekular massaga ega bo'lgan monogaloidli bir asosli karbon kislotalar olish mumkin:




Etilen uglevodorodlar asosiy xom ashyo sifatida kimyo sanoatida polietilen, etil spirt, etilenglikol, poli propilen, izopropil spirt, plastmassalar, portlovchi moddalar va sintetik kauchuk olishda ishlatalildi.

### *Savol va mashqlar*

1. Qaysi bog' hisobiga uglevodorodlar to'yinmagan bo'ladi?
2. Nima uchun alkenlar «olefinlar» deb yuritiladi?
3. Qaysi izomer alkenlarga xos?
4. Nima uchun etilen qatori uglevodorodlarida izomerlar soni to'yingan uglevodorodlarga nisbatan ko'p?

- Alkenlarda nimaning hisobiga birikish reaksiyasi ketadi? Reaksiya tenglamalarini yozish bilan tushuntiring.
- Brom va kaliy permanganatlarning suvli eritmalaridan alkenlar o'tkazilganda eritmalarning rangini o'chishini sababi nimada?
- Buten-1 va Buten-2 ga galoidvodorod ta'sir etganda, qaysi birida Markovnikov qoidasi bo'yicha reaksiya ketadi?
- Etilen uglevodorolari xom ashyo sifatida xalq xo'jaligining qaysi sohalarida ishlatalidi?
- Quyidagi o'zgarishlarning reaksiyalarining tenglamalarini yozing:



V b o b


## ALKINLAR. ASETILEN UGLEVODORODLAR

**Tayanch iboralar:** alkinlar; M.G.Kucherov, B N.D.Zelinskiy va B.A.Kazanskiy reaksiyalari; A.P.Eltekov qoidasi, dimerlanish reaksiyasi; asetilenidlar.

### ALKINLAR HAQIDA TUSHUNCHА

Molekulasida uch bog' saqlagan uglevodorodlarga alkinlar deyiladi. Alkinlar  $\text{C}_n\text{H}_{2n-2}$  umumiyl formulaga ega bo'lib, ularning birinchi vakili asetilen ( $\text{C}_2\text{H}_2$ ) dir.


Asetilenda C—H bog'i elektronlari  $sp$  gibridlangan, molekula chiziqsimon tuzilishga ega bo'lib, uglerod-uglerod masofasi 0,121 nm, uglerod-vodorod masofasi esa 0,106 nm va burchagi  $180^\circ$  ni tashkil etadi.




Asetilen molekulasi uchta oddiy  $\delta$  va ikkita  $\pi$ - bog'larga egadir.

### NOMENKLATURASI VA IZOMERIYASI

Ratsional nomenklatura bo'yicha alkinlar nomi asetilenning vodorodlari o'rniga joylashgan radikallar nomiga asetilen so'zini qo'shib o'qishdan hosil bo'ladi:




Sistematik nomenklatura bo'yicha alkinlar nomi to'yingan uglevodorodlar nomidan «an» qo'shimchasi o'rniga «in» qo'shimchasi yozilib, uning tutgan joyini ko'rsatish bilan o'qiladi. Asetilen uglevodorodlar uch bog'ning o'rinni almashinish va zanjirning tarmoqlanish izomeriyasiga ega.



## OLINISH USULLARI


1. XIX asrning boshida asetilen uglerodlarni volt yoyi orqali vodorod o'tkazib olingen:




2. Yuqori temperaturada metanni krekinglab olinadi:







3. Etilen uglevodorodlardan olinadi:




So'ngra digaloid birikmalarga ishqorning spirtli eritmasi ta'sir ettirilganda asetilen uglevodorodlar hosil bo'ladi:




4. Aldegid va ketonlar fosfor (V)-xlorid bilan digaloid birikmalar hosil qiladi, so'ngra ishqor ta'sirida asetilen uglevodorodlar olinadi:




5. To'ynrnagan ikki asosli kislota tuzlarini elektroliz qilib olinadi:



6. Laboratoriya sharoitida kalsiy karbiddan olinadi:



Kalsiy karbidni metall-organik birikmalar nuqtayi nazardan ko'rilsa, quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:



## FIZIK XOSSALARI

Alkinlarni birinchi uch vakili gaz,  $\text{C}_5$  dan  $\text{C}_{16}$  gacha suyuqlik, qolgan yuqori vakillari qattiq moddalardir (5-jadval).

Alkinlarni IQ-spektrda  $3300 \text{ cm}^{-1}$  da  $\equiv \text{C}-\text{H}$  guruhiga xos bo'lgan yutilish chizig'i hosil bo'ladi. UB-spektrda esa xuddi alkan

### Alkinlarning fizik xossaları

Nomi	Formulasi	Temperaturasi, °C		$d_4$
		Suyuq- lanish	Qay- nash	
Etin	H—C≡C—H	-82	-81	0,6200 (-81°C da)
Propin	H—C≡C—CH <sub>3</sub>	-105	-23	0,6700 (-23°C da)
1-butin	H—C≡C—CH <sub>2</sub> —CH <sub>3</sub>	-137	9	0,6780 (0°C da)
2-butin	CH <sub>3</sub> —C≡C—CH <sub>3</sub>	-33	27	0,6880 (25°C da)
1-pentin	H—C≡C—CH <sub>2</sub> —CH <sub>2</sub> —CH <sub>3</sub>	-98	40	0,695
2-pentin	CH <sub>3</sub> —C≡C—CH <sub>2</sub> —CH <sub>3</sub>	-101	55	0,714

và alkenlarga o'xshash 200 nm da yutilish maksimumiga ega. PMR-spektrda molekuladagi  $\equiv C - H$  proton 2,3—2,9 m.d. maydonda bir protonli singlet holatida uchraydi. Fizik usullar orqali olingan ma'lumotlar asosida asetilen uglevodorodlarning xossalarini taqqlaslab o'rganiladi.



### KIMYOVIY XOSSALARI

Alkinlarning asosiy kimyoviy xossalaridan biri  $\pi$ -bog'larni oson uzilishi hisobiga birikish reaksiyasiga kirishadi, buning sababi  $\pi$ -bog'lar energiyasining kichikligidir.


Oddiy  $\delta$ -bog'ning  $-C-C-$  energiyasi 83 kkal/molga teng, uch bog'  $\equiv C-C-$  niki esa 199 kkal/molga teng, u holda bog'  
 $\frac{99-83}{2} = 58$  kkal/mol energiyaga ega bo'ladi.

Asetilen molekulasidagi C—H guruhida juft elektronlar uglerod atomiga ko'proq siljigani uchun undan vodorod atomi oson ajraladi. Bu esa molekulaga kislota xususiyatini beradi, natijada vodorod atomlari metallarga o'rinnamashadi.


**Vodorod va galoidlarning birikishi.** Bu reaksiya ikki bosqichda ketadi, avval bir molekula birikib alkenlar, so'ngra ikkinchi molekula birikib alkanlar hosil qiladi.




**Vodorod galogenidlarning birikishi.** Bu reaksiya V.V. Markovnikov qoidasiga asosan boradi:




**Suvning birikishi.** 1881- yilda rus olimi M.G.Kucherov asetylenga  $\text{HgSO}_4 + \text{H}_2\text{SO}_4$  aralashmasi ishtirokida suvning oson birikishi natijasida sirkal aldegid hosil bo'lishini kashf etdi:




1877- yil A.P. Eltekov qo'sh bog' bilan tutashgan uglerod atomidagi hidroksil guruhi doimo beqaror bo'lib, tezda izomerizatsiyaga uchrab karbonil guruhga aylanishini ko'rsatdi:



**Spirit, karbon kislota va vodorod sianidlarning birikishi.** Asetylenga o'yuvchi kaliy va bosim ostida spirtlar birikib oddiy efirlar hosil qiladi:



Asetylenga  $\text{H}_3\text{PO}_4$  ishtirokida karbon kislotalar birikib murakkab efirlar hosil qiladi:




Asetilenga  $\text{CuCl}_2 + \text{NH}_3$  ishtirokida vodorod sianid birikib akrilonitril hosil bo'ladı:




Sanoatda akrilonitril sintetik tola va kauchuk olishda keng ishlataladi.

**Polymerlanish reaksiyasi.** Ikki molekula asetilen  $\text{NH}_4\text{Cl}$  va  $\text{CuCl}$  ishtirokida dimerlanib vinilasetilen hosil qiladi.





N.D.Zelinskiy bilan B.A.Kazanskiy yuqori temperatura va aktivlangan ko'mir ishtirokida uch molekula asetilendenan benzol hosil qilgan.




### *E'tibor bering!*

Asetilen uglevodorodlariagi  $\pi$ - bog'larni uzilishiga kam energiya sarflangani uchun birikish reaksiyalari ketadi.

**O'rIN OЛИSH REAKSIYASI.** Molekuladagi uch bog' yonidagi vodorod atomlari metallar bilan oson o'rIN almashib, metall asetilenidlarini hosil qiladi:




Hosil bo'lgan asetilenidlarga kislotalar ta'sir ettirilsa, qaytadan alkinlar hosil bo'ladı:




Kumush va mis asetilenidlari quruq holatda portlovchandir. Shuning uchun ular nam holatda saqlanadi.

**Oksidlanish reaksiyasi.** Alkinlar oson oksidlanib, dialdegid va so'ngra ikki asosli kislota hosil qiladi.



Agarda alkinlar kuchliroq oksidlansa, molekula uch bog' turgan joydan parchalanadi:



### *Bilasizmi?*

Asetilen uglevodorodlarida ham birikish, ham o'rin olish reaksiyalari sodir bo'ladi.

## **ALKINLARNING ISHLATILISHI**

Asetilen kislorodda yonganda  $3000^{\circ}\text{C}$  gacha issiqlik hosil qiladi. Bu xususiyatdan foydalanib, sanoatda, qurilishda va xo'jalikning boshqa tarmoqlarida metallarni hamda metall buyumlarni qirqishda va payvand qilishda keng ishlataladi.

Asetilen kimyo sanoatida asosiy xom ashyo hisoblanib, etil spirt, sirka kislota, allil spirt, gliserin, akrilonitril, vinilasetat, lyuizit, vinilasetilen va boshqa moddalar olinadi. Akrilonitril va vinilasetilen sintetik tola bilan kauchukning asosiy xom ashyosi hisoblanadi.


### *Savol va mashqlar*

1. Alkinlar nechta vodorod atomlari biriktirib olsa alken va alkanlar hosil bo'ladi. Shularning reaksiyasini yozing.
2. Asetilen qatori uglevodorodlari kimyoviy xossasi bo'yicha to'yingan va etilen uglevodorodlaridan nima bilan farqlanadi? Reaksiyalar yozib isbotlang.
3. Quyidagi uglevodorodlarning qaysi biri havoda yonganda dudli alanga bilan yonadi, sababi nimada?  
1)  $\text{CH}_4$ ; 2)  $\text{C}_2\text{H}_6$ ; 3)  $\text{C}_2\text{H}_4$ ; 4)  $\text{C}_3\text{H}_8$
4. Metallarni payvand qilishda ishlataladigan asetilen nimadan olinadi va uni nimaga qo'shib foydalaniadi. Sodir bo'ladigan reaksiyalarni yozing.
5. Asetilen uglevodorodlaridan qay vaqtida aldegid va keton hosil bo'ladi? Reaksiyalar asosida tushuntiring.
6. Asetilen qatori uglevodorodlarining boshqa sinf organik moddalar bilan genetik bog'lanishini so'zlab bering.
7. Quyidagi o'zgarishlarni amalga oshirish reaksiya tenglamalarini yozing:  
 $\text{CH} \equiv \text{CH} \rightarrow \text{C}_2\text{H}_6 \rightarrow \text{C}_2\text{H}_5\text{Cl} \rightarrow \text{C}_2\text{H}_4 \rightarrow \text{C}_2\text{H}_4\text{Cl}_2 \rightarrow \text{CH} \equiv \text{CH}$
8. 2 kg kalsiy karbidning suv bilan reaksiyaga kirishuvidan qancha hajm (n.sh.) asetilen olish mumkin?

**Tayanch iboralar:** diyenlar; kumulyativ; allen; konyugirlangan; S.V.Lebedev reaksiyasi; vulkanizatsiya; kauchuk.

Molekulasida ikkita qo'sh bog' saqlagan birikmalarga diyen uglevodorodlar deyiladi. Ularning umumiyligi formulasi alkinlarga o'xshash  $C_nH_{2n-2}$  dir.

Diyen uglevodorodlarning sistematik nomenklatura bo'yicha nomi to'yingan uglevodorodlar nomi oxiridagi «n» harfi o'rniiga «diyen» qo'shimchasini qo'shish va qo'sh bog' tutgan uglerod atomlarini ko'rsatish bilan hosil bo'ladi:




3-metil-1, 4-pentadiyen


Diyen uglevodorodlar molekulada qo'sh bog' larning joylanshiga va ularning xususiyatlari qarab uch guruhga bo'linadi:

1. *Kumulyativ qo'sh bog'li yoki allen CH<sub>2</sub>=C—CH<sub>2</sub> tipidagi diyen uglevodorodlar.* Bu diyen uglevodorodlarda qo'sh bog'lar yonma-yon joylashgan.

Allen gliserindan quyidagi reaksiya bo'yicha olinadi:




Allen uglevodorodlari oson reaksiyaga kirishadi va turli birikmalarni hosil qiladi.



2. Ajralgan qo'sh bog'li diyen uglevodorodlar. Bu uglevodorodlarda qo'sh bog'lar ikkita yoki undan ortiq uglerod atomlari bilan ajralgan bo'ladi. Ular  $\text{CH}_2=\text{CH}(\text{CH}_2)_n-\text{CH}=\text{CH}_2$  formulaga ega bo'lib,  $n = 2, 3, 4, 5, 6, \dots$  ga tengdir.

Ajralgan diyen uglevodorodlar A.Vyurs usuli bo'yicha olinadi:




Bu uglevodorodlardagi qo'sh bog'lar reaksiyalarga alohida kiri-shadi. Ana shu xususiyati bilan bu uglevodorodlardagi qo'sh bog' etilen uglevodorodlardagi qo'sh bog' xususiyatlariga o'xshashdir.


3. Konyugirlangan qo'sh bog'li yoki 1,3-butadiyen  $\text{CH}_2=\text{CH}-\text{CH}=\text{CH}_2$  tipidagi diyen uglevodorodlar. Bu guruh diyen uglevodorodlardagi qo'sh bog'lar xususiyati alkenlardagi qo'sh bog'laridan farq qiladi. Ular xalq xo'jaligida katta ahamiyatga ega.

Diyen uglevodorodlar molekulasida qo'sh bog'lar oddiy bog'lar bilan navbatma-navbat joylashadi. Bunday joylashish sistemasiga konyugirlangan qo'sh bog'lar deyiladi.


Birikish reaksiyasi natijasida konyugirlangan qo'sh bog' molekulada birikayotgan atomlar sharoitga qarab, 1,2 va 1,4-holatga birikadi.




1928- yilda akademik S.V.Lebedev etil spirtdan yuqori temperaturada katalizator ( $\text{MgO}; \text{ZnO}$ ) ishtirokida 1,3-butadiyen sintez qildi:




Sanoatda alkanlarni yuqori temperaturada va katalizator  $\text{Cr}_2\text{O}_3/\text{Fe}_2\text{O}_3$  ( $\text{Cu}^{2+}$ ),  $550^{\circ}\text{C}$ , P va  $\text{KNiPO}_4$  va qo'shimchalar ishtirokida degidrogenlab 1,3-butadiyen olinadi:



Izopren yoki 2-metil-1,3-butadiyen 2-metil butanni degidrogenlab olinadi:




Xloropren yoki 2-xlor 1,3-butadiyen vinilasetilenga vodorod xloridni biriktirish bilan olinadi:



1,3-butadiyen, izopren va xloroprenlar kauchuk olishda asosiy xomashyo hisoblanadi.

### *Bilasizmi!*

Sintetik kauchuk dunyoda birinchi bo'lib, akademik S.V.Lebedev usuli bo'yicha olingan:



1820- yilda Fransiyada kauchuk va to'qima tolalaridan to'qilgan tasmalar tayyorlangan.

**Tabiiy kauchuk** ( $\text{C}_5\text{H}_8$ ) formulaga ega bo'lib, Braziliyada o'sadigan geveya daraxti shirasidan olinadi. Kauchuk «koocho» so'zidan olingan bo'lib, u daraxtning ko'z yoshi ma'nosini bildiradi. Olingan daraxt shirasiga sirka kislota qo'shilsa, kauchuk ajralib chiqadi.


Tabiiy kauchuk elastik bo'lGANI uchun yeyilishga juda chidamli. Uning yaxshi xususiyatlaridan biri suv va gaz o'tkazmaydi va elektroizolatordir.

Kauchuk suvdagi erimaydi, benzolda, xloroformda va benzinda avval bo'kadi, so'ngra eriydi.

Kauchuk yuqori temperaturada yumshoq va yopishqoq, sovuqda esa qattiq va mo'rt bo'ladi. Kauchuk uzoq saqlansa qattiq bo'lib

qoladi. Bu kamchilikni yo‘qotish uchun kauchuk 130—140 °C temperaturada oltingugurt bilan qizdirilsa (vulkanizatsiya qilinsa), oltingugurt atomlari ba‘zi bir qo‘sh bog‘larga birikishi natijasida molekulalarni bir-biriga ulaydi va rezinaga aylanadi.


Masalan,



Rezinadan avtomobil, samolyot, velosiped, mashinasozlik sanoatlarida va uy-ro‘zg‘or buyumlarini tayyorlashda keng ishlatiladi. Agarda kauchukni vulkanizatsiya qilish vaqtida oltingugurt miqdori 32% gacha yetsa, qattiq modda — ebonit hosil bo‘ladi. Ebonit izolator sifatida elektr asboblarida ishlatiladi.

Kauchukni quruq haydab izopren  $\text{C}_5\text{H}_8$  olingan. Kauchuk xuddi to‘yinmagan uglevodorodlarga o‘xshash ikki atom galoid yoki bir molekula vodorod galogenidni biriktirib oladi. Demak, kauchuk izoprenning polimeri bo‘lib, u o‘zida bitta qo‘sh bog‘ saqlaydi.


Tabiiy kauchukning tuzilish formulasasi:



Geveya daraxtidan olingan kauchukning molekular massasi 170000 ga yaqin bo‘lib, unda 2500 izopren molekulalari polymerlanganligi aniqlandi.

## Savol va mashqlar

1. Siz diyen uglevodorodlarini qaysi usul bo'yicha olinishini afzal ko'rasiz? Reaksiya tenglamalarini yozing.
2. Tabiiy kauchukni, sun'iy kauchukdan kimyoviy tuzilish formulasidagi farqini va uni qanday aniqlanganini aytib bering.
3. Rezina xalq xo'jaligini qaysi tarmoqlarida ishlatalidi va u kauchukdan qanday olinadi?
4. Quyidagi o'zgarishlarni reaksiya tenglamalarini yozing:



VI bob

## ARENALAR (AROMATIK UGLEVODORODLAR)

**Tayanch iboralar:** arenlar; E.Xyukkel qoidasi; fenil; orta-, meta- va para-izomerlar; Sh.Fridel-D.Krafts reaksiyasi; Lyuis kislotasi; I va II tur o'rinnbosarlari; naftalin; antratsen; fenantren.

## AROMATIK UGLEVODORODLAR

Aromatik uglevodorodlar deb, molekula tarkibida benzol yoki uning gomologlarini saqlaydigan karbosiklik birikmalarga aytildi. Ularning birinchi vakili benzol bo'lib, uni 1825-yilda ingliz kimyogari va fizigi M.Faradey koks gazidan ajratib olgan.



Analiz, benzolning eng oddiy formulasasi —  $\text{CH}$  ekanligini ko'rsatadi. Lekin benzolning bir mol massasi 78 g ga teng. Shuning uchun benzol molekulasi olti atom uglerod va olti atom vodoroddan tashkil topgan  $\text{C}_6\text{H}_6$  formulasiga ega.

Benzol  $+80,1^{\circ}\text{C}$  da qaynaydigan, o'ziga xos hidga ega harakatchan rangsiz suyuqlik. Bu qator uglevodorodlar  $\text{C}_n\text{H}_{2n-6}$  umumiy formulaga ega. Umumiy formuladan foydalanyb aromatik uglevodorodlar gomologik qatorini hosil qilish mumkin:

	$\text{C}_n\text{H}_{2n-6}$
6	$\text{C}_6\text{H}_6$
7	$\text{C}_7\text{H}_8$
8	$\text{C}_8\text{H}_{10}$
9	$\text{C}_9\text{H}_{12}$
10	$\text{C}_{10}\text{H}_{14}$

Benzol qator uglevodorodlari o'ziga xos aromatik xususiyatga ega ekanligi birikmalarini almashinish reaksiyasiga oson kirishishi va oksidlovchilarga nisbatan turg'un ekanligi bilan tushuntiriladi. Buning sababi benzoldagi har bir uglerod atomida uchtadan  $\delta$ -bog' (ikkitasi qo'shni uglerod atomiga, uchinchisi vodorod atomiga) va bittadan  $\pi$ - bog'larni borligi hamda bu bog'lar elektron bulutini molekula tekisligiga perpendikular joylashib harakatlanishidadir.


Demak, benzoldagi oltita uglerod atomining hammasi bir xil holatda bo'lib, ularning qaysi biri oddiy bog' bilan, qaysi biri qo'sh bog' bilan bog'langanligini ko'rsatib bo'lmaydi. Shuning uchun 1865-yilda nemis kimyogari A. Kekule benzol tuzilishini quyidagi ikki ko'rinishda ifodalaydi:




Benzol halqasidagi 6 ta uglerod atomi  $\delta$ - bog' bilan bog'langan bo'lib, bu bog'larning uzunligi 0.140 nm, ular yassi oltibur-chakni tashkil etib bitta tekislikda yotadi. Benzol molekulasida uglerod atomlari  $sp^2$ - gibridlangan holatdadir. Benzol molekula-sining hosil bo'lish energiyasi (uchta C—C oddiy bog' 243 kkal/mol, uchta qo'sh bog' 441 kkal/mol va oltita C—H oddiy bog' 544 kkal/mol) 1278 kkal/mol ga teng. Ammo benzol hosil bo'lishi uchun sarflangan energiya 1314 kkal/mol ni tashkil etadi. Bu energiyalar o'rtasidagi farq 36 kkal/molni tashkil qilib, benzol halqasining kuchlanish energiyasi yoki rezonans energiya deb ataladi. Demak, benzol halqasidagi kuchlanishni bartaraf etish uchun 36 kkal/mol energiya talab etiladi va shu bilan benzol halqasining turg'unligi tushuntiriladi.

1931-yilda E. Xyukkel organik moddalarning xossalariini o'rganishda kvant mexanik hisoblashga asoslanib «agarda yassi tekislikda yotgan siklik birikmalarning umumiy elektronlar soni  $(4n + 2)$  ni tashkil etsa ( $n = 0, 1, 2, 3$  va hokazo), bunday organik moddalar aromatik xususiyatga ega bo'ladi», degan qoidani yaratdi.


Masalan,  $n = 1$  bo'lganda benzol  $n = 2$  da naftalin,  $n = 3$  da antrasenlarni tashkil etadi:



benzol  
( $4 \cdot 1 + 2 = 6$ )




naftalin  
( $4 \cdot 2 + 2 = 10$ )




antratsen  
( $4 \cdot 3 + 2 = 14$ )

Naftalin va antratsenlar ham benzolga o'xshash xususiyatga egadir.

Kimyoviy adabiyotlarda organik birikmalar molekulalarida aromatik sistemani ko'rsatuvchi qo'sh bog' va oddiy bog'lar o'rniغا umumiy elektron bo'lishini tasvirlovchi chiziq doira bilan ko'rsatiladi:




yoki




## NOMENKLATURASI VA IZOMERIYASI


Benzol qatori uglevodorodlarini nomlash uchun benzol asos qilib olinib, undagi nechta vodorod atomlari qanday radikalga almashgan bo'lsa, shu radikallar o'qilib, oxiriga benzol so'zi qo'shib yoziladi:




metilbenzol  
(toluol)



etilbenzol



*n*-propilbenzol



izopropilbenzol


Benzol gomologlariga *alkilbenzollar* deyiladi. Benzol uglevodorodlarni bir atom vodorodga kam yozilsa, bir valentli aromatik radikallar yoki arillar (Ar bilan belgilanadi) hosil bo'ladi.

Masalan, benzoldan  $C_6H_5$  — fenil (uni Ph bilan belgilanadi), toluoldan  $CH_3C_6H_4$  — tolil, ksiloldan  $(CH_3)_2C_6H_3$  — ksilillar

hosil bo'ladi. Benzolning ikki valentli radikali ( $C_6H_4^<$ ) fenilen deb yuritiladi.  $C_6H_5-CH_2-$  – benzil radikali deyiladi.

Agar benzol halqasida alkillar soni ko'paysa, u holda benzol halqasi raqamlanadi va alkillarning tutgan joyi raqam bilan ko'rsatiladi.


Masalan,



1,4-dimetil-2-n-propilbenzol deb o'qiladi.


Yuqori molekular aromatik uglevodorodlarda asosiy zanjirni alkanlar tashkil etsa, u holda ularni alkanlarning hosilasi sifatida o'qiladi.

Masalan,



2-fenil-3-metilgeptan

Benzol halqasidagi hamma uglerod va vodorod atomlari bir xil qiymatga ega bo'lganligi uchun uning bir atom vodorodi o'rniga almashigan hosilalari bitta izomerga ega bo'ladi:




Benzol halqasidagi ikkita vodorod atomlari alkillarga o'rinni almashsa, ularning joylanishiga qarab uch xil izomer hosil bo'ladi.

Agar alkillar yonma-yon turgan uglerod atomlarida joylashgan bo'lsa, orto-izomer («o» harfi bilan belgilanadi) deyiladi.

Agar alkillar bitta uglerod atomi bilan ajralgan uglerod atomlariga joylashgan bo'lsa, meta-izomer («m» harfi bilan belgilanadi) deyiladi.

Agar alkillar ikkita uglerod atomi bilan ajralgan uglerod atomlariga joylashgan bo'lsa, para-izomer («p» harfi bilan belgilanadi) deb aytildi.




## OLINISH USULLARI

Aromatik uglevodorodlar, asosan, toshko'mir va neftni qayta ishlab olinadi.


Metallurgiya sanoatida ishlatiladigan koks olish uchun toshko'mir yuqori temperaturada quruq haydaladi. Natijada koks gazi, toshko'mir smolasasi, ammiakli suv va koks hosil bo'ladi. Koks gazi yonilg'i va xomashyo sifatida ishlatiladi. Toshko'mir smolasini maxsus haydaydigan asbobda qayta haydab fraksiyalarga ajratiladi. Fraksiyalarni qayta ishlab benzol, toluol, ksilol, naftalin, antratsen, fenantren va boshqa aromatik uglevodorodlar olinadi. Ammiakli suv o'g'it sifatida qishloq xo'jaligida, koks esa metallurgiya zavodlarida ishlatiladi.

Arenlar quyidagi usullar bilan sintez qilinadi:



1. Rus olimi N.D.Zelinskiy siklogeksandan benzol hosil qiladi:



2. 1877- yilda Sh.Fridel—D.Krafts usuli bo'yicha ham laboratoriya da, ham sanoatda aromatik uglevodorodlar aromatik yadroga aluminiy xlorid ishtirokida alkil xlorid ta'sir ettirib olinadi:




Bu reaksiya mexanizmi quyidagicha: dastlab metil xlorid bilan aluminiy xlorid kompleks birikma hosil qiladi. So'ngra bu birikma benzolga ta'sir etib, karboniy ioniga, karboniy ioni esa o'zidan vodorod protonini chiqarib metilbenzol yoki toluolga aylanadi:




### 3. R.Fittig usuli.

Xlorbenzol va metilxlorid aralashmasiga natriy ta'sir ettirib olinadi:




Bu usul bo'yicha etilbenzol, ksilol, propilbenzol va boshqalar sintez qilinadi va ularning tuzilishi aniqlanadi.


### 4. Aromatik ketonlarni qaytarish bilan olinadi:



5. Asetilen uglevodorodni polimerlab olinadi. 1866- yilda P.E.Bertlo uch molekula asetilenni 550—600 °C da qizdirib benzol oladi:



6. Aromatik karbon kislotalarning tuzlariga o'yuvchi natriy ta'sir ettirib olinadi:



### Bilasizmi?

— 1865-yilda F.A.Kekule benzolga halqali formulani tatbiq etib, A.M.Butlerovning organik moddalarning tuzilish nazariyasini boyitadi.

— Rus kimyogarlari N.D.Zelinskiy va B.A.Kazanskiy asetilenni  $600-650^{\circ}\text{C}$  gacha qizdirilgan aktivlangan ko'mir ustidan o'tkazib, yaxshi natija bilan benzol oladilar.

## FIZIK XOSSALARI

Aromatik uglevodorodlarning dastlabki vakillari harakatchan, rangsiz, o'ziga xos hidga ega bo'lgan suyuqlik. Ularning zichlik va sindirish ko'rsatkichi birliklari alkan va alkenlardan yuqori (6-jadval).

Ular suvdan yengil va unda erimaydi, organik erituvchilarda yaxshi eriydi, tarkibida uglerod miqdori ko'p bo'lgani uchun tutab yonadi.

6-jadval

### Aromatik uglevodorodlarning fizik xossalari

Nomi	Formulasi	Suyuglanish temperaturasi, °C	Qaynash temperaturasi, °C	$d_4^{20}$	$n_D^{20}$
benzol	$\text{C}_6\text{H}_6$	5,5	80,1	0,8791	1,5017
toluol	$\text{C}_6\text{H}_5\text{CH}_3$	-95	111	0,8670	1,4968
o-ksilol	$\text{C}_6\text{H}_4(\text{CH}_3)_2$	-25	144	0,8802	1,5056
p-ksilol	$\text{C}_6\text{H}_4(\text{CH}_3)_2$	13	138	0,8610	1,4959
m-ksilol	$\text{C}_6\text{H}_4(\text{CH}_3)_2$	48	139	0,8642	1,4972
etilbenzol	$\text{C}_6\text{H}_5\text{C}_2\text{H}_5$	-95	137	0,8669	1,4978
n-propilbenzol	$\text{C}_6\text{H}_5\text{C}_3\text{H}_7$	-102	159	0,8620	1,4920
naftalin	$\text{C}_{10}\text{H}_8$	80	218	—	—
antratsen	$\text{C}_{14}\text{H}_{10}$	217	354	—	—
fenantren	$\text{C}_{11}\text{H}_{10}$	101	340	—	—


## KIMYOVIY XOSSALARI

Aromatik uglevodorodlarning birinchi vakili benzol bo'lib, uning kimyoviy xususiyati to'yingan va to'yinmagan uglevodorodlardan tubdan farq qiladi. Bu uglevodorodlar to'yingan uglevodorodlardan


vodorod atomi 8 taga kam bo'lib, to'yinmagan uglevodorodlar kabi birikish reaksiyasiga kirishsa kerak, deb taxmin qilingan edi. Ammo oddiy sharoitda bromli suv va kaliy permanganat eritmasining rangi benzol ta'sirida o'zgarmaydi. Demak, aromatik uglevodorodlarga birikish reaksiyasidan ko'ra, o'rinni olish reaksiyasi xosdir. Umuman, aromatik uglevodorodlar bilan boradigan reaksiyalarni uch tipga bo'lish mumkin: o'rinni olish, birikish va oksidlash reaksiyalari.

**O'rinni olish reaksiyalarini.** Benzol halqasidagi vodorod atomi yoki atomlar guruhi boshqa atom yoki atomlar guruhi bilan o'rinni olish reaksiyasiga kirishishi ularning tabiatiga qarab uch xil bo'ladi:


a) elektrofil o'rinni olish reaksiyasi:



b) nukleofil o'rinni olish reaksiyasi:




d) radikal o'rinni olish reaksiyasi:





Elektrofil o'rihni olish galogenlash, nitrolash va sulfolash reaksiyalarini misolida ko'rildi.


1. Katalizator Lyuis kislotasi ( $FeCl_3$ ,  $AlCl_3$ ) ishtirokida benzolga xlor ta'sir ettirilsa, xlorbenzol hosil bo'ladi:





Reaksiya mexanizmi quyidagicha:




2. Benzolga nitrat va sulfat kislotalar aralashmasini ta'sir ettirib, nitrobenzol olinadi:






Reaksiya mexanizmi quyidagicha:




3. Benzolga konsentrланган sulfat kislota ta'sir ettirib benzol-sulfokislota olinadi:




Reaksiya mexanizmi quyidagicha:



1866- yilda F.F.Beylshteyn toluolga xlor ta'sir ettirib, past temperaturada, katalizator ( $\text{I}_2$ ) ishtirokida benzol halqasidagi vodorod atomini va yuqori temperaturada esa benzol yon zanjiridagi radikalning vodorod atomi xlor atomiga o'rin almashganini ko'rsatadi.



Toluolga nitrat va sulfat kislota aralashmasi ta'sir ettirilganda, o- va p-nitrotoluol hosil bo'jadi:




Benzol gomologlari yoki hosilalari o'rin olish reaksiyasiga kirishib har xil izomerlar hosil qilishiga sabab, benzol halqasidagi o'rinnbosarlarning yo'naltiruvchisi xususiyatidir.

O'rinnbosarlarni yo'naltiruvchanligiga qarab, ikki turga bo'linadi: birinchi to'r o'rinnbosarlarga  $-\text{OH}$ ,  $-\text{NH}_2$ ,  $-\text{NHR}$ ,  $-\text{NR}_2$ ,  $-\text{OR}$ ,  $-\text{R}$ ,  $-\text{SH}$ ,  $-\text{SR}$ ,  $-\text{NHCOR}$ ,  $-\text{NaI}$  lar kirib, ular o'zidan keyin benzol halqasiga kelayotgan atom yoki atomlar guruhini halqaning orta- va para- holatlariga yo'naltiradi. Shuning uchun ham ular *orta-para oriyentatlar* deb ataladi.

Ikkinci tur o'rinnbosalarlarga  $-\text{NO}_2$ ,  $-\text{SO}_3\text{H}$ ,  $-\text{CCl}_3$ ,  $-\text{CHO}$ ,  $-\text{COOH}$ ,  $-\text{COOR}$ ,  $-\text{CN}$  lar kirib, ular kelayotgan atom yoki atomlar guruhini halqaning meta holatiga yo'naltiradi, shuning

uchun ular meta oriyentatlar deyiladi. Bu ikki tur o'rribbosalardan foydalaniб nitroxlorbenzolning uchta izomerini hosil qilish mumkin:




Benzol halqasiga birorta o'rribbosar joylashishi bilan benzol molekulasidagi atomlarning elektron zichligi buziladi va o'rribbosarlarning turiga qarab elektron zichligi qayta taqsimlanadi.


Birinchi tur o'rribbosarlarning just elektronlari ta'sirida benzol halqasining orto va para holatdagи atomlarida elektronlar bulutlari ning zichligi ortadi, natijada ularning reaksiyaga kirishish qobiliyat kuchayib, atom yoki atomlar guruhi orto hamda para holatlarga joylashadi.

Ikkinchi tur o'rribbosalar benzol elektron bulutini o'ziga tortib, molekulada elektron buluti zichligini kamaytiradi, natijada meta holatda orto va para holatlarga nisbatan elektron zichligi qisman ortadi. Shuning uchun kelayotgan atom yoki atomlar guruhi meta holatga yo'naltiriladi.

**Birikish reaksiyasi.** 1) maxsus sharoitda, katalizatorlar (Ni, Pt, Pd) ishtirokida benzol molekulasiga uch molekula vodorod birikib siklogensan hosil bo'ladi:




2) quyosh nuri yoki ultrabinafsha nurlar ostida benzolga xlor ta'sir ettirilganda geksanxlorsiklogensan (geksaxloran) hosil bo'ladi:




Geksaxloran insektisid xususiyatiga ega bo'lib, qishloq xo'jaligida zararkunanda hasharotlarni yo'q qilish uchun ishlataladi.



**Oksidlanish reaksiysi.** Aromatik uglevodorodlar ma'lum sharoitda oksidlanadi. 1) benzolga ozon ta'sir ettirilgan sharoitda triozonid hosil bo'ladi va u suv ta'sirida uch molekula glioksalga parchalanadi:



2) yuqori temperatura va katalizator ( $\text{V}_2\text{O}_5$ ) ishtirokida benzol oksidlanib, malein kislota hosil bo'ladi:



3) benzol gomologlari yon zanjir hisobiga kaliy permanaganatning suvli eritmasida oson oksidlanib, bir asosli va ikki asosli aromatik kislotalar hosil bo'ladi:




**Ishlatilishi.** Benzol va uning birikmalaridan plastmassalar, bo‘yoqlar, dorilar, anilin, saxarin, portlovchi moddalar, erituvchilar, butadiyen stirol, kauchuk, lavsan tolalari va qishloq xo‘jaligida ishlatiladigan preparatlar olinadi.


## KO‘P HALQALI AROMATIK UGLEVODORODLAR

Molekulada bir necha benzol halqasini saqlagan aromatik birikmalarga ko‘p halqali aromatik uglevodorodlar deyiladi. Bu uglevodorodlar tuzilishiga qarab uch guruhga bo‘linadi:

1) benzol halqalari bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan:




difenil




difenilsfenilen

2) benzol halqalari bitta yoki bir nechta uglerod atomi orqali bog‘langan:




difenilmelan




1,3-difenilpropan




trifenilmetan




3) ikkita va undan ortiq benzol halqaari shunday tutashganki, ularda ikki va undan ortiq uglerod atomlari umumiy bo‘ladi.




naftalin




antratsen



fenantren




xrizen



piren


## KO'P HALQALI AROMATIK UGLEVODORODLARNING OLINISHI

Brombenzolga natriy metalini ta'sir ettirilsa difenil hosil bo'ladi:



Difenil kristall modda bo'lib, 70 °C da suyuqlanadi. Uning hosilalaridan benzidin bo'yoq moddalar olishda ishlataladi.


**Trifenilmetan.** Aluminiy xlorid katalizatori ishtirokida benzolga xloroform ta'sir ettirilganda trifenilmetan hosil bo'ladi:




Trifenilmetan kristall modda bo'lib, 92,5 °C da suyuqlanadi. U bo'yoq moddalar olishda asosiy xom ashyo hisoblanadi.

**Naftalin.** U toshko'mir smolasini 170—230 °C oralig'ida haydalgan fraksiyasidan olinadi. U yaltiroq kristall modda, 80 °C da suyuqlanadi, suvda erimaydi, o'ziga xos hidga ega.

Naftalin molekulasi dagi vodorod atomlari reaksiyaga kirishish xususiyatiga qarab ikkita izomerga bo'linadi. molekuladagi 1, 4, 5, 8 uglerod atomlaridagi vodorodlar  $\alpha$ -izomer, 2, 3, 6, 7 uglerod atomlaridagi vodorodlar esa  $\beta$ -izomer hisoblanadi.




Naftalin ham galogenlash, sulfolash va nitrolash reaksiyalariga kirishadi:




Naftalinning hosilalaridan bo'yoqlar va dori-darmon moddalar olinadi. Naftalin sof holda xo'jalik ishlariда insektisid sifatida ishlatiladi.

**Antratsen.** U C<sub>14</sub>H<sub>10</sub> toshko'mir smolasining 270 °C dan yuqori temperaturada haydalgan fraksiyasidan olinadi. Antratsen kristall modda, 217 °C da suyuqlanadi. U oksidlanguanda antraxinon hosil bo'ladi:



Antraxinon sariq kristall modda, 286 °C da suyuqlanadi. U alizarin bo'yoq moddasini olishda asosiy xomashyo hisoblanadi. Alizarin qizil rangli kristall modda, 290 °C da suyuqlanadi.



Alizaringa aluminiy gidroksid qo'shilsa och qizil rang, temir (III)-gidroksid qo'shilsa to'q binafsha rang, xrom (III)-gidroksid qo'shilsa yashil rang hosil bo'ladi.

**Fenantren.** U C<sub>14</sub>H<sub>10</sub> antratsenning izomeri bo'lib, toshko'mir smolasidan olinadi. Fenantren kristall modda bo'lib, 101 °C da suyuqlanadi. Fenantren asosan, tabiatda shifobaxsh o'simlik tarkibida uchraydigan steroidlar, vitamin-D, gamonlar va biologik aktiv moddalarning asosiy skeletini tashkil etadi. Shuning uchun fenantren asosida olingan moddalarning ko'pchiligi meditsinada ishlatiladi.

## AROMATIK UGLEVODORODLARNING TUZILISHINI ANIQLASH

Ularning tuzilishini aniqlashda hozirgi zamon fizik usullari IQ va UB- spektroskopiya, PMR (proton-magnit-rezonansi) katta ahamiyatga ega.

Aromatik uglevodorodlarning IQ- (infra qizil) spektrida aromatik sistemani ko'rsatuvchi o'ziga xos 1600 va  $1500\text{ cm}^{-1}$  da yutilish maydoniga ega bo'lib, u benzol halqasidagi C—C bog'larning tebranishiga to'g'ri keladi.

Spektrdagi  $3030\text{ cm}^{-1}$  dari yutilish maydoni benzol halqasidagi C—H bog'ining tebranishiga to'g'ri keladi.

Benzol va uning gamologlari UB- spektrida ikkita yutilish maydoniga  $200\text{ nm}$  va  $250\text{ nm}$  ega bo'ladi.

Aromatik uglevodorodlardagi protonlarning molekulada qanday joylashganligini aniqlash uchun PMR-spektrdan foydalанилди. Aromatik protonlar, asosan, PMR-spektrining kuchsiz maydonida paydo bo'ladi. Masalan, n-metilbenzoy kislota  $\text{H}_3\text{C}-\text{C}_6\text{H}_4-\text{COOH}$


PMR-spektrini olsak, unda  $2,35\text{ m.d.}$  3 protonli singlit ( $-\text{CH}_3$ ),  $7,15$  va  $7,87\text{ m.d.}$  2 protonli ikkita dubletga halqadagi aromatik protonlar ega bo'ladi.

Shunday qilib, UB-spektr yordamida aromatik halqa borligini, IQ-spektr yordamida funksional guruuhlar borligini va PMR-yordamida metil guruhi hamda benzol halqasidagi protonlar aniqlab olinadi. Bu usullar moddalar tuzilishini tasdiqlashda va identifikasiya qilishda katta ahamiyatga ega.

### *Savol va mashqlar*

1. Aren uglevodorodlarni aromatik birikmalar deyish asosiy sababini tushuntiring.
2. Elektron bulutlar va ularning qoplanishi haqidagi tushunchaga asoslanib, benzol molekulasida kimyoviy bog'larni hosil bo'lishini tushuntiring.
3. Benzol alqasidagi nechta vodorod atomlari alkillarga o'rin almashsa izomerlar hosil bo'ladi va ular qanday nomlanadi?
4. Aromatik uglevodorodlarning kimyoviy xossalari to'yingan va to'yinmagan uglevodorodlarning kimyoviy xossalardan farqini tushuntiring.

5. Quyidagi o'zgarishlarni amalga oshirish reaksiya tenglamalarini yozing:



6. Naftalin molekulasidagi qaysi vodorod atomlari faol hisoblanadi va ularga xos reaksiya tenglamalarini yozing.

VIII bob




## ALISIKLIK UGLEVODORODLAR

**Tayanch iboralar:** sikloparafinlar; kreslo va vanna konformatsiyalar; G.G.Gustavson va N.D.Zelinskiy reaksiyalari; halqanining kuchlanishi.


Uglerod atomlaridan tashkil topgan siklik birikmalarga (aromatik uglevodorodlardan tashqari) alisiklik uglevodorodlar deyiladi.

Bu uglevodorodlarning kimyoviy xossalari parafin (alkan)larga o'xshash bo'lganligi uchun sikloparafinlar yoki bir nechta metilen guruhlaridan tashkil topganligi uchun polimetilen uglevodorodlar deb ataladi. Ularning umumiy formulasi  $\text{C}_n\text{H}_{2n}$ , etilen uglevodorodlarni eslatadi, ammo ularda uglerod atomlari to'yingan uglevodorodlar kabi oddiy bog'lar orqali bog'langan.


**Nomenklaturasi va izomeriyasi.** Alisiklik uglevodorodlarning nomi sistematik nomenklatura bo'yicha tegishli to'yingan uglevodorodlarni nomi oldiga «siklo» so'zini qo'shib o'qishdan hosil bo'ladi:




Alisiklik uglevodorodlarda vodorod atomi bitta kam yozilishi hisobiga radikallar hosil bo'ladi. Ularning nomi tegishli alisiklik uglevodorodlar nomidagi «an» qo'shimchasi o'rniga «il» qo'shimchasini yozish bilan hosil bo'ladi:



siklopropil




siklobutil




siklopentil

Agar halqadagi o'rindbosarlar soni ikkita va undan ortiq bo'lsa, ular joylashgan uglerod atomlari raqamlar bilan ko'rsatiladi:




1,2-dimethylsiklopentan



1,2,4-trimethylsiklopentan

Alisiklik uglevodorodlarning tabiatda ikki siklini har xil holatda tutashgan formalari (bitta uglerod atomi va oddiy bog' orgali bog'langan, bitta yoki ikkita uglerod atomi ikki sikl uchun umumiy bo'lgan bisiklik birikmalari topilgan:




disiklopentilmelan



bisiklopentil




disiklopropanspirosiklopentan




bisiklo-1,3-geksan

Alisiklik uglevodorodlar quyidagi izomeriya xillariga ega:

1) halqaning katta-kichikligiga qarab izomerlar hosil bo'ladi:




siklobutan




metilsiklopropan


2) halqadagi o'rindbosarlarning har xilli va ulaming joylanishiga qarab, izomerlar hosil bo'ladi:



3) izomerlar halqa yon zanjirining tuzilishiga qarab, hosil bo'ladı:



4) halqa uglerod atomlarini atom va atom guruhlarni fazoda joylashishiga qarab «sis» va «trans» izomer holida bo'ladı:



5) yuqori molekular alisiklik birikmalarning halqa tuzilishlari har xil konformatsiyaga ega bo'ladı.

Molekuladagi ayrim atomlarni yoki atom guruhlarini oddiy bog' orqali erkin aylanib yoki molekulaning bir qismini bukilib hosil qilgan shakllariga konformatsiyalar deyiladi.

Fizik-kimyo usullari bo'yicha aniqlanishicha siklogeksan ikki xil konformatsiyaga ega: kreslo va vanna shakllari.




Siklogensanning «kreslo» konformatsiyasi molekuladagi vodorod atomlarining ekvatorial holatdan aksial holatga o'tib turishi natijasida (yoki aksincha) ikki xil ko'rinishga ega:



Molekula tekisligiga ekvatorial yo'nalishda joylashgan vodorod atomlari — ekvatorial ( $H_e$ ), perpendikular tik joylashgan vodorod atomlari esa aksial ( $H_a$ ) deb ataladi.


12 ta vodorod atomidan 6 tasi ekvatorial, 6 tasi aksial hisoblanadi.




### **ALISIKLIK BIRIKMALARNING TABIATDA UCHRASHI VA OLINISHI**

Sikloparafinlar va ularning hosilalari, asosan, neft va o'simliklmar tarkibida uchraydi. Birinchi bo'lib rus olimi V.V. Markovnikov o'z shogirdlari bilan Boku neftidan siklopentan, siklogeksan va ularning hosilalarini ajratib olgan hamda quyidagi usullar bilan sintez qilgan:


1) G.G.Gustavson digaloid birikmalarga rux ta'sir ettirib (Vyurs reaksiyasiga o'xshash) oladi:




Siklobutan olish uchun rux o'miga litiy amalgamasi ishlataladi:



2) N.D.Zelinskiy benzol va uning gomologlarini gidrogenlab siklogeksan va uning gomologlarini hosil qilgan.



3) Ikki asosli karbon kislotalarning kalsiyili tuzlarini pirolizga uchratilib, hosil bo'lgan siklik ketonni qaytarish yo'li bilan tegishli sikloparafin olinadi:



**Sikloparafinlarning fizik xossalari.** Sikloparafinlarning xossalari alkanlar xossasiga o'xshash bo'lib, ularning dastlabki ikki vakili, gaz, qolganlari suyuqlik va qattiq moddalardir. Molekula massasining ortishi bilan qaynash temperaturasi va zichligi oshib boradi (7-jadval).

7-jadval





### Sikloparafinlarning fizik xossalari

Nomi	Formulasi	Temperaturasi, °C		$d_4^{20}$
		suyuqlanish	qaynash	
siklopropan	△	-127	-36	—
siklobutan	□	-50	-13	—
siklopentan	pentagon	-94	49	0,7512
siklogeksan	hexagon	-7	81	0,7793
sikloheptan	heptagon	-8	119	0,8090

## Bilasizmi?

Sikloparafinlarning qaynash temperaturasini yuqori bo'lishi, moddaning massa og'irligini kattalashishiga bog'liqdir.

**Kimyoviy xossalari.** Sikloparafinlardan faqt siklopropan va siklobutan halqa uzilishi hisobiga birikish reaksiyasiga kirishadi, qolganlarining xususiyati to'yingan uglevodorodlarga o'xshash o'rinish reaksiyasiga ega.



Siklopropan va siklobutan birikish reaksiyasiga kirishadi, qolganlar esa o'rinch olish reaksiyasiga ega ekanligi sababini nemis kimyogari Adolf Bayer o'zining «Kuchlanish nazariyasi» bilan tushuntiradi.

Metan molekulasi tetraedr shaklga ega bo'lganligi uchun undagi valent bog'lar orasidagi burchak  $109^{\circ}28'$  ga teng. Bu holatda bog'lar, atomlar, umuman, molekula normal holatda bo'ladi. A.Bayer shunga asoslanib, «bog'lar orasidagi burchak kattaligi  $109^{\circ}28'$  dan farq qilsa, molekulada ichki kuchlanish paydo bo'ladi, deydi. Masalan, siklopropanda har bir valent bog'ning og'ish burchagi ( $109^{\circ}28' - 60^\circ$ ) : 2 =  $24^{\circ}44'$  ga teng bo'ladi. Siklobutandan valent bog'ning og'ish burchagi ( $109^{\circ}28' - 90^\circ$ ) : 2 =  $9^{\circ}44'$  ga teng:



Siklopropan va siklobutan molekulalarida bog'lar orasidagi burchak normal burchakdan farq qilganligi uchun halqada ichki kuchlanish hosil bo'ladi. Bu kuchlanish ma'lum sharoitda

molekulaning normal holatga qaytishiga yordam beradi, shuning uchun ularda birikish reaksiyalari ketadi.

Sikloparafinlar, asosan, yoqilg'i sifatida ishlataladi. O'simlik smolalari tarkibida uchraydigan geksaoksisiklogeksan (inozit)ning  $C_6H_6(OH)_6$  fosfat kislota bilan hosil qilgan efirning kalsiyli tuzi fitin preparati sifatida tibbiyotda ishlataladi.

### ***Savol va mashqlar***

1. Sikloparafinlar deb qanday uglevodorodlarga aytildi va ular qanday nomlanadi?
2.  $C_6H_{12}$  formulaga ega bo'lgan sikloparafinlarning izomeriyalarini tuzilish formulalarini tuzing va nomlang.
3. Sikloparafinlarning qaysi birida birikish va o'rinn olish reaksiyalari sodir bo'lishini tushuntiring.
4. Sikloparafinlarni to'yingan va aromatik uglevodorodlarga o'tish reaksiya tenglamalarini yozing.
5. Siklogeksanning to'liq yonish tenglamasini yozing va (n.sh.) necha hajm  $CO_2$  hosil bo'lishini hisoblang.
6. Kichik halqali parafinlarning beqaror bo'lishiga sabab nima?

VI b o b

## **TERPENLAR, FITOGORMONLAR VA STEROIDLAR**

**Tayanch iboralar:** terpenlar; kanifol; geroniol; kamfora; kartinoidlar; likopin; karotin; vitamin A; fitogormonlar, gibberellin A ni Y.Yabuta va I.Sumikilar olishi; steroidlar; sterinlar; xolesterin; o't kislota; jinsiy gormonlar; fitoekdizonlar.

### **TERPENLAR**

Terpen uglevodorodlar deb, tarkibida  $C_{10}H_{16}$  uglevodorodini saqlaydigan birikmalarga aytildi. Ular, asosan, o'simliklardan olinadigan efir moylarining asosiy qismini tashkil etadi. Masalan, limon, apelsin moylari va igna bargli daraxtlardan olinadigan skipidar aralashmasidan iborat.

Rus kimyogarlaridan E.E.Vagner va S.S.Nametkinlar o'simliklardan efir moylarini olishni, bu moylardan terpenlarni sof holda ajratib olishda va ularning tuzilishini aniqlashda katta kashfiyotlar qildilar.

Efir moylari suvda erimaydigan, suv bilan reaksiyaga kirishmaydigan moddalardir. Ular o'simliklar tarkibidan suv bug'i yordamida haydaladi. Bunda efir moylarini olib o'tuvchi bug'lar sovitgichda kondensatlanib yig'gich idishga yig'iladi. Haydash sovitgichdan toza suv tomchilari ajralib chiga boshlaguncha davom ettiriladi. Shu usul bilan o'simliklardan terpen saqlovchi efir moylar ajratib olinadi. Masalan: ignabargli daraxt tanasi chaqmoqlansa quyuq shira ajralib chiqadi, uni jivisa (terpentin) deb ataladi. Jivisa suv bug'i bilan haydal-ganda yig'gichda skipidar yig'iladi, haydash kolbasida esa qattiq modda – kanifol qoladi.

Skipidar tibbiyotda, lak-bo'yoqlar tayyorlovchi fabrikalarda ishlataladi.

**Kanifol** – ko'p halqali murakkab kislotalar aralashmasi. Ularni ishqorlar bilan hosil qilgan tuzlari sirt faollik xususiyatiga ega bo'lganligi uchun sovun tayyorlashda va sintetik kauchuk olishda emulgator sifatida ishlataladi.

## TERPENLARNING TASNIFI


Terpenlar tarkibiy qismiga qarab to'rt guruhga bo'linadi:

- 1) monoterpenlar —  $C_{10}H_{16}$
- 2) seskviterpenlar —  $C_{15}H_{24}$
- 3) diterpenlar —  $C_{20}H_{32}$
- 4) politerpenlar —  $(C_5H_8)_n$

Terpenlar molekulasining tuzilishiga qarab to'rt guruhga bo'linadi:


- 1) molekulasida 3 ta qo'sh bog' saqlaydigan ochiq zanjirli (alifatik) terpenlar;
- 2) molekulasida 2 ta qo'sh bog' saqlaydigan monosiklik terpenlar;
- 3) molekulasida 1 ta qo'sh bog' saqlaydigan bisiklik terpenlar;
- 4) molekulasida qo'sh bog' saqlamaydigan trisiklik terpenlar.

**Alifatik terpenlar.** Bu terpenlarning birinchi vakili mirsen xmel efir moyidan olinadi:



**Geroniol** — spirit, sitral — aldegid bo'lganligi uchun ular bir-biriga oson o'tadi, masalan, geroniol oksidlansa sitral hosil bo'ladi.

**Monosiklik terpenlar.** Ularning vakillaridan limonen – limon efir moyidan, mentol – yalpiz efir moyidan, karvon esa ukrop va zira efir moyalaridan olinadi.




Limonen asimmetrik uglerod atomiga ega bo'lgani uchun uch xil izomer – *d*- limonen, *l*- limonen va *dl*- limonenga ega.


Ignabargli daraxtdan olingan skipidardan terpin olinadi.

Monosiklik terpenlardan mentol oziq-ovqat sanoatida, parfumeriyada (tish poroshogi, pastalar) va tibbiyotda dezinfeksiyalovchi vosita sifatida keng ishlatalidi.

**Bisiklik terpenlar.** Bularning birinchi vakili  $\alpha$ - pinen bo'lib, u skipidarning asosiy qismini tashkil etadi va 156 °C da qaynaydi.  $\alpha$ - pinen qo'sh bog' hisobiga oson oksidlanadi va qaytariladi:



Bisiklik terpenlarning hosilasi kamfora (Yaponiyada o'sadigan kamfora daraxtidan olinadi). Kamfora 175 °C da suyuqlanadigan kristall. U qaytarilib borneolga o'tadi. Borneol esa murakkab efir holatida Sibirda o'sadigan ignabargli pixta daraxtidan olinadigan moyning 40 % ini tashkil etadi. U 202 °C da suyuqlanadigan kristall, oksidlanganda kamfora hosil bo'ladi. Shu usul bilan sanoatda kamfora olinadi:




Kamfora tibbiyotda yurak faoliyatini yaxshilashda ishlataladi. U moyli eritma holida chiqariladi, oleum kamphorae deb yuritiladi. Sanoatda kamfora selluloid va tutunsiz porox olishda ishlataladi.

## KAROTINOIDLAR

O'simliklarga rang beruvchi va kimyoviy tuzilishi jihatidan sabzidan olinadigan karotinga o'xhash pigmentlarga karotinoidlar deyiladi. Ularning molekulasida oddiy va qo'sh bog'lar ketma-ket joylashgan bo'lib, qo'sh bog'ning ko'pligidan poliyen uglevodorodlar deb ham ataladi.


Karotinoidlar o'simlik moylarida va hayvon yog'larida yaxshi eriydi, molekulasida qo'shbog'lar ko'p bo'lgani uchun havoda tez oksidlanadi. Ular hayvon organizmida sintez bo'lmaydi, faqatgina o'simliklar orqali oziqa sifatida o'tadi va organizmdagi biokimyoviy jarayonlarda ishtirok etadi.

**Likopin** —  $C_{40}H_{56}$ , 169 °C da suyuqlanadigan och-qizil rangli kristall. Likopin mevalarga rang beradi. Pomidor, na'matak va olcha mevalari tarkibida ko'p miqdorda uchraydi:




Uning molekulasi 13 ta qo'sh bog' va 8 ta izoperen uglevodorodning uglerod skeletlaridan iborat.


**Karotin.** U o'simliklar gulida, mevalarida, qon zardobida, ayniqsa, sabzida, sholg'omda, salatda ko'p uchraydi. Karotin likopinga o'xhash  $C_{40}H_{56}$  formulaga ega bo'lib, uch xil izomeri bor:  $\alpha$ - karotin 187 °C da suyuqlanadi,  $\beta$ - karotin 183 °C da suyuqlanadi,  $\gamma$ - karotin 178 °C da suyuqlanadi.



$\alpha$ -karotin




$\beta$ -karotin



$\gamma$ -karotin

Karotinlar inson va hayvon organizmiga tushgandan so'ng, karotinaza fermenti ta'sirida retinol (vitamin A) ga parchalanadi. Ayniqsa, vitamin A ko'p miqdorda  $\beta$ -karotindan hosil bo'ladi.

**Retinol (akseroftol, vitamin A).** Retinol faqatgina hayvon to'qimalarida bo'ladi. Uni 1909- yilda baliq jigaridan ajratib olindi, och sariq moysimon modda. Retinol quyidagi formulaga ega:



Retinol baliq moyida, tuxum sarig'ida, ayniqsa, bahor faslida sigir sutida ko'p bo'ladi.

Vitamin A organizmning o'sishida, ko'rish a'zolari qobiliyatini oshirishda, yuqumli kasalliklarni qo'zg'atuvchilarga qarshi organizmning kurashish qobiliyatini kuchaytirishda faol qatnashadi.

Umuman, karotinoidlar tirik organizm hujayralaridagi fotosintez jarayonida ishtirok etuvchi moddalardir.


## FITOGORMONLAR

O'simliklarning rivojlanishini, o'sishini va hosildorligini fiziologik aktiv moddalar ta'siri orqali boshqarish hozirda qishloq xo'jaligidagi asosiy masalalardan biridir.


O'simlikning o'sishini boshqaruvchi moddalar fitogormonlardir. Ularga auksinlar, gibberellinlar, sitokininlar va abssiz kislotalar misol bo'la oladi.

**Gibberellinlar.** 1926- yilda yapon olimlari sholining kasallanishini o'rganib, uni kasallantirayotgan narsa gibberell zamburug'i ekanligini aniqlashgan.

1937- yilga kelib Y.Yabuta va I.Sumikilar undan alisiklik karbon kislotalaming hosilasi — gibberellin A (kristall modda)ni ajratib oladilar:



Ularni o'rganish natijasida hozirgi vaqtgacha 40 dan oshiq gibberellinlar ajratib olindi. Bularning ichida eng kuchli o'stiruvchi xususiyatga ega bo'lgani gibberell kislota A<sub>1</sub> ekanligi aniqlandi:




Gibberell kislota A<sub>1</sub> ta'sirida o'simliklар hujayralarini kattalashishi va poyalarining o'sishi kuzatiladi.

Hozirgi vaqtda gibberellinlar, asosan, uzumchilikda hosilni yuqori olishda va gulchilikda gullarni kasallantirmay o'stirishda keng qo'llanilmoqda.


**Abssiz kislota.** Oxirgi paytda bir qancha yangi ingibitorlar ajratib olindi. Ingibitorlar, asosan, o'simliklarni urug'dan o'sib chiqishini va rivojlanishini sekinlashtiradigan fizиologik faol moddalardir.

Abssiz kislota ingibitorlarning vakili bo'lib, g'o'za urug'idan ajratib olinadi:



Bu kislota gibberellin ta'sirini kamaytiradi va nuklein kislotaning hosil bo'lishini sekinlashtiradi. Umuman, abssiz kislota o'simliklarni urug'dan unib chiqishini, rivojlanishini, barglarning to'kiligishini va qarishini boshqarishda ishtirok etadi.


Shu bilan birga abssiz kislota V.I.Kefelinining ko'rsatishi bo'yicha o'simlikda  $\alpha$ -iononga aylanib, karotinoidlar biosintezida ishtirok etishi mumkin deydi:




## STEROIDLAR

Molekulasida siklopentanofenantren uglevodorodini saqlaydigan birikmalarga steroidlar deyiladi.

Steroidlarga sterinlar, o't kislotalar, jinsiy gormonlar, kartikoid gormonlar, fotoekdizonlar va glikozidlar kiradi.




**Serinlar.** Siklopentanofenantren uglevodorodining 3-uglerod atomida gidroksil guruh saqlaydigan polisiklik to'yinmagan spirtlar guruhiga sterinlar deyiladi. Ular o'simlik va hayvonot olamida keng tarqalgan bo'lib, ularning birinchi vakili xolesterindir. Xolesterin  $149^{\circ}\text{C}$  da suyuqlanadigan kristall modda bo'lib, quyidagi tuzilish formulasiga ega:





Xolesterin va uning efirlari suvda erimaydi, efir, xloroform va benzolda yaxshi eriydi. U hujayraning membrana tuzilishida ishtirok etib, membranadagi lipidlarning agregat holatini boshqarib turadi.

Xolesterin boshqa steroid birikmalarning sintezida asosiy oraliq mahsulot hisoblanadi:




Achitqidan va bug'doy donidan  $C_{28}H_{43}OH$  formulaga ega bo'lgan,  $163^{\circ}\text{C}$  da suyuqlanadigan kristall modda ergosterin ajratib olingan. Unga ultrabinafsha nurlar ta'sir ettirilsa, molekula quyidagi sxema bo'yicha o'zgarib vitamin D<sub>2</sub> (ergokalsiferol) hosil bo'ladi:



Hozirgi vaqtida vitamin D lardan – D<sub>1</sub>, D<sub>2</sub>, D<sub>3</sub>, D<sub>4</sub>, D<sub>5</sub>, D<sub>6</sub>, D<sub>7</sub>, ma'lum. Bular ichida eng ko'p ishlataladigan vitamin D<sub>2</sub>dir. U oz miqdorda tuxum sarig'ida, ikrada, sarimoya, sutda va ko'p miqdorda baliq moyida bo'ladi. Vitamin D<sub>2</sub> ayrim teri va sil kasalliklarini davolashda, shuningdek, raxitning oldini olish uchun ishlataladi.


**O't kislotalar.** O't kislotalar, asosan, jigarda xolesterindan hosil bo'ladi. Ular molekulasida gidrofil va gidrofob guruhlar yuqori spirt faolligiga ega bo'lganligi uchun yog'larni emulsiya holatiga o'tkazib boradi. Shu bilan ichaklarda yog'larni shimalishi uchun imkon tug'diradi.

O't kislotalarning eng muhim vakillari quyidagilar:



**Jinsiy gormonlar.** Bu gormonlar moddalar almashinuvini boshqarishda tirik organizmning o'sish va rivoqlanish jarayonida katta ahamiyatga ega. Erkak va ayollarining jinsiy bezlari jinsiy gormonlarni ajratib beradi.



Ayollarining jinsiy gormonlariga progesteron va esteron kiradi. Erkaklarning jinsiy gormonlariga esa testosterone va androsteron kiradi:



Bu gormonlar, asosan, erkaklik va ayollik belgilarini rivojlanishiga ta'sir etadi, ularni organizmda kamayishi har xil jinsiy kasalliklarga olib keladi.

**Kortikoid gormonlar.** Insonning buyrak usti bezlari po'stloq qismida 40 dan ortiq kortikoid gormonlar ishlab chiqarishi aniqlangan.

Bu gormonlarning kamayishi organizmda modda almashinuvi jarayonini buzilishiga olib keladi. Ularning eng asosiy vakillari quyidagilar:




Kortikoid gormonlar o'zining fiziologik ta'sir kuchi bo'yicha ikki guruhga bo'linadi:

1) mineralokortikosteroidlar — organizmdagi mineral moddalar almashinuvi jarayonini yaxshi boshqaradi, uglevod va oqsil moddalar almashinuviga esa yaxshi ta'sir etmaydi. Masalan, dezokcikortikosteron va uning gomologlari.

2) glukokortikosteroidlar, aksincha, uglevod va oqsil moddalar almashinuvi jarayonini yaxshi boshqaradi, mineral moddalar almashinuviga yaxshi ta'sir etmaydi. Masalan, kartizon va uning gomologlari. 1936- yilda Amerika olimlaridan E.K.Kendall va



Vintershteyn buyrak usti bezi po'stlog'idan kortizon ajratib oldilar, 1952- yilda esa amerikalik olim R.B.Vudvord 30 ta bosqich (pog'ona) bilan uni sintez qildi. 1956- yilda rus olimi N.N.Suvorov o'z shogirdlari bilan birga solasodindan quyidagi reaksiya bo'yicha kortizon oladi:




Kortinoid gormonlar, asosan, ko'z va terining kasallanishi (yallig'lanishi va shamollashi)ni oldini olishda ishlataliladi.

**Fitoekdizonlar.** Fitoekdizonlar ham steroidlarning hosilasi bo'lib, hozirgacha o'simliklardan 50 dan ortiq ekdizonlar ajratib

olingan. Ko‘pgina ekdizonlar pestisid xususiyatiga ega bo‘lib, ularni 0,5% li eritmasi ayrim zararkunanda hasharotlarni yo‘q qilib tashlaydi.




**Yurak glikozidlari.** Yurak glikozidlari, asosan, o‘simliklardan olinadi va yurak kasalliklarini davolashda ishlataladi. Glikozid molekulalari, asosan, ikki qismdan iborat — aglikon va uglevod. Aglikon quyidagi umumiy skeletga ega:



Glikozidlар aglikonлардаги R, x<sub>1</sub>, x<sub>2</sub>, x<sub>3</sub> ларнинг хар xil atom va atom груптарини о‘rin олиши билан farqlanadi. Masalan, preparat

strofantin K ikkita glikozid aralashmasi: K- strafontin bilan K- strofantoziddan iborat. K- strofantozidning tuzilish formulasi:



Markaziy Osiyoda o'sadigan o'simliklar tarkibidagi glikozidlarni N.K.Ahubakirov o'z xodimlari bilan har taraflama o'rgandilar. Ular o'simliklardan olitorizid, korxorozid va apobiozid glikozidlarni ajratib olib, ularning tuzilishini aniqlab tibbiyotda yurak kasalliklarini davolashga tatbiq etdilar.

### *Savol va mashqlar*

1. Terpen deganda qanday moddalarni tushunasiz va ular o'simliklardan qanday ajratib olinadi?
2. Limonda saqlaydigan limonen va yalpizda saqlaydigan mentol moddalari qaysi terpenlarning vakili va ularning struktura formulalarini yozing.
3. Kamfora qaysi terpen uglevodorod vakili va uning tibbiyotda ishlatalishini gapirib bering.
4. Kartinoidlar o'simliklarga nima beradi va ularni qaysi uglevodorodlar tipiga kiritish mumkin?
5. Fitogormonlar o'simliklarning hayotida qanday rol o'yaydi?
6. Steroidlar o'zining molekulasida qanday uglevodorodlarni saqlaydi va xolesterin moddasining tuzilish formulasini yozing.
7. Jinsiy gormonlarning vazifalarini gapiring va androsteronning tuzilish formulasini yozing.
8. Fitoekdizonlar qaysi birikmalarning hosilasi hisoblanadi va nima maqsatlarda ishlataliladi?
9. Glikozidlar o'zi nima, ular qanday kasalliklarni davolashda ishlataladi?

**Tayanch iboralar:** mono-, di- va poligaloidli birikmalar; birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi galoidli birikmalar; nukleofil o'rın almashinish reaksiyaları; metalepsiya reaksiyası; Vyurs reaksiyası; plastik material; fторoplast; plastifikatorlar.

## GALOIDLI BIRIKMALAR

Uglevodorodlardagi bir yoki bir nechta vodorod atomi galogen bilan almashgan birikmalarga galoidli birikmalar deyiladi.

Galoidga almashgan vodorod atomi soniga qarab galoidli birikmalar monogaloidli, digaloidli va poligaloidli birikmalarga bo'linadi.



metil xlorid



metilen  
xlorid





xloroform



tetraxlormetan

Galoidli birikmalar galogenlarning xiliga qarab fторli, xlorli, bromli va yodli birikmalarga bo'linadi: R—F; R—Cl; R—B<sub>2</sub>; R—I.

Galoidli birikmalar molekulaning uglevodorod qismiga qarab, to'yingan, to'yinmagan va aromatik uglevodorodlarni galoidli birikmalariga bo'linadi:




Galoidli birkmalar molekuladagi galogen atomining joylanishiga qarab, birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi galoidli birikmalarga bo'linadi.



birlamchi  
galoidalkil




ikkilamchi  
galoidalkil






uchlamchi  
galoidalkil

## NOMENKLATURASI VA IZOMERIYASI

To'yingan uglevodorodlarning bir galoidli birikmali galoid alkillar deb ataladi. Ularning umumiy formulasini quyidagicha ifodalash mumkin:





Ularning nomi, radikallar nomiga galogenlarning nomini qo'shib o'qishdan kelib chiqadi.





Digaloidli uglevodorodlar ratsional nomenklatura bo'yicha quyidagicha nomlanadi:



1) ikki galoid ikki uglevodorodda joylashsa, odatda, tegishli alkilga «-en» qo'shimchasi qo'shiladi:





2) galoidlar bitta chetki uglerod atomiga joylashgan bo'lsa «iden» qo'shimchasi qo'shiladi:






3) galogenlar ikki chetki uglerod atomiga joylashgan va uglevodorod  $CH_2$ - radikallari bo'lsa, metilenlar soni ko'rsatiladi:



Ugleroddagi hamma vodorod galoidlarga almashgan galoidli birikmalarga pergaloidli birikmalar deyiladi.




Sistematik (IYuPAK) nomenklaturasi bo'yicha tegishli uglevodorod oldiga galogenning o'rni va nomi ko'rsatiladi:



Di-va poligaloidli birikmalar esa quyidagicha nomlanadi:



1,2-dixlorpropan




1,1-dixlorpropan




1,1,2-trixlorpropan

Galoidli birikmalarda galogen atomi hisobiga izomerlar soni tegishli uglevodorodlarga nisbatan ko'p bo'ladi.

Metan va etan molekulasidagi barcha vodorod atomlari bir xil qiymatga ega, shuning uchun ulardan istalgan vodorodni bitta galogenga almashtirsak faqat bitta galogen alkil hosil bo'ladi:



metil yodid



etil yodid

Propan molekulasidagi birorta vodorodni galoidga almashtirib, ikki xil galoid alkil olish mumkin:




birlamchi propil yodid  
(1-yodpropan)




ikkilamchi propil yodid  
(2-yodpropan)

Butanning galoidli birikmasida yana ham ko'p izomer hosil qilish mumkin:




n-birlamchi butil yodid,  
(1-yodbutan)




n-ikkilamchi butil yodid  
(2-yodbutan)

Izobutan molekulasidan esa ikki xil galoidli alkan olish mumkin:



birlamchi izobutil yodid  
(1-yod-2-metilpropan)




uchlamchi izobutil yodid  
(2-yod-2-metilpropan)

Demak,  $\text{C}_4\text{H}_9\text{I}$  tarkibli modda uchun to'rtta izomer mavjud.


## OLINISH USULLARI

1. To'yingan uglevodorodlarga xlor ta'sir ettirish usuli. Bu reaksiya yorug'likda amalga oshadi (metalepsiya reaksiyasi).




2. Spirtlardagi hidroksil guruhni galogenga almashtirish yo'li bilan olinadi:


$\text{PCl}_5$  va  $\text{PCl}_3$  ta'sirida:



3. Spirtlarga vodorod galoid ta'sir ettirib olish mumkin:




4. Alkenlarga galogen vodorodni biriktirish bilan:




5. Ftorli alkillarni olish.

Amalda HF alkenlarga ta'sir etmaydi, ularning polimerlanishiga yordam beradi, xolos. Shuning uchun galoid alkillarga kumush ftorid ta'sir ettirib olinadi.



Perftoralkanlar esa kobalt ftoridni alkanlar bilan qizdirib olinadi. Reaksiya jarayonida erkin ftor ajraladi:



Fizikaviy xossalari quyidagi 8-jadvalda keltirilgan.

Jadvaldan ko'rinish turibdiki, galogenning atom og'irligi ortishi bilan ( $\text{F} < \text{Cl} < \text{Br} < \text{J}$ ) galogenidlarning qaynash temperaturasi va solishtirma og'irligi ortib boradi.

## Birlamchi galloid alkillarning qaynash temperaturasi va solishtirma og'irliklari

Alkil radikallar nomi	Alkil radikallar formularsi	Fitorid		Xlorid		Bromid		Yodid	
		Qaynash temperaturasi, °C	Solishtirma og'irligi, $d_4^{20}$	Qaynash temperaturasi, °C	Solishtirma og'irligi, $d_4^{20}$	Qaynash temperaturasi, °C	Solishtirma og'irligi, $d_4^{20}$	Qaynash temperaturasi, °C	Solishtirma og'irligi, $d_4^{20}$
Metil	$\text{CH}_3-$	-78,4	0,882	-23,7	0,992	3,5	1,732 (0° da)	42,5	2,279
Etil	$\text{C}_2\text{H}_5-$	-37,1	0,818	-12,4	0,918 (8° da)	38,4	1,461	72,3	1,936
Propil	$\text{C}_3\text{H}_7-$	-2,5	0,782	46,6	0,892	71,0	1,351	102,5	1,749
Butil	$\text{C}_4\text{H}_9-$	32,5	0,776	78,5	0,887	101,6	1,276	130,4	1,615
Amil	$\text{C}_5\text{H}_{11}-$	62,8	0,791	108,4	0,878	127,9	1,218	154,2	1,510

Jadvaldagı vertikal ustunlarda berilgan ma'lumotlardan ko'riniň turibdiki, galoid alkillarning qaynash temperaturası uglerod atomlarining soni ko'payishi bilan ortadi, solishtirma og'irligi esa kamayadi.

Oddiy sharoitda metil-, etil-, propil ftoridlar; metil-, etil-, xloridlar; metilbromidlar gaz bo'lib, qolganları suyuqlik, yuqori molekular vakilları esa qattiq moddalardır

Galoid alkillar suvda deyarlı erimaydi. Ular bilan ho'llangan mis sim alangani yashil rangga bo'yaydi. Kumush nitratning ta'sirida xlorli birikma oq, bromli birikma sariq, yodli birikma to'q sariq cho'kmalar hosil qiladi.

**E'tibor bering!** Birikmalardagi galogenning atom og'irligi ortishi bilan, ularning qaynash temperaturasi ortib boradi.

Fizik metodlar yordamida galoid birikmalarning xossalari aniq yoritiladi.

C—F bog'i IQ- spektrning 1350—1100  $\text{sm}^{-1}$  oblastida, C—Cl 800—600  $\text{sm}^{-2}$  oblastida C—Br va C—I undan ham qisqa chastotalarda ko'rinati.


UB- spektrda galoidli birikmalar juda kuchsiz yutilish chiziqlariga ega ( $\epsilon < 300$ ): xlorli hosilalar — 172 nm; bromli hosilalar — 204 nm; yodli hosilalar — 254 nm oblastlarda hosil bo'ladi.

PMR- spektrda protonlar signali galogen ta'sirida kuchli siljishga uchrab, spektrning kuchsizroq maydonini 3 m.d. qismida ko'rinati.



Masalan,  $\text{CH}_3\text{—CH}_2\text{—CH}_2\text{I}$  dagi —  $\text{CH}_2\text{I}$  protonları spektrning 3,17 m.d. qismida ikki protonli triplet holda,  $-\text{CH}_3$  protonlar 1,02 m.d. qismida uch protonli triplet holida namoyon bo'ladi.

## MONOGALOIDLI ALKANLARNING KIMYOVIY XOSSALARI


1. Galogenlarning vodorodga almashinishi;





2. Galogenlarning gidroksil guruhgaga almashinishi, kumush-gidroksidi (AgON) yoki suv ta'sirida (ishqoriy muhit) spirtlar hosil bo'ladi:




(2) reaksiya — qaytar reaksiya. Reaksiyani o'ngga siljitim uchun reaksiya muhitidan Cl va  $C_2H_5OH$  ni ajratib turish yoki reagentlar miqdorini oshirib turish kerak. Agar suv o'rniiga NaOH ishlatilsa reaksiya o'ng tomonga siljiydi:





3. Amino- va sianid guruhlarning ta'siri (nukleofil almashinish reaksiyalari):




4. Vodorod galogenidni ajratish reaksiyasi. Galogen alkillarga ishqorlarning spirtli eritmasi ta'sir ettirilsa alkenlar hosil bo'ladi:



Bu reaksiya quyidagicha izohlanadi: reaksiya natijasida hosil bo'ladigan alkoksil ioni ( $RO^-$ ) kuchli asos xususiyatiga ega bo'lib, gidrosil ion o'rniiga galoidli uglerod qo'shni atomdagи protonni tortib oladi:



5. Galogenli alkillarning metallar bilan o'zaro reaksiyasi (Vyurs reaksiyasi):



Reaksiya natijasida parafinlar hosil bo'ladi.

## DI-, TRI- VA POLIGALOIDLI BIRIKMALAR

Poligaloidli birikmalar reaksiyaga kirish qobiliyati jihatidan monogaloidli birikmalardan sustdir. Bunga sabab, poligaloidli

birikmalarda « $\delta$ » bog‘lar o‘rtasidagi masofa monogaloidli birikmalarnikiga nisbatan qisqa masofani tashkil etadi, ammo kimyoviy bog‘ning mustahkamligi kuchli bo‘ladi. Masalan,  $\text{CHF}_3$ , bog‘lar orasidagi masofa 0,133 nm,  $\text{CH}_3\text{F}$  esa 0,139 nm ni tashkil etadi.

To‘yingan uglevodorodlarning diagaloidli hosilalaridan metanda uchta:



metil xlorid




metilen bromid




metilen yodid

etanda esa izomer ikkita diagaloidli hosila bor.




etilden xlorid  
1,1-dixloretan




eten xlorid  
1,2-dixloretan

Propanga o‘zaro izomer bo‘lgan to‘rtta diagaloidlihosila to‘g‘ri keladi:



1,1-dixlorpropan



2,2-dixlorpropan




1,2-dixlorpropan




1,3-dixlorpropan

## OLINISH USULLARI

1. Alkenlarga galoid biriktirish yo‘li bilan:




2. Aldegid va ketonlarga  $\text{RCl}_3$  ta’sir ettirish:



sirka aldegid


1,1-dixloretan



aseton

2,2-dixlorpropan

3. Bir galoidli to‘yinmagan uglevodorodga vodorod galoid ta’sir ettirish. Bunda birikish Markovnikov qoidasi bo‘yicha bormaydi.



To‘yingan digaloidli uglevodorodlar qattiq yoki moysimon suyuqliklardir. Suvda erimaydi.

**Metilen yodid** — og‘ir suyuqlik, 180 °C da qaynaydi. Tog‘ jinslaridan olinadigan minerallarni solishtirma massasiga qarab ajratishda ishlatiladi.


**Dixloretan**  $\text{CH}_2\text{Cl}-\text{CH}_2\text{Cl}$  — suyuqlik, 20 °C dagi zichligi 1,26 g/sm<sup>3</sup> qaynash temperaturasi 84 °C. Yaxshi erituvchi, ammo zaharli bo‘lganligi tufayli kam ishlatiladi. Vinil xlorid olishda qo‘llaniladi.

**Etiliden xlorid**  $\text{CH}_2=\text{CHCl}_2$  suyuq modda. 0 °C dagi zichligi 1,89 g/sm<sup>3</sup>, qaynash temperaturasi 58 °C.

## POLIGALOIDLI BIRIKMALAR

Bir necha galoid atomiga ega bo‘lgan galoidli birikmalar orasida metanning quyidagi birikmalari ahamiyatlidir: xloroform  $\text{CHCl}_3$ , yodoform  $\text{CHI}_3$ , tetraxlormetan  $\text{CCl}_4$ .


Xloroform spirt yoki asetonga xlorni ishqorli sharoitda ta’sir ettirish natijasida hosil bo‘ladi:



O‘ziga xos hidli suyuqlik, qaynash temperaturasi 62,2 °C, 15 °C dagi zichligi 1,494 g/sm<sup>3</sup>.


**Yodoform**  $\text{CHI}_3$ . Xloroform singari sintez qilinadi. Sariq rangli kristall, hidi yomon, osonlik bilan bug‘lanadi. Suyuqlanish temperaturasi 119 °C. Yaralarni davolashda antiseptik modda sifatida qo‘llaniladi.

**Tetraxlormetan**  $\text{CCl}_4$ . Uglerod sulfidga xlor ta’sir ettirib olinadi:



Tetraxlormetan suyuqlik, qaynash temperaturasi 76,5 °C, 21 °C dagi zichligi 1,58 g/sm<sup>3</sup>, bug' holida yonmaydi, yaxshi erituvchi, o't o'chirishda qo'llaniladi. Uning ftorli hosilalari orasida tarkibida ftor bilan xlor saqlaydigan CHF<sub>2</sub>Cl diftordixlormetan va CF<sub>2</sub>Cl<sub>2</sub>, diftordixlormetan kabi uglevodorodlarning ahamiyati katta. Bunday moddalar freonlar deyiladi. Ular sovutgich agent sifatida mashinalarda ishlataladi.


**Diftordixlormetan CF<sub>2</sub>Cl<sub>2</sub>.** Oddiy sharoitda rangsiz, hidsiz gaz, -30 °C da suyuq holatga o'tadi va qaynaydi. U tetraxlormetanga surma ftorid ta'sir ettirib olinadi:




Diftordixlormetan barqaror modda, bug'i zaharli emas.

## TO'YINMAGAN GALOIDLI BIRIKMALAR

Alkenlarning eng oddiy galoidli birikmalari etilenning galoidli birikmalaridir:




vinil xlorid  
(xloreten)



vinil bromid  
(brometen)

Propilennenning galoidli birikmasi uchta izomerga ega:




Galoid atomini reaksiyaga kirish qobiliyatiga qarab, uglevodorodlarning galoidli hosilalari 2 ta guruhga bo'linadi:


1. O'zaro qo'sh bog' orqali bog'langan uglerod atomlari bor uglerodda galoid joylashgan birikmalar.

2. Oddiy bog' bilan bog'langan uglerod atomlari bor galoid birikmalar.


Birinchi guruh galoid birikmalarga galoid alkenlar kiradi. Molekuladagi galogen atomi elektron bulutga ta'sir etadi:




Bunda C—Cl o'rtasidagi masofa qisqaradi, 0,176 nm dan 0,169 nm ga o'tadi. O'z navbatida galogenning reaksiyaga kirishish qobiliyati kamayadi. Amalda qo'sh bog' tutgan uglerodda joylashgan galogen almashinish reaksiyasiga kirishmaydi. Ammo HCl birikishi Markovnikov qoidasi bo'yicha boradi:




Ikkinci guruhga kiruvchi galogenli alkenlarda galoidning reaksiyaga kirish xususiyati kuchli ifodalangan:



Bu hodisa, bunday moddalarning dissotsilanishi sezilarli darajada oshganligi bilan tushuntiriladi:




Hosil bo'lgan allil karbkationini barqaror bo'lishi uchun «π» bog' elektronlari (+) zaryadlangan uglerod tomon tortiladi. Natijada kimyoviy reaksiya Markovnikov qoidasidan chetlashgan holda amalgala oshadi:




## AYRIM VAKILLARI

**Vinil xlorid**  $\text{CH}_2=\text{CHCl}$  gaz, qaynash temperaturasi  $-13^\circ\text{C}$ . U oson polimerlanib yuqori molekular modda — polivinilxloridni hosil qiladi. Polivinilxlorid plastmassa tayyorlashda ishlataladi:




Polivinilxlorid oq rangli kukun. Uni plastifikatorlar bilan qo'shsa plastik material hosil bo'ladi. Polivinilxlorid plastmassasi yonmaydi, texnikada va turmushda keng qo'llaniladi.

**Triftor- va tetraftoretilenlar.**  $\text{CHF}=\text{CF}_2$ ;  $\text{CF}_2=\text{CF}_2$  uglevodorodlarning xlorli birikmalaridagi xlor HF ishtirokida fторга almashtiriladi:



Tetraftoretilen  $\text{CF}_2=\text{CF}_2$  rangsiz gaz,  $-76^{\circ}\text{C}$  da qaynaydi, vakuumda  $60^{\circ}\text{C}$  da peroksidli birikmalar ishtirokida oson polimerlanadi:



Politetraftoretilen asosida tayyorlangan plastmassalar – *fторoplastlar* deyiladi.  $300^{\circ}\text{C}$  issiqlikda va kimyoviy reagentlarga chidamli. Shuning uchun kimyo mashinasozligida qo'llaniladi.

**Triftorxloretilen**  $\text{CClF}=\text{CF}_2$  rangsiz, hidsiz gaz,  $-27^{\circ}\text{C}$  da kondensatlanib suyuqlanadi. Xona temperaturasida oson polimerlanib politriforxloretilenga aylanadi. Ftorplast-3.

Ayrim plastmassalar toza holda ishlatiladi. Masalan, polietilen boshqa plastmassalarda esa 20—60% polimer modda bo'lib, qolgani to'ldiruvchi moddalardan iborat. To'ldiruvchilar plastmassaning istalgan xossasini beradi: mexanik mustahkamlik, qattiqlik, o'tga chidamlilik va hokazo. To'ldiruvchi moddalar fenol-formaldegid, mochevina-formaldegid va boshqa polimerlarga ham qo'shiladi.



Ayrim polimerlar, masalan polivinilxloridni (poroshok modda) plastmassaga aylantirish uchun plastifikatorlar qo'shiladi. Plastifikatorlar mo'rt smolani qulay bo'lgan hamirga o'xshash massaga aylantiradi.

Ko'p hollarda plastik modda tarkibiga (stabilizatorlar) — yuqori molekular moddalarni qayta ishlash va ekspluatatsiya qilish vaqtida issiqlik hamda yorug'lik ta'sirida parchalanishdan saqlovchi moddalar qo'shiladi.


## AROMATIK GALOIDLI BIRIKMALAR

Aromatik galoid birikmalar ikkiga bo'linadi:

1. Benzol halqasiga bevosita bog'langan galoid.




2. Yon zanjirga bog'langan galoid.




**Benzol halqasiga bevosita birikkan galoid birikmalar.**


Benzol katalizator ishtirokida osonlik bilan  $\text{Cl}_2$  va  $\text{Br}_2$  ni biriktirib galoidlanadi:




I, esa benzol bilan to'g'ridan-to'g'ri reaksiyaga kirishmaydi. Ammo oksidlovchilar ( $\text{HNO}_3 + \text{H}_2\text{SO}_4$ ,  $\text{H}_2\text{O}_2$ ,  $\text{HgO}$ ) ishtirokida reaksiya boradi:




Benzol gomologlaridan toluol uchta galoidli hosilani beradi:



Galogenlash benzolning yon zanjirida faqat  $\alpha$  va  $\beta$  holatdagi uglerodga boradi.



Geksaxloran geksaxlor siklogeksanni  $\gamma$ -izomeri (suyuqlanish temperaturasi 111 °C) insektitsid sifatida qishloq xo'jaligida qo'llaniladi:



### *Savol va mashqlar*




- Qanday birikmalar galoidli birikmalar deyiladi?
- Nima uchun galogenlarni atom og'irligi ortishi bilan, ularning hosil qilgan galoidli birikmalarni qaynash temperaturasi ortib boradi?
- Metan molekulasidegi vodorod atomlarni galoid atomlariga o'rin olishi reaksiyasi qanday mexanizm orqali sodir bo'ladi?
- Etil yodiddan qanday reaksiya ta'sirida oddiy va murakkab esirlar olish mumkin?
- Galoid birikmalarning qaysi birlari tibbiyotda nima maqsadda ishlataladi?
- Ftorplastlarni tetraftoretilendan olinishini yozing va ular nima maqsadda ishlataladi?
- Geksaxloran geksaxlorsiklogeksanning qaysi izomeri, qanday olinadi va u qishloq xo'jaligida nima maqsadda ishlataladi?
- Organik moddalalar tarkibida galogenlar borligini qanday aniqlash mumkin?
- Xlorpren olinishi sxemasi va uning polimerlanish reaksiyasi tenglamalarini yozing.
- Nima uchun xloroform qoramtil shisha idishda saqlanadi?

**Tayanch iboralar:** to'yingan, to'yinmagan, aromatik spirtlar, birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi spirtlar, vodorod bog'lanish; oddiy va murakkab efirlar; eterifikatsiya reaksiyasi, degidratatsiya reaksiyasi, A.Vyurs va E.E.Vagner reaksiyalari; dioksan; Vitamin-8, bir, ikki va uch atomli fenollar; pikrin kislota; novolak va rezol smolalari; karbol kislota; tokoferollar, merkaptanlar, anorganik kislota murakkab efirlari.




## SPIRTLAR

Spirt (alkogol)lar deb, molekulasida bitta yoki bir nechta gidrosil guruh  $\text{--OH}$  saqlaydigan birikmalarga aytildi.




Spirtlarda uglevodorod qismiga qarab, alifatik, alisiklik va aromatik spirtlarga bo'linadi:



Spirtlar molekuladagi gidrosil guruh soniga qarab bir atomli, ikki atomli va ko'p atomli spirtlarga bo'linadi:





Spirtlar hidroksil guruhning molekulada qanday uglerod atomida joylashganligiga qarab, birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi spirtlarga bo'linadi:





**Bir atomli to'yangan spirtlar.** To'yangan uglevodorodlarda bitta vodorod atomi o'mini hidroksil guruhlarning egallashiga bir atomli to'yangan spirtlar deyiladi.  $\text{C}_n\text{H}_{2n+1}\text{OH}$  umumiy formulaga ega. spirtlar ham o'z gomologik qatoriga ega bo'lib, bir vakilining tarkibi o'zidan oldingi va keyingilaridan  $\text{CH}_2$ - guruhga farq qiladi.

## NOMENKLATURASI VA IZOMERIYASI


Oddiy spirtlar nomi radikal nomiga spirt so'zini qo'shib o'qish bilan hosil bo'ladi:



Ratsional nomenklatura bo'yicha spirt nomi ularning birinchi vakili karbinol (metil spirt) nomi oldiga radikallar nomini qo'shib o'qish bilan kelib chiqadi:









Sistemmatik nomenklaturasi (IYUPAK) bo'yicha spirtlar nomi tegishli to'yigan uglevodorodlar nomiga «ol» qo'shimchasini qo'shib o'qiladi va gidroksil qaysi uglerod atomida turganligini raqam bilan ko'rsatiladi:



4-xlor-3-etylpentanol-1

Bir atomli to'yigan spirtlarda izomerlar soni tegishli uglevodorodlarga nisbatan gidroksil guruhning joylashishi hisobiga ko'p bo'ladi.


Masalan, butanning ikki izomeri bo'lsa, butanol to'rtta izomeraga ega:




## **SPIRTLARNING TABIATDA UCHRASHI VA OLINISH USULLARI**

Metanol va etanol asosan o'simliklardan olinadigan efir moylarda va o'simlik a'zolarida oz miqdorda uchraydi. Spirtlar oddiy va murakkab efir holatida tabiatda keng tarqalgan.


1. Murakkab efirlar gidroliz qilib olinadi:




2. Galoid birikmalarni ishqorlarning suvli eritmasi bilan gidroliz qilib olinadi:




Izoamil spirt sanoatda pentandan quyidagi sxema bo'yicha olinadi:




3. Etilen uglevodorodlarga temperatura va katalizator  $\text{H}_2\text{SO}_4$  ishtirokida suv ta'sir ettirib olinadi:



4. Aldegid va ketonlarni aktivlangan Ni, Pt va Pd katalizatorlar ishtirokida vodorod bilan qaytarish orqali spirtlar olinadi. Aldegidlardan birlamchi, ketonlardan esa ikkilamchi spirtlar hosil bo'ladi:



aldegid



keton

**Bilasizmi?** P.E. Bertlo 1854- yilda etilenni hidratlab etil spirtini sintez qilgan.

— Etanol zaharli narkotik modda. Uni ko'p iste'mol qiluvchilar gastrit, oshqozon yarasi, jigar sirrozi kasalliklariga yo'liqadi.

— Metanol yog'ochning pirroliz mahsuloti bo'lgani uchun «yog'och spirti» deb ham ataladi.

## SPIRTLARNING FIZIK XOSSALARI

Spirtlarning birinchi to'rt vakili harakatchan suyuqlik bo'lib o'ziga xos hidga ega. Spirtlarning molekular massasi ortishi bilan qaynash temperaturasini ham ortib boradi (9-jadval).

*9-jadval*

### Spirtlarning fizik xossalari


Nomi	Formulasi	Suyuqlanish temperaturasi, °C	Qaynash temperaturasi, °C	$d_4^{20}$
metanol	$\text{CH}_3\text{OH}$	-97	65	0,7924
etanol	$\text{C}_2\text{H}_5\text{OH}$	-117	78	0,7891
propanol-1	$\text{CH}_3-\text{CH}_2-\text{CH}_2\text{OH}$	-127	97	0,8044
propanol-2	$\text{CH}_3-\overset{\underset{\text{OH}}{ }}{\text{CH}}-\text{CH}_3$	-88	82	0,7849
butanol-1	$\text{CH}_3-\text{CH}_2-\text{CH}_2-\text{CH}_2\text{OH}$	-89	118	0,8096
butanol-2	$\text{CH}_3-\text{CH}_2-\overset{\underset{\text{CH}_3}{ }}{\text{CHOH}}-\text{CH}_3$	-94	100	0,8078
2-metilpropanol-1	$\text{CH}_3-\overset{\underset{\text{CH}_3}{ }}{\text{CH}}-\text{CH}_2\text{OH}$	-105	108	0,8008
2-metilpropanol-2	$\text{CH}_3-\overset{\underset{\text{CH}_3}{ }}{\text{C}}-\overset{\underset{\text{CH}_3}{ }}{\text{CH}_3}$	25	83	0,7882

Spirtlarning qaynash temperaturasi, shu spirt molekulasiidagi radikal asosida hosil bo'lgan galoid birikmaning va oddiy efirning qaynash temperaturasidan doimo yuqori bo'ladi. Masalan, etil spirt

		$t_{\text{qayn}}, ^\circ\text{C}$
	$\text{C}_2\text{H}_5\text{OH}$	78
efir	$\text{C}_2\text{H}_5-\text{O}-\text{C}_2\text{H}_5$	35
etil xlorid	$\text{C}_2\text{H}_5\text{Cl}$	12,4

Spirt molekulasiining tuzilishi, suvning molekula tuzilishiga o'xshash bo'lib, uglevodorod radikali va vodorod atomi kislorod atomi bilan bir chiziqda yotmasdan, bir-biri bilan ma'lum burchak

ostida joylashadi. Buning sababi, molekuladagi kislorod atomi erkin juft elektronlarga ega bo'lish uchun ikkinchi molekuladagi musbat zaryadli vodorod atomini o'ziga biriktiradi. Bu birikma elektrostatik bo'lib, vodorod bog' hosil qiladi (formulada nuqtalar bilan ko'rsatiladi). Buning natijasida spirtlar assosilangan (bir-biriga yopishgan) molekulalarni tashkil etadi:



Shuning uchun ham spirtlarning qaynash temperaturasi yuqori bo'ladi. Asosiy energiya vodorod bog'ning uzilishiga va molekulalarning bir-biridan ajralishiga sarflanadi.

Metil, etil va propil spirtlar suv bilan har qanday nisbatda aralashishining sababi, ularning dipol momentlarini katta bo'lishi, ikkinchidan spirtni suv bilan gidratlar hosil qilishidir.

Spirtlarning yuqori gomologlarini suvda yomon erishingin sababi, molekulalarda suvda erimaydigan uglevodorodlarning ortib borishidir.

Spirtlarda gidroksil guruh soni ko'payishi natijasida ularning agregat holati o'zgaradi. Masalan, etanol harakatchan suyuqlik gliserin moysimon suyuqlik, mannit esa qattiq modda. Birlamchi spirtga nisbatan ikkilamchi spirtning, ikkilamchiga nisbatan esa uchlamchi spirtning eruvchanligi oshib boradi. Spirtlarda gidroksil guruh soni ko'payishi bilan fiziologik ta'sir kuchi kamayadi.

Spirtlar  $-\text{OH}$  guruhining IQ- spektrdagi tebranish kattaligi  $3700 \text{ sm}^{-1}$  yutilish chizig'iga ega bo'lsa, spirt molekulalari assosilangan bo'ladi. Agar yutilish chizig'i  $3350 \text{ sm}^{-1}$  da bo'lsa, u holda gidroksil guruh vodorod bog' holatida bo'ladi.


Ayniqsa, spirtlarni PMR- spektrda metil, metilen va gidroksil protonlari aniq ko'rindisi. Masalan, etil spirt spektrida ( $\text{CH}_3-\text{CH}_2-\text{OH}$ ) gidroksil protoni bir protonli singlet holatda  $5,37 \text{ m.d.}$  da, metilen guruhdagagi protonlar 2 protonli kvadruplet holatda  $3,62 \text{ m.d.}$  da, metil protonlar esa 3 protonli triplet holatida  $1,17 \text{ m.d.}$  da tegishli yutilish chiziqlariga egadirlar.

## KIMYOVIY XOSSALARI

Spirtlarning suvli eritmalarini neytral reaksiyaga ega.

Spirtlarning kimyoviy xossalari molekulani tashkil etgan atom va atomlar guruhining reaksiyaga kirish xususiyatiga bog'liq.

Masalan, etil spirt molekulasida reaksiyaga kirishadigan atom va atomlar guruhini uch guruhga bo'lish mumkin:




1. Gidroksil guruhning vodorod atomi orqali boradigan reaksiyalar.

2. Gidroksil guruh orqali boradigan reaksiyalar.

3. Radikaldagi vodorod atomlari ishtirokida boradigan reaksiyalar.


**Gidroksil guruhining vodorod atomi orqali boradigan reaksiyalar.** Gidroksil guruhning vodorod atomi harakatchan bo'lgani uchun o'rin olish reaksiyalariga oson kirishadi.

a) gidroksil guruh vodorod atomi metallga o'rin almashib alkogoyatlar hosil qiladi, ularni nomi tegishli radikal nomiga «atlar» qo'shimchasini qo'shib o'qishdan kelib chiqadi. Masalan, etil spirtdan hosil bo'lgan alkogoyat etilat natriyi deyiladi:




Bu reaksiyaga asoslanib, ularda kislota xususiyati bo'lsa kerak, deb taxmin qilinadi. Ammo spirtlar indikatorlar rangini o'zgartirmasligi va dissotsilanish darajasi suvnikidan kam bo'lgani uchun kislotalar deb hisoblanmaydi.

Alkogolyatlar qattiq moddalar bo'lib, beqaror — havoda tezda o'zgaradi, nam (suv) ta'sirida parchalanib spirt va ishqor hosil qiladi:



b) gidroksil guruh vodorod atomi organik kislota qoldiqlari (radikallar) bilan o'rin almashib murakkab efirlar hosil qiladi:




Efir — lotincha *aether*. Murakkab efir olish reaksiyasini eterifikatsiya reaksiyasi deb yuritiladi. Eterifikatsiya reaksiyasi qaytar

reaksiya bo'lib, hosil bo'lgan suv molekulasi ta'sirida yana spirt va kislotaga parchalanadi. Murakkab efirlarni bunday parchalanish reaksiyasiga gidrolik (sovunlanish) reaksiyasi deb ataladi.


Murakkab efirlar olish reaksiyasi sanoatda sintez ishlarida katta ahamiyatga ega. Murakkab efirlar tayyor holda o'simlik moyi va hayvon yog'larida keng uchraydi.

### **Spirtlarning gidroksil guruhi orqali boradigan reaksiyalar.**

a) Spirtlar galoid kislotalar yoki fosforining galoidli birikmalari bilan qo'shib qizdirilsa, galoidalkillar hosil bo'ladi:




b) **Degidratatsiya reaksiyaları.** Ikki molekula spirtni konsentr-langan sulfat kislota ishtirokida qizdirilsa bir molekula suv ajralib chiqishi hisobiga oddiy efir hosil bo'ladi:




Bu reaksiyada ham gidroksil guruh, ham gidroksil guruhdagi vodorod atomi xususiyatlarini ko'rish mumkin.

d) spirtlar yuqori temperaturada aluminiy oksid katalizatori ishtirokida ammiak bilan *aminlar* hosil qiladi:





### **Radikalagi vodorod atomlari ishtirokida boradigan reaksiyalar.**

a) Radikalagi vodorod atomi, shu molekulalarning gidroksil guruhi bilan suv hosil qilishi hisobiga to'yinmagan uglevodorodlar hosil bo'ladi.






b) Spirit bug'larini yuqori temperaturada ( $250-300^\circ\text{C}$ ) Pt, temir yoki rux kukunlari ustidan o'tkazilsa, vodorod molekulasini ajralib chiqishi hisobiga birlamchi spirlardan aldegid, ikkilamchi

spirtlardan ketonlar hosil bo'ladi. Bu reaksiya spirtlami degidrogenlanishi deyiladi:



**Oksidlanish reaksiyasi.** Spirlarni oksidlanish reaksiyasida ham radikal vodorod atomlari reaksiyaga qatnashadi.


Birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi spirlar bir xil sharoitda oksidlansa, birlamchi spirlardan aldegidlar, ikkilamchi spirlardan ketonlar hosil bo'ladi, uchlamchi spirlar esa oksidanmaydi. Ammo uchlamchi spirlarni kuchli oksidlovchilar ta'sirida oksidlansa, uglerodlar o'rtasidagi bog' uziladi va spirtga nisbatan kichkina molekulalar hosil bo'ladi:



**Spirlarning ayrim vakillari.** Metil spirt (**metanol, yog'och spirt, karbinol**). Metil spirtni birinchi bo'lib, yog'och sanoatida chiqindi hisoblangan qipiqli quruq haydab olingan.

Haydash natijasida yonuvchan gaz ( $\text{CO}$ ,  $\text{CO}_2$ ,  $\text{CH}_4$ ,  $\text{H}_2$ )lar va suyuq qism (sirka kislota, metil spirt, aseton) ajralib chiqadi. Suyuq qismini ikkinchi marta fraksiyalarga bo'lib haydab metil spirt ajratiladi.

Hozirgi vaqtida sanoatda metil spiritni 90% is gazi bilan vodorod aralashmasini yuqori temperatura va bosim ostida rux oksidi katalizatori ishtirokida olinadi:




Metil spirit harakatchan suyuqlik, yonganda ko'kish alanga hosil qiladi. U kuchli zahar, oz miqdori ko'r qiladi, ko'p miqdori esa nafas yo'llarini bo'g'ib o'limga olib keladi.

**Ehtiyyot bo'ling!** Metil spirit o'ta zaharli!

Metil spirit asosan, erituvchi sifatida lak va bo'yoq moddalar tayyorlashda, formaldegid olishda va har xil moddalar sintez qilishda xom ashyo sifatida ishlatiladi.

**Etil spirit (etanol, vino spirit).** Qadimda uzum suvlarini bijg'itisha da hosil bo'lgan vinoni haydab spirit olingan, shuning uchun ham «vino spirit» deyiladi.

Sanoatda etil spirit neftni qayta ishlash sanoatida chiqindi hisoblangan etilenden sintez qilinadi. Yog'och (selluloza) ishlab chiqarish korxonalarining chiqindilaridan va g'o'zapoyadan ham gidroliz yo'li bilan ko'p miqdorda spirit olinadi. Bu spirit gidroliz spiriti deyiladi. Masalan, 56 t qipiqlikdan 8 t spirit olish mumkin, shunda 30 t don yoki 100 t kartoshka tejaladi. Shu bilan birga oziq-ovqat sanoatida va tibbiyotda ishlatiladigan etil spiritni qishloq xo'jaligida yetishtiriladigan kraxmalli mahsulotlarni bijg'itish bilan fermentlar amilaza, maltoza, zimaza ishtirokida quyidagi sxema bo'yicha olinmoqda. Olingen spiritni qayta haydab tozalangan spirit rektifikat spirit deb ataladi. Uni tibbiyotda spiritus aethylicus deyiladi.



Etil spirit — rangsiz, 78 °C da qaynaydigan harakatchan suyuqlik, u kuchsiz sarg'ish alanga berib yonadi. Texnikada ishlatiladigan etil spiritni ichmaslik maqsadida, unga metil spirit, formalin, piridin va bo'yoq moddalar solinadi. Bunday tayyorlangan spirit — denaturat spirit deyiladi.

Spirit xalq xo'jaligining ko'p tarmoqlarida ishlatiladi.

Kimyo sanoatida etil spirit sintetik kauchuk va bo'yoq moddalar olishda, farmasevtika sanoatida, dietil efir (narkoz uchun), etil

xlorid (ayrim a'zolarini og'riq sezmaydigan qilish uchun)larni olishda va parfumeriya sanoatida ko'p miqdorda ishlataladi.


Oziq-ovqat sanoatida ichimliklar asosini etil spirit tashkil etadi.

Etil spirit narkotik bo'lib, organizmga kuchli ta'sir etadi. Uni ko'p iste'mol qilinganda asab sistemasini, ovqat hazm qilish a'zolarini va yurak-qon tomirlarini ishdan chiqarib og'ir kasallik-larga olib keladi. Ayniqsa, markaziy nerv sistemasiga kuchli ta'sir etib, inson aqlini va ish qobiliyatini pasayishiga, ishyoqmaslikka olib keladi. Bu illat inson hayotida va jamiyatimiz uchun juda katta fojeaga sabab bo'lishi mumkin.


## PROPIL, BUTIL, AMIL VA YUQORI MOLEKULALI SPIRTLAR

Bijg'ish jarayoni bo'yicha etil spirit bilan birga sivuxa moyi ham olinadi. Sivuxa moyi qaytadan fraksiyalarga bo'linganda propil, izobutil, izoamil spirtlar ajratib olinadi.

Propil spirt ikkita izomerga ega:



$$t_{\text{qayn}} = 97 \text{ }^{\circ}\text{C}$$




$$t_{\text{qayn}} = 82,4 \text{ }^{\circ}\text{C}$$

Izopropil spirt neftni qayta ishlash jarayonida hosil bo'luvchi propilenden olinadi.

**Butil spirt.** Butil spirt to'rtta izomerga ega bo'lib, ularning formulasi va fizik konstantalari 9-jadvalda ko'rsatilgan.

Propilen, uglerod (II)-oksid bilan vodorod aralashmasini kobalt katalizatori ishtirokida yuqori bosim va temperaturada qizdirib quyidagi reaksiya bo'yicha butil spirt hosil bo'ladi.





**Amil spirit.** Amil spirit ham erituvchi sifatida keng ishlatiladi va uning kislotalar bilan hosil qilgan murakkab efirlari xushbo'y hidga ega. Shu sababli izoamilasetat  $\text{CH}_3\text{---CH}_2\text{---CH}_2\text{---CH}(\text{CH}_3)\text{---O---CO---CH}_3$ , nok essensiyasini olishda ishlatiladi.


**Yuqori molekular spirtlar.** Ular o'simliklarning efir moylarida, hayvon yog'larida va tabiiy mum tarkibida murakkab efir yoki sof holda uchraydi. Mumlar sariq yoki ko'kimir rangdagi qattiq moddalardir. Masalan, ayrim palma daraxtlari bargi usti karnaub mumi bilan qoplangan. U asosan, seritinat —mirisil efiridan iborat:



Uni gidroliz qilinganda, seritinat kislota bilan mirisil spirit (suyuqlanish temperaturasi  $85,5^{\circ}\text{C}$ )ga parchalanadi:



Yuqori molekular spirtlarning ikkinchi vakili — setil spirit palmitin kislota bilan birga murakkab efir holida dengiz hayvonlari yog'ida uchraydi. Bu yog' spermaset deyilib, uni gidroliz qilinganda palmitin kislota bilan setil spirtga parchalanadi:




Yuqori molekular spirtlar mumlar tarkibida bo'lib, turli o'simlik a'zolarini suvsizlanishdan, ortiqcha namlanishdan va mikroorganizmlar ta'siridan saqlaydi.

## IKKI ATOMLI SPIRTLAR





To'yingan uglevodorodlar tarkibidagi ikkita uglerod atomidagi ikkita vodorod atomi o'rniغا gidroksil guruh joylashsa, ikki atomli spirtlar yoki glikollar hosil bo'ladi. Glikol grekcha so'z bo'lib, shirin demakdir.


Uglerod atomida ikkita yoki uchta gidroksil guruh saqlaydigan birikma yo'q, chunki bunday birikmalar beqaror bo'lib, bir molekula suv, molekuladan ajrab chiqishi hisobiga aldegid, keton va kislotalar hosil bo'ladi:




**Nomenklaturasi va izomeriyasi.** Ratsional nomenklatura bo‘yicha ikki atomli spirtlar nomi etilen uglevodorodlar nomiga glikol so‘zini qo‘shib o‘qishdan kelib chiqadi:



Ayrim hollarda gidroksil guruhlari uglevodorod zanjirlarining boshida va oxirida uglerod atomlarida joylashgan bo‘lsa, u holda metilen guruhlari soniga glikol so‘zini qo‘shib o‘qishdan ikki atomli spirtlarni nomi kelib chiqadi:




trimetilenglikol




pentametilenglikol


Sistematik nomenklatura bo‘yicha ikki atomli spirtlarni nomlashda tegishli to‘yingan uglevodorodlar nomiga «diol» qo‘sishchasi qo‘shiladi, gidroksil guruhlari joylashgan uglerod atomlari raqamlar bilan ko‘rsatiladi:



etandiol




propandiol-1,3




2,2-dimetilpropandiol-1,3


**Olinish usullari.** 1) 1856- yilda fransuz kimyogari A.Vyurs dixloretanni gidroliz qilib etandiol olgan:



2) 1888- yilda rus kimyogari E.E.Vagner olefinlarga ishqoriy muhitda kaly permanganatning suvli eritmasini ta'sir ettirib, ikki atomli spirt olgan:



3) Asetonni qaytarib ikki atomli spirt-pinakon olingan.




**Fizik va kimyoviy xossalari.** Glikollar rangsiz, hidsiz, shirinroq mazaga ega bo'lgan quyuq suyuqlikdir. Ular suv va spirt bilan yaxshi aralashadi. Bir atomli spirlarnikiga nisbatan ikki atomli spirlarning qaynash temperaturasi doimo yuqori bo'ladi.


Masalan, etil spirt 78 °C da qaynasa, etilenglikol 197 °C da qaynaydi.

Ikki atomli spirlarning kimyoviy xossalari bir atomli spirlarnikiga o'xshash bo'lib, faqat reaksiya ikki bosqichda ketadi.


1) glikollar ishqoriy metallar bilan ikki xil glikolyatlarni hosil qiladi:



2) glikollar mineral va organik kislotalar ta'sirida yarim va to'liq efirlar hosil qiladi:




3) glikollar mis gidroksid ta'sirida kompleks tuz hosil qiladi:




Bu reaksiya rangli bo'lgani uchun sifat analizda glikollarni aniqlashda qo'llaniladi;

4) glikollarning oksidlanishi ham ikki bosqichda boradi:




5) bir atomli spirlarning ikki molekulasidan bir molekula suv ajrab chiqishi hisobiga oddiy efir hosil bo'lganidek, akademik A.E.Favorskiy ikki molekula etilenglikoldan ikki molekula suv ajralib chiqishi hisobiga siklik efir — dioksan hosil bo'lishini isbotlaydi:



**Dioksan** — 101 °C da qaynaydigan harakatchan suyuqlik, kuchli erituvchi sifatida ishlataladi.

**Ayrim vakillari.**


**Etilenglikol** —  $\text{CH}_2\text{OH}-\text{CH}_2\text{OH}$ , sanoatda etilenden olinadi.



Etilenglikol rangsiz quyuq suyuqlik bo'lib, 197 °C da qaynaydi. U shirinroq mazaga ega, suv va spirt bilan aralashadi.



Etilenglikol xalq xo'jaligining ko'pgina tarmoqlarida ishlatiladi. U suv bilan aralashtirilganda suvning muzlash temperaturasini pasaytirib yuboradi, shuning uchun «antifrizlar» tayyorlashda ishlatiladi. Shuning uchun etilenglikol avtomobil sanoatida, shuningdek, motorlar va pulemyot stvolini sovutishda keng qo'llanildi. Undan to'qimachilik sanoatida sintetik tola (lavsan) olishda foydalaniadi.

**Etilen oksid** – 1858- yilda A. Vyurs tomonidan etilenxorgidringa o'yuvchi kaliy ta'sir ettirib olingan:



Sanoatda etilen oksid etilenden olinadi. Etilen oksid gaz, +10,7 °C da qaynaydi, suv bilan aralashadi. Agar aralashma qizdirilsa yana etilenglikol hosil bo'ladi.

Etilen oksid faol modda bo'lganligi uchun laboratoriyalarda va kimyo sanoatida moddalarni sintez qilishda keng ishlatiladi. Masalan, metil va etil spirtlar etilen oksid bilan birikib etilenglikolning oddiy efirlarini hosil qiladi:




Bu oddiy efirlarning aralashmasini sellozolvlar deyiladi. Ular lak va bo'yoq sanoatida erituvchi sifatida ishlatiladi.


*Eslang!* Etilenglikol antifrizning asosini tashkil etadi.

## UCH ATOMLI VA KO'P ATOMLI SPIRTLAR


Molkulasida uchta gidroksil guruh saqlaydigan birikmalarga uch atomli spirtlar deyiladi. Ularning eng oddiy vakili gliserin bo'lib, u quyidagi tuzilish formulasiga ega:




Glitserin yuqori molekulalı kislotałar bilan murakkab efir holida o'simlik moyini va hayvon yog'larini tashkil etadi. Shuning uchun gliserin yog' yoki moylarmi gidroliz qilib olinadi:




Sanoatda gliserin quyidagi reaksiyalar bilan nefstni qayta ishlovchi zavodlarda hosil bo'ladigan propilendan olinadi:



Propilen oksidni izomerlab allil spirtga aylantirib, unga vodorod peroksid ta'sir ettirish bilan gliserin olinadi:




Oddiy qandni bijg'itish bilan ham gliserin olinadi:




**Fizik xossasi.** Glitserin rangsiz, quyuq, shirinroq suyuqlik bo'lib, 290 °C da qaynaydi, solishtirma massasi  $d_4^{20} = 1,26$  ga teng. U suv va spirt bilan har qanday nisbatda aralashadi.

**Kimyoiy xossalari.** Glitserin metallar yoki metall hidroksidlari bilan gliseratlar hosil qiladi:




Glitserin anorganik va organik kislotalar bilan murakkab efirlar hosil qiladi. Masalan, gliserin nitrat kislota bilan mono-, di- va trinitroglycerin efirlarini hosil qiladi:




Trinitroglycerinni portlovchanlik xususiyatidan foydalanib, dinamitlar tayyorlandi.

Glitserin  $\text{KHSO}_4$  ta'sirida yuqori temperaturada degidratlanib, ikki molekula suv ajrab chiqishi natijasida akrolein hosil bo'ladidi:



Glitserin oksidlanib gliserin aldegid bilan dioksiaseton hosil qiladi:





Glitserin gidroskopik bo'lgani uchun kosmetikada, ko'n va to'qimachilik sanoatida materiallarni yumshoq va elastik bo'lishi uchun ishlataladi. Farmatsevtikada undan har xil surkov moylari





va dori-darmonlar tayyorlanadi. Glitserindan olingen smolalar lako-bo'yoq sanoatida ishlataladi. Avtomobil sanoatida glitserin «antifriz» tarkibiga kiritiladi.

Molekulasida uchtadan ortiq gidroksil guruhi saqlaydigan birikmalarga ko'p atomli spirtlar deyiladi. To'rt, besh va olti atomli spirtlar tabiatda o'simlik tarkibida keng tarqalgan.




To'rt atomli spirtlar eritritlar deyiladi:



Besh atomli spirtlarni pentitlar deyiladi va ular kelib chiqish nomlariga egadirlar:




Olti atomli spirtlarni geksitlar deyilib, ularning ayrim vakillarini misolga keltiramiz:




## ALISIKLIK SPIRTLAR


Bu spirlarning birinchi vakili siklogeksanol bo'lib, nikel katalizatorligida fenolni vodorod bilan qaytarib olinadi:



Siklogeksanol alifatik spirlarga o'xshash degidratlanib siklik olefin-siklogeksenni hosil qiladi:





Siklogeksanol oksidlanganda siklogeksanon hosil bo'ladi, u oksidlanib adipin kislota hosil qiladi:



Sanoatda adipin kislotani geksametilenni diamin bilan polimerlab neylon tolasi olinadi.

Alisiklik spirlarning beshta gidroksil guruh saqlaydiganini — *kversit*, oltita gidroksil guruh saqlaydiganini — *inozit* deyiladi.



Ular o'simlik va hayvonot olamida keng tarqalgan, ayniqsa, inozit (vitamin 8), jigar, go'sht, tuxum sarig'i, non, kartoshka va ko'k no'xat tarkibida ko'p miqdorda bo'ladi. O'rtacha hisobda har bir odam bir sutkada 1,0—1,5 gr gacha inozit iste'mol qiladi. Inozitning ozuqa birligida kamayishi buzoqlarning o'sishini sekinlashtiradi.


Inozit (vitamin 8) o'simlik va hayvon organizmining o'sishi hamda rivojlanishiga ta'sir etuvchi fiziologik faol moddalardan biridir.

## TO'YINMAGAN SPIRTLAR


Etilen qatori uglevodorodlarda bitta vodorod atomi o'rniga gidroksil guruhi almashinib hosil bo'lgan birikmalar to'yinmagan spirtlar deyiladi,  $C_2H_{2n}-OH$ .

Ular gidroksil guruhi qo'shbog'iga nisbatan joylanishiga qarab uch tipga bo'linadi:


1. **Vinil tipi** — gidroksil guruhi qo'sh bog'dagi uglerod atomiga birikkan:



2. **Allil tipi** — gidroksil guruhi qo'sh bog' yonidagi uglerod atomi yonidagi uglerodga birikkan:




3. **Ajralgan tipi** — bunda gidroksil guruhi qo'sh bog'dan bir nechta uglerod atomlaridan keyingi uglerod atomiga birikkan bo'ladi:



**Vinil tipidagi sirtlarning eng oddiy vakili vinil spirt** —  $CH_2=CHOH$  bo'lib, qo'sh bog' yonidagi uglerod atomidagi gidroksil guruhi beqaror bo'lgani uchun tezda aldegid yoki keton holatiga o'tib ketadi.


Allil tipidagi sirtlarning eng oddiy vakili — allil spirt  $CH_2=CH-CH_2OH$  bo'lib, u sof va efirlar holatida piyoz, sarimsoq, anzur piyozi va boshqa o'simliklarda uchraydi.

Allil spirt, asosan propilenden olinadi:



Allil spirit — 97 °C da qaynadigan o'tkir hidli suyuqlik, suv bilan yaxshi aralashadi.


Allil spiritning kimyoviy xossalari molekuladagi qo'sh bog' bilan birlamchi spirtning kimyoviy xossalariга bog'liq. Uni oksidlab kislota qaytarilganda to'yingan spirit hosil bo'ladi:




Allil spirit sanoatda, asosan, glitserin olishda xomashyo sifatida ishlataladi.

## FENOLLAR


Benzol halqasini tashkil etgan uglerod atomlarida gidroksil guruh saqlagan birikmalar fenollar deyiladi. Fenollar gidroksil guruh soniga qarab, bir atomli, ikki atomli va uch atomli fenollarga bo'linadi:



bir atomli




ikki atomli




uch atomli


Bir atomli fenollarning eng oddiy vakili fenol, u bitta izomerga ega, uning gomologgi — krezol uchta izomerga ega:




fenol



o-krezol




m-krezol




p-krezol

Fenol va uning gomologlari yog'och va toshko'mirni quruq haydalgarda hosil bo'lgan smolalardan olinadi.


Fenol benzolsulfo kislota tuzlariga yuqori temperaturada ishqor ta'sir ettirib olinadi:




Sanoatda fenol xlorbenzolni katalizator (mis tuzlari) ishtirokida o‘yuvchi natriy eritmasi ta’sirida gidroliz qilib olinadi.



Alkil benzollarini oksidlab gidroperoksidlar hosil qilinadi, so‘ngra ular kislota ta’sirida fenol va asetonga parchalanadi:




Birlamchi alifatik aminlarga kislota ta’sirida spirtlar hosil bo‘lganidek, aromatik aminlardan fenol hosil bo‘ladi:



**Fizik xossalari.** Fenol o’tkir hidli suvda yomon eriydigan rangsiz kristall bo‘lib,  $42,3^\circ\text{C}$  da suyuqlanib,  $182^\circ\text{C}$  da qaynaydi. U havoda turganda bir qismi oksidlanib, kristall pushti, so‘ngra qo‘ng‘ir rangga ega bo‘ladi.


Fenol suvda eritilganda ikkita qatlama hosil bo‘ladi: pastki qatlama — suvning fenolda erigan qismi, yuqori qatlama — fenolning

suvdag'i qismi. Fenol temir (III)-ioni bilan binafsha rangli fenolyat kompleksni hosil qiladi, u fenolning sifat tahlilida ishlataladi.




binafsha rang beruvchi birikma



**Kimyoviy xossalari.** Fenol kislota xususiyatiga ega, buning sababi kislorod atomidagi erkin juft




elektronlar benzol yadrosiga +M ta'sir qilishi natijasida kislorod atomida elektronlar zichligi kamayadi va gidroksil guruhdagi vodorod atomi harakatchan holatda bo'lib qoladi. Shuning uchun ularning dissotsilanish konstantasi suvnikidan yuqori bo'lib, o'yuvchi natriy eritmasi bilan fenolyatlar hosil qiladi:



Molekulada kislorod atomidagi erkin juft elektronlarni benzol yadrosiga ta'siri natijasida benzol halqasining orto- va para-holatlarida elektron buluti zichligi ortadi, shu hisobdan elektrofil o'r'in olish reaksiyalari ro'y beradi:




Pikrin kislota, kislota kuchi bo'yicha xlorid kislotaga yaqinlashadi, buning sababi molekuladan nitroguruuhlar kislorod atomi- dan elektronlarni benzol yadrosiga tortadi. Shu sababli, gidrosil guruhdagi kislorod bilan vodorod o'tasidagi oddiy bog' kuchsizlanib qoladi. Natijada, molekula oson dissotsilanadi va vodorod ko'r-satkich yuqori bo'ladi. Pikrin kislotaga ishqoriy muhitda xlor ta'sir ettirilsa xlorpikrin hosil bo'ladi:




U 112 °C da qaynaydigan suyuqlik bo'lib, bug'i zaharli, ko'zdan yosh oqizadi.

Pikrin kislota asos xususiyatiga ega bo'lgan moddalar bilan tuz hosil qiladi. Ayniqsa, alkaloidlarni identifikasiya qilishda katta ahamiyatga ega.


Fenol tuzlariga galoid alkillami ta'sir ettirib oddiy efir, kislota xlorangridridlar ta'sirida esa murakkab efirlar olinadi:



Fenol oksidlanganda, dastlab gidroxinon, so'ngra benzoxinon hosil bo'ladi:




Fenollar ko'pchilik organik birikmalar bilan kondensatlanish reaksiyasiga oson kirishadi. Masalan, fenolga formaldegid ta'sir ettirilsa fenol-spirtlar hosil bo'ladi:




Reaksiyaning keyingi bosqichida fenol-spirtlar o'zaro polikondensatlanib, fenol-formaldegid smolasini hosil qiladi. Fenol-formaldegid smolasini hosil bo'lishi fenol va formaldegid miqdoriga qarab reaksiya ikki xil yo'naliishda ketadi.


Fenol miqdori ko'p bo'lsa, novolak smolasasi hosil bo'ladi:



Formaldegid miqdori ko'p bo'lsa, rezol smolasini hosil qiladi:




Polikondensatlanishni qizdirish bilan davom ettirilsa, rezol molekulalari kondensatlanadi va qattiq polimer — rezit hosil bo'ladi.



Fenolning ayrim hosilalari o'simliklarning o'sishi va rivojlanishini kuchaytiradi. Masalan: fenoksisirka kislota va uning hosilalari shunday xususiyatga ega.

Fenoksisirka kislota, natriy fenolyatga xlorsirka kislotaning natriyli tuzini ta'sir ettirib olinadi:




Bu kislotaning hosilasi 2,4-dixlorfenonksirka kislotaning 0,001 % li eritmasi o'simlik ildiz sistemasining rivojlanishiga ta'sir etadi.

**Fenolning ishlatalishi.** Fenol ko'p mikroorganizmlarni o'ldiradigan modda. Tibbiyotda uning 3—5 % li eritmasi (karbol kislota) dezinfeksiya vositasi sifatida ishlataladi. Ko'pgina plastmassa va polimerlar olishda xom ashyo hisoblanadi. Fenol asosida olingan preparat fenoltalein laboratoriya da indikator sifatida, tibbiyotda esa ichni yumshatuvchi (surgi) dori sifatida ishlataladi.


**Ikki atomli fenollar.** Ular quyidagi uch xil izomerga ega:




**Olinish usullari.** Benzol disulfokislota tuzlariga yuqori temperaturada ishqor ta'sir ettiriladi. Masalan, disulfokislota tuzlaridan prokatexin olinadi:



Diazo-reaksiya yordamida aminofenollardan rezorsin hosil qilinadi:




**Kimyoviy xossalari.** Ikki atomli fenollarni kimyoviy xossasi bir atomli fenollarning kimyoviy xossasiga o'xshash, ammo ularning kislotalik xususiyati bir atomli fenollarga nisbatan kuchliroqdir. Masalan, pirokatexin qo'rg'oshin asetat ta'sirida tuz hosil qiladi:




Ikki atomli fenollar tez oksidlanadi. Shuning uchun ular kuchli qaytaruvchi hisroblanadi.

Pirokatexinning hosilalari — gvayakol, evgenol, izoevgenol va adrenalinlar tibbiyotda keng ishlataladi:




Rezorsin tibbiyotda dezinfeksiyalovchi vosita hisoblanadi. Gidroxinon tabiatda o'simliklar tarkibida arbutin glyukozid holida uchraydi:




Gidroxinon fotografiyada, asosan, ochiltirgich sifatida ishlataladi.

### UCH ATOMLI FENOLLAR


Uch atomli fenol uch xil izomerga ega:



Pirogaloll o'simliklar tarkibida uchraydigan gall kislotani dekarboksillab olinadi:




Floroglyutsin o'simliklardan olinadigan smolalar tarkibida bo'ladi, u tautomer holda uchraydi:




Pirogallol fotografiyada ochiltirgich sifatida ishlataladi, floroglyutsin esa ligninni aniqlashda reaktiv sifatida foydalaniladi.

**Naftalin qatori.** Ularni naftollar deyilib, quyidagi  $\alpha$  va  $\beta$  formalarda bo‘ladi, oksidlangan holati *naftaxinon* deyiladi.




p-naftaxinon vitamin K (vikasol)ning asosini tashkil etadi, u tibbiyotda qonni to‘xtatish uchun ishlataladi:



## VITAMIN E GURUHI (TOKOFEROLLAR)

Tokoferol (vitamin E) ham fenollarning hosilasi bo‘lib, bug‘doy, makkajo‘xori murtaklari moyidan va ba’zi o‘simliklar moyidan ajratib olinadi. Tokoferol grekcha so‘zlardan olingan bo‘lib tokos-avlod, fero-tashiyman ma’nosini bildiradi. Shu vaqtgacha yettita, tokoferol (10-jadval) ajratilgan, ularning asosi quyidagi formulaga ega:



Tokoferol molekulasidagi metil guruhi qaysi uglerod atomida joylashishi 10-jadvalda ko'rsatilgan.

*10-jadval*

№	Tokoferollar	Uglerod atomlari		
		5	7	3
1	α-tokoferol	CH <sub>3</sub>	CH <sub>3</sub>	CH <sub>3</sub>
2	β-tokoferol	CH <sub>3</sub>	—	CH <sub>3</sub>
3	γ-tokoferol	—	CH <sub>3</sub>	CH <sub>3</sub>
4	δ-tokoferol	CH <sub>3</sub>	CH <sub>3</sub>	—
5	φ-tokoferol	—	—	CH <sub>3</sub>
6	ε-tokoferol	CH <sub>3</sub>	—	—
7	η-tokoferol	—	CH <sub>3</sub>	—

Tokoferollarning hammasi sarg'ish tiniq moysimon suyuqlik bo'lib, suvda erimaydi, organik eruvchilarda yaxshi eriydi.


Tokoferollarda fenol gidroksil guruhi bo'lgani uchun anorganik va organik kislotalar bilan murakkab efirlar hosil qiladi.

Tibbiyotda α-tokoferolasetat ishlataladi.


Tokoferolasetat (vitamin-E), asosan, aterosklerozni davolashda, ginekologiyada va erkaklar jinsiy organlari ishslash faoliyatining buzilishi kasalliklarida ishlataladi.

## AROMATIK SPIRTLAR

Yon zanjirida hidroksil guruhi saqlagan benzol birikmalariga aromatik spirtlar deyiladi. Aromatik spirtlar ayniqsa, efir moyi saqlaydigan o'simliklarda keng tarqalgan. Ularning eng oddiy vakili benzil spirt bo'lib, aromatik galogen birikmalami hidrolizlab olinadi:



Benzoy aldegidni qaytarilsa, benzil spirit hosil bo'ladı.



Benzil spirit, 206 °C da qaynaydigan, o'ziga xos hidga ega bo'lgan suyuqlik, suvda yomon eriydi, organik erituvchilarda yaxshi eriydi. Uning murakkab esirlari, yoqimli xushbo'y hidga ega bo'lganligi uchun parfumeriya sanoatida ishlataladi.

**Feniletil spirit**  $C_6H_5-CH_2-CH_2OH$  220 °C da qaynaydigan moysimon suyuqlik, atirguldan olinadigan efir moyining asosini tashkil etadi. Feniletil spirit ham parfumeriya sanoatida atirlar tayyorlashda ishlataladi.


Fenilpropil spirit —  $C_6H_5-CH_2-CH_2-CH_2-OH$

Dolchin spirit —  $C_6H_5-CH=CH-CH_2OH$ .

Bular ham turli xil atirlarni tayyorlashda ishlataladi.


## MERKAPTANLAR

Vodorod sulfid molekulasi dagi bir vodorod atomi o'rniga radikallar almashinishidan hosil qilgan birikmalar merkaptanlar deyiladi. Merkaptanlarda spirit molekulasi ning gidroksil guruhidagi kislород atomi o'mini oltingugurt atomi egallaydi.




vodorod                    merkaptan  
sulfid

**Olinish usuli.** Galoid alkillarga kaliy gidrosulfid ta'sir ettirib merkaptanlar olinadi:




**Merkaptanlar** —  $CH_3SH$ ;  $C_2H_5SH$ ;  $C_3H_7SH$  ning qaynash temperaturasi, radikallarning tegishli spirtlari qaynash temperaturasidan doimo past bo'ladi. Masalan,  $CH_3OH = +65^{\circ}C$ ,  $CH_3SH = +6^{\circ}C$ .

Merkaptanlar kuchsiz kislota xususiyatiga ega bo'lganligi uchun ishqorlar va og'ir metall oksidlari bilan tuzlar (alkantiolyatlar) hosil qiladi:



Merkaptanlarga kuchsiz oksidlovchilar ta'sir ettirilsa disulfidlar hosil bo'ladi, ular o'z navbatida qaytarilsa yana merkaptanlarga aylanadi:




Merkaptanlarning bu xususiyati tirik organizmda oqsil moddalarni hosil bo'lishiga yordam beradi.

## ODDIY EFIRLAR




Umumiy formulasasi  $R-O-R'$  bo'lgan kislород saqlovchi organik birikmalarga oddiy efirlar deyiladi. Oddiy efirlar deganda spirtni gidroksil guruhlari vodorod atomi o'rniga radikal almashigan yoki suv molekulasi dagi ikki vodorod atomi o'miga radikallar almashigan deb qarash ham mumkin.




Efirlar radikallarning xiliga qarab ikkiga bo'linadi:

Efir molekulasi dagi radikallar bir xil bo'lsa, oddiy efirlar deyiladi:



Molekuladagi radikallar har xil bo'lsa aralash efirlar deyiladi.




**Nomenklaturasi va izomeriyasi.** Sistematik (IYuPAK) nomenklatura bo'yicha oddiy efirlarning nomi katta radikalni to'yingan uglevodorod deb qaralib, uning nomi oldiga ikkinchi kichkina radikalni ( $R-O$  alkoksi guruh) nomi qo'shiladi.


Masalan,  $\text{CH}_3\text{OCH}_2\text{CH}_3$  metoksietaan  
 $\text{C}_2\text{H}_5\text{OCH}_2\text{CH}_3$  etoksietaan  
 $\text{C}_2\text{H}_5\text{OCH}_2\text{CH}_2\text{CH}_3$  etoksibutan  
 $\text{CH}_3\text{OCH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_3$  metoksioktan

Oddiy efirlarda izomeriya faqatgina radikallar hisobiga bo‘ladi.


Masalan:



Efirlarda radikal izomeriyadan tashqari yangi — metamer izomeriya ham bo‘ladi. Bu holda umumiyy formula bir xil, ammo tuzilish formulalari har xildir. Masalan:



**Olinish usullari.** Umumiyy usullardan biri alkogolyatlarga galogen alkillar ta’sir ettirib olinadi:



Ikkinci umumiyy usul spirtlarga konsentrlangan sulfat kislota (suv tortib oluvchi katalizator) ta’sir ettirib oddiy efirlar olinadi.

**Fizik xossalari.** Dimetil va etilmetyl efirlar gaz, o’rta vakillari suyuqlik, yuqori molekulalari qattiq modda  $(\text{C}_{17}\text{H}_{35})_2\text{O}$ .

Oddiy efirlarning qaynash temperaturasi va zichligi tegishli spirtlarnikidan doimo past bo‘ladi:


Efirlar	Qaynash tem-si, °C	Spirtlar	Qaynash tem-si, °C
$(\text{CH}_3)_2\text{O}$	-24	$\text{CH}_3\text{OH}$	+65
$(\text{C}_2\text{H}_5)_2\text{O}$	+35,6	$\text{C}_2\text{H}_5\text{OH}$	+78
$(\text{C}_3\text{H}_7)_2\text{O}$	+90	$\text{C}_3\text{H}_7\text{OH}$	+97



Efirlarda qaynash temperaturasining past bo‘lishining asosiy sabablari: birinchidan, efir molekulalari vodorod bog‘lariga ega emas; ikkinchidan, molekulalar o‘zaro assotsilanmagan.

**Kimyoviy xossalari.** Efirlar oddiy sharoitda reaksiyaga kirish-maydigan barqaror moddalardir. Ular ishqor va suyultirilgan kislotalar ta'sirida o'zgarmaydi.


Oddiy efirlar konsentrangan kislotalar ta'sirida tuzga o'xshash moddalarni hosil qiladi. Ular beqaror bo'lib, oksoniy birikmalar deb yuritiladi:



Oddiy efir konsentrangan yodid kislota ta'sirida spirt bilan galogen alkilga parchalanadi:




Agar shu reaksiya qizdirish bilan olib borilsa, ikki molekula galogen alkilga hosil bo'ladi:



Bu reaksiya analitik kimyoda  $-\text{OCH}_3$ , va  $-\text{OC}_2\text{H}_5$ , funksional guruqlarni aniqlashda ishlataladi. Oddiy sharoitda efirlarga ishqoriy metallar ta'sir etmaydi. Shuning uchun efirlar natriy metali bilan quritiladi.

Yuqori temperaturada efir natriy ta'sirida alkogolyat va metall-organik birikmalarga parchalanadi:



## AYRIM VAKILLARI

Dietil efir (etil efir, efir, sulfat efir) 1540-yilda V.Kordus tomonidan birinchi bo'lib etil efir olingan. Hozirgi vaqtida sanoatda etil efir spirt bilan konsentrangan sulfat kislota aralashmasini maxsus apparat — efirizatorda 130—140 °C da qizdirib olinadi.

Dietil efir 35,6 °C da qaynaydigan, rangsiz, o'ziga xos hidga ega bo'lган yengil alanganuvchi, uchuvchan suyuqlikdir.


Dietil efir, efir nomi bilan tibbiyotda (ko'p miqdorda) narkoz uchun ishlataladi. Narkoz uchun ishlataladigan efir mutlaqo toza bo'lishi kerak, chunki efir vaqt o'tishi bilan yorug'lik ta'sirida havo kislorodida oksidlanib, parchalanadi.

Hosil bo'lgan moddalar ichida dioksietilperoksid zaharli hamda portlovchandir. Shuning uchun bunday efirlarni tozalamasdan ishlatib bo'lmaydi. Peroksidlardan tozalash uchun temir (II)-sulfat eritmasi bilan yuviladi, so'ngra quritiladi va haydaladi.


**Etilen oksid**  $\text{CH}_2-\overset{\text{O}}{\text{C}}\text{H}_2$ , siklik oddiy efir bo'lib, u oksidlarning

birinchi vakilidir. U, asosan, ikki usul bilan olinadi:

1) etilenden etilenxorgidrin olinib, unga konsentrangan o'yuvchi ishqor ta'sir ettiriladi:





2) etilenni yuqori temperaturada ( $250^{\circ}\text{C}$ ) kumush ( $\text{Ag}$ ,  $\text{AgCl}$ ) katalizatori ishtirokida oksidlab etilen oksid olinadi:



Etilen oksid gaz,  $11^{\circ}\text{C}$  da qaynaydi, efir hidiga ega, suv bilan aralashadi.

Oddiy efirlar barqaror, reaksiyaga kirishmaydi, ammo etilen oksid buning aksi bo'lib, u juda ham tez reaksiyaga kirishadi. Buning sababi, etilen oksid halqasi kuchlanishga ega bo'lib, ancha beqaror, shuning uchun halqaning kislrorod—uglerod bog'ining uzlishi hisobiga birikish reaksiyasi sodir bo'ladi.

Etilen oksid sulfat kislota ishtirokida suv molekulاسini biriktirib etilenglikol, spirt molekulасini biriktirib sellozolvlarni hosil qiladi:




Etilen oksid sanoatda sintetik moddalarni, yuvish vositalarini, emulgatorlarni olishda xom ashyo sifatida ishlataladi.

## ANORGANIK KISLOTALARING MURAKKAB EFIRLARI


Anorganik kislota spirtlar bilan o'zaro reaksiyaga kirishganda suv molekulasi ajralib chiqib, hosil bo'lgan birikmaga murakkab efirlar deyiladi.

**Bor kislota efiri.** Bor kislota bilan etil spirt aralashmasini konentrangan sulfat kislota ishtirokida qizdirilsa murakkab efir — trietilbor hosil bo'ladi:





Bor kislota efirlari, asosan, qandlarning konfiguratsiyasini aniqlashda ishlataladi.


Bor kislota efirlari ishqorlarning suvli eritmasi ta'sirida gidrolizlanadi:



**Sulfat kislota efirlari.** Sulfat kislota spirtlar bilan reaksiyaga kirishib monoalkil hamda dialkil murakkab efirlarni hosil qiladi:




Metil spirtga sulfat angidrid ta'sir ettirib dimetil sulfat — murakkab efir olinadi:



Dimetil va diethyl sulfatlar quyuq moysimon suyuqlik, suvda yomon eriydi, zaharli. Bu ikki murakkab efir sintez jarayoni molekulalarga metil va etil radikallarini kiritish uchun reagent sifatida ishlataladi.


## NITRIT VA NITRAT KISLOTA EFIRLARI

Bu kislotalarning efirlari ularning tuziga spirtlar ta'sir ettirish bilan olinadi:




Metilnitrit —  $\text{CH}_3\text{ONO}$  va etilnitrit —  $\text{C}_2\text{H}_5\text{ONO}$  tibbiyotda qon bosimini tushirishda ishlataladi.

Spirlarga konsentrangan nitrat kislota ta'sir ettirilsa, nitrat kislota efirlari hosil bo'ladi:




Hamma nitrat kislota efirlari portlash xususiyatiga ega, ayniqsa nitrat kislotani ko'p atomli spirtlar bilan hosil qilgan efirlari kuchli portlovchi moddalardir. Shuning uchun ulardan dinamitlar tayyorlanadi.




## FOSFOR KISLOTALARINING EFIRLARI


Fosfit kislota efiri fosfor trikloridga alkogolyatlar ta'sir ettirib olinadi:




Fosfit kislota efirlari suv ta'sirida gidrolizlanib dialkilfosfit (nordon efirlar) hosil qiladi:




Dietilfosfitlar ikki xil tautomeriya holatida bo'ladi:




Fosfat kislota uch xil murakkab efiriga ega:



monoalkilosfat




dialkilosfat




trialkilosfat

Bu efirlar, asosan, alkogolyatlarga fosfor oksixlorid ta'sir ettirib olinadi:



Triethylfosfat ham suv ta'sirida gidrolizlanib nordon murakkab efirlarni hosil qiladi:




Fosfit va fosfat kislotalarning murakkab efirlari qishloq xo'jaligi zararkunanda hasharotlariga qarshi kurashda ishlataladi.

Fosfat va pirofosfat kislotalar ATF, ADF, AMF tarkibida bo'lib, biokimyo jarayonida fotofosforlanish reaksiyalarida faol qatnashadi va organizmga ma'lum miqdorda kimyoviy energiya yetkazib beradi.

Ular quyidagi tuzilish formulalariga ega bo'lib, biosintez reaksiyalarida qatnashadi va bir-biriga o'tib turadi (178- betga q.).

### Savol va mashqlar

1. Spirit deb qanday birikmalarga aytildi, sizga ma'lum bo'lgan spirlarning tuzilish formulalarini yozing.
2.  $\text{C}_5\text{H}_{11}\text{OH}$  formulasiga ega bo'lgan spiritning izomerlarini va ularning nomlarini yozing.
3. Etil spiriti sanoatda nimadan olinadi va uni olish reaksiya tenglamlarini yozing.
4. Spirit molekulasiidagi vodorod atomlaridan qaysi biri faol, tushuntirib bering.



- Nima uchun spirlarni qaynash temperaturasi ularga tegishli uglevodorodlarni qaynash temperaturasidan yuqori?
- Spirlarning kimyoviy xossalaring eng muhimlariga misol keltirib, ularni reaksiya tenglamalarini yozing.
- Quyidagi o'zgarishlarni amalga oshirish reaksiya tenglamalarini yozing:
$$\text{C}_2\text{H}_5\text{OH} \rightarrow \text{CH}_2=\text{CH}_2 \rightarrow \text{C}_2\text{H}_6 \rightarrow \text{C}_2\text{H}_5\text{Cl} \rightarrow \text{CH}_3\text{COH} \rightarrow \text{CH}_3\text{CH}_2\text{OH}$$
- Qaysi organik birikmalardan spirlar hosil qilish mumkin va aksincha. Shularni kimyoviy reaksiya tenglamalarini yozing.
- Rektifikat spirt, gidroliz spirt va denaturat spirlarni farqi nimada va ular nima maqsadlarda ishlataladi?

10. Ikki atomli spirt etilenglikolni olishda fransuz kimyogari A.Vyurs usulidan rus kimyogari E.E.Vagnerning olish usulini farqini ko'rsating va ularning reaksiya tenglamalarini yozing.
11. Uch atomli spirt giserin niyuqori molekulalari kislotalar bilan hosil qilgan murakkab efirlari qanday moddalar va ularni tibbiyotda uchrashini gapiring.
12. Aromatik uglevodorodlardagi qaysi vodorod atomlari gidroksil guruhg'a o'r in almashsa fenollar hosil bo'ladi, misollar yozing.
13. Fenollar nima uchun kislotali xususiyatiga ega, uning sabablarini tushuntirib, misollar yozing.
14. Novalak smolasining, rezol smolasidan farqini gapirib bering va reaksiya tenglamalarini yozing.
15. Naftalindan qanday fenollar hosil bo'ladi va ularni tuzilish formulalarini yozing.
16. Merkaptanlar bilan oddiy efirlarni tuzilish formulalarini yozing va ular orasidagi tafovutni izohlang.
17. Tibbiyotda ishlatiladigan efir turish natijasida qanday moddalarga parchalanadi?
18. Sulfat va fosfor kislotalarning efirlari, qanday efirlarni tashkil etadi va ularning olinishini yozing.
19. Fosfat va pirofosfat kislotalarning qoldiqlari organizmda qanday moddalar tarkibida bo'ladi va ular qanday vazifani bajaradi?

XII b o b

## AMINLAR VA AMINOSPIRTLAR

**Tayanch iboralar:** amino- va imin guruhlari, birlamchi, ikki-lamchi va uchlamchi aminlar; A.V.Gofman reaksiyasi; diaminlar; neylon tola; aminospirt; lesitin; xolin; neyrin; fenilamin; N.N.Zinin reaksiyasi.


### AMINLAR

Aminlar deb, ammiakning vodorodlari, uglevodorod radikalaliga almashishidan hosil bo'lgan birikmalarga aytildi.

Aminlar uglevodorod qismiga qarab to'yingan, to'yinmagan va aromatik uglevodorodlarning aminlariga bo'linadi. Ular amino-guruuning soniga qarab, mono-, di- va poliaminlar holida bo'ladi.

Aminlarning tuzilishiga qarab, ular ammiakning hosilasi ekanligini ko'rish mumkin. Ammiak molekulasidagi bitta vodorod atomi radikalga o'r in almashsa – birlamchi, ikkita vodorod atomi

ikkita radikalga o‘rin almashsa – ikkilamchi, uchta vodorod atomi uchta radikalga o‘rin almashsa – uchlamchi aminlarni hosil qiladi:




Birlamchi amindagi –  $\text{NH}_2$  guruh – aminoguruh, ikkilamchi amindagi  $>\text{NH}$  guruh – imin guruh deb ataladi.


Di amin

## NOMENKLATURASI VA IZOMERIYASI


Ratsional nomenklatura bo‘yicha aminlarning nomi radikallar nomiga «amin» so‘zini qo‘sib o‘qishdan kelib chiqadi:




Sistematisk nomenklatura bo‘yicha aminlar nomi uglevodorodlar nomi oldiga «amino» so‘zini qo‘sib va  $\text{NH}_2$  aminoguruh joylashgan uglerod atomini raqam bilan ko‘rsatib o‘qiladi:




Izomeriya aminlarda molekulaning uglevodorod qismini tar moqlanishiga va aminoguruhning joylanishiga bog‘liqdir.





Aminlardi radikallarni miqdor jihatdan o'zgarib, izomerlarni hosil bo'lishiga metameriyalanish deyiladi.

Masalan,  $\text{C}_3\text{H}_9\text{N}$  tarkibli amin uch xil izomerga ega:




### Bilasizmi?

Molekulada amino guruhning joylanishiga qarab, izomerlar soni ko'payadi.


## OLINISH USULLARI

1. Nemis kimyogari A.V.Gofman galoidalkillarga ammiak ta'sir ettirib, quyidagi sxema bo'yicha birlamchi, ikkilamchi, uchlamlchi aminlar va to'rtlamchi ammoniy asoslarini olishga muvaffaq bo'ldi. Shuning uchun bu reaksiyani Gofman reaksiyasi deb yuritiladi.


I bosqich



II bosqich




III bosqich







✓

#### IV bosqich




Bu reaksiya organik birikmalarning tuzilishini aniqlashda ishlataladi.


2. Nitrobirikmalarni, nitrillarni, oksimlarni va gidrozonlarni vodorod atomlari bilan nikel katalizatori ishtirokida qaytarilganda aminlar hosil bo'лади:



3. Kislota amidlarga ishqoriy muhitda gipoklorid ta'sir ettirib birlamchi aminlar olinadi:



4. Aminokislolar chirituvchi bakteriyalar ta'sirida o'zidan karbonat angidrid ajratib chiqarib aminlar hosil qiladi:



#### FIZIK XOSSALARI

Aminlarning birinchi vakillari — metilamin, dimetilamin va trimetilamin gaz, qolganlari suyuqlik bo'lib, yuqori molekulaga

ega bo'lganlari esa qattiq moddalardir. Ularning molekulyar massalari ortishi bilan qaynash temperaturasi va solishtirma zichligi ortib boradi (11-jadval). Oddiy vakillarining hidi ammiak hidiga yaqin bo'lib, molekular massasi ortib borishi bilan bu hid kamayadi (yuqori molekulaga ega bo'lganlari hidsiz).

11-jadval

### Aminlarning fizik xossalari

Nomi	Formulasi	Suyuqlanish temperaturasi, °C	Qaynash temperaturasi, °C	$d_4^{20}$
Metilamin	$\text{CH}_3\text{NH}_2$	-92	-7	—
Etilamin	$\text{C}_2\text{H}_5\text{NH}_2$	-83	17	0,706
n-propilamin	$\text{C}_3\text{H}_7\text{NH}_2$	-81	48	0,741
n-butilamin	$\text{C}_4\text{H}_9\text{NH}_2$	-51	78	0,764
n-dodesilamin	$\text{C}_{12}\text{H}_{25}\text{NH}_2$	28	249	—

Fizik usullar yordamida funksional guruhlarga xos kattaliklar aniqlanadi.



Masalan, metiletilamin  $\text{CH}_3-\overset{\text{C}_2\text{H}_5}{\text{NH}}$  IQ- spektrda 3500—3300  $\text{sm}^{-1}$  da  $>\text{NH}$  ga xos bo'lgan yutilish chizig'i hosil bo'ladi. PMR- spektrda esa molekuladagi  $-\text{CH}_3$  guruh protonlari 1,0 m.d. maydonda uch protonli singlet holatida ko'rindi, etil guruhidagi  $-\text{CH}_2$  guruh protonlari 1,14 m.d. maydonda uch protonli triplet holatda,  $>\text{CH}_2$  guruh protonlari 2,65 m.d. maydonda ikki protonli kvadruplet holatda ko'rindi.

Bu ma'lumotlar molekulalarni taqqoslashda va tuzilishini aniqlashda ishlatiladi.


## KIMYOVIY XOSSALARI

**1. Asos xususiyatlari.** Aminlar organik asoslар bo'lib, ularning suvli eritmалари lактус qоғ'озни ко'ктиради.

Ayniqa, то'yingan uglevodorodlarning aminlari ammiakka nisbatan kuchli asoslardir. Chunki ular suvli eritmada kuchli dissotsilanadi va natijada eritmada yuqori konsentratsiyali gidroksil ionlari hosil bo'ladi:



ammoniy  
gidroksid





dimetilammoniy  
gidroksid

Aminlarning bu xususiyatini ammiak va ayrim aminlarning elektrolitik dissotsilanish konstantalarida ko'rish mumkin:


ammiak	$\text{NH}_3$	$1,79 \cdot 10^{-5}$
metilamin	$\text{CH}_3\text{NH}_2$	$4,39 \cdot 10^{-4}$
dimetilamin	$(\text{CH}_3)_2\text{NH}$	$5,20 \cdot 10^{-4}$
trimetilamin	$(\text{CH}_3)_3\text{N}$	$5,45 \cdot 10^{-4}$
etilamin	$\text{C}_2\text{H}_5\text{NH}_2$	$5,60 \cdot 10^{-4}$

Aminlarga kislotalar ta'sir ettirib tuzlar olinadi. Bu reaksiyada kislotaning vodorod ioni azot atomidagi bir juft erkin elektronlarga birikib, musbat zaryadli ammoniy ionini hosil qiladi:




**3. Nitrit kislotaning ta'siri.** Bu reaksiya natijasida aminlarning tuzilish qismi aniqlanadi, chunki nitrit kislotasi ta'sirida hosil bo'layotgan moddalarga qarab, aminlarni birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi ekanligi aniqlanadi.

Birlamchi aminlar nitrit kislotasi ta'sirida spirt, azot va suvga parchalanadi:




Ikkilamchi aminlar nitrit kislotasi ta'sirida nitrozaminlarni hosil qiladi. Ular quyuq moysimon suyuqlik bo'lib, suvda yomon eriydi va o'ziga xos qo'lansa hidga ega:




Nitrozaminlarga kuchli kislotalar ta'sir ettirilsa, qaytadan ikkilamchi amin hosil bo'ladi.

Uchlamchi aminlar nitrit kislota ta'siriga chidamli bo'lib, faqat tuz hosil bo'ladi:




Uchlamchi aminlar peroksidlar ta'sirida oksidlanib, N-oksigirikmalarni hosil qiladi:



Uchlamchi aminlami N-oksi formalari tabiatda alkaloidlar tarkibida uchraydi.

4. Aminlarning alkillanish va asillanish reaksiyalari amino-guruhdagi vodorod hisobiga boradi:





## AYRIM VAKILLARI

*X*

Metilamin  $\text{CH}_3\text{NH}_2$ , dimetilamin  $(\text{CH}_3)_2\text{NH}$  va trimetilamin  $(\text{CH}_3)_3\text{N}$  lar gaz, ular ammiak hidiga ega.


Ular ammoniy xloridga yuqori temperaturada formaldegid ta'sir ettirib olinadi:






Aminlar, ko‘pgina moddalarni sintez qilishda katalizator sifatida ishlataladi.

**Diaminlar.** Molekulasida ikkita  $-\text{NH}_2$  guruh saqlagan uglevodorodlarga diaminlar deyiladi. Ularning vakillaridan biri etilen-diamin  $-\text{NH}_2-\text{CH}_2-\text{CH}_2\text{NH}_2$ . U 1,2-dibrometanga ammiak ta’sir qildirib olinadi:



**Putressin** (tetrametilendiamin)  $-\text{NH}_2-\text{CH}_2-\text{CH}_2-\text{CH}_2-\text{CH}_2-\text{NH}_2$  kristall modda, 27 °C da suyuqlanadi. **Kadaverin** (pentametilendiamin)  $-\text{H}_2\text{NCH}_2-\text{CH}_2-\text{CH}_2-\text{CH}_2-\text{CH}_2-\text{NH}_2$  suyuqlik bo‘lib, 170 °C da qaynaydi.

Putressin va kadaverin oqsil moddalarni chirishidan, ya’ni diaminokislotalarni karboksilsizlanishidan hosil bo‘ladi. Shuning uchun bu diaminlar ptoaminlar deb ataladi. Ptoamin lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, «murda» demakdir. Ular kuchli asos bo‘lgani uchun nafas yo‘llariga kuchli ta’sir etadi, shu sababli ularni «murda zahari» deb ataladi. Geksametilendiamin  $\text{NH}_2-\text{CH}_2-\text{CH}_2-\text{CH}_2-\text{CH}_2-\text{CH}_2-\text{CH}_2-\text{NH}_2$ , adipin kislotadan quyidagi sxema bo‘yicha olinadi:





Geksametilendiamin sanoatda neylon tolasini olishda asosiy xom ashyo hisoblanadi.

## AMINOSPIRTLAR

Aminospirtlar deb, uglevodorodlarning bitta vodorod atomini aminoguruhga, ikkinchi vodorod atomini gidroksil guruhgaga o'rinnal mashinishidan hosil bo'lgan birikmalarga aytildi.



Aminospirtlarning birinchi oddiy vakili, etanolamin yoki kolamin  $\text{H}_2\text{N}-\text{CH}_2-\text{CH}_2-\text{OH}$  dir.

Etilen oksidiga va etilenxlorigidringa ammiak ta'sir ettirib osonlik bilan etanolamin olinadi:



Etanolamin quyuq moysimon suyuqlik bo'lib,  $171^{\circ}\text{C}$  qaynaydi, suvda yaxshi eriydi, kuchli asos xususiyatiga ega.

Ammiakka etilen oksid ta'sir ettirilganda, etilen oksidning miqdoriga qarab, mono-, di-, va trietanolamin hosil bo'ladi:





Etanolaminlar sanoatda ba'zi bir jarayonlarni karbonat angidrididan tozalashda va quruq muz olishda keng ishlatalidi.

Xolin — oksietiltrimetilammoniy gidroksid.

Xolin, asosan, hayvon va o'simlik organizmlarida keng tarqalgan fosfatidlar yoki lesitinlar tarkibida uchraydi. Lesitinlar eng ko'p miqdorda tuxum sarig'ida va o'simlik donlarida uchraydi.

Lesitinlar fosfolipaza fermentlari yordamida glitserin, fosfat kislota, xolin va stearin kislotalarga parchalanadi:







Xolin kristall modda bo'lib, kuchli ishqor xossasiga ega, kislotalar bilan tuz hosil qiladi. U tibbiyotda xolinomimetik modda sifatida ishlataladi.

Xolining hosilalaridan asetilxolinxlorid va karboxolinlar glaukoma kasalligida, qon bosim kasalligini boshlanishini oldini olishda ishlataladi.

Xolin quyidagi sxema bo'yicha sintez qilinadi:




Xolinni bariyli suv ishtirokida qizdirilganda uning molekulasiidan bir molekula suvni yo'qotishi hisobiga zaharli modda — neyrin hosil bo'ladi:




## AROMATIK AMINLAR


Aromatik aminlar deb, benzol halqasidagi vodorod atomi o'miga aminoguruh yoki ammiakdagagi vodorod atomlari o'miga aromatik radikallar o'rinn almashtgan moddalarga aytildi:




Ammiak molekulasiidagi vodorod atomlarini radikallarga o'rinn almashtinishi natijasida birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi aromatik aminlar hosil bo'ladi.



Molekuladagi aminguruh soniga qarab aromatik aminlar mono, di- va poliaminlarga bo'linadi:




**Nomenklaturasi.** Aromatik aminlarning nomi radikallar nomiga «amin» so'zini qo'shib o'qishdan kelib chiqadi:




**Izomeriyasi.** Aromatik aminlarda izomeriya soni aminoguruuning benzol halqasida yoki benzol halqanining tashqarisidagi zanjirga joylashishiga bog'liqdir.


Masalan,  $\text{C}_7\text{H}_9\text{N}$  formulali aromatik amin to'rtta izomerga ega:




**Olinish usullari.** 1. Nitrobirikmalarni ammoniy sulfid eritmasida qaytarish bilan aromatik aminlarni olinish usulini birinchi bo'lib, 1842- yilda rus olimi N.N.Zinin kashf etdi:




Sanoatda qaytaruvchi reagent sifatida xlorid kislota va Fe, Sn, Zn metallari ishlataladi. Nitrobirikmalar kislotali muhitda qaytarilganda aminlar hosil bo'lgunga qadar oraliq moddalar — nitrozobirikma va gidroksilaminlar hosil bo'ladi:




2. Galogenli aromatik birikmalarga yuqori temperatura va bosimda katalizatorlar yordamida ammiak ta'sir ettirish bilan aminlar olinadi:



3. Ikkilamchi aromatik aminlarni olish uchun birlamchi aminlarni kislotali muhitda qizdiriladi:




4. Uchlamchi aminlar esa ikkilamchi aromatik aminlarga mis katalizatori ishtirokida galoidarillar ta'sir ettirib olinadi:



**Fizik xossalari.** Kichik molekulalari aromatik aminlar suyuq yuqori molekulalilari esa qattiq moddalardir. Ularning ko'pchiligi qo'lansa hidga ega bo'lib, suvda yomon eriydi. Masalan, anilin rangsiz moy-simon suyuqlik, 185 °C da qaynaydi, 3,3 g anilin 100 g suvda eriydi.



**Kimyoviy xossalari.** Aromatik aminlarning kimyoviy xossalari molekuladagi aminoguruuh bilan benzol halqasining xossalalarini o'z ichiga oladi.

1. To'yingan uglevodorod aminlariga nisbatan aromatik aminlar kuchsiz asos hisoblanadi. Buning sababi molekuladagi azot atomining juft elektronlari benzol halqasidagi  $\pi$ -elektronlar bulutini bilan ta'sirda bo'ladi:






Buning natijasida azot atomida elektron zichligi kamayib, benzol halqasining orto va para holatlarida elektron zichligi ortadi va elektrofil almashinish reaksiyasi oson kechadi.

2. Aromatik aminlar to‘yingan alifatik uglevodorodlarning aminlariga o‘xshash alkillanish va asillanish reaksiyalariga kirishadi:




3. Aromatik aminlarga  $\text{NaNO}_2$  kislotali muhitda ta’siridan aminlarning birlamchi, ikkilamchi va uchlamchiligi aniqlanadi.


Birlamchi aromatik aminlar nitrit kislota ta’sirida dastlab diazoniy tuzini hosil qiladi, bu tuz suv ta’sirida parchalanadi:




Ikkilamchi aromatik aminlarga  $\text{NaNO}_2$  ni kislotali muhitda ta'sir ettirib nitrozoaminlar olinadi:



Uchlamchi aromatik aminlar nitrit kislota ta'sirida para-nitrozo-birikmalar hosil qiladi:



**4. Qaytarilish reaksiyasi.** Aromatik aminlar yuqori temperatura va bosimda nikel katalizatori ishtirokida vodorod atomlari bilan qaytariladi:



Aromatik aminlar, asosan, bo'yoqlar ishlab chiqarish va tibbiyotda keng qo'llaniladi. Masalan, asetanilid tibbiyotda isitma tushiruvchi va og'riqni qoldiruvchi dori sifatida ishlatiladi.

### Savol va mashqlar

1. Aminlar qaysi moddaning hosilasi hisoblanadi va misollar yozing.
2.  $\text{C}_7\text{H}_9\text{N}$  tarkibli aminning izomerlarini yozing va nomlang.
3. Gofman reaksiyasi orqali birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi aminlarni olinish reaksiyalarini yozing.
4. Gaz holatidagi aminlarni yozing va qaysi aminlarda ammiak hidi yo'qolib boradi?
5. Aminlarning asosiy kimyoviy xossasini gapirib bering va ularga misollar yozing.
6. Qaysi aminlarga  $\text{NaNO}_2$  kislotali muhitda ta'sir etganda tuz hosil qiladi. uning reaksiyasini yozing.

7. Sanoatda neylon tolasini qaysi xom ashyodan olinadi?
8. Aromatik amin deyishning sababi nimada, ularning olinish usullarini yozing.
9. Aromatik aminlar kimyoviy xossasi to‘yingan uglevodorodlarning aminlarini kimyoviy xossasidan nima bilan farqlanadi?
10. Nima uchun aromatik aminlarning asoslik xossalari alifatik aminlarga nisbatan pastioq?
11. Anilinga bromli suv ta’sir ettirib 16,5 g tribromanilin olindi. Qancha gramm anilin reaksiyaga kirishdi?


XIII bob

### OKSOBIRIKMALAR (ALDEGID VA KETONLAR)

Tarkibida karbonil guruh  $> C = O$  tutgan birikmalar *oksobirikmalar* deyiladi. Oksobirikmalar sinfiga aldegid va ketonlar kirdi.


Uglevodorod molekulasidan bir yoki bir necha vodorodni

$\text{H}-\text{C}=\text{O}$  guruhga almashinishidan hosil bo‘lgan birikmalarga aldegidlardan deyiladi (chumoli aldegid bundan mustasno). Aldegidlarning umumiyligi formulasi:



✓

Ikkita uglevodorod radikali bilan bog‘langan, o‘zida karbonil guruh saqlagan birikmalarga *ketonlar* deyiladi.



Aldegid va ketonlar ochiq zanjirli alifatik yopiq zanjirli halqali (siklik) yoki aromatik, to‘yingan va to‘yinmagan bo‘lishi mumkin.



### TO‘YINGAN ALDEGID VA KETONLAR

**Tayanch iboralar:** karbonil guruh; aldegid; keton; Piroliz, gidrolizlash va gidratlanish reaksiyalari; polyar modda; dipol moment; oksim; hidrozon; asetal; lakrimator; kondensatsiya va «kumush ko‘zgu» reaksiyalari; Kannissaro va Kucherov reaksiyalari; xinonlar.


To‘yingan alifatik aldegid va ketonlarning umumiy formulasi  $C_nH_{2n}O$  ya’ni bir xil uglerod atomlariga ega bo‘lgan aldegid va ketonlar bir-biriga nisbatan izomer moddalaridir. Masalan  $C_3H_6O$  formulaga quyidagi:  $\text{CH}_3-\text{CH}_2-\overset{\text{O}}{\underset{\parallel}{\text{C}}}-\text{H}$  aldegid va  $\text{CH}_3-\overset{\text{O}}{\underset{\parallel}{\text{C}}}-\text{CH}_3$  keton javob beradi.

## NOMENKLATURASI

Aldegid va ketonlarni nomlashda trivial nomenklatura keng qo‘llaniladi. Bu nomenklaturaga ko‘ra, aldegidlarning nomi ularning oksidlanishidan hosil bo‘lgan tegishli karbon kislota nomidagi kislota so‘zini aldegidga almashtirish orqali hosil qilinadi. IYUPAK nomenklurasiga ko‘ra aldegid guruhini borligi *-al* qo‘sishchasi bilan ko‘rsatiladi:




2-metilpropanal




2-metil-3-butenal

Agarda modda molekulasi tarkibida aldegid guruhdan boshqa kattaroq guruh asosiy zanjirga kirsa, u holda aldegid guruhni formil-prefaksi bilan ifodalanadi. Masalan:




Oddiy katonlarning nomlari karbonil guruh bilan bog‘langan radikallar nomiga keton so‘zini qo‘sish bilan hosil qilinadi. IYUPAK nomenklurasiga binoan tegishli to‘yingan uglevodorodlar nomiga «on» qo‘sishchasi qo‘shiladi.

Misollar:




metiletiketon yoki  
butanon




etilizopropilketon yoki  
2-metilpentanon-3

## OLINISH USULLARI


**1. Spirtlarni oksidlash.** Birlamchi spirtlar oksidlanguanda aldegidlar:



ikkilamchi spirtlar oksidlanguanda esa ketonlar hosil bo‘ladi:





**2. Karbon kislota tuzlarining pirolizi.** Karbon kislotalarning Ba, Ca va Mn tuzlarining quruq haydash (piroliz) orqali aldegid va ketonlarni olish mumkin:



Reaksiya uchun olingan tuzlarning tuzilishiga qarab simmetrik (agarda R = R' bo‘lsa) yoki nosimmetrik (R ≠ R') ketonlar olish mumkin. Agarda kislotalardan biri chumoli kislota (R' = H) qoldig‘i bo‘lsa aldegidlar hosil bo‘ladi.

**3. Digaloidlarni gidrolizlash.** Ikkita galoid atomi bir uglerod atomida joylashgan. R—CHCl<sub>2</sub> turdag‘i galoidlarni gidroliz qilib aldegidlar, R—CCl<sub>2</sub>—R’ dan esa ketonlar olinadi:




**4. Alkinlarning gidratlanishi.** Asetilen gamologlarini  $\text{H}_2\text{SO}_4 + \text{HgSO}_4$  tuz ishtirokida gidratlanishidan ketonlar, asetilenning o'zidan esa sirkalalari aldegidi hosil bo'ladi.

## FIZIK XOSSALARI

Aldegid va ketonlarni fizik va kimyoviy xossalari ularning molekulalaridagi karbonil guruhning xususiyati bilan belgilanadi.

Karbonil guruh  $>\overset{+\delta}{\text{C}}=\overset{\delta-}{\text{O}}$  dagi kislorod uglerodga nisbatan katta elektromaniylikka ega bo'lgani uchun elektron bulutlarni kuchli tortadi va uning atrofida elektron bulut zichligi ortadi. Natijada uglerod atomida zichlik kamayadi. Kislorod qisman manfiy, uglerod esa qisman musbat zaryadlanadi:



Demak, aldegid va ketonlardagi uglerod bilan kislorod o'rta sidagi bog' kuchli qutblangan bo'lib, ular polyar moddalardir, ularning dipol momentlari 2,5 D orasida bo'ladi.

Aldegid va ketonlarda molekulalararo vodorod bog'lanish bo'lmaganligi sababli, ularning qaynash temperaturasi tegishli spirtlar va karbon kislotalarning qaynash temperurasidan ancha past (12-jadval) bo'ladi.

Aldegid va ketonlarning quyi vakillari suvda yaxshi eriydi va o'ziga xos yoqimsiz hidga ega bo'ladi. Yuqori molekulalni aldegidlar xushbo'y gul hidiga ega, ular parfumeriya sanoatida ishlataliladi. IQ-spektrda aldegid va ketonlardagi  $>\text{C}=\text{O}$  kuzatiladi. Masalan,

formaldegidda  $\text{H}-\overset{\text{O}}{\underset{\text{H}}{\text{C}}}=\text{O}$  guruhning yutilish maksimumi  $1745 \text{ sm}^{-1}$  da

yotadi. UB-spektrda aldegid va ketonlardagi  $>\text{C}=\text{O}$  guruhning yutilishi  $270 \text{ nm}$  ga yaqin bo'lib, bu yutilishning intensivligi ancha kichik ( $\epsilon = 18-80$ ).

### Bilasizmi?

Aldegidlarning qaynash temperaturasi, tegishli spirtlarning qaynash temperurasidan ancha past bo'ladi.

### To'yingan aldegid va ketonlarning fizik xossalari


Nomi	Formulasi	Suyuqlanish temperaturasi, °C	Qaynash temperaturasi, °C	$d_4^{20}$	Dipol momenti (20 °C da benzolda)
Chumoli aldegid	H-CHO	-92,0	21,0	0,815	2,27
Sirka aldegid	CH <sub>2</sub> -CHO	-123,5	20,8	0,781	2,49
Propion aldegid	CH <sub>3</sub> -CH <sub>2</sub> -CHO	-81,0	48,8	0,807	2,56
Moy aldegid	CH <sub>3</sub> -CH <sub>2</sub> -CH <sub>2</sub> -CHO	-97,0	74,7	0,817	2,57
n-Valerian aldegid	CH <sub>3</sub> (CH <sub>2</sub> ) <sub>2</sub> CHO	-91,5	103,4	0,819	2,57
Kapron aldegid	CH <sub>3</sub> (CH <sub>2</sub> ) <sub>4</sub> CHO	-	129	0,834	-
Dimetilketon (aseton)	CH <sub>3</sub> -C(=O)-CH <sub>3</sub>	-95,0	56,6	0,792	(18°C da)
Metiletilketon	CH <sub>3</sub> -C(=O)-C <sub>2</sub> H <sub>5</sub>	-86,4	79,6	0,805	2,79
Metil-n-propilketon	CH <sub>3</sub> -C(=O)-C <sub>3</sub> H <sub>7</sub>	-77,8	102	0,812	2,72 (15°C da)
Dietilketon	C <sub>2</sub> H <sub>5</sub> -C(=O)-C <sub>2</sub> H <sub>5</sub>	12,0	101,7	0,814	2,72 (15°C da)
Di-n-propilketon	C <sub>3</sub> H <sub>7</sub> -C(=O)-C <sub>3</sub> H <sub>7</sub>	-34,0	144,2	0,821	2,73
Palmiton	C <sub>15</sub> H <sub>31</sub> -C(=O)-C <sub>15</sub> H <sub>31</sub>	82,2	-	-	-

### KIMYOVIY XOSSALARI



✓

Aldegid va ketonlarning reaksiyaga kirishish qobiliyati kuchli bo'lib, ular uchun birikish, o'rin olish, kondensatlanish va oksidlanish reaksiyalari xosdir.


**Birikish reaksiyalari.** Aldegid va ketonlarda birikish reaksiyasi karbonil guruhidagi uglerod bilan kislorod o'rtasidagi qo'sh bog'ning oson uzilish hisobiga boradi:



1. Aldegid va ketonlar Ni katalizatori ishtirokida vodorodni biriktirib olishi mumkin. Bunda aldegidlardan birlamchi, ketonlardan ikkilamchi spirtlar hosil bo'ladi:





2. Aldegidler ammiak bilan kristall birikmalar — aldegid-ammiaklar va ulardan geterohalqali birikmalar hosil qiladilar:




Hosil bo'lgan aldegidammiaklar suyultirilgan kislotalar ta'sirida dastlabki aldeigidlar va ammoniy tuzlariga parchalanadi.

3. Aldeigidlar va metil guruhi karbonil guruuh bilan bog'langan  $\left(\text{CH}_3-\overset{\text{O}}{\underset{\diagdown \text{H}}{\text{C}}}-\right)$  ketonlar natriy bisulfitni biriktirib bisulfitlarni hosil qiladilar:



Bisulfit birikmalar kristall moddalar bo'lib, aldegid va ketonlarni turli aralashmalaridan toza holda ajratib olishda ishlatiladi.



4. Aldegid va ketonlar sianid kislotani biriktirib oksinitriliga aylanadi:





Oksinitrildan oksi kislota va  $\alpha$ - aminokislotalar sintez qilish mumkin.

**O'rin olish reaksiyaları.** Quyida aldegid va ketonlarning karbonil guruhidagi kislorodning ba'zi birikmalari bilan o'rinn olish reaksiyalarini ko'rib chiqamiz:


1. Aldegid va ketonlar hidroksilamin  $NH_2OH$  bilan oksimlar hosil qiladilar:






2. Aldegid va ketonlarga gidrazin  $NH_2-NH_2$  ta'sir ettirilsa, hidrozonlar hosil bo'ladi:




Aldegid va ketonlarning hidrozonlari o'yvchi ishqor bilan qizdirilganda azot ajratib chiqarib, uglevodorodlar hosil qiladi:



3. Aldegid va ketonlarga gidrazin hosilalari (fenilgidrazin va semikarbazid)ni ta'sir ettirib fenilgidrazon va semikarbazonlar olinadi:




4. Aldegidlar katalizator (masalan, suvsiz  $\text{CuSO}_4$ ) ishtirokida spirtlar bilan ta'sir etib asetallar hosil qiladi:




**Asetallar** — xushbo'y hidli rangsiz suyuqliklardir, ular kislotalarning suvli eritmasi ta'sirida tezda aldegid va spirtga parchalanadi.

**Karbonil guruhga nisbatan  $\alpha$ - holatda turgan vodorod reaksiyaları.**


1. Aldegid va ketonlardagi karbonil guruh bilan bevosita bog'langan uglevodoroddagi  $\alpha$ - vodorod atomlari juda faol bo'lib, ular galogenlar bilan osongina o'rinn almashinishi mumkin. Masalan:






$\alpha$ - galogenli aldegid va ketonlar kuchli lakrimatorlar hisoblanadi (*lacrima so'zi* lotincha «ko'z yoshi» demakdir), chunki ularni bug'i burun va ko'zni yallig'lantiradi.

2. Aldegid va ketonlarda ishqor yoki kislotalar ta'sirida boradigan kondensatsiya reaksiyalari katta ahamiyatga ega. Masalan, sirka aldegidni molekulalari ishqorning kuchsiz eritmasi ishtirokida o'zaro kondensatlanib aldolga aylanadi:




✓

Formuladan ko'rilib turibdiki, reaksiya mahsuloti aldegid va hidroksil guruh tutadi. Shuning uchun bu birikmani aldol, bunday reaksiyalarni esa aldol kondensatsiya deyiladi. Aldol kondensatsiya karbonil guruhga nisbatan  $\alpha$ - holatda turgan vodorod hisobiga boradi. Aldollar qarorsiz birikmalar bo'lib, qizdirilganda osongina bir molekula suv ajralib chiqadi:




Aldegidlardan suv ajralib chiqishi bilan boradigan reaksiyalarga kroton kondensatsiyasi deyiladi. Bunday kondensatsiya sirka aldegidning  $>\text{CH}_2$ , guruh tutgan gamologlari bilan oson boradi. Masalan:




Ketonlar aldegidlar kabi aldol va kroton kondensatsiyaga kirishadi.

**Aldegid va ketonlarning oksidlanishi.** Aldegidlar oson oksidlanadigan birikmalardir. Ular hatto havo kislorodi yoki kuchsiz oksidlovchilar, masalan, kumush oksidining ammiakli eritmasi va mis (II)-gidroksid ta'sirida oson oksidlanadi. Aldegidlarni kumush gidroksidning ammiakli eritmasi bilan oksidlanishi «kumush ko'zgu» reaksiyasi deyiladi. Bu reaksiyadan aldegidlarning sifat tahlilida keng foydalaniladi:




Yangi hosil qilingan  $\text{Cu}(\text{OH})_2$ , cho'kmasiga felin suyuqligidagi eritmani aldegid qo'shib qizdirilganda aldegid karbon kislotagacha oksidlanadi  $\text{Cu}(\text{OH})_2$ , esa  $\text{Cu}(\text{OH})$  ga qaytarilib, qizdirilganda  $\text{Cu}_2\text{O}$  ning qizil-sariq cho'kmasini hosil qiladi:




Bu reaksiya ham «kumush ko'zgu» reaksiyasi kabi aldegidlarga xos sifat reaksiyadir. Ketonlar oksidlovchilar ta'siriga ancha chidamlidir. Ular havo kislorodi va kuchsiz oksidlovchi, masalan, kumush gidroksidning ammiakli eritmasi ta'sirida oksidlanmaydi.


Ketonlar faqat ishqoriy va kislotali muhitda  $\text{KMnO}_4$ , yoki  $\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$ , kabi kuchli oksidlovchi ta'siridagina oksidlanadilar. Oksidlanish jarayonida molekulalar parchalanib, to'rt molekula kislota hosil bo'ladi:



**Polimerlanish reaksiyaları.** Bunday reaksiyalar faqat aldegidlar uchun xosdir. Aldegidlar polimerlanib, siklik va chiziqsimon tuzilishli polimerlarni hosil qiladi. Masalan, chumoli aldegid suytirilgan kislotalar ta'sirida trimerlanib, trioksimetilenni hosil qiladi:




Quruq gazsimon chumoli aldegid ayrim katalizatorlar ishitrokida polimerlanib, yuqori molekular poliformaldegidga ayladandi:




Poliformaldegid qattiq modda bo'lib, oddiy sharotida hech bir erituvchida erimaydi. Sintetik tolalar va turli buyumlar (trubalar, mashina detallari) ni tayyorlashda ishlataladi.

### ALDEGID VA KETONLARNING MUHIM VAKILLARI


  
Chumoli aldegid oddiy sharoitda gazsimon modda bo'lib, o'ziga hos hidga ega, suvda yaxshi eriydi. Sanoatda formaldegid metanolni 550—600 °C da havo kislorodi bilan gaz fazada (Cu yoki Ag ishtirokida) oksidlash yo'li bilan olinadi:



Kimyoviy xususiyatlari ko'ra, chumoli aldegid boshqa aldegidlardan keskin farq qiladi. Masalan, kuchli ishqorlar ta'sirida boshqa aldegidlar smolaga aylanadi, chumoli aldegid esa metil spirit va chumoli kislota tuzini hosil qiladi (Kannissaro reaksiysi):



Bunda aldegidning bir molekulasi qaytariladi, ikkinchisi esa oksidlanadi. Chumoli aldegid ammiak bilan o'ziga xos reaksiyaga kirishib, murakkab birikma — urotropinga aylanadi:



Urotropinning  $\text{CaCl}_2$  bilan hosil qilgan kompleks tuzi — kalseks tibbiyotda grippga qarshi dori sifatida ishlatiladi.

Formaldegidning ko'p miqdori fenol-formaldegid, karbomid va boshqa sintetik smolalarни olishda ishlatiladi. Chumoli aldegidning 40% li suvli eritmasi «formalin» deb atalib, kuchli zaharlovchi modda hisoblanadi. U hasharotlrga qarshi xonalarni va bar xil o'simliklar urug'ini (donini) qorakuya sporasiga qarshi dizenfeksiyalash uchun ishlatiladi.


**Sirka aldegid.**  $\text{CH}_3-\overset{\text{H}}{\underset{|}{\text{C}}}=\text{O}$  o'ziga xos hidli,  $218^\circ\text{C}$  da qaynay-




digan rangsiz suyuqlik. Sirka aldegid sanoatda bir necha usulda olinadi. M.G.Kucherov reaksiyasiga asoslanib, asetilenden  $\text{H}_2\text{SO}_4$ ,  $\text{HgSO}_4$ , tuzlari ishtirokida sirka aldegid olish mumkin.

Hozirda sirka aldegid, asosan, etilenden ikki xil usulda olinadi:

1. Etilenden etil spirit olgandan so'ng spiritni katalizatorlar ( $\text{Cu}$ ,  $\text{Ag}$ ,  $\text{Ni}$ ,  $\text{Pt}$ ) ishtirokida degidrogenlash yo'li bilan:



2. Etilen  $\text{PdCl}_2$  katalizatori ishtirokida kislород bilan to'g'ridan-to'g'ri oksidlashi natijasida ham sirka aldegid olish mumkin. Bunday samarali usul juda qisqa vaqt ichida sanoat miqyosida joriy qilindi:



Sirka aldegid texnikada sirka kislota, sirka angidrid, etil spirt va etilasetat kabi moddalarni olish uchun ko'p miqdorda ishlatiladi.

**Aseton**  $\text{CH}_3-\overset{\text{O}}{\underset{\text{||}}{\text{C}}}-\text{CH}_3$ , 56,5 °C da qaynaydigan, o'ziga xos hidli rangsiz suyuqlik. Aseton yog'ochni quruq haydashdan hosil bo'lgan sirka kislotaning kalsiyli tuzidan olinadi.

Ilgari bu usul aseton olishda yagona hisoblanar edi. Hozirda asetonning sanoatda olinishining bir necha samarali usullari kashf qilingan. Masalan, asetonni to'g'ridan-to'g'ri sirka kislotaning o'zidan ham olish mumkin. Buning uchun  $\text{CH}_3\text{COOH}$  bug'lari ( $\text{Al}_2\text{O}_3$  yoki  $\text{ThO}_2$ ) katalizatorlari ustidan o'tkaziladi. Aseton sanoatda keng qo'llaniladi. Undan xloforom va yodoform olishda, lak, kislotalar, asetat ipagi ishlab chiqarishda erituvchi sifatida ko'p miqdorda ishlatiladi.

### Bilasizmi??


— Aldegid va ketonlar M.G.Kucherov reaksiyasi bo'yicha asetilen uglevodorodlaridan olinadi.

— Formaldegidning muhim mahsulotlari poli formaldegid va urotropindir.

## TO'YINMAGAN ALDEGIDLAR

To'yinmagan aldegidlarning eng muhim vakili akrolein (propenal)  $\text{CH}_2=\text{CH}-\overset{\text{H}}{\underset{\text{|}}{\text{C}}}= \text{O}$  dir. U 52 °C da qaynaydigan o'ziga xos o'tkir hidli suyuqlik.

Texnikada akrolein propilenni to'g'ridan-to'g'ri oksidlab olinadi:




Akrolein kimyoviy jihatdan juda faol moddalar, chunki uning tarkibida aldegid guruhi va qo'sh bog' bor. Shuning uchun u aldegidlarga va to'yinmagan uglevodlarga (etilenga) xos reaksiyalarga kirishishi mumkin. U osongina kumush oksidning ammiakli eritmasi ta'sirida oksidlanib,  $\text{CH}_2=\text{CH}-\text{COOH}$  akril kislotaga o'tadi. Akrolein sanoatda bir qator sintetik smolalar olishda ishlatiladi.


**Sitral.**  $(CH_3)_2C=CH-CH_2-CH_2-C(CH_3)=CH-C=O-H$  moysimon suyuqlik bo'lib, ko'pgina o'simliklardan olinadigan efir moylar (masalan, limon) tarkibida uchraydi. Sitral tibbiyotda qon bosimini pasaytiradigan dori sifatida keng qo'llaniladi.

## AROMATIK ALDEGID VA KETONLAR

Aromatik aldegidlarning eng oddiy  $C_6H_5-C=O-H$  benzoy aldegid (benzaldegid)dir. U tabiatda o'simliklar tarkibida glukozidlar (masalan, amigdalin) holida uchraydi. Amigdalin achchiq bodom, lavrolcha bargida, shaftoli, olxo'ri va o'rik danaklari tarkibida bo'ldi. Shuning uchun toza benzoy aldegid kuchli achchiq bodom hidiga ega. Amigdalin o'zi bilan birga uchraydigan «emulsin» enzimi ta'sirida gidrolizlanib, glukoza, benzaldegid va sianid kislota hosil qiladi:




Sintetik benzaldegid, asosan, toluolni katalitik oksidlاب оlinadi.




Benzaldegid alifatik aldegidlarga xos bo'lgan umumiylar reaksiyalarga kirishadi. Bularidan tashqari, benzaldegid Kannissaro reaksiyasiga va benzoinli kondensatlanish reaksiyasiga kirishishi bilan alifatik aldegidlardan farq qiladi.

Benzaldegid kaliy sianid ishtirokida osongina kondensatlanib aromatik ketospirt benzoinga aylanadi.




Aromatik ketonlarda  $-C=O-$  guruh aromatik va alifatik radikal-

lar yoki ikkita aromatik radikal bilan bog'langan bo'lishi mumkin. Masalan:




metilfenilketon  
(asetofeton)



difenilketon  
(benzofenon)


Aromatik ketonlarni, Fridel-Krafts usuli bo'yicha aromatik uglevodorodlarga  $\text{AlCl}_3$  ishtirokida kislota angidridlarini ta'sir ettirib olish mumkin. Masalan:




Aromatik ketonlar alifatik ketonlar kabi gidroksilamin ta'sirida oksimlar, fenilgidrazin ta'sirida esa fenilgidrazonlar hosil qiladi.

## XINONLAR


Orto yoki para holatdagি ikki atomli aromatik fenollarni oksidlanishi natijasida xinonlar hosil bo'ladi:




gidroxinon




p-benzoxinon




pirokatexin



o-benzoxinon



1,4-dioksinaftalin




p-naftaxinon

Xinonlar rangli kristall birikmalar bo'lib, ularning suyultirish temperaturasi ancha yuqori. Yuqorida keltirilgan formulalardan ko'rini turibdiki, xinonlar diketonlardir va ular gidroksilamin ta'sirida dioksimlar hosil qiladilar.

**Xinonlar molekulasiga kirgan** =  = qo'sh bog'lar siste-

masi xinoid guruhi deyiladi. Ko'pgina bo'yoqlar o'zining tarkibida xinoid guruhini tutadi.

Ba'zi n-xinonlar biokimyoviy jarayonlarda eng muhim rol o'yynaydi. Vitamin-K guruhiga mansub bo'lgan vitaminlar naftaxinolarning hosilasi hisoblanadi. Masalan, vitamin K<sub>1</sub> — filloxinon qonning normal ivishi uchun zarur bo'lib, u karam, beda va ismaloq barglarida ko'p bo'ladi:




K guruh vitaminlariga E guruh vitaminlari genetik bog'langan bo'lib, ular o'simliklar olamida keng tarqalgan. Hayvon organizmida E vitaminlar yetishmasa, oqsil, yog' va uglevodlar almashinuvi buziladi. Bu esa o'z navbatida, jinsiy organlarni shikastlanishiga va ko'payish qobiliyatining yo'qolishiga sabab bo'ladi. E guruhga mansub bo'lgan vitaminlardan α-tokoferol eng yuqori biologik faollikka ega.

### *Savol va mashqlar*

1. Qanday birikmalarga oksobirikmalar deyiladi. Aldegid va ketonlarning umumiy formulasini yozing.
2. C<sub>6</sub>H<sub>12</sub>O formulaga ega bo'lgan hamma aldegidlarning tuzilish formulalarini yozing va nomlang.
3. Aldegidlarni sanoatda olish usulini gapiring va ularni reaksiya tenglamalarini yozing.
4. Birlamchi va ikkilamchi spirtlar oksidlanganda qanday moddalar hosil bo'ladi, ularning reaksiya tenglamalarini yozing.

- Eritmada aldegid borligini qaysi reaksiya yordamida aniqlanadi va reaksiya tenglamalarini yozing.
- Etan va propanlarning oksidlanishni gapiring va ularni spirt, aldegid va kislota hosil bo'lish reaksiya tenglamalarini yozing.
- Quyidagi o'zgarishlarni reaksiya tengalamalarini yozing.



- Sirka aldegid oksidlanganda 2,16 g kumush ajralib chiqqan. Oksidlangan sirka aldegidni olish uchun (n. sh. da) necha litr asetilen ishlatalidi.
- Vitamin — K, qaysi ketonlarning hosilasiga kiradi?
- Aseton qanday modda, u xalq xo'jaligining qaysi tarmoqlarida ishlatalidi?
- 0,5 mol sirka aldegid mo'l miqdor kumush oksidning ammiakdag'i eritmasi bilan oksidlanganda qancha kumush ajralib chiqadi?
- Kucherov reaksiyasi bo'yicha aldegid va ketonlarning olish reaksiya tenglamalarini yozing.

XIV bob

## KARBON KISLOTALAR VA ULARNING HOSILALARI

**Tayanch iboralar:** karboksil guruh; karbon kislotalar; A.I. Popov qoidasi; kislota amidlari, angidridlari va xlorangidridlari; Karbkation; Kolbe reaksiyasi; «quruq qaydash»; murakkab efir; N.A. Menshutkin reaksiyasi; eterefikatsiya; karbamid; flokulyant; to'yingan dikarbon kislotalar; to'ymagan bir va ikki asosli kislotalar; akrilonitril; aromatik karbon kislota; «purgen».




**Karbon kislotalar.** Molekulasida karboksil guruh — COOH bo'lgan moddalar karbon kislotalar deb ataladi. Karbon kislotalar karboksil guruhlarning soniga ko'ra bir asosli, ikki asosli va ko'p asosli bo'ladi. Masalan: sirka kislota  $\text{CH}_3\text{COOH}$  va moy kislota  $\text{C}_3\text{H}_5\text{COOH}$  — bir asosli, oksalat kislota  $\text{HOOC-COOH}$  va malon kislota  $\text{COOH-CH}_2-\text{COOH}$  — ikki asosli kislotalardir. Karbon kislotalar to'yingan va to'ymagan, shuningdek, ochiq zanjirli va halqali to'zilishga ega bo'ladi. Kislota molekulasiaga karboksil guruh karbonil  $>\text{C=O}$  va oksi-OH guruhlardan tashkil topgan.

## NOMENKLATURASI VA IZOMERIYASI


To‘yingan bi asosli karbon kislotalar yog‘ kislotalar deb ham ataladi, chunki bu kislotalarning birinchi vakili yog‘lardan olingan.

To‘yingan bir asosli yog‘ kislotalarni nomlashda, ko‘pincha ularning trivial nomlaridan foydalaniladi. Bu nom kislota qanday xomashyodan olinganligini ko‘rsatadi, masalan, ularning birinchi vakili  $\text{H}-\text{COOH}$  chumoli kislota deb ataladi, chunki u dastlab chumolidan ajratib olingan. Xuddi shunga o‘xshash, sirkal kislota — sirkadan, moy kislota — sigir yog‘idan, valerian kislota — valeriana o‘simligining ildizidan olingan.

Bir asosli karbon kislotalarni ratsional nomenklaturaga ko‘ra nomlashda ularni sirkal kislota hosilasi deb qaraladi:



Sistematik nomenklaturaga ko‘ra kislotalarning nomi tegishli uglevodorod nomiga kislota so‘zini qo‘shish bilan hosil qilinadi:




2-metilbutan kislota



To‘yingan karbon kislotalarda aldegidlardagi singari izomeriyaling ikki turi: uglerod skeletining va karboksil guruhning zanjirda turlicha joylanishidan kelib chiqadigan izomeriyasi mayjud:



valerian kislota(t)  
pentan kislota (s)




metil etil sirkal kislota (r)  
2-metilbutan kislota (s)




trimetilsirkal kislota (r)  
2,2-dimetilpropan kislota (s)

## OLINISH USULLARI

1. Birlamchi spirtlar oksidlanganda dastlab aldegid, so'ngra kislota hosil bo'ladi. Bunda uglerod atomlarining soni o'zgarmaydi:








Ketonlar A.I.Popov qoidasiga ko'ra kuchli oksidlovchilar ta'sirida kislotalar aralashmasini hosil qiladi. Masalan: metilpropilketon oksidlanganda to'rtta kislota hosil bo'ladi:




To'yingan uglevodorodlar kislorod bilan yuqori temperaturada ( $400-500^{\circ}\text{C}$ ), 130–140 atm bosimda katalizatorlar (metallar, metall tuzlari) ta'sirida kislotalar hosil qiladi. Sanoatda karbon kislotalar shu usul bilan olinadi.


2. Gemigaloidli uglevodorodlar, orto-efirlar, amidlar, kislota angidridlari, xlorangidridlari va nitriallarning gidrolizanishi:




3. Metallorganik birikmalarga karbonat angidridning ta'siri:




Hosil bo'lgan kislota tuzlari suv yoki mineral kislotalar ta'sirida karbon kislotaga aylanadi:



To'yinmagan uglevodorodlarga CO katalizatori ishtirokida uglerod (II)-oksid va suv bug'i ta'sir ettirib, kislotalar olinadi (B.Y.Rappe sintezi):



4. Ikki asosli karbon kislotalarni qizdirish orqali olish. Bu usul bilan malon kislota va uning gomoglaridan sirkal kislota hamda uning yuqori gomologlari olinadi:



5. Asetosirkal efir asosida sintez qilish bilan olinadi.

6. Yog' va moylarni gidrolizlab olinadi.

## FIZIK XOSSALARI


Karbon kislotalarning quyi vakillari odatdagi sharoitda o'tkir hidli, suv bilan har qanday nisbatda aralashadigan, sovitilganda oson kristallanadigan harakatchan suyuqliklardir. Molekuladagi uglerod atomlari soni beshtadan to'qqiztagacha bo'lgan kislotalar (izomoy kislota ham) moysimon suyuqliklar bo'lib, suvda yomon eriydi.

Yuqori molekular yog' kislotalar hidsiz, suvda erimaydigan qattiq moddalardir. Bir asosli to'yangan karbon kislotalarning asosiy fizik xossalari 13-jadvalda keltirilgan. Karbon kislotalarning deyarli hammasi spirtda va efirda yaxshi eriydi.

Kislotalarning molekular massasi ortishi bilan qaynash temperaturasi ham ortadi, solishtirma massasi esa kamayadi. Normal tuzilishga ega bo'lgan kislotalar tarmoqlangan kislotalarga qaraganda yuqori temperaturada qaynaydi. Masalan, H-valerian kislota  $CH_3(CH_2)_3COOH$  186 °C da qaynaydi, izovalerian kislota

$(\text{CH}_3)_2\text{CH}-\text{CH}_2-\text{COOH}$  176,7°C da qaynaydi. Molekulasidagi uglerod atomlari soni just bo'lgan kislotalar uglerod atomlari soni toq bo'lgan kislotalarga yuqori temperaturada suyuqlanadi.

Kislotalarning molekular massasini aniqlash natijasida suyuq holatda ularning molekula massasi ikki baravar ortiqligi ma'lum bo'ladi. Buning sababi kislotan molekulalarining o'zaro assotsilanganligi, ya'ni vodorod bog'lanish hosil bo'lganligidir, buning natijasida siklik yoki chiziqli tuzilishi hosil bo'ladi:



Tajribalarning ko'rsatishicha, bunday vodorod bog'lanish enerjiyasi 7 kkal/mol ga teng. Kislorod va vodorod atomi oralig'idagi masofa  $1,7 \cdot 10^{-10}$  m.

**Fizik metodlar** — UB (ultrabinafsha)- spektroskopiya, IQ-(infragizil) spektrosokpiya, PRM(proton-magnit-rezonansi)-spektroskopiya va mass-spektroskopiylar orqali karbon kislotalarning molekula va undagi atom hamda guruh atomlarining xarakterli xususiyatlari yoritiladi.

Karbon kislotalarning UB- spektrida ultrabinafsha nurlar ta'sirida molekuladagi atomlar valent elektronlarining energetik holatlari o'zgaradi, natijada karboksil guruhnинг yutilish maksimumi 200 nm da sodir bo'ladi. Kislota hosilalari UF- nurlar spektrda to'lqin uzunligi katta bo'lgan tomonga siljiydi, buni batoxrom siljish deyilib, u 210—240 nm da hosil bo'ladi.

Infragizil nurlar (IQ) ta'sirida kislota molekulasidagi atomlar tebranish holatiga kelib, u spektrda ikkita xarakterli yutilish maksimumiga ega bo'ladi. Biri karboksil guruhdagi gidroksil guruh vodorod bog'lanish hosil qilgan holda yutilish qisqa chastotali soha tomon siljiydi va  $3000 \text{ sm}^{-1}$  da yutilish maydonini kengayganligi kuzatiladi, Ikkinchisi, karbonil guruh  $>\text{C}=\text{O}$   $1700-1720 \text{ sm}^{-1}$  da yutilish maksimumiga ega bo'ladi.

Energiya ta'sirida mikrozarracha (elektron, proton, neytron va boshqalar) spinlari energetik holatlarini o'zgartirish bilan har qanday mikrozarracha o'zining siljishiga ega.


### Bir atomli to'yingan kislotalarning fizik xossalari

Kislotalning nomi	Formulasi	Suyug'chalanish temperaturasi, °C	Qaynash temperaturasi, °C	Sodishtirma massasi, $d_4^{20}$	Sindirish ko'ssatichi, $n_D^{20}$
Chumoli kislota	HCOOH	+8,40	100,7	1,220	1,3650
Sirka kislota	CH <sub>1</sub> COOH	+16,6	118,5	1,049	1,3720
Propion kislota	CH <sub>3</sub> —CH <sub>2</sub> —COOH	-20,7	141,1	0,992	1,3872
Moy kislota	CH <sub>3</sub> —CH <sub>2</sub> —CH <sub>2</sub> —COOH	-3,11	163,5	0,9587	1,3979
Izomiy kislota	CH <sub>3</sub> —CH—COOH   CH <sub>3</sub>	-47,0	154,4	0,949	1,3930
Valerian kislota	CH <sub>3</sub> —CH <sub>2</sub> —CH <sub>2</sub> —CH <sub>3</sub> —COOH	-34,5	186,0	0,9387	1,4070
Izovalerian kislota	CH <sub>3</sub> —CH—CH <sub>2</sub> —COOH   CH <sub>3</sub>	-37,6	176,7	0,9327	1,4043
Kapton kislota	CH <sub>3</sub> —(CH <sub>2</sub> ) <sub>4</sub> —COOH	-1,5	205,3	0,922	1,4144
Enant kislota	CH <sub>3</sub> —(CH <sub>2</sub> ) <sub>5</sub> —COOH	-10,0	223,5	0,9,84	1,4215
Kapril kislota	CH <sub>3</sub> —(CH <sub>2</sub> ) <sub>6</sub> —COOH	+16,2	237,5	0,910	1,4215
Pellargon kislota	CH <sub>3</sub> —(CH <sub>2</sub> ) <sub>7</sub> —COOH	+12,5	253	0,9057	1,4306
Palmitin kislota	CH <sub>3</sub> —(CH <sub>2</sub> ) <sub>8</sub> —COOH	+62,6	271,5 (100 mM da)	0,8490 (70 °C da)	1,4303 (70 °C da)
Margarin kislota	CH <sub>3</sub> —(CH <sub>2</sub> ) <sub>15</sub> —COOH	+60,8	277 (100 mM da)	0,8448 (70 °C da)	1,4320 (70 °C da)
Stearin kislota	CH <sub>3</sub> —(CH <sub>2</sub> ) <sub>16</sub> —COOH	+69,4	287 (100 mM da)	0,8448 (70 °C da)	1,4332 (70 °C da)


Kislota karboksilidagi N-protonning siljishi 12 m.d. Kuchsiz maydonga bir protonli singlet holatida PMR spektrda ko'rinadi. UF-, PMR-spektroskopiyalarning natijalari karbon kislotalarni o'rganishda katta ahamiyatga ega.

## KIMYOVIY XOSSALAR


1. Barcha karbon kislotalar, anorganik kislotalar kabi kislota xossalariiga ega bo'lib, ko'k lakmusni qizartiradi. Kislota gidroksidinin kuchli kislotali xossalari karboksil guruhdagi atomlar elektron zichligining siljishi bilan tushuntiriladi. Karboksil guruhda elektron zichligi elektrofil atomga, ya'ni kislorodga siljigan bo'ladi. Buning natijasida karboksil gidroksilidagi vodorod bilan kislorod orasidagi bog'lanish zaiflashadi va, nihoyat, vodorod atomi proton holida ajralib chiqadi, dissotsilanadi.



Karbon kislotalar suvsiz mineral kislotalarda proton qabul qilib, karbkation hosil qiladi.



Dissotsilanmagan karbon kislota molekulasining gidroksil guruh kislorodida elektron zichligi kamayib, karbonil guruhda u ko'-payadi. Bu xususiyat kislutaninng anion holatida kuchli bo'ladi.



Elektron zichligining bunday siljishi natijasida anion molekulasida zaryadlarning tenglashgan — A formasi hosil bo'ladi va u izomer karboksilat — anion deyiladi. Bu anion kislota gidroksil guruhidan protonni oson ajralishidan hosil bo'ladi. Karbon kislota-

larning kuchi, ya'ni dissotsilanishi karboksil bilan bog'langan atomga va atomlar guruhiga bog'liq. Kislotalarning kuchi karboksil guruhga birikkan radikalndagi vodorod atomlari ko'proq galoid atomlariga almashinshi bilan ortib boradi. Bu ayniqsa  $\alpha$ -vodorod atomlariga galoid almashganda yaqqol namoyon bo'ladi:

	pKa
CH <sub>3</sub> COOH	4,76
CH <sub>2</sub> ClCOOH	2,85
CHCl <sub>2</sub> COOH	1,48
CCl <sub>3</sub> COOH	0,66

Galoid atomining kislota kuchiga ta'sirining sababi kislota molekulasidagi galoid bilan bog'langan  $\alpha$ -uglerod atomining gidroksil vodorodiga nisbatan ko'proq musbat zaryadlanganligidir. Boshqacha aytganda galoid atomi elektron juftini o'ziga tortadi, natijada  $\alpha$ -uglerod atomi ko'proq zaryadlanadi va o'z navbatida karboksil guruhdagi uglerodning elektron juftini ham o'ziga tortadi. Natijada gidroksildagi vodorod-kislorod bog'i zaiflashadi va oson dissotsilanadi.




Karboksil guruhga nisbatan galoid atomi uzoqlashgan sari galoidning ta'siri kamayadi va natijada kislota kuchi ham kamayadi.

	pKa
CH <sub>3</sub> —CH <sub>2</sub> —CH <sub>2</sub> COOH	4,812
CH <sub>3</sub> —CH <sub>2</sub> —CHCl—COOH	2,856
CH <sub>3</sub> —CHCl—CH <sub>2</sub> —COOH	4,05
CH <sub>2</sub> Cl—CH <sub>2</sub> —CH <sub>2</sub> COOH	4,52


Radikallarning kattalashishi bilan kislotalarning kuchi kamayadi:

	pKa
HCOOH	3,75
CH <sub>3</sub> COOH	4,76
CH <sub>3</sub> CH <sub>2</sub> COOH	4,89
CH <sub>3</sub> — $\overset{\cdot}{\underset{\cdot}{\text{C}}}$ —COOH	4,84
CH <sub>3</sub>	
(CH <sub>3</sub> ) <sub>3</sub> C—COOH	5,03


2. Karbon kislotalar ham xuddi mineral kislotalar kabi metallar, metall oksidlari va ishqorlar bilan reaksiyaga kirishib tuzlar hosil qiladi:



Karbon kislotalarni yoki ularning natriyli tuzlarini suvdagi eritmasi elektroliz qilinganda anodda  $CO_2$  ajralib chiqadi, hosil bo'lgan radikallar esa o'zaro to'qnashib uglevodorodlarga o'tadi (Kolbe reaksiyasi):




3. Karbon kislotalarga fosfor va oltingugurtning galoidli birikmalari ta'sir ettirilganda shu kislotalarning galoid-angidridlari hosil bo'ladi:




4. Karbon kislotalar bilan spirtlar o'zaro reaksiyaga kirishib, murakkab efirlar hosil qiladi.

5. Kislotalarni faqat maxsus katalizatorlar ishtirokida vodorod bilan qaytarib, aldegid yoki spirtlarga aylantirish mumkin:



6. Karbon kislotalar aldegid va ketonlar kabi radikaldagi vodorod atomlarini galogenlarga almashtira oladi. Kislotalarning galogenli hosilalarini olishda ko'pincha kislotalar emas, balki ularning galogenangidridlari ishlataladi. Bunday reaksiya Zelinskiy-Gel-Folgard reaksiyasi deyiladi:



Kislotalarda karboksil guruhgaga bevosita yaqin turgan uglerod atomidagi vodorodlar ( $\alpha$ -vodorod) eng faol bo'ladi, shuning uchun bu vodorod atomlari xlor yoki bromga oson almashinadi.


### Bilasizmi??

– Karbon kislotalarning izo holatining qaynash temperaturasi normal holatidan doimo past temperaturada qaynaydi.


– Karbon kislotalarning orasida eng kuchligi kislota xossasidan chumoli kislota hisoblanadi.

## AYRIM VAKILLARI


**Chumoli kislota H—COOH** to'yingan bir asosli kislotalarning eng oddiy vakili. U birinchi marta qizil chumolilardan ajratib olingan, shuningdek ko'pgina o'simliklar (qichitqi o't, archa), qon va muskul tarkibida ham bo'ladi. Laboratoriya sharoitida xloroformga suyultirilgan ishqor ta'sir ettirib chumoli kislota olinadi:



Sianid kislota gidrolizlanganda ham chumoli kislota hosil bo'ladi:




Hozirgi vaqtida texnikada chumoli kislota olishning bordan bir usuli yuqori temperaturada o'yuvchi natriyga uglerod (II)-oksid ta'sir ettirishdir:




Chumoli kislota o'tkir hidli, achchiq ta'mli, suv bilan har qanday nisbatda arashadigan rangsiz suyuqlik. Tuzilishi jihatidan bir asosli to'yingan kislotalardan farq qiladi. Molekulasi tarkibida aldegid guruhning borligi sababli, u o'ziga xos quyidagi xususiyatlarni namoyon qiladi:


a) chumoli kislota kumush oksidning ammiakdag'i eritmasi ta'sirida oson oksidlanib, karbonat angidrid va suv hosil qiladi:




b) chumoli kislota yaxshi qaytaruvchidir, u sulema eritmasi bilan qizdirilganda simob metaligacha qaytariladi:



d) chumoli kislota konsentrangan sulfat kislota ta'sirida uglerod (II)-oksid va suvg'a parchalanadi:



e) chumoli kislotaning natriy tuzi  $400^{\circ}\text{C}$  gacha tez qizdirilganda, vodorod ajralib chiqadi va natriy oksalat hosil bo'ladi:





Chumoli kislota kuchli qaytaruvchi sifatida to'qimachilik sanoatida gazlamalarni bo'yashda, tibbiyotda va boshqa sohalarda ishlataladi. Chumoli kislotadan oksalat kislota, etilformiat va xushbo'y moddalar(amilformiat) olinadi.

**Sirka kislota  $\text{CH}_3\text{COOH}$**  uzoq vaqtlardan beri ma'lum, chunki u vinoning achishi natijasida hosil bo'ladi. U ko'p o'simlikalrda, hayvon chiqindilarida sof holda, shuningdek tuz va murakkab efirlar holida uchraydi.


Sanoatda sirka kislota bir necha usullar bilan olinadi:

1. Yog'och quruq haydalгanda sirka suv qatlamida yig'ilib, qo'shimcha mahsulot sifatida metil spirit va aseton hosil bo'ladi. Sirka kislotani ajratib olish uchun aralashma ohak bilan neytralланади, bunda hosil bo'lgan kalsiy asetat sulfat kislota bilan qizdirilganda parchalanib, sirka kislota sof holda ajralib chiqadi:




2. Spiritli suyuqliklarni bijg'itish bilan sirka kislota hosil qilishda «sirka zamburug'i» deb ataladigan maxsus mikroorganizmlar etil spiritni sirka kislotagacha oksidlaydi.

3. Sirka kislota olishning asosiy texnik usuli M.G.Kucherov reaksiyasi bo'lib, unda hosil bo'lgan aldegid katalizatorlar ishtirokida oksidlanadi:



So'nggi yillarda uglevodorodlar, masalan, butan, pentan va hokazolarni yuqori temperaturada havo kislorodi ta'sirida oksidlab, sirka kislota olishning sanoat usullari ishlab chiqildi (N.A.Emmanuel va boshqalar):




Sof sirka kislota odatdagи temperaturada o'tkir hidli, rangsiz suyuqlik bo'lib, 16,6 °C da muzga o'xshash kristalga aylanadi. Shuning uchun suvsiz sirka kislota muz sirka kislota deyiladi.

Sirka kislota va uning tuzlari — asetatlar sanoatda keng ishlatiladi. U to'qimachilik, ko'n va kimyo sanoatida, oziq-ovqat mahsulotlarini konservalashda va boshqa sohalarda ishlatiladi. Sirka kislotaning temir, aluminiy va xromli tuzlari ayniqsa katta ahamiyatga ega; chunki to'qimachilik sanoatida xurush sifatida ishlatiladi.

**Palmitin**  $\text{C}_{15}\text{H}_{31}\text{COOH}$  va **stearin**  $\text{C}_{17}\text{H}_{35}\text{COOH}$  kislotalar tabiatda eng ko'p tarqalgan yuqori molekular kislotalar bo'lib, ayrim to'yinmagan kislotalar (olein) bilan birga o'simlik va hayvon yog'larining asosiy qismi bo'lgan gliserin efiri holida uchraydi. Palmitin va stearin kislotalar aralashmasi yog'larni gidroliz qilib olinadi. Ular ta'msiz va hidsiz, suvda deyarli erimaydigan qattiq moddalardir.

Yuqori molekular karbon kislotalarning tuzlari sovunlar deb ataladi. Shu kislotalarning kalsiyli, magniyli tuzlari suvda erimaydi. Qattiq suvda sovunning yuvish xossasining kamayishiga sabab ham ana shu tuzlarning hosil bo'lib, cho'kmaga tushishidadir:





### Bilasizmi?

— Yuqori molekular karbon kislotalarning ( $\text{C}_{15}-\text{C}_{17}$ ) natriyli va kaliyli tuzlar sovunning asosiy tarkibiy qismlaridir.

— Izoamil spirti sirka kislota bilan reaksiyaga kirishganda nok hidi, benzil spirti va chumoli kislotalar reaksiyaga kirishganda jasmin hidi hosil bo‘ladi.

## KARBON KISLOTALARNING IIOSILALARI


Karbon kislota molekulasidagi vodorod atomini, gidroksil va karbonil guruhi biror atom yoki atomlar guruhiga almashinuvidan hosil bo‘lgan moddalar karbon kislotalarning hosilalari deyiladi:





**Kislota galogenangidridlari.** Karbon kislota karboksil guruhi-dagi gidroksil guruhini galogenga almashinuvidan hosil bo‘ladi.

Xlorgidridlarning quyi vakillari uchuvchan suyuqlik, ularning bug‘i o‘tkir hidli bo‘lgani uchun ko‘zga va nafas yo‘llariga ta’sir qiladi.


Kislota xlorangidridlari nukleofil o‘rinolish reaksiyasiga kirishadi. Xlorangidridlar molekulasidagi xlor juda faol bo‘lgani uchun boshqa kislota hosilalariga qaraganda xlorangidridlar o‘rin olish reaksiyasi oson boradi. Kislota xlorangidridlari suv bilan tez nukleofil o‘rin olish reaksiyasiga kirishib, karbon hamda xlorid kislotalar hosil qiladi:





Bunday nukleofil o‘rin olish reaksiyalari ikki bosqichda boradi. Birinchi bosqichda manfiy nukleofil, ya’ni gidroksil xlorangidrid bilan «oraliq holat» hosil qilib, kislorod atomi manfiy zaryadlanadi. Ikkinchchi bosqichda bu iondan Cl ajralib chiqib, kislotaga aylanadi:




Kislota xlorangidridlari spirt bilan reaksiyaga kirishishi natijasida murakkab efirlar hosil bo'ladi:



Xlorangidridlarga ammiak va aminlar (birlamchi va ikkilamchi) ta'sir ettirilganda aminlar hosil bo'ladi:




Xlorangidridlarga peroksidlar ta'sir ettirilganda esa asil peroksidlar hosil bo'ladi:




Xlorangidridlar katalizatorlar ishtirokida vodorod ta'sirida oson qaytarilib aldegidlarga aylanadi.


**Kislota angidridlari** ikki molekula karbon kislotaning degidratanishi va bir molekula suv ajralib chiqishi natijasida hosil bo'ladi:



Bu reaksiya kislota bug'larini katalizatorlar ustidan o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Laboratoriya sharotitida xlorangidridlarga kislotaning natriyli tuzini ta'sir ettirib, kislota angidridlari olinadi:




Hozirgi vaqtida sirka kislota angidridi, asosan: ketenga suvsiz sirka kislota ta'sir ettirish yo'li bilan olinadi:



Kislota angidridlarining quyi vakillari, masalan, sirka kislota angidridi o'tkir hidli, suvdan og'ir suyuqlik. Kislota angidridlari kimyoviy xossalariiga ko'ra xlorangidradlarga o'xshaydi. Ammo reaksiyalar ularga nisbatan sust boradi.

Sirka angidrid texnikada sun'iy asetat tola olishda va boshqa maqsadlarda ko'p ishlatiladi.

**Karbon kisortalarning murakkab efirlarini kislota molekulasi**gidrosil guruh vodorodining uglevodorod radikaliga almashinuvidan hosil bo'lgan mahsulot deyish mumkin:




Murakkab efirlar tuzlarning nomi kabi nomlanadi. Masalan, sirka kislutaning etil efiri — etilasetat, butil efiri — butilasetat deb ataladi:




**Tabiatda uchrashi va olinishi.** Murakkab efirlar tabiatda juda keng tarqalgan bo'lib, o'simlik va hayvonlar hayotida muhim rol o'ynaydi. Ular o'simlik va hayvon organizmida, yog' kislotalarning, asosan, stearin, palmitin, olein kislotalarning murakkab efirlari holida bo'ladi.

Murakkab efirlar spirlarga kislota xlorangidridi yoki angidridlar ta'sir ettirib olinadi. Kislota tuzlariga galoidalkillar ta'sir ettirilganda ham murakkab efirlar hosil bo'ladi:




Murakkab efirni hosil bo'lish reaksiyasi eterifikatsiya (lotincha *aeter* – efir) reaksiyasi deyiladi.



Bu reaksiyaning kinetikasi N.A.Menshutkin (1877—1891- yillarda) va uning shogirdlari tomonidan batafsil o'r ganilgan. Eterifikatsiya reaksiyasi qaytar reaksiyadir. Hosil bo'lgan murakkab efir bilan suv reaksiyaga kirishib, spirt va kislota hosil qiladi. Eterifikatsiya reaksiyasiga teskari boradigan bu reaksiya gidroliz yoki sovunlanish deyiladi. Reaksiya boshlangandan keyin ma'lum vaqt o'tgach, muvozanat qaror topadi. Reaksiya unumini oshirish uchun hosil bo'lgan suv yoki efirni haydash bilan reaksiya aralashmasidan chiqarish yoki spirt va kislotani ortiqcha olish kerak.

Spirtlarning eterifikatsiya reaksiyasiga kirish xususiyati birlamchi spirtlardan uchlamchi spirtlarga tomon pasaya boradi.

Eterifikatsiya reaksiyasida spirt molekulasidan gidroksil ajralib chiqadi. Reaksiyaning bunday sxema bilan borishi bir necha tajribalar orqali aniqlangan. Benzoy kislotaga tarkibida kislorodning og'ir izotopi O<sup>18</sup> bo'lgan metil spirt ta'sir ettirilganda hosil bo'lgan suvda kislorodning og'ir izotopi topilmagan. Demak, reaksiya quyidagi sxema bo'yicha boradi:



**Fizik xossalari.** Murakkab efirlarning eng oddiy vakillari suvdan yengil, xushbo'y hidli, uchuvchan suyuqliklardir.


Quyi kislotalarning metil va etil murakkab efirlarining suyuqlanish va qaynash temperaturalari dastlabki karbon kislotalarning suyuqlanish va qaynash tamperaturasidan nisbatan past bo'ladi (14-jadval).

**Kimyoiy xossalari.** Murakkab efirlar kislata xlorangidridlari va angidridlarga xos bo'lgan nukleofil almashinish reaksiyasiga kirishadi.


1. Murakkab efirlarning o'ziga xos eng muhim xossalardan biri ularning gidrolizlanishchidir. Gidroliz jarayonida mineral kislotalar yoki ishqorlar ishtirokida tezlashadi:

Murakkab effirlarning fizik xossalari


Formulasi	R	Nomi	Suyuqlanish temperaturasi °C	Qaynash temperaturasi, °C	Solishirma massasi, $d_4^{20}$
$\text{HCOOR}$	$-\text{CH}_3$	Metilformiat	-99,0	31,8	0,975
	$-\text{C}_2\text{H}_5$	Etilformiat	-78,9	54,3	0,923
	$-\text{CH}_3$	Metil asetat	-98,1	57,0	0,934
	$-\text{C}_2\text{H}_5$	Etil asetat	-83,4	72,2	0,901
	$-\text{C}_3\text{H}_7$	n-propil asetat	-92,5	101,6	0,887
	$-\text{C}_4\text{H}_9$	n-butil asetat	-76,8	126,5	0,882
	$-\text{C}_5\text{H}_{11}$	Izoanilasetat	-78,5	139,5	0,870
	$-\text{CH}_3$	Metil propionat	-87,5	80,6	0,915
	$-\text{C}_2\text{H}_5$	Etil propionat	-73,9	99,1	0,888
	$-\text{CH}_3$	Metilbutirat	-95,0	102,7	0,898
$\text{CH}_3-\text{CH}_2-\text{COOR}$	$-\text{C}_2\text{H}_5$	Etilbutirat	-97,9	120,5	0,879
	$-\text{C}_2\text{H}_5$	Etilvalerat	-91,2	146,0	0,877
$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2-\text{COOR}$	$-\text{CH}_2\text{COOR}$				



Murakkab efirlar ishqorlar ishtirokida gidrolizlanganda reaksiya tezligi ortishi bilan bir qatorda ulamnig o'zi ham reaksiyaga kirishib, tuz va spirit hosil qiladi. Ishqor tarkibidagi kuchli nukleofil «reagent OH» murakkab efir karbonilidagi uglerod atomi bilan birikib, oraliq birikma hosil qiladi, so'ngra u tuz va spiritga ajraladi:




Murakkab efirlar kislotalar ishtirokida ham gidrolizlanadi. Lekin kislotali gidroliz — qaytar jarayondir. Murakkab efirlarning kislata ishtirokidagi gidrolizini eterifikatsiya reaksiyasining teskar yo'nalishidagi reaksiyasi deyish mumkin:




Kislotali gidrolizda  $\text{H}^+$  proton murakkab efir tarkibidagi karbonil kislороди bilan birikib, musbat zaryadlangan ion hosil qiladi; bu musbat ionning nukleofilga moyilligi ortadi, natijada suvni oson biriktirib oladi.


2. Murakkab efirlar ammiak ta'sirida kislota amidlarni hosil qiladi (bu hodisa murakkab efirlarning ammonolizmi deyiladi):




3. Murakkab efirlarga spiritlar ta'sir ettirilganda yangi murakkab efir va spirit hosil bo'ladi. Bu reaksiya ***qayta efirlanish*** deyiladi.



4. Murakkab efirlarga magniy-organik birikmalar ta'sir ettirilganda keton hosil bo'ladi:



5. Murakkab efirlarning spirtli eritmalari natriy metali ta'sirida qaytarilib, ikki xil spirt hosil qiladi. Spirlardan birida uglerod atomlari soni dastlabki kislotadagiga, ikkinchisida esa dastlabki spirdagiga teng bo'ladi:



Murakkab efirlarni nikel katalizatori ishtirokida bosim ostida vodorod bilan qaytarilib spirlar hosil qilinadi.


**Ayrim vakillari.** Etilasetat  $\text{CH}_3-\text{COO}-\text{C}_2\text{H}_5$  xushbo'y hidli suyuqlik, 77,2 °C da qaynaydi, suvda yomon eriydi. Etilasetat, asosan, erituvchi sifatida keng qo'llaniladi. Sanoatda u sirka aldeggidan V.E.Tishchenko reaksiyasiga ko'ra olinadi.

Izoamilasetat  $\text{CH}_3-\text{COO}-\text{C}_5\text{H}_{11}$  nok hidli suyuqlik, 139 °C da qaynaydi. Laklar tayyorlashda erituvchi sifatida ishlatiladi.


## KISLOTA AMIDLARI. MOCHEVINA

Kislota amidlari deb, kislordaning karboksil guruhidagi gidroksil guruhini aminoguruh  $\text{NH}_2$  ga o'rin almashinishiga aytildi.


Kislota amidlarining umumiy formulasi:




Ularni nomi kislota nomiga «amid» so'zi qo'shib o'qishdan hosil bo'ladi:



Kislota hosilalalariga ammiak ta'sir ettirib, amidlar olinadi.




Kislotalarning ammoniy tuzlarini qizdirib kislota amidlari olinadi:




## KISLOTA AMIDLARINING XOS SALARI


Kislota amidlarining dastlabki vakili chumoli kislota amidi —  $\text{H}-\text{CONH}_2$  suyuqlik bo'lib, qolganlari qattiq moddadir. Ular asos xossaga ega emas, ammo kuchli kislotalar ta'sirida amidlar kislota protonini o'ziga biriktirib oladi:



Amidlar suv ta'sirida, kislota yoki ishqoriy muhitda kislota bilan aminlarga parchalanadi:






Amidlar nitrit kislota ta'sirida, kislota, azot va suvgiga parchalanadi:



**Karbonat kislotalaring hosilalari.** Karbonat kislota va uning tuzlari anorganik kimyo kursida to'liq o'tiladi. Bu kislotalaring suvdagi eritmasi quyidagi tenglamaga ega:




Karbonat kislotaning ayrim hosilalari organik moddalarni tashkil etadi. Masalan, u ikki negizli kislota bo'lgani uchun ikkita xlorangidridga ega:




xlorchumoli  
kislota

fosgen

Yuqori temperaturada uglerod (II)-oksidga xlor ta'sir ettirilsa, fosgen hosil bo'ladi:




Fosgen o'tkir hidli, zaharli. Unga spirit ta'sir ettirib karbonat kislota efirlari hosil qilinadi:




Fosgen sanoatda plastmassa, kauchuk va bo'yoq moddalarni olishda ishlatiladi.

**Mochevina.** Karbonat kislotaning amidlari katta ahamiyatga ega:




karbamin kislota




karbamid (mochevina)

Karbamin kislota efirlari uretan preparatlar deb atalib, tibbiyotda tinchlaniruvchi va og'riqni qoldiruvchi dori sifatida ishlatiladi.

Karbamilxloridga spirit ta'sir ettirib uretanlar olinadi:



Mochevina (karbamid)  $\text{CO}(\text{NH}_2)_2$ , kuchsiz asos xususiyatiga ega bo'lgan kristall modda,  $133^\circ\text{C}$  da suyuqlanadi. Uni birinchi bo'lib nemis olimi F. Valyor ammoniy sianatdan olgan:




Mochevina tirik organizmda oqsil moddalardan so‘nggi parchalangan mahsulot sifatida, siyidik orqali chiqadi. Odam organizmi sutkasiga 20–30 gr gacha mochevina ajratib chiqaradi.

Hozirgi vaqtida mochevina sanoatda temperatura va bosim (130 °C, 50 atm) ostida karbonat angidridiga ammiak ta’sir ettirib olinadi:



Mochevinani 140 °C gacha qizdirish bilan biuret hosil qilinadi:





Mochevina suv bilan qizdirilganda ammiak bilan karbonat angidridiga parchalanadi:



Hozirgi vaqtida mochevina qishloq xo‘jaligida asosiy organik o‘g‘it va qoramollarga oziq sifatida keng ishlatalmoqda.

**Poliakrilamid.** Akrilamidin polimerlash bilan poliakrilamid hosil qilinadi. Akrilamid esa kislotali muhitda, temperatura ta’sirida akril kislota nitrilini gidroliz qilib olinadi:







Poliakrilamid suvda yaxshi eruvchan polielketrolitlar jumlasiga kiradi. Polielektrolitlardan birinchi navbatda flokulyant (koagullovchi) sifatida foydalaniлади.

Poliakrilamid suvni koagulyatsiya yo'li bilan qayta tozalashda, oltinni qayta ishlash sanoatida, qog'oz sanoatida qog'oz tarkibiga qo'shimcha moddalarni kiritishda ishlatiladi.



Ayniqsa, qishloq xo'jaligida tuproq massasiga nisbatan 0,25–0,5% poliakrilamiddan tuproqqa solinsa, tuproq strukturası yaxshilanadi, tuproqni yemirilishidan saqlaydi va uning tarkibidagi namni saqlab qoladi.

## TO‘YINGAN DIKARBON KISLOTALAR

Molekulasida ikkita karboksil guruh —COON bo'lgan birikmlar *ikki asosli* (yoki *dikarbon*) *kislotalar* deyiladi:




**Nomenklaturasi.** Dikarbon kislotalarning dastlabki vakillari tarixiy nomlar bilan ataladi. Ratsional nomenklaturaga ko'ra ikki asosli kislotalar ikki karboksil guruh bilan birikkan uglevodorodlar hosilasi deb qaraladi. Sistematik nomenklaturaga ko'ra dikarbon kislotalarning nomi tegishli uglevodorodlar nomiga dikislota so'zini qo'shish bilan hosil qilinadi:




**Tabiatda uchrashi va olinishi.** Oksilat kislotaning nordon tuzi shovul va ravoch o'simligida, kalsiyli tuzi ( $\text{Ca}(\text{COO})_2$ ) ko'p o'simliklarda va g'o'za bargida ko'p uchraydi. Malon kislota esa sholg'om sokida uchraydi. Qahrabot kislota dastlab qahrabodan olingan. U ko'mir va ko'p o'simliklar tarkibida uchraydi.


1. Dikarbon kislotalar dinitrilllar gidrolizlanganda hosil bo'ladi:





2. Galoidkarbon kislotalarga KCN ta'sir ettirib, hosil bo'lgan siankarbon kislota gidrolizlanadi:



3. Birlamchi glikollarning yoki dialdegidlarning oksidlanishi natijasida:




4. Oksikislotalar yoki aldegid kislotalarni oksidlash yo'li bilan:




5. Malon va asetosirka efirlar yordamida dikarbon kislotalarni sintez qilish mumkin.

Siklogeksanol konsentrangan nitrat kislota ishtirokida qizdirilganda adipin kislotaga aylanadi:










**Fizik xossalari.** Dikarbon kislotalar rangsiz kristall modda bo'lib, suvda yaxshi eriydi, organik erituvchanlarda esa yomon eriydi. Juft sonli uglerod atomiga ega bo'lgan ikki asosli kislotalar o'zining toq sonli uglerod atomiga ega bo'lgan qo'shni gomologidan yuqori temperaturada suyuqlanadi. Kislotalarning molekular massasi ortishi bilan ularning suvdagi eruvchanligi kamayadi (15-jadval).

**Kimyoviy xossalari.** Ikki asosli karbon kislotalar bir asosli karbon kislotalarga xos barcha kimyoviy reaksiyalarga kirishadi. Ammo ularning kislota xossalari bir asosli kislotalarmikiga qaraganda kuchliroqdir. Oksalat kislota ionlarga, ayniqsa, kuchli dissotsilanadi. Molekular massasining ortishi bilan ikki asosli kislotalarning dissotsiyalanish darajasi kamayadi. Ularning dissotsilanishi ikki bosqichda boradi:



Ikki asosli karbon kislotalar bir asosli karbon kislotalar kabi tuzlar, amidlar, xlorangidridlar va murakkab esirlar hosil qiladi. Lekin ular reaksiyada molekuladagi bir yoki ikki karboksil guruhni ishtirok etishiga qarab ikki qator hosilalar, ya'ni nordon va o'rta tuzlar hosil qiladi:





### Iki asosli karbon kislotalarning fizik xossalari


Kislotan	Formulasi	Siyuqlanish temperaturasi, °C	30 °C da 100 g suvda eritvchanligi	PK <sub>A</sub>
Oksalat	HOOC—COOH	189,5	8,60	1,42
Malon	HOOC—CH <sub>2</sub> —COOH	130,3	73,50	2,80
Qahrabo	HOOC—(CH <sub>2</sub> ) <sub>2</sub> —COOH	182,8	5,80	4,18
Glutar	HOOC—(CH <sub>2</sub> ) <sub>3</sub> —COOH	97,5	63,9	4,32
Alipin	HOOC—(CH <sub>2</sub> ) <sub>4</sub> —COOH	153	1,50	4,43
Pimelin	HOOC—(CH <sub>2</sub> ) <sub>5</sub> —COOH	105,5	5,0	4,46
Po'kak	HOOC—(CH <sub>2</sub> ) <sub>6</sub> —COOH	140	0,16	4,52
Azelain	HOOC—(CH <sub>2</sub> ) <sub>7</sub> —COOH	107,5	0,24	4,59
Sebastin	HOOC—(CH <sub>2</sub> ) <sub>8</sub> —COOH	134,5	0,10	4,62

Endi ikki asosli kislotalarning o'ziga xos ba'zi reaksiyalari bilan tanishib chiqamiz.

1. Oksalat va malon kislolar qizdirilganda karbonat angidrid ajralib (dekarboksizlanish) chiqib, chumoli va sirkal kislota hosil bo'ladi:



2. Molekulasida to'rtta va beshta uglerod atomi bo'lgan ikki asosli kislolar, masalan, qahrabo va glutar kislolar qizdirilganda suv ajralib chiqib, besh va olti a'zoli siklik angidridlar hosil bo'ladi:



Malon kislotalarning hosilalaridan eng ahamiyatlisi uning dietil efiridir:



Malon efir meva hidini eslatuvchi xushbo'y suyuqlik, 199 °C da qaynaydi. Laboratoriya sharoitida turli tuzilishga ega bo'lgan bir, ikki hamda ko'p a'zoli kislotalarni malon efir asosida sintez qilish mumkin.

Malon efir molekulasidagi metilen guruh karbonil guruhga qo'shni bo'lganligidan juda kam harakatchan natriy bilan oson almashinadi. Hosil bo'lgan natriy malon efiri (yoki dinatriy malon efiri) ko'pgina kislotalarni sintez qilishda ishlatiladi.


Ikki asosli karbon kislolar sanoatda tibbiyot preparatlari, polimerlar va sintetik tolalar olishda xomashyo sifatida ishlatiladi.

## TO'YINMAGAN KISLOTALAR


**To'yinmagan bir asosli kislolar.** Ularning umumiyl formulasi  $\text{C}_n\text{H}_{2n-1}\text{COOH}$ . Demak, o'zida bir qo'shbog' va karboksil guruh saqlaydigan birikmalarga **to'yinmagan bir asosli kislolar** deyiladi.

Bu kislotalar o'zida ham etilen uglevodlarini, ham kislota xususiyatlarini aks ettiradi, shu bilan birga karboksil guruhga qo'sh bog'ning ta'siri natijasida molekulaning kislota xususiyati kuchayadi.


Akril kislota  $\text{CH}_2=\text{CH}-\text{COOH}$  to'yinmagan bir asosli kislotalarning oddiy vakili bo'lib, u allil spiritni yoki akroleinni oksidlاب hamda akril kislota natriyini gidrolizlab olinadi:




Sanoatda bu kislota etilen oksidga sianid kislota ta'sir ettirib olinadi:



Asetilenga uglerod (II)-oksid suv ishtirokida ta'sir ettirilib akril kislota olinadi.




Akril kislotaning suyuqlanish temperaturasi 13 °C, qaynash temperaturasi 140 °C. U oson polimerlanib yuqori molekular poliakril kislota hosil qiladi:




Bu polimerning efirlari elim moddalar va plastmassalar olishda ishlataladi.

**Akril kislota nitrili (Akrilonitri).** 78 °C da qaynovchi suyuqlik bo'lib, asetilenga sianid kislota ta'sir ettirib olinadi:




Akrolonitril sanoatda propilenni ammiak ishtirokida oksidlab olinadi.




Akronitril yuqori molekular polimer moddalar olishda qimmat-baho xomashyo hisoblanadi. Undan olingen polimer moddalar tuproqning xususiyatlarini yaxshilashda ishlataladi. Akril kislota polimerlaridan tayyorlangan emulsiyalar gazlama, yog'och, qog'oz fabrikalarida, tibbiyotda yopishqoq plastirlar ishlab chiqarishda va qurilishda alif o'rniда ishlataladi. Shu bilan birga boshqa monomerlar bilan sopolimerlab, jun tolasi o'mini bosadigan sintetik tola — nitron olinadi. Masalan, akronitrilni butadiyen bilan sopolimerlab benzinga chidamli sintetik kauchuk olinadi


To'yinmagan kislotalarning ikkinchi vakili  $\text{C}_3\text{H}_5\text{COOH}$  uch xil izomeri bor:




Kroton kislota o'z navbatida, ikkita fazoviy izomerga ega:



**Metakril kislota** 16 °C da suyuqlanadigan, 160 °C da qaynay-digan modda bo'lib, asetonga sianid kislota ta'sir ettirib olinadi:




Metakril kislotaning metil efirini polimerlab, yuqori molekular tiniq shishasimon plastmassa olinadi:



U organik shisha deb atalib, xalq xo‘jaligining ko‘pgina tarmoqlarida ishlatiladi.


Yuqoridagi polimerlarning boshqa polimerlardan farqi shundaki, agar ular yuqori temperaturada quruq haydalsa depolimerlanish jarayoni kechib, qaytadan monomerlar hosil bo‘ladi. Yuqori molekulaga ega bo‘lgan to‘yinmagan bir asosli kislotalar jumlasiga olein —  $\text{C}_{17}\text{H}_{33}\text{COOH}$ , linol —  $\text{C}_{11}\text{H}_{31}\text{COOH}$ , linolen —  $\text{C}_{17}\text{H}_{29}\text{COOH}$  kislotalar kiradi. Ular tabiatda o‘simlik va hayvonot organizmida glitserin efiri holida (moy, yog‘) keng tarqalgan.

Olein kislotaning tuzilish formulasi quyidagicha:




U rangsiz, yog‘simon suyuqlik, suvdan yengil, havoda oksidlanib sarg‘ayadi.


Olein kislota qo‘sh bog‘ hisobiga ikki atom galoidni biriktiradi:



Olein kislota kuchli oksidlovchi ta'sirida parchalanadi:




Bu kislotalarning hosil bo'lishi, olein kislotada qo'shbog' C<sub>9</sub> bilan C<sub>10</sub> o'ttasida joylashganligini isbotlaydi. Olein kislota nitrat kislota ta'sirida ikkinchi izomer — elaidin kislotaga o'tadi. Bu izomer Ni, Pt katalizatori ishtirokida vodorod atomlari bilan qaytarilsa, faqat stearin kislota hosil bo'ladi:



Olein kislota sovun, plastirlar tayyorlashda va junni yigirishdan oldin yog'lash uchun ishlataladi. Linol kislota molekulasida ikki qo'sh bog', linolenda esa uchta qo'sh bog' bor. Ular ham vodorod atomlarini biriktirib stearin kislotaga aylanadi.



## TO'YINMAGAN IKKI ASOSLI KISLOTALAR

Fumar va malein kislota to'yinmagan ikki asosli kislotalarning eng oddiy vakili etilendikarbon kislotalardir:




Stereokimyoviy nazariyaga ko'ra 1,2-etilendikarbon kislota ikkita geometrik izomer holida bo'lishi mumkin:






Bu ko'rinishdagi kislotalar ma'lum bo'lib, ular *malein (sis-forma)* va *fumar (trans-forma) kislota* deb ataladi. Fumar kislota o'simliklar tarkibida, ayniqsa qo'ziqorin tarkibida ko'p uchraydi. Bu kislotaning nomi ham *Fumaria officinalis* o'simligi nomidan kelib chiqqan. Malein kislota tabiatda uchramaydi. Olma kislota qizdirilganda ikki xil to'yinmagan kislota aralashmasi hosil bo'ladi. Sekin qizdirilganda, asosan, fumar kislota, kuchli qizdirilganda esa malein kislotaga aylanadi:



Malein kislota ba'zi birikmalarining (xinon, hidroxinon) katalizatorlar ishtirokida oksidlanishi natijasida hosil bo'ladi:





44

Fumar va malein kislotalar o'z xossalari jihatidan bir-biridan tamoman farq qiladi.


Fumar kislota ignasimon kristall modda bo'lib, suyuqlanmasdan 200 °C da sublimatlanadi, suvda yomon eriydi. Malein kislota beqaror modda bo'lib, 130 °C da suyuqlanadi, suvda yaxshi eriydi, fumar kislotaga nisbatan kuchli kislotadir.

Ikki kislota ham kimyoviy xossalari jihatidan to'yinmagan uglevodorodlarga o'xshaydi hamda ikki asosli kislotalarga xos xususiyatlarni namoyon qiladi.

Malein va fumar kislotalar vodorod galogenidlar bilan reaksiyaga kirishib, optik faolmas (ratsemik) qahrabo kislotaning monogaloidli hosilasiga o'tadi:



Malein kislota qizdirilganda osonlik bilan suv ajratib chiqarib, malein angidridga aylanadi:




Fumar kislota yuqori temperaturada ( $300^\circ\text{C}$  gacha) qizdirilganda suv ajralib chiqadi hamda malein angidrid hosil bo'ladi. Malein kislota beqaror bo'lib, turli katalizatorlar (masalan, yod va nitrit kislota) ishtirokida barqaror fumar kislortaga aylanadi. Bunday reaksiyalar issiqlik chiqishi bilan boradi. Bu esa fumar kislota malein kislotaga nisbatan kam energiyaga ega ekanligini ko'rsatadi. Fumar kislotaning malein kislotaga aylanishida energiya yutiladi. Fumar kislotaga ultrabinafsha nurlar ta'sirida ham bunday jarayonni kuzatish mumkin.

Malein angidrid ignasimon kristall modda,  $52,6^\circ\text{C}$  da suyuqlanadi. Suv ta'sirida malein kislotaga aylanadi. Texnikada benzol yoki butadionni katalitik oksidlash yo'li bilan olinadi. Malein angidrid ko'pgina kimyoviy sintez jarayonlarida (masalan, diyen sintezida) hamda plastmassa sanoatida keng qo'llaniladi. Diyen sintezi yordamida turli xil parfumeriya mahsulotlari, garmonlar hamda vitaminlar olinadi.




## AROMATIK KARBON KISLOTALAR


Aromatik kislotalarning eng oddiy vakili benzoy kislota  $\text{C}_6\text{H}_5\text{COOH}$ . U o'simliklar tarkibida efir holatida, ayrim smolalar esa toza holatda uchraydi. Sanoatda toluoldan olinadi:



Benzoy kislota bitta yon zanjirli aromatik uglevodorodlarni oksidlاب ham olinadi:




Benzoy kislota kristall modda, 122,4 °C da suyuqlanadi, suvda yomon eriydi, kislota xususiyati yog' qatori kislotalaridan kuchliroqdir:




Hosil bo'lgan tuzni o'yuvchi natriy bilan qizdirilsa, benzol hosil bo'ladi:



Benzoy kislota spritlar ta'sirida murakkab efirlar hosil qiladi:




Molekuladagi karboksil guruh ikkinchi tur o'rinnbosari bo'lgani uchun ikkinchi kelayotgan atom yoki guruhni meta-holatga yo'naltiradi:




Benzoy kislota yaxshi antisептик bo'lgani uchun tibbiyotda va qishloq xo'jalik mahsulotlaridan konservalar tayyorlashda uning natriy benzoat tuzi ishlatalidi.


Ftal kislotalar aromatik dikarbon kislotalarning vakillaridir. Ular naftalin va ksilol izomerlarini oksidlab olinadi:



Ftal kislotalar kristall moddalardir. Agar ular suyuqlanish temperurasidan yuqori temperaturada qizdirilsa, faqatgina ortoftal kislotadan bir molekula suv chiqib ketishi hisobiga ftal angidridiga aylanadi:




Ftal agidrid sanoatda gliftal smolasi, fenolftalein fluoressein, eozin va boshqa moddalar olishda asosiy xomashyo hisoblanadi. Masalan, fenolftalein ftal angidridiga fenol ta'sir ettirib olinali:



Fenolftalein muhitni aniqlashda indikator sifatida va tibbiyotda «purgen» nomi bilan surgi sifatida ishlataladi.


Ftal kislotaning dimetilefiri qishloq xo'jaligida repellent (chivinlar va boshqa hasharotlarni haydovchi) sifatida ishlataladi.

**Lavsan.** Tereftal kislota etilenglikol bilan polikondensatlanib polietilenterftalat smolasi hosil bo'ladi. Smoladan tayyorlangan poliefir tola Rossiyada lavsan, Amerikada dakron, Angliyada terilen deb ataladi:




Tabiiy tola bilan lavsan aralashmasidan g'ijimlanmaydigan material olinib, to'qimachilik sanoatida keng ishlataladi.

**Dolchin kislota** C<sub>6</sub>H<sub>5</sub>—CH=CH—COOH to'yinmagan aromatik karbon kislotalarning eng oddiy vakili bo'lib, «sis» va «trans» izomer holida uchraydi:




sis-izomer  
allodolchin kislota  
(suyuqlanish  
temperaturasi 68 °C)




trans-izomer  
dolchin kislota  
(suyuqlanish  
temperaturasi 134 °C)

Dolchin kislota va uning efirlari balzamlar, o'simliklardan olinadigan smolalar va efir moylari tarkibida uchraydi. Dolchin kislota benzoy aldegidiga sirkal angidrid ta'sir ettirib olinadi:



Dolchin kislota suvda kam eriydi, qizdirilganda stirol bilan karbonat angidridga parchalanadi:



Stirol 145 °C qaynaydigan suyuqlik, oson polimerlanib shishasimon polimer — polistirol hosil qiladi.

Polistirol izolator sifatida elektr asbob-uskunalarini ishlab chiqarish sanoatida, plastmassalar olishda keng ishlataladi. Dolchin kislotalaring metil va benzil efirlari xushbo'y hidga ega bo'lganligi uchun parfumeriya sanoatida ishlataladi.

### *Savol va mashqlar*

1. Karbon kislotalarga qanday birikmalar kiradi va ular anorganik kislotalardan nima bilan farqlanadi?
2. Sirkal kislotalagi karboksil guruhning kimyoviy bog'lanishlarini hosil bo'lishida elektron bulutlarni qoplanishini va siljishini tushuntiring.
3. Karbon kislotalarni to'yigan uglevodorodlardan, spirlardan, aldeidlardan olinish reaksiyalarini yozing.
4. Spirlardagi gidroksil guruh vodorodi, fenoldagi gidroksil guruh vodorodi va karbon kislotalaring karboksil guruhidagi vodorodlarining orasidagi kimyoviy xossalaring farqini tushuntiring.
5. Monoxlorsirkal kislota va sirkal kislotalarning qaysi biri kuchliliginini tushuntiring.

- Chumoli kislota qolgan karbon kislotalardan nima xususiyati bilan farqlanadi?
- Murakkab efirlari olinishini va uning ishlatilishini gapiring.
- Karbamid va poliakrilamidlar qishloq xo'jaligida qanday maqsadlarda ishlatiladi?
- Adipin kislotani yozing va undan sanoatda neylon tola olish reaksiya tenglamasini tuzing.
- Paxta moyi tarkibida uchraydian olein kislotaning «sis» va «trans» izomerlarini yozing.
- Ftal kislotasining qaysi izomeridan sanoatda lavsan tolesi olinadi? Uning reaksiya tenglamasini yozing.
- Tarkibi  $C_5H_{10}O_2$  bo'lgan kislotaning barcha izomerlarini tuzilish formulalarini yozing va nomlang.
- Chumoli kislotadan: a) 10 g; b) 5 mol vodorod ajralib chiqishi uchun necha gramm magniy kerak bo'ladi?
- 60 g moy kislota etil efirini olish uchun vino spirtidan qancha gramm kerak?
- Sirka aldegid, sirka kislotani qanday kimyoviy reaksiyalar yordamida bir-biridan ajratish mumkin?

XV b o b

## LIPIDLAR

**Tayanch ihoralar:** lipidlar; hujayra membranasi; yog'lar; olein, linol va linolen kislotalari; oddiy va aralash gliserinlar; T.E.Bertlo reaksiyasi; emulsiya; «Petrov kontakti»; margarin; sovun; lesitin.

O'simlik va hayvon hujayralarida keng tarqalgan, suvdagi erimaydigan, qutbsiz organik erituvchi (xloroform, efir, benzol)larda eriydigan organik birikmalarga *lipidlar* deyiladi.


Lipidlar kimyoviy tuzilishiga va organizmda bajaradigan vazifalariga qarab quyidagi guruhlarga bo'linadi: yog'lar (moylar), asilgliserinlar, fosfoglisericidlar, sfingolipidlar, glikolipidlar, mumlar, yog'larda eriydigan vitaminlar va steroidlar.

Lipidlar organizmda, asosan, to'rt funksiyani bajaradi:  
 1) hujayra membranasining struktura komponentini tashkil etadi;  
 2) zaxira yoqilg'ini to'plashda xizmat qiladi; 3) shu yoqilg'ini tashib yuradi; 4) hujayrani himoya qilish vazifasini bajaradi.

Lipidlar organizmda sodir bo'ladigan biokimyoviy jarayonlarda faol ishtirok etadi.

## YOG'LAR, MOYLAR

*Yog'lар* — moylar tabiatda asosan o'simliklar urug'ida, hayvonlar organizmida keng tarqalgan bo'lib, uch atomli spirit — glitserinning yuqori molekular to'yingan va to'yinmagan karbon kislotalar bilan hosil qilgan murakkab efirlaridir:



*✓*

*To'yingan yog' kislotalar:*

Suyuqlanish  
temperaturasi, °C


$\text{CH}_3-(\text{CH}_2)_{12}-\text{COOH}$	miristin kislota	53,9
$\text{CH}_3-(\text{CH}_2)_{14}-\text{COOH}$	palmitin kislota	63,1
$\text{CH}_3-(\text{CH}_2)_{16}-\text{COOH}$	stearin kislota	69,6
$\text{CH}_3-(\text{CH}_2)_{18}-\text{COOH}$	araxin kislota	75,5
$\text{CH}_3-(\text{CH}_2)_{22}-\text{COOH}$	lignoserin kislota	86,0

*To'yinmagan yog' kislotalar:*


$\text{CH}_3(\text{CH}_2)_5-\text{CH}=\text{CH}(\text{CH}_2)_3\text{COOH}$	palmitoolein kislota	0,5
$\text{CH}_3(\text{CH}_2)_7-\text{CH}=\text{CH}(\text{CH}_2)_7\text{COOH}$	olein kislota	13,4
$\text{CH}_3(\text{CH}_2)_4-\text{CH}=\text{CH}-\text{CH}_2-\text{CH}=\text{CH}(\text{CH}_2)_5\text{COOH}$	linol kislota	5
$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}=\text{CHCH}_2\text{CH}=\text{CH}-\text{CH}_2\text{CH}=\text{CH}(\text{CH}_2)_7\text{COOH}$	linolen kislota	11
$\text{CH}_3(\text{CH}_2)_4-\text{CH}=\text{CH}-\text{CH}_2-\text{CH}=\text{CH}-\text{CH}_2-\text{CH}=$ $=\text{CH}-\text{CH}_2-\text{CH}=\text{CH}(\text{CH}_2)_3\text{COOH}$	araxidon kislota	49

To'yingan va to'yinmagan yog' kislotalar o'zlarining tuzilishi, konfiguratsiyasi bilan tubdan farq qiladi. Ayniqsa, to'yingan yog' kislotalar uzun zanjirga ega bo'lganligi va oddiy bog' atrofida aylanishi tufayli har xil konfiguratsiyaga ega bo'ladi. To'yinmagan yog' kislotalar esa molekuladagi qo'shbog' yonidagi vodorod atomlarining fazoda joylashishiga qarab sis- va trans- formalarda bo'lishi mumkin.

O'simliklardan olinadigan yog'larga moylar deyiladi. Bunday o'simliklarga kungaboqar, paxta, zaytun, zig'ir, bodom, palma, kokos va boshqalar kiradi. Bu o'simliklar ichida eng ko'p moy olinadigani paxtadir. Masalan, faqat O'zbekistonda yetishtiriladigan 3,6 mln tonna paxtadan 459 ming tonna moy olinadi. Palma, kokos moylari to'yingan yog' kislotalar qoldig'idan iborat bo'lib, ular qattiq moddalardir. Boshqa o'simlik moylari tarkibida to'yinmagan kislotalarning qoldig'i bo'ladi, shuning uchun ular suyuqdir. Masalan, kokos moyi tristearin va tripalmitin kislotalardan iborat:






tristearin



tripalmitin




Paxta moyi tarkibida 10 dan ortiq trigliserid borligi aniqlangan. Ularning eng ko'pini quyidagi trigliseridlar tashkil etadi:




Hayvon yog'lari qattiq bo'lib, ulaming asosiy tarkibi to'yingan stearin va palmitin kislota qoldiqlaridan iborat.

Trigliserid bir xil kislota qoldig'idan iborat bo'lsa, oddiy, agar bir necha kislota qoldig'idan iborat bo'lsa *aralash glitseridlar* deyiladi:




oddiy glitserid




aralash glitserid

Yod soni moyning to'yinmaganlik ko'rsatkichi bo'lib, u 100 g moyga birikadigan yodning gramm miqdori bilan ifodalanadi. Bu usul bilan yog' molekulasi dagi qo'sh bog'lar soni aniqlanadi.

Gidrolizlanish soni deb yog'larning glitserin va sovunlarga parchalanishi uchun sarflangan ishqor miqdoriga aytildi:



Suyuq moylar qurish darajasiga qarab quriydiqan, chala quriydiqan va qurimaydigan turlarga bo'linadi. Zig'ir moyi quriydiqan moyga misol bo'lib, u linol va linolen kislota glitseridlaridan iborat:




Bunday moylar havoda turishi natidasila qalin elastik pardal hosil qiladi. Lekin moylarda to'yinmagan uglevodorod qoldig'i qancha ko'p bo'lsa, u shuncha tez quriydiqan bo'ladi.


Kungaboqar, paxta moyi chala quriydiqan moylar jumlasiga kiradi, ularning tarkibi olein va linol kislota glitseridlaridan tuzilgan.

Zaytun moyi esa qurimaydigan moylarga misol bo'lib, asosan trioleindan iborat bo'ladi.

1854-yilda T.E.Bertlo birinchi bo'lib glitserinni stearin kislota ishtirokida qizdirish bilan yog' sintez qilgan:



Mumlar yuqori molekular yog' kislotalarning yuqori molekular spirtlar bilan hosil qilgan murakkab efirlaridir. Masalan, asalari mumi — palmitin kislotalning mirisil efiri bo'lib, u quyida gicha tuzilishga ega:



## YOG'LARNING FIZIK XOSSALARI

Yog'lar (moylar) suvda erimaydi, ammo emulgatorlar yordamida suv bilan emulsiya hosil qiladi. Yog'lar emulsiya holida oqsil moddalar bilan tabiiy sutda uchraydi. Ular organik erituvchilarda eriydi. Qattiq yog'lar havoda qizdirishga chidamli, o'zgarmaydi, suyuq yog'lar (moylar) molekuladagi qo'shbog'lar hisobiga havoda va qizdirganda oksidlanib parchalanadi.


Yog'larning qotish temperaturalari orasidagi farq katta. Masa-  
lan, kungaboqar moyi — 18 °C da, zig'ir moyi — 27 °C da qotadi.

Yog'lar moylar tarkibidagi yog' kislotalar qanchalik to'yingan  
bo'lsa, ularning qotish temperaturasi shunchalik katta bo'ladi.

## YOG'LARNING KIMYOVIY XOSSALARI


Yog'lar murakkab efir bo'lib, gidrolizlanish xususiyatiga ega. Gidrolizlanish turli sharoitda ishqoriy muhitda olib borilsa, yog' parchalanib, glitserin bilan karbon kislotalarning tuzi (sovun) hosil bo'ladi.

1. Yog'lar kislotali va ishqoriy muhitda gidrolizlanadi. Sanoatda yog'ning gidrolizlanishi kislota xossasiga ega bo'lgan katalizator — «Petrov kontakti» ishtirokida suv bilan olib boriladi:



«Petrov kontakti» neft mahsulotini sulfat kislota bilan qayta ishlash natijasida olingan birikma bo'lib, uni birinchi marta G.S.Petrov yog'ni parchalashda kataliztor sifatida ishlatalishni taklif etgan.

2. Suyuq yog'lar katalizatorlar (nikel, palladiy) yordamida vodorodni biriktirib, qattiq yog'larga aylanadi. Bu usul yog'larni gidrogenlash deyilib, uni birinchi marta S.A. Fokin sanoatda ishlab chiqqan:




Baliq moyini gidrogenlab qattiq yog' — salomos olinadi. O'simlik moylaridan olingan qattiq yog'lar sut, tuxum va boshqa moylar bilan aralashtirilib margarin hosil qilinadi. Margarin oziq-ovqat sifatida keng iste'mol etiladi.

Yog'lar o'simlik va hayvonlar organizmi uchun zaxira energiya manbayi hisoblanadi. Masalan, chigit tarkibidagi moy chigitning yerdan unib chiqishi uchun asosiy ozuqadir.


Yog'lar kuchli energiya manbayi bo'lib, oziq-ovqat sifatida keng iste'mol etiladi. 1 g yog' organizmda parchalanganda 9,4 kkal energiya hosil bo'ladi. Bundan tashqari, organizmdagi teri osti yog' to'qimalari, tomirlari va nerv tolalarini shikastlanishdan saqlaydi, organizmnинг issiqlik almashinuvida ishtirok etadi.

**Sovunlar.** Yuqori molekular karbon kislotalarning natriyli va kaliyli tuzlari *sovunlar* deyiladi. Ular ikki xil usul bilan olinadi:

1) hayvon yog'ları o'yuvchi natriyning suvli eritmasi bilan qizdirilganda glitserin va yog' kislotaning natriyi tuzi — sovun hosil bo'ladi:




2) parafinlarni oksidlاب hosil qilingan yog' kislotalarga ishqor ta'sir ettirib sovunlar olinadi:




Yog' kislotalarning natriyli tuzlari qattiq, kaliyli tuzlari esa suyuq bo'ladi. Kaliyli tuzlar ko'k rangda bo'lganligi uchun ko'pincha ularni ko'k sovun ham deyiladi.

Kiyim-kechaklardagi kirlar turli xil yog'lardan iborat bo'lgani uchun ular suv bilan yuvilganda toza bo'lmaydi. Sovun ishtirokida yuvilganda esa tozalanadi. Chunki sovun kuchsiz kislota va kuchli ishqordan iborat tuz bo'lgani uchun suvda gidrolizlanadi, natijada eritma ishqoriy reaksiyaga ega bo'lib, yog'lardan iborat kirlarni yumshatadi. Shunda hosil bo'lgan yuqori molekular karbon kislotaning  $C_{17}H_{35}COOH$  uglevodorod qismi gidrofob bo'lganligi uchun suv molekulalarini o'zidan itaradi, karbonil guruh esa gidrofil bo'lgani uchun suv molekulalarini o'ziga tortadi. Bu harakat natijasida kiyimdag'i yumshagan kir emulsiya holida sovun eritmasida yuviladi. Sovunlar asosan yog'lardan olinadi. Yog'larni tejash maqsadida keyingi vaqlarda yangi sintetik yuvish vositalari ishlab chiqarilmoqda Sintetik yuvish vositalari suvda dissotsilan-ganda hosil qiladigan ionlarga qarab uch turga bo'linadi: 1) faol anion; 2) faol kation va 3) faolmas ion yuvuvchi moddalar.


Faol anion yuvuvchi moddalar suvda dissotsilanib, kationga va yuvish xususiyatini saqlagan anionga ajraladi:



Faol kation yuvuvchi moddalar ham suvda dissotsilanib anionga va yuvish xususiyatini saqlagan kationga ajraladi.





Faolmas ion yuvuvchi moddalar suvda dissotsilanmaydi:




Aniogen sun'iy yuvuvchi moddalar zararsiz va yuvish xususiyatining afzalligi bilan boshqa yuvuvchi moddalardan ajratib turadi. Alkilsulfat, alkilsulfonat va boshqalar shular jumlasidandir.

Yuqori molekular spirtlarning sulfat kislota bilan hosil qilgan esirlarining tuzlari *alkilsulfat* deyiladi:




To'yinmagan uglevodorodlar sulfobirikmasining natriyli tuzlariga alkilsulfonatlar deyiladi va ular quyidagicha olinadi:



Sintetik yuvuvchi moddalarning sovunlardan afzalligi shundagi, ular qattiq suvda ham yuvish xususiyatini saqlab qoladi.


**Lipoidlar.** Fizik va kimyoviy xossalari ko'ra yog'larga o'xshash murakkab efirlarga lipoidlar deyiladi. Ular tabiatda, hayvon va o'simliklar tarkibida fosfatidlar, steroidlar holida uchraydi hamda organizmdagi sintez jarayonida muhim rol o'ynaydi.

Yog'lardagi bitta yog' kislota qoldig'i o'rmini fosfat kislotaning aminospirtli efiri egallagan birikmalarga *fosfatidlar* deyiladi:




Ushbu formuladan ko'rniib turbdiki, glitserinning uchinchi gidroksil guruhi fosfat kislota bilan birikkan bo'lsa, kislotaning ikkinchi gidroksil guruhi o'z navbatida aminospirt bilan bog'langan.

**Kefalinlar** eng muhim fosfolipidlardan bo'lib, etanolamin va diglycerid fosfat kislotaning murakkab efiridir:



**Lesitin** xolin digliserid fosfat kislotaning murakkab efiri bo'lib, u gidrolizlanganda glitserin, fosfat kislota, stearin va olein kislotalar hamda xolin hosil bo'ladi:



### YOG' VA MOYLARNING ISHLATILISHI

Yog' va moylar asosan oziq-ovqat sifatida keng ilatiladi. Shuningdek, moylar alif moylar olishda keng qo'llaniladi. Moylar o'z molekulasida saqlangan qo'shbog'lar hisobiga yaxshi quriydigan va yomon quriydigan moylarga bo'linadi. Moy tarkibida yog' kislotalar qanchalik to'yinmagan bo'lsa, ular shunchalik yaxshi qurish xususiyatiga ega bo'ladi. Chunki moy molekulalari ikkita va uchta qo'shbog' hisobiga ular diyen uglevodorodlarga o'xshash polimerlanish xossasiga egadir.

Zig'ir moyi yuqori temperaturada ( $280-300^{\circ}\text{C}$ ) katalizator (qo'rg'oshin yoki marganes) ishtirokida qizdirilsa alif hosil bo'ladi. Alif qurilish ishlarida keng ishlataladi.

### Savol va mashqlar

- Qanday birikmalar lipidlar deyildi? Ular tuzilishiga va tirik organizmda bajaradigan vazifalariga qarab necha guruhga bo'linishini aytib bering.

2. Yog' va moylarni tabiatda uchrashini va ularning tarkibiy qismlarini yozib bering.
3. Yog'larni hayvonlar organizmidagi rolini va ularning o'zgarishini tushuntiradigan reaksiyalarni yozib izohlang.
4. Lipidlar yog'lardan nima bilan farqlanadi va ularni organizmdagi vazifalarini tushuntiring.
5. Moylar qattiq yog'lardan nima bilan farq qiladi va g'o'za chigitidan olinadigan paxta yog'ining tarkibiga kiruvchi karbon kislotalarning tuzilish formulalarini yozing.
6. Yog'lar xalq xo'jaligining qaysi sohalarida qanday maqsadlarda ishlataladi?
7. Sintetik yuvish vositalari o'zlarining xususiyatlariga qarab necha xil bo'ladi va ularni sovundan afzalligini gapiring.
8. Stearin kislotalening glitseridi tutgan 100 g yog'ga yetarli miqdorda natriy gidroksid ta'sir etganda necha gramm sovun hosil bo'ladi?
9. Kiyimdagи yog' dog'ini ketkazish uchun qanday erituvchidan foydalanasziz?
10. Sovun eritmasi nima uchun ishqoriy muhitga ega, uni reaksiya tenglamalarni yozib tushuntiring.
11. Sovun kislotali muhitda o'zining «yuvish» xususiyatini yo'qotadi. Buning sababi nimada?
12. Moylar tarkibidagi radikallarning to'yinmaganligini qanday isbotlash mumkin?

XVI bob

## OKSI-, ALDEGIDO- VA KETOKISLOTALAR


**Tayanch iboralar:**  $\alpha$ ,  $\beta$ ,  $\gamma$  — oksikarbon kislotalar; laktid; lakton; A.M.Zaysev reaksiyasi; K.E.Sheelee usuli; Feling reaktivisi; fenolkarbon kislota; optik izomeriya; asimmetrik uglerod atomi; tautomeriya; Ya.Vant-Goff va A.Le-Bellarning yangiliklari; G.Ya.Vant-Goff nazariyasi; E.Fisher konfiguratsiyasi; Lui Paster usullari; P.I.Valden burilishi.

## OKSIKARBON KISLOTALAR

Molekulasida gidroksil (OH) hamda karboksil (COOH) guruhlar bo'lgan organik birikmalar oksikarbon kislotalar deb ataladi.

Oksikislotalarning asosliligi va atomlliligi turlicha bo'lishi mumkin. Kislotalening asosliligi ularning tarkibidagi karbonil guruh soni bilan belgilanadi, gidroksil gurush soni esa (bunda karboksi


guruhdagi gidroksil ham qo'shib hisoblanadi) kislotaning atomliligini ko'rsatadi. Masalan, glikol kislota  $\text{CH}_2\text{OH}-\text{COOH}$  bir asosli ikki atomli kislota, olma kislota esa




uch atomli ikki asosli kislotadir.

## NOMENKLATURASI VA IZOMERIYASI


Oksikarbon kislotalarning ko'pchiligi asosan trivial nom bilan ataladi, ya'ni kislotaning nomi shu kislota birinchi marta qanday xomashyodan olinganligini (yoki qanday birikmalar tarkibida uchrashini) ko'rsatadi. Masalan, sut kislota  $\text{CH}_3-\text{CH}(\text{OH})-\text{COOH}$  birinchi marta sutdan, olma kislota  $\text{HOOC}-\text{CH}_2-\text{CH}(\text{OH})-\text{COOH}$  olmadan olingan. Jeneva nomenklaturasiga ko'ra oksikistolarni nomlashda asosiy zanjirdagi uglerod atomlari sonini ifodalovchi uglevodorod nomiga oksiguruhni ko'rsatuvchi «ol» qo'shimchasi qo'shilib, tegishli raqam bilan belgilanadi:




etanol kislota



propanol-2 kislota



2-metilpropanol-2 kislota




2-metilpropanol-3 kislota




butanol-2 kislota

Oksikarbon kislotalarda izomeriya kislotalar molekulasining tarmoqlangan yoki tarmoqlanmaganligiga hamda gidroksil guruhning karboksil guruhiga nisbatan qanday joylashganligiga (ya'ni,  $\alpha$ ,  $\beta$ ,  $\gamma$ ) bog'liq. Masalan, oksipropion kislotaning ikki xil izomeri mavjud.




$\alpha$ -oksipropion kislota



$\beta$ -oksipropion kislota

Oksimoy kislotaning uchta izomeri mavjud ( $\alpha$ ,  $\beta$  va  $\gamma$  oksimoy kislota):





Ko‘pgina oksikarbon kislotalarning molekulasida assimetrik uglerod atomlari bo‘lganligi sababli ularda stereoizomer turlaridan biri bo‘lgan optik izomeriya ham mavjud. Bunday izomeriya haqida keyinroq batafsil to‘xtalib o’tamiz.

## OLINISH USULLARI


Oksikislotalar tabiatda ko‘p tarqalgan bo‘lib (masalan, olma, limon kislotalar), ular asosan o’simsliklar tarkibida uchraydi.

Oksikarbon kislotalarning molekulasida ham hidroksil guruh ham karboksil guruh bo‘lganigi uchun ular spirlarga karboksil guruh yoki kislotalarga hidroksil guruh kiritish orqali sintez qilinadi.


1. Oksikarbon kislotalar. 1, 2-glikollar yoki ularning kamida bitta birlamchi spirit guruhi ( $-\text{CH}_2\text{OH}$ ) bo‘lgan hosilalarni oksidlash yo‘li bilan hosil qilinadi:




2.  $\alpha$ -galoid kislotalarning gidrolizlanishi natijasida oksikislotalarga aylanadi:




3.  $\alpha$ -aminokislotalarga nitrit kislota ta'sir ettirilganda oksikislota hosil bo'ladi:





4. Aldegid va ketonlardan sianid kislota ta'sirida hosil bo'lgan oksinitril birikmalarning gidrolizlanishi natijasida turli xil tuzilishga ega bo'lgan oksikarbon kislotalar hosil bo'ladi. Bu usul, asosan, sanoat usuli hisoblanadi:



5. Ketokislotalarni qaytarish bilan oksikislotalar olinadi:




6. Laktid va laktonlarni gidroliz qilish bilan oksikislotalar olinadi:



## FIZIK VA KIMYOVİY XOSSALARI


Oksikarbon kislotalarning dastlabki vakillari suvda yaxshi eruvchan qovushoq yoki kristall moddalardir. Oksikarbon kislotalar o'ziga mos keladigan to'yingan yog' kislotalarga nisbatan kuchli kislotalardir. Oksikislotalar bifunksional moddalar (molekulasida ham gidroksil ham karboksil guruhi) bo'lganligi sababli spirtlarga va kislotalarga xos barcha reaksiyalarga kirishadi.

Barcha oksikarbon kislotalar spirtlar bilan reaksiyaga kirishib murakkab efirlar hosil qiladi, masalan:



sut kislotaning etil efiri

Oksikarbon kislotalar spirtlar kabi xlorangidridlar yoki kislota angidridlari ta'sirida ham quyidagicha murakkab efirlar hosil qiladi:




asetilsut kislota


Oksikarbon kislotalarning gidroksil guruhi oksidlanish natijasida aldegid yoki keto-kislotalar hosil bo'ladi.

Oksikarbon kislotalarga xlorlovchi moddalar ta'sir ettirilsa, reaksiya sharoitiga qarab ikki xil xlorli birikma hosil bo'ladi.

1) past temperaturada:




2) yuqori temperaturada:





Oksikarbon kislotalarning o'ziga xos reaksiyalaridan (xususiyatlaridan) biri shuki, ular bir xil sharoitda qizdirilganda molekulasidan osonlik bilan bir molekula suv ajralib chiqib, har xil moddalar hosil bo'ladi.

1.  $\alpha$ -oksikislotalar qizdirilganda osonlik bilan ikki molekula kislotadan ikki molekula suv ajralib chiqib, siklik murakkab efir hosil bo'ladi:





Siklik murakkab efirlar *laktidlar* deb ataladi. Ular gidrolizlan-ganda yana  $\alpha$ -oksikislotalar hosil bo'ladi.


$\alpha$ -oksikislotalarning o'ziga xos yana bir xususiyati ular suyultirilgan mineral (sulfat, xlorid) kislotalar ishtirokida qizdiril-ganda chumoli kislota bilan aldegid yoki ketonlarga parchalanadi, masalan:




2.  $\beta$ -oksikarbon kislotalar qizdirilganda bir molekula suv ajralib chiqib to'yinmagan karbon kislotalar hosil bo'ladi:




3.  $\gamma$  va  $\delta$  oksikarbon kislotalar erkin holda qarorsiz bo'lib, faqat tuz holidagini ma'lumdir.  $\gamma$ - oksikarbon kislotalar osonlik bilan qizdirilmasa ham sekin-asta o'zidan suv ajralib besh yoki olti a'zoli siklik birikmalar — laktonlarni hosil qiladi:



1873- yilda rus kimyogari A.M.Zaysev  $\gamma$ -butirolaktonni birinchi marta qahrabo kislota angidridini qaytarish yo'li bilan hosil qilgan:



Laktonlar siklik murakkab efirlardir. Ular kislotali muhitda barqaror bo'lib, ishqorlar ta'sirida lakton halqasi uziladi va oksikislota tuzlari hosil bo'ladi:



Shunday qilib, hosil bo'lgan moddalarning xiliga qarab  $\alpha$ ,  $\beta$  yoki  $\gamma$  oksikarbon kislotalarni aniqlash mumkin.

Oksikislotalarning suvli eritmasi to'yingan kislotalarga nisbatan kuchli kislota xususiyatiga ega. Chunki oksikislotalardagi gidroksil guruh karboksil guruhning dissotsilanishini kuchaytiradi. Masalan, oksisirka kislotaning dissotsilanish konstantasi ( $\text{PK}_{\text{a}} = 3,829$ ) sirka kislotaning dissotsilanish konstantasi ( $\text{PK}_{\text{a}} = 4,754$ ) dan katta.


Oksikislotalardan  $\alpha$ -oksikislotalar eng kuchli kislota xususiyatiiga ega bo'lib, gidroksil guruh karboksil guruhdan uzoqlashgan sari kislota xususiyati nisbatan kamayib boradi.

## ENG MUHIM VAKILLARI

Glikol (oksisirka) kislota  $\text{HO}-\text{CH}_2-\text{COOH}$  oksikislotalarning eng oddiy vakili bo'lib, birinchi marta etilenglikolni oksidlash yo'li bilan hosil qilingan:




Glikol xom mevalarda ko'p bo'ladi va monoxlorsirka kislotadan sintez qilinadi:




Glikol kislota 79—80 °C da suyuqlanadigan kristall modda, suvda yaxshi eriydi.

Sut kislota yoki oksipropion kislota  $\text{CH}_3-\text{CH}(\text{OH})-\text{COOH}$  1780- yilda nemis kimyogari K.E.Sheelee sut kislotani birinchi marta qatiqdan ajratib olgan.

Sut ( $\alpha$ -oksipropion) kislotaning uch xil optik (ko'zgu) izomer formalari, ya'ni qutblanish tekisligini o'ngga buruvchi, chapga buruvchi va optik aktiv bo'limgan rasemat formalari mavjud:



D(--) -sut kislota




L(+) -sut kislota


O'ngga buruvchi sut kislotani 1832- yilda nemis olimi Y.Libix muskul to'qimalaridan ajratib olgan va unga go'sht-sut kislota deb nom bergan.

Chapga buruvchi sut kislota bakteriyalar yordamida achitish natijasida olinadi.

Sut kislota qand, sut va xo'l mevalarning achishidan hosil bo'ladi:



Sut kislota sırka aldegidga vodorod sianid ta'sir ettirib sintez qilinadi va bu bilan uning tuzilishi isbotlanadi:





Sut kislota havodagi namni o'ziga tortuvchi kristall modda. Quritilgan sut kislota 26 °C da suyuqlanadi. U to'qimachilik sanoatida, terini qayta ishlashda va tibbiyotda qo'llaniladi.

### Olma (mono oksiqahrabo) kislota




Bu kislota qahrabo kislotaning bitta vodorod atomini gidroksil guruhga almashgan hosilasidir:




Olma kislota tabiatda olma va uzum sharbatlarida bo'ladi. Akademik O.S.Sodiqov va uning shogirdlari g'o'za bargidan ko'p miqdorda olma va limon kislota ajratib olish usulini topdilar.

Olma kislota uch xil izomer formada bo'ladi, uning faol formalari 100 °C da, rasemat formasi 131 °C da suyuqlanadi:



D(+) - olma kislota



L(-) - olma kislota

**Kashfiyat!** Mashhur o'zbek kimyogari, akademik O.S.Sodiqov g'o'zaning bargida olma va limon kislotalari mavjudligini aniqlab, ularni ajratib olish usulini yaratdi.


**Vino kislotalar**  $C_4H_6O_6$ . Bunday kislotalar qahrabo kislotaning ikki gidroksidli hosilasi  $\text{HOOC}-\text{CHOH}-\text{CHOH}-\text{COOH}$  ning fazoda turlichay joylashishidan hosil bo'ladi.

O'ngga buruvchi D-vino kislotaning ikkala assimetrik uglerod atomi o'ngga buradi. U kristall modda,  $170^{\circ}\text{C}$  da suyuqlanadi, suvda yaxshi eriydi.


Chapga buruvchi L- vino kislotaning assimetrik uglerod atomi chapga buradi. Vino kislotaning uchinchi izomeri uzum kislota optik faol bo'limgan kristall modda,  $206^{\circ}\text{C}$  da suyuqlanadi, o'ngga va chapga buruvchi vino kislotalaming teng miqdorda qo'shilishidan hosil bo'ladi.

Vino kislotaning to'rtinchi izomeri — mezovino kislota kristall modda,  $140^{\circ}\text{C}$  da suyuqlanadi.


Vino kislota molekulasida bitta asimetrik markaz qutblangan nurni o'ngga, ikkinchisi esa chapga buradi va optik faol bo'limgan izomer — mezovino kislota hosil qildi:



D-(+)-vino kislota




L(-)-vino kislota




mezovino kislota

D(+)- vino kislotaning ishqorlar bilan hosil qilgan tuzlari *tartratlar* deyiladi.


Masalan, vino kislotaning kaliyli nordon tuzi:




vino kislotaning kaliy natriyli o'rta tuzi (signet tuzi)



Segnet tuzining mis bilan hosil qilgan kompleks birikmasi **Feling reaktiv** deb ataladi:






Bu reaktiv organik birikmalardagi aldegid guruhlarni va shakar moddasini aniqlashda keng ishlataladi.


D-vino kislota va uning tuzlari oziq-ovqat, to‘qimachilik sanoatida, tibbiyotda keng qo‘llaniladi.

**Limon kislota** quyidagi tuzilishga ega:





Kristall modda. Suvsiz limon kislota  $153^{\circ}\text{C}$  da suyuqlanadi va suvda yaxshi eriydi. Limon kislota tabiatda keng tarqalgan bo‘lib, limon, malina va uzum sharbatlarida hamda g‘o‘za barglarida ko‘p uchraydi.

Limon kislota sanoatda shakarni mikroblar yordamida bijg‘itish yo‘li bilan olinadi:




Dixlorasetonga kaliy sianid va vodorod sianid ta’sir ettirib olinadi:




Limon kislota qandolatchilikda, to'qimachilik sanoatida gazlamalarni bo'yashda va tibbiyotda qonni uzoq vaqt saqlash uchun ishlataladi.

## FENOLKARBON KISLOTALAR


Benzol halqasida ham gidroksil, ham karboksil guruhlar saqlagan birikmalarga fenolkarbon kislotalar deyiladi. Ular tabiatda o'simliklarda uchraydigan oshlovchi moddalar, lignin va glikozidlar tarkibini tashkil etadi. Ularning bиринчи vakili tol bargidan olingani uchun (tol — lotincha — Salix) salitsil kislota deb nomlangan.



Uni sanoatda natriy fenolyatga karbonat angidrid ta'sir ettirib hosil qilinadi:




Salitsil kislota kristall modda, 159 °C da suyuqlanadi, suvda yomon eriydi, qizdirilganda parchalanib fenol hosil qiladi:




Salitsil kislota ham gidroksil ham karboksil guruhlar orqali efirlar hosil qiladi.

Salitsil kislotaga asetil xlorid ta'sir ettirib asetilsalitsil kislota (aspirin) olinadi:




Fenolga salitsil kislota xlorangidridi ta'sir ettirib salitsil kislotaning fenol efiri (salol) olinadi:




Asetilsalitsil kislota haroratni (kasal isitmasini) pasaytiruvchi dori sifatida, salol esa ichak yo'llarini dezinfeksiya qilishda tibbiyotda keng ishlataladi. Salitsil kislota o'zi har xil surkov dorilari tarkibida antiseptik sifatida teri kasalliklarida va oziq-ovqat mahsulotlarini konservalashda ishlataladi.

Choy bargidagi, dub po'stlog'idagi oshlovchi moddalar tarkibida fenol karbon kislotalarning ikkinchi vakili gall kislota va uning dimetil efiri (siren kislota) uchraydi:




gall kislota



siren kislota

Bu kislota bir molekula suv bilan kristallahadi, 222 °C da suyuqlanadi, qizdirilganda parchalanib, pirogallol hosil bo'ladi:



## ALDEGIDO- VA KETONOKISLOTALAR

Molekulasida aldegid va karboksil guruh bo'lgan organik birikmalar aldegidokislotalar, keton va karboksil guruh bo'lgan birikmalar esa ketonokislotalar deb ataladi.


Eng muhim aldegido va ketonokislotalarning fizik xossalari 16-jadvalda keltirilgan.

*16-jadval*

### Aldegido va ketonokislotalarning fizik xossalari

Kislota	Formulasi	Suyuqlanish temperaturasi, °C	Qaynash temperaturasi, °C	PKa (25°Cda)
Glioksil	H-C=O-COOH	suv siz (98)	—	2,301
Formilsirka	H-C(=O)-CH <sub>2</sub> -COOH	sof holda olinmagan		
Pirouzum	CH <sub>3</sub> -C(=O)-COOH	13,5	165	2,495
Asetosirka	CH <sub>3</sub> -C(=O)-CH <sub>2</sub> -COOH	—	100 da parchalanadi	2,582
Levulin	CH <sub>3</sub> -C(=O)-(CH <sub>2</sub> ) <sub>2</sub> -COOH	37,3	216	2,619


Karbonil va karboksil guruhlarning bir-biriga nisbatan joylanishiga qarab  $\alpha$ ,  $\beta$ ,  $\gamma$  va hakozo aldegido- hamda ketonokislotalar bo'lishi mumkin. Masalan: pirouzum kislota  $\alpha$ - ketonokislota, asetosirkakislota,  $\alpha$ -ketonokislota, levulin kislota esa  $\gamma$ - ketonokislotadir.




aldegidokislotalarning eng oddiy va-

kili bo'lib, faqat gidrat (tarkibida bir molekula suv bo'lgan) holda olingan.


Glioksil kislota tabiatda xom mevalar tarkibida uchraydi: mevalar pishishi bilan u sekin-asta yo‘qolib boradi. Laboratoriya sharoitida dixlor yoki dibromsirka kislotani suv bilan qaynatish orqali hosil qilinadi:



Glioksil kislota etilenglikolni oksidlash, shuningdek, oksalat kislotani qaytarish yo‘li bilan ham olinadi:





Glioksil kislota oddiy sharoitda shishasimon suyuqlik, suvda yaxshi eriydi. U aldegidlarga va kislotalarga xos reaksiyalarga kirishadi. Ishqor bilan qizdirilganda glikol va oksalat kislota tuzlariga aylanadi (Kannissaro reaksiyasi):




Glioksil kislota  $\alpha$ - aldegidokislotalarning birdan-bir vakilidir.

**Pirouzum kislota ( $\beta$ -ketopropion kislota)**  $\text{CH}_3-\underset{\text{O}}{\overset{\parallel}{\text{C}}}-\text{COOH}$


$\alpha$ -katonokislotalarning eng oddiy vakilidir. Bu kislota sirka kislota hidini eslatuvchi suyuqlik bo‘lib, uzum kislotani quruq haydash (proliz) orqali olinadi:




Uni asetilxloriddan ham olish mumkin:




Pirouzum kislota sulfat kislota ishtirokida qizdirilganda yoki karboksilaza fermenti ta'sirida sirka aldegid bilan karbonat angidridiga parchalanadi:




Pirouzum kislota propion kislotaga qaraganda kuchli bo'lib, karbonil va karboksil guruhlarga xos barcha reaksiyalarga kirishadi. U odam va hayvonlar organizmida uglevod hamda yog'larning aerob oksidlanishi va bijg'ishi natijasida oraliq mahsulot sifatida hosil bo'lib modda almashinuvida ishtirok etadi.




erkin holda qiyomga o'xshash suyuqlikdir. Asetosirka kislota boshqa  $\beta$ - ketonokislotalar singari beqaror bo'lib, kuchsiz qizdirilganda parchalanib, karbonat angidrid ajralib chiqadi va aseton hosil bo'ladi:




Bu reaksiya ichki molekular vodorod bog'lanish tufayli hosil bo'lgan olti a'zoli sikl bilan boradi va dastlab aseton enol formada hosil bo'ladi:




Asetosirka kislota beqaror modda bo'lganligi uchun amaliy ahamiyatga ega emas. Uning hosilalaridan eng ahamiyatlisi asetosirka efiridir:





**Asetosirka efir.** Asetosirka efir xushbo'y suyuqlik, 180 °C qaynaydi. Asetosirka efir murakkab efirlarning kondensatlanishini L. Klayzen kashf etgan bo'lib u quyidagicha boradi. Dastlab etil asetat natriy alkogolat bilan birikadi:



So'ngra hosil bo'lgan reaksiya mahsuloti efirning ikkinchi molekulasi bilan reaksiyaga kirishadi, natijada ikki molekula spirt bilan natriy asetosirka efir ajaralib chiqadi:




So'ngra kislota ta'sir ettirilganda oksikroton kislota efiri (I) hosil bo'ladi, bu efir esa tezda asetosirka efiriga (II) aylanadi:



II keton shakli



Asetosirka efirt diketenga spirt ta'sir ettirib ham olinadi:



Asetosirka efirni yuqorida ko'rib o'tilganidek, ikki xil ko'rinishda ifodalash mumkin. Birinchi formulaga ko'ra asetosirka efir bir vaqtning o'zida ham efir, ham to'yinmagan spirtdir: ikkinchi formulaga ko'ra esa ham efir, ham ketondir. Juda ko'p tekshirishlar natijasida ma'lum bo'ldiki, asetosirka efir bir-biriga o'tib turadigan izomer (I va II) lar ekan. Bunday hodisa *tautometriya* deyiladi. Bir-biriga o'tib turadigan bunday moddalar esa *tautomerlar* deyiladi.





Keton guruhi moddalar bilan enollar o'zaro tautomer bo'lsa bunday tautomeriya *keto-enol tautomeriya* deb ataladi. Bu tautomeriyaga asetosirka efirning izomer shakllari misol bo'la oladi. Ayrim tautomer moddalar masalan, asetosirka efirning ikkala izomeri ham toza holda ajratib olingan va mavjuddir.

Asetosirka efirning petroleyl efirdagi eritmasini suyuq havo bilan sovitib, kristall holdagi asetosirka kislota efirining keton formasini olish mumkin. U brom bilan reaksiyaga kirishmaydi va  $\text{FeCl}_3$ , ta'sirida rang bermaydi. Asetosirka efirni kvars idishlarda haydarb uning enol formasini ajratib olish mumkin. U ishqorda erib bromni biriktiradi:




Ammo bu ikkala tautomer beqaror — ular bir-biriga o'tib turadi. Muvozanatdag'i aralashma 10% enol shakli va 90% keton shakli bo'lib, ularning nisbati har xil erituvchilarda turlicha bo'ladi. Erituvchi qancha qutbli bo'lsa keton forma shuncha ko'p bo'ladi. Masalan, asetosirkaga efirning suvdagi aralashmasida 0,4% enol va 99,6 % keton, geksandagi eritmasida 46,4% enol va 53,6% keton shakli muvozanatda bo'ladi.


Asetosirkaga efir ikki tautomer formada uchragani uchun keton hamda enollarga xos bo'lgan kimyoviy reaksiyalarga kirishadi. Masalan, u boshqa ketonlar kabi natriy bisulfitni va sianid kislotani biriktirib oladi, gidroksilamin, gidrozin bilan oson reaksiyaga kirishadi. U piridin ishtirokida galoid angidridlar bilan asillash reaksiyasiga kirisha oladi.




Vodorod ta'sirida asetosirkaga efir molekulasi dagi karbonil guruh qaytarilib  $\beta$ -oksimoy kislotaning etil efiri hosil bo'ladi:




Asetosirka efir enollarga xos bo'lgan reaksiyalarga ham kirishadi. U piridin ishtirokida galoidangidridlar bilan asillash reaksiyasiga kirishadi.



Asetosirka efir fosfor (V)-xlorid ta'sirida xlorkroton kislotaning etil efirini hosil qiladi:




Natriy metali yoki natriy alkogolyat ta'sirida asetosirka efir molekulasi dagi vodorodning natriyga almashinishi natijasida natriy asetosirka efir hosil bo'ladi:



Asetosirka efir ketonli va enolli tipda boradigan yuqoridagi reaksiyalardan tashqari  $\beta$ - ketonokislotalarning barcha efirlariga xos bo'lgan reaksiyalarga ham kirashadi:


1) ishqorlarning suyultirilgan eritmalari bilan qizdirilganda asetosirka efir gidrolizlanib, asetosirka kislotaga aylanadi. Bu kislotaning dikarboksillanishi natijasida aseton hosil bo'ladi:




Bu reaksiya asetosirka efirning ketonli parchalanishi deb yuritiladi.

2) asetosirka efir ishqorlarning konsentrangan eritmalari bilan qizdirilganda kislotali parchalanish sodir bo'ladi. Bunda murakkab efir guruhi gidrolizlanadi va karbonil guruhi bilan markaziy metilen


guruh orasidagi bog' uzulib, ikki molekula sirkalik kislotaning natriyli tuzi hosil bo'ladi:




**Asetosirka efir asosida qilinadigan sintezlar.** Asetosirka efir asosida turli tuzilishga ega bo'lgan kislota va ketonlarni sintez qilish mumkin. Yuqorida ko'rib o'tilgan natriy asetosirka efiriga galoidalkil ta'sir ettirilganda metall kislorod bilan bog'langan bo'lishiqa qaramay, alkil kislorod bilan emas, balki uglerod bilan birikadi:





Reaksiyaning bunday yo'nalişida borishi «reaksiya markazining ko'chishi», ya'ni natriy asetosirka efirda reaksiya markazining metallga birikkan kislorod atomidan metil guruhning uglerodiga ko'chishi bilan tushuntiriladi. Yuqorida hosil qilingan monoalkil-asetosirka efirning yana bir vodorodini natriy metaliga, so'ngra uni radikalga almashtirish mumkin, natijada asetosirka efirning ikkita vodorodi alkil radikaliga almashigan hosilasi hosil bo'ladi:



Asetosirka efirning bitta yoki ikkita vodorodi almashigan hosilalari ishqorlar ta'sirida keton yoki kislotalar hosil qilib parchalanadi:



Asetosirka efir asosida turli tuzilishga ega bo'lgan ikki asosli kislotalar, diketonlar, ketonokislotalar sintez qilish mumkin:



Ba'zi moddalar o'zining fazodagi tuzilishiga ko'ra fazoviy yoki stereoizomerlarga ega. Etilen uglevodorodlardagi va to'yinmagan karbon kislotalardagi geometrik (sis-trans) fazoviy izomeriya kabi oksikarbon kislotalarda ham fazoviy optik izomeriya mavjud.



1815-yilda ayrim suyuq organik birikmalardan yoki ularning eritmalaridan qutblangan nur o'tkazilganda qutblanish tekisligining o'ngga yoki chapga burilishi aniqlangan. Ana shunday xususiyatga ega bo'lgan moddalar optik faol moddalar deyiladi. Turli tekislikda harakat qilayotgan oddiy yorug'lik nuri maxsus Nikol prizmasidan o'tkazilganda qutlanib, muayyan tekislikda yo'nalsa, bunday nur qutblangan nur deyiladi (11-rasm).

Qutblangan nuring harakat tekisligiga perpendikulyar bo'lgan tekislik qutblanish tekisligi deyiladi.

Organik moddalarning optik faolligini aniqlash uchun poliarimetrlar ishlatalidi (12-rasm).

**11-rasm.** Nuring qutblanish sxemasi:

1 – oddiy nur harakati; 2 – nikol prizma; 3 – qutblangan nur; 4 – qutblanish tekisligi.



**12-rasm.** Polarimetr:

1 – yorug'lik manbayi; 2 – nikol prizmasi; 3 – modda eritmasi solinadigan nay; 4 – analizator; 5 – prizmani aylantiruvchi qo'l; 6 – kuzatuvchi lupa.


Bu asbob yordamida biror moddaning optik faolligini ifodalovchi solishtirma buruvchanlik aniqlanadi.

Umuman konsentratsiyasi 1 g/ml bo‘lgan 1 dm qalilikda olingan optik faol moddaning kuzatilgan burish burchagi solishtirma buruvchanlik deyiladi.

Moddalarning optik faolligi ulardagи assimetrik markazga bog‘liq. 1874- yili gollandiya olimi Y.Vant-Goff va Fransiya olimi A.Le-Bel bir-biridan bexabar holda bir vaqtning o‘zida organik moddalardagi har bir uglerod elementining to‘rt valenti to‘rt xil atom yoki atomlar guruhi bilan birikkan bo‘lsa, shu moddalar assimetrik markazga ega bo‘lishini isbotlaganlar. Bunday uglerod atomi assimetrik uglerod atomi deb ataladi.

Molekulaning assimetrik uglerod atomidagi to‘rtta atom yoki atomlar guruhi bir tekislikda yotmasligini, fazoda ular turlicha joylashganligini va tetraedrin ko‘rinishda bo‘lishini ko‘rsatadi.

Masalan, sut kislota:




Y.G.Vant-Goff va Le-Bel o‘zlarining bu kashfiyotlari bilan birikmalarning fazoviy tuzilishi, ya’ni stereoizomeriyasi moddalarning optik faolligiga bog‘liqligini isbotlab, organik kimyoning rivojlanishiga salmoqli hissa qo’shdilar.

1951- yili kimyogarlardan R.S.Kan, K.Ingold va V.Preloglar assimetrik uglerod atomidagi atomlar yoki atomlar guruhining katta-kichikligiga va joylashishiga qarab assimetrik markazi o‘ngga yoki chapga burilishini ifodalovchi sistema yaratdilar.


Asimetrik atom atrofida joylashgan atomlar (o‘rinbosarlar)ni *a*, *b*, *c* va *d* bilan belgilab, ulardan kichigi tetraedrning uzoqlashgan qirrasiga joylashgan bo‘lib, qolgan *a*, *b*, *c* lar kattaliklariga qarab *d* ga nisbatan joylanishidagi aylanish burchagi soat strelkasi

yo'nalishi bo'yicha bo'lsa *D*, soat strelkasining yo'nalishiga teskari bo'lsa *L* bilan belgilanadi.




*D* va *L* ifodalar bilan molekulalarni o'ngga (+) va chapga (-) burish ko'rsatiladi.

Masalan, glitserin aldegid molekulasini tetraedr holda olsak, unda eng kichik vodorod atomi uzoqlashgan bo'lib, qolgan guruh atomlari asimmetrik markazda soat strelkasiga teskari yo'nalihsida joylashadi, ya'ni *L* izomerga ega bo'ladi:




Shundan so'ng, optik izomeriyaga ega bo'lgan moddalarning o'ngga va chapga buruvchi proyeksiyasi formulalarini ifodalashda glitserin aldegidning proyeksion formulasi andoza qilib olindi.

Glitserin aldegidning *A* formulasi *D* harfi bilan belgilanib, o'ngga buruvchi izomer deyiladi. *B* formulasi *L* harfi bilan belgilanib, chapga buruvchi izomer deyiladi:




*A.*



*B.*

*D* va *L* harflari bilan birg o'ng (+) va chap (-) tomonni bildiruvchi ishoralar yoziladi.

Optik faol izomerlar faqat (+) va (-) ishoralar bilan farqlanib, ulami optik antipodlar ham deyiladi.



**13- rasm.** Molekulaning S va R konfiguratsiyasini aniqlash.

Glitserin aldegidning fazoviy tuzilishi bilan qolgan moddalarni taqqoslab, ularning proyeksiyon formulalari yoziladi. Ko‘p moddalalar chapga va o‘ngga buruvchi izomerlardan tashqari optik faol bo‘lmagan (rasemat) izomerga ham ega. Moddalarning rasemat izomeri chapga va o‘ngga buruvchi izomerlari miqdori teng bo‘lgan izomeridir.


1956- yili R.S.Kan, K.Ingold va V.Preloglar D va L belgilarni yangi R va S belgilarga o‘zgartiradi, chunki bu belgilar molekulalarning fazoda joylanishini to‘la ko‘rsatadi, ya’ni absolut konfiguratsiyani ifodalaydi. Ular asimmetrik markazdagi o‘rinnbosarlarining joylanishini mashinaning ruliga o‘xshatib, uning o‘ngga aylanishini R- konfiguratsiyasi va chapga aylanishini S-konfiguratsiyasi deb tushuntirdi (13- rasm).

## **IKKITA ASIMMETRIK MARKAZI BOR BIRIKMALAR VA ULARNING DIASTEREOIZOMERIYASI**

Sut, olma va vino kislotalar asimmetrik uglerod atomlariga ega bo‘lganligi uchun G.Y.Vant-Goff nazariyasiga ko‘ra izomer formalarga ega. Molekula bitta asimmetrik markazga ega bo‘lsa 2 ta izomerga, ikkita bo‘lsa 4 ta izomerga ega bo‘lib, asimmetrik uglerodning ortib borishi hisobiga optik izomerlar soni ko‘payib boradi. Asimetrik markazi ko‘paygan moddalarning izomerlar soni Vant-Goff formulasi bo‘yicha hisoblanadi:

$$N = 2^n,$$

bu yerda:  $N$  – izomerlar soni,  $n$  – asimetrik markaz soni. Masalan, xlor-olma kislotaning ikkita har xil asimetrik markazi bo‘lgani uchun ( $N = 2^2 = 4$ ) to‘rtta quyidagi stereo-izomerlarga ega:



Xlor-olma kislotaning asimmetrik markazini birinchisini A, ikkinchisini B va o'ngga burishini (+), chagpa burishini (-) bilan belgilab, to'rtta stereoizomerdan ikki xil ratsemat hosil qiladi:


I	II	III	IV
+A	-A	+A	-A
+B	-B	-B	+B
1 - ratsemat		2 - ratsemat	

Xlor-olma kislota stereoizomerlarning birinchisi ikkinchisi bilan va uchinchi bilan to'rtinchisi bilan o'zaro bir-biriga optik antipoddir, chunki bular bir-birining ko'zgudagi tasviridir. Ammo birinchisi uchinchi va to'rtinchi bilan hamda ikkinchisi uchinchi va to'rtinchi bilan taqqoslaganda ular antipodlar emas, ularning kuzgudagi tasviri bir-biriga o'xshamaydi. Bunda, antipod bo'lmasan stereoizomerlar diastereoizomerlar deyiladi. Ular fizika va kimyoviy xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi.


Molekulada asimmetrik uglerod atomlarining soni ortishi bilan diastereoizomerlar soni ham ortadi.

Vino kislota ham ikki asimmetrik markazga ega bo'lgani uchun to'rtta optik izomerga va ikkita rasemat shakliga ega.

1946- yili E. Fisher konfiguratsiyasi ma'lum bo'lgan ramnozadan vino kislota hosil qiladi va shu bilan vino kislotaning o'ngga buruvchi izomer shakli isbotlanadi:




Quyidagi sxema bilan vino kislotadan olma kislotqa hosil qilinib, uning ham fazoviy tuzilishi aniqlanadi:




Optik faol birikmalar quyidagi boshqa sinf birikmalarida ham mayjud:


1) spirtlarda:




2) aldegidospirlarda:




3) aminokislotalarda:




4) terpen uglevodorodlarda:



5) uglevodlarda:



6) alkaloidlarda:



## RASEMATLARNI ANTIPODLARGA AJRATISH USULLARI

Organik moddalarni sintez yo'li bilan olishda ular rasemat holatda, ya'ni o'ngga va chapga buruvchi izomerlari teng miqdorda qo'shilgan holatda bo'ladi. Rasematni antipodlarga ajratish ancha qiyin, chunki chapga va o'ngga buruvchi izomerlarni suyuqlanish, qaynash temperaturalari har xil bo'ladi. Shuning uchun rasemat moddalarni antipodlarga ajratish muhim ahamiyatga ega.

Mashhur fransuz biokimyogari Lui Paster vino kislotalari ustida ish olib borib, rasematni antipodlarga parchalashning uchta usulini ishlab chiqdi.

**Mexanik usul.** Rasemat kislota tuzlari ma'lum sharoitda ikki xil shaklga ega bo'lgan kristallga — o'ngga va chapga buruvchi izomerlarga ajraladi.

1848- yilda Paster optik faol bo'limgan uzum kislotaga o'yuvchi natriy bilan novshadil spirit ta'sir ettirib, o'ngga va chapga buruvchi uzum kislotani ajratib oldi. Bu kashfiyat stereokimyoga asos solgan.

**Biologik usul** mikroorganizmlaming oziqlanishiga asoslangan, chunki ular faqat bir xil optik antipodni (o'ngga yoki chapga buruvchi izomerlarini) iste'mol qiladi.

Masalan, vino kislota eritmasi rasematga mog'or zamburug'i solinsa, zamburug' o'ngga buruvchi izomerni iste'mol qiladi, eritmada esa chapga buruvchi izomer qoladi.


**Kimyoiy usul.** Bu usulda rasemat kislotalarni optik faol asoslar bilan hosil qilgan tuzlaming eruvchanligiga qarab antipodlarga ajratiladi.

Masalan, uzum kislotaga sinxonin alkaloidi ta'sir ettirilsa, o'ngga va chapga buruvchi vino kislotalarning sinxoninli tuzlari hosil bo'ladi. Hozirgi vaqtida rasematlarni antipodlarga ajratishda xromatografik, fermentativ boshqa usullar qo'llinmoqda.


## ASIMMETRIK SINTEZ

Tirik organizmda optik faol moddalar fermentlar yordamida sintez bo'lsa, laboratoriya sharoitida asimetrik uglerod atomiga ega bo'lgan moddalarning rasemat formasi sintez qilinadi.

Masalan, pirouzum va propion kislotalarda asimetrik markaz yo'q, lekin uni qaytarish va brom ta'sir ettirish yo'li bilan asimetrik uglerodli birikmalar olinadi:




Sirka aldegiddan ham quyidagi sxema bo'yicha sut kislota olinadi:



Asimmetrik sintez ikki xil bo'ladi: tirik tabiatdan olingan moddalar yordamida amalga oshirilsa, nisbiy asimmetrik sintez, tirik tabiat moddalarisiz bo'lsa absolut asimmetrik sintez deb ataladi.


### O'RIN OLISH REAKSIYALARINING STEREOIZOMERIYASI

Oksikislota asimmetrik markazida nukleofil reaksiyalarni borishi tufayli molekulaning konfiguratsiyasi o'zgaradi, ya'ni bir optik izomer ikkinchi optik izomerga aylanadi. Bu hodisani 1896- yili P.I. Valden topganligi uchun unga Valden burulishi deb nom beriladi. Masalan, olma kislotaning quyidagi o'rin olish reaksiyalarida gidroksil guruhning galoidga almashinishida konfiguratsiya o'zgarib Valden burilishi sodir bo'ladi. Olma kislotaning o'ngga buruvchi izomeridan chapga buruvchi izomeri hosil bo'ladi va aksincha. Natijada yopiq zanjirli jarayon sodir bo'ladi:




D(+) -olma kislota

L(-)-xlor qahrabo kislota




D(+) -xlor qahrabo kislota

L(-) -olma kislota



14- rasm. Allen molekulasining fazoviy shakli.


Malein va fumer kislotalarga galogen ta'sir ettirilganda galogen faqat trans forma ko'rinishida birikadi:




**Molekulasida asimetrik uglerod atomi bo'lmagan birikmalarning optik faolligi.** Ba'zi birikmalarda asimetrik uglerod atomi bo'lmasa ham umumiy molekula asimetriyasi, asosan, optik aktiv bo'ladi. Masalan, allen uglevodorod molekulasida ikkita qo'shbog' bir uglerod atomi orqali ketma-ket bog'langan bo'lib,  $\pi$ -bog'lari esa ikkita o'zaro perpendikular tekislikda joylashgan(14- rasm). Ikki chetdagi uglerod atomidagi juft vodorod atomlarining tekisliklari ham o'zaro perpendikulardir. Bu holat molekulaning xususiyatini o'zgartiradi va ugleroddagi vodorod o'rniiga boshqa guruohni almashinishi natijasida molekula (asimetriyaning hosil bo'lishi tufayli) optik faol bo'ladi.

**Oltungugurtli va azotli birikmalarning optik faolligi.** Molekulasi tarkibida oltungugurt tutgan ko'pgina organik birikmalar optik faol bo'ladi, chunki molekuladagi oltungugurt atomi asimetrik markaz hisoblanadi.


Bunga quyidagi oltungugurtli birikmalar misol bo'la oladi:



Oltungugurtning ikkita sulfooksil guruhi bor, siklik birikmalar ikkita asimetrik markazga ega bo'lib, ikki xil izomer holda uchraydi:



sis-izomer




trans-izomer


Bulardan trans-izomerning optik antipodlari bo'lishi mumkin.

Azotli organik birikmaning stereoizomeriyasi molekuladagi atomlar guruhini fazoda azot atomiga nisbatan qanday joylashganligiga bog'liq.




Ko'pgina birikmalarda uch valentli azot atomi asimmetrik markazni hosil qilishi hisobiga qisman optik faol bo'ladi:



1891-yilda Le-Bel metiletilizopropil – izobutilammoniy xloridning optik faolligini aniqladi:



Meysengeymer uchlamchi aminlarning optik faol oksibirik-malarini sintez qiladi:



$$[\text{M}]_D \pm 24^\circ$$

$$[\text{M}]_D \pm 49^\circ$$


$$[\text{M}]_D \pm 9^\circ$$

Uchlamchi aminlarning  $\text{R}-\underset{\text{R}_2}{\text{N}}-\text{R}_1$  tipdag'i birikmalarni optik

antipodlarini olish qiyin, chunki ularning antipodlari juda tez bir-biriga aylanib turadi.

## *Savol va mashqlar*

1. Qanday birikmalar oksi, aldegid va ketokislotalarga kiradi?
2. Oksikarbon kislotalardagi qaysi funksional guruhni joylashish hisobiga izomerlar soni ko'payadi. Misollar yozing.
3. Oksikarbon kisloalarni birlamchi va ikkilamchi spirlardan aldegid va keton hosil qilib, ulardan olinish usullarini yozing.
4. Oksikarbon kislotalar o'ziga mos keladigan karbon kislotalardan nima uchun kuchli va u xususiyatni misollarda tushuntiring.
5. Qaysi sharoitda oksikarbon kislotasidagi gidroksil guruhlar xlorga o'rIN almashadi?
6. Oksikarbon kislotalarning o'ziga xos reaksiyalarni yozib tushuntiring.
7. Sut kislotasini kim, nimadan ajratib olgan va uning uch optik (ko'zgu) izomerlarini yozing.
8. Olma kislotani qaysi o'zbek olimi g'o'za bargidan ajratib olgan va uning tuzilish formulasini yozing.
9. Fenolkarbon kislota deganda siz qanday birikmalarni tushunasiz va tibbiyotda ishlatiladigan aspirinning formulasini yozing.
10. Aldegid- va ketonokislotalarning birinchi vakillarini tuzilish formulalarini yozing.
11. Asetosirka efirni L.Klayzen usuli bo'yicha olinishini yozing va uning ikki xil tautomer formula bo'lishligini tushuntiring.
12. Optik izomeriya nima, uning oksikarbon kislotalarda mavjudligini misollar bilan tushuntiring.
13. Rasemat holatidagi moddalarni antipodlarga ajratishning necha xil usulini bilasiz? Unga birinchi bo'lib qaysi olim asos soldi?
14. Quyidagi o'zgarishlarni reaksiya tenglamalarini yozing va hosil bo'lgan modda nomini aytинг:



15.  $\beta$ -oksimoy kislota qizdirilganda qanday birikma hosil bo'ladi?
16.  $\text{CH}_2\text{OH---CHOH---CHOH---CHOH---COOH}$  formulaga ega bo'lgan birikma qancha optik stereoizomerga ega?



XVIII b o b

**UGLEVODLAR (KARBONSUVLAR)**

**Tayanch iboralar:** monosaxarid; oligosaxarid; polisaxarid; A.A.Kolli reaksiyalari; aldoz va ketozi; glikozid gidroksil; U.Xeuors formulasasi; konfiguratsiya; tautomeriya; mutarotatsiya; glukozidlar; A.M.Butlerovning reaksiyasi; epimerlar; bijg'ish; inversiya; ptialin; deketrin; K.S.Kirxgof reaksiyasi; selluloza; plastifikator; xitin.

Uglevodlar tabiatda juda keng tarqalgan. Bu birikmalar uglerod, vodorod va kisloroddan iborat. Ularning tarkibi  $C_n(H_2O)_n$  umumiy formula bilan ifodalanadi. Uglevoldlarning ba'zi vakillari ksiloza  $C_5H_{10}O_5$ , saxaroza  $C_{12}H_{22}O_{11}$  va kraxmal ( $C_6H_{10}O_5$ )<sub>n</sub> yuqoridagi umumiy formulaga muvofiq keladi, lekin ba'zilarining tarkibi (metilsetozalar  $C_6H_{12}O_5$  metilgeksozalar  $C_7H_{14}O_6$ , dezoksi qandlar) farq qiladi. Murakkab uglevodlar (selluloza-kletchatki) o'simlikka chidamlilik va qattiqlik beradi, inson uchun kiyim-kechak (paxta), qurilish materiallari va oziq-ovqat sifatida (kraxmal, saxaroza) ishlataladi.

Uglevodlar tirik organizmda sof holda va ayniqsa, spirtlar, fenollar va boshqa organik moddalar bilan glikozid holatida keng tarqalgan. Ular o'simliklarda quyosh energiyasi ta'sirida va xlorofil pigmenti ishtirokida karbonat angidrididan hosil bo'ladi, bu reaksiyani fotosintez jarayoni deb ataladi:



### UGLEVODLARNING KLASSIFIKATSIYASI, TUZILISHI VA IZOMERIYASI

Uglevodlar organik birikmalarning eng katta sinfi bo'lib, ular gidroliz qilinganda, gidrolizga uchramasligiga qarab va gidrolizga uchrab kichkina molekulalarga bo'linishiga qarab, ikki guruhga bo'linadi:

1. Oddiy uglerod yoki monosaxaridlar (monnozalar).
2. Murakkab uglevodlar. Bular o'z navbatida shakarsimon kichik molekulali polisaxaridlar (oligosaxaridlar)ga va shakarga o'xshamagan yuqori molekulali polisaxaridlarga bo'linadi.

Shakarsimon polisaxaridlar (disaxaridlar) Feling suyuqligini qaytarmaydigan (saxaroza) va qaytaruvchi (maltoza, laktosa, sellobioza) larga bo'linadi.


Monosaxaridlarni alifatik poliollarning oksidlangan mahsulotlari deb qarash mumkin. Chunki bu moddalar tarkibida hidroksil guruhlar bilan bir qatorda aldegid yoki keton guruhlar ham bo'ladi. Ammo monosaxaridlar hidrolizga uchramaydi. Monosaxaridlarning

eng muhim vakili glukoza va fruktozadir. Bu ikki monosaxaridning tarkibi  $C_6H_{12}O_6$  formula bilan ifodalanadi. Glukoza molekulasiда kislorod atomlarining soni ko'p bo'lganligi uchun ko'p atomli spritni hosilasi deyish mumkin. Yangi cho'ktirilgan mis (II)-gidrosidga glukoza eritmasi quyilsa tiniq ko'k eritma hosil bo'ladi. Bu ko'p atomli spirtlar (masalan, glitserin)ga xos xususiyatdir. Demak, glukoza ko'p atomi spirtlar jumlasiga kiradi. Rus olimiř A.A. Kolli glukozani besh molekula sirkalashishda murakkab efir oldi. Bundan u glukoza molekulasiда beshta hidroksil guruh bor degan xulosaga keldi.


Glukoza aldegidlarga xos ba'zi reaksiyalarni, masalan, «kumush ko'zgu» reaksiyasini beradi. Demak, glyukoza molekulasiда oltinchi kislorod atomi aldegid guruh holida bo'ladi. Glukoza vodorod yodid ta'sirida qaytarilganda 2-yodge'san hosil bo'ladi.



Bu reaksiya glukozaning uglerod atomlari normal zanjirli tuzilishga ega ekanligini ko'rsatadi. Shunday qilib, aldegid guruh uglerod zanjirining faqat oxirida turishini va bitta uglerod atomida ikkita hidroksil guruh turishi mumkin emasligini e'tiborga olgan holda glukozaning tuzilishini quyidagicha ifodalash mumkin:




Glukozaning tuzilish formulasidan ko'rinish turibdki, u ham aldegid ham ko'p atomli spirt — aldegidospirtdir. Fruktoza molekulasiда glukozadagi kabi beshta hidroksil guruh bor. U aldegidlarga xos «kumush ko'zgu» reaksiyasini bermaydi. Fruktoza simob (II)-oksid holida bariy hidroksid ishtirokida oksidlanib xuddi ketonlar kabi ikkita kislotaga, ya'ni trioksimoy va glikol kislotalarga parchalanadi. Bu kislotalarning hosil bo'lishi fruktoza molekulasingning ikkinchi uglerod atomida keton guruh borligini ko'rsatadi:




Shunday qilib, fruktoza ko'p atomli ketospirtdir.

Glukoza aldegidlarga xos ba'zi reaksiyalarni bermaydi, masalan,  $\text{NaHSO}_3$ , bilan reaksiyaga kirishmaydi, fuksinsulfat kislota eritmasi bilan rang hosil qilmaydi. Glukoza vodorod xlorid ishtirokida suvsiz metil spirit bilan qizdirilganda uning molekulasi dagi bitta gidroksil guruh vodorodi metil guruhga almashinib, metilglukozid hosil bo'ladi. Bu metilglukozid aldegidlarga xos reaksiyalarni bermaydi. Demak, glukoza molekulasi alohida xususiyatga ega bo'lgan bitta gidroksil guruh bo'lib, bu gidroksil guruh molekula siklik formaga o'tganda hosil bo'lib, uni yarim asetal gidroksil yoki glukozid gidroksil deb ataladi.

Glukozaning bunday xossalarini uning siklik ( $\delta$ -oksid) tuzilishi asosida tushuntirish mumkin:




Glukozaning bunday siklik formulasi beshinchisi uglerod atomidagi gidroksil guruh vodorodini birinchi uglerod atomidagi aldegid guruh kislorodiga birikishidan hosil bo'ladi. Glukoza eritmasini tekshirishidan ma'lum bo'ldiki, ularning molekulalari eritmada ikki xil tautomer shaklda, ya'ni aldegid va siklik ( $\delta$ -oksid) shaklda muvozanatda turadi:




Glukoza molekulasi dagi glikozid gidroksil guruhi boshqa spirtlarni gidroksil guruhlariga qaraganda reaksiyaga tez kirishadi.


Yuqoridagi reaksiyada, ya'ni metil glukozidni hosil bo'lishida metil guruh glukozid gidroksilining vodorodi bilan o'r'in almashinadi:




Metilglukozid molekulasida aldegid guruhi oson o'tadigan glukozid gidroksili yo'q. Shuning uchun u aldegidlarga xos reaksiyani bermaydi. Glukoza kumush oksidi ishtirokida metil yodid bilan metillangandagi pentametil *D*-glukoza kislotali muhitda gidrolizlanganda 2, 3, 4, 6-tetrametilglukoza hosil bo'ladi va u eritmada quyidagi tautomer shakllarda vujudga keladi:



Demak, 2, 3, 4, 6-tetrometilglukozada aldegid guruhga oson o'ta oladigan glikozid hidroksili bo'lgani uchun u aldegidlarga xos reaksiyaga kirisha oladi. Fruktoza ham glukoza singari eritmada quyidagi ikki xil tautomer shaklda muvozanatda bo'ladi:



Glukozaning siklik ( $\delta$ -oksid) tuzilish formulasini 1871- yilda A.A.Kolli taklif etgan. Keyinchalik ingliz olimi U.Xeuors glukozani quyidagi olti a'zoli halqa shaklida ifodaladi va asimmetrik uglerod atomlaridagi atom va atomlar guruhini halqa tekisligini ustki yoki ostki tomonida tekislikka nisbatan tik joylashishini ko'rsatadi:




Glukozaning keltirilgan ochiq zanjirli formulasini faqat atomlarning birikish tartibini ko'rsatsa, U.Xeuors formulasini esa ularni fazoda joylashuvini (yoki konfiguratsiyasini) ham ko'rsatadi. Hozirgi vaqtida monosaxaridning tuzilishi ko'pincha U.Xeuors formulasini bo'yicha ifodalananadi.


Monosaxarid molekulasidagi uglerod atomlari soniga va aldegid yoki keton guruhlarini saqlashiga qarab guruhlarga bo'linadi. Monosaxaridlarni nomlashda ularning molekulasidagi uglerod atomlari sonining lotincha nomiga «oza» qo'shimchasi qo'shiladi, masalan, molekulasida beshta uglerod atomi bo'lgan monosaxaridlar pentozalar, oltita uglerod atomi bo'lganlari esa — geksozalar deb ataladi.

Aldegid guruhiga ega bo'lgan monosaxaridlar aldozalar, keton guruhiga ega bo'lganlari esa ketozalar deb ataladi. Biz ko'rib o'tgan glukoza — aldogeksoza, fruktoza esa ketogeksozadir.

Monosaxiridlar izomerlar soni juda ko‘p bo‘lib, ular turli sabablarga bog‘liq. Masalan: 1. Aldegid va keton guruhlarga; 2. Asimmetrik uglerod atomlarini borligiga bog‘liq. Geksozalarning aldegid formasini tuzilish formulasiga nazar solsak, uning molekulasiida to‘rtta asimmetrik uglerod atomi bor:




Shuning uchun Vant-Goff va Le-Bel formulasi ( $N = 2^n$ )ga ko‘ra ularning stereoisomerlari soni 16 ta bo‘lishi kerak. Aldogeksozada ana shu 16 ta izomer mavjud bo‘lib, ulardan biri glukozadir. Bu stereoisomerlar E.Fisher taklif etgan proyekcion formulalar bilan ifodalanadi. Lekin bu formula aldegoksozalarning haqiqiy tuzilishini aks ettirmasa ham juda oson va tushunarlidir. Mavjud 16 ta stereoisomerlar o‘z navbatida 8 juftga bo‘linadi. Har bir juftdagagi monosaxirid o‘zaro optik antipodlar (enantiomerlar) bo‘lib, ulardan biri qutblanish tekisligini qancha o‘ngga bursa, ikkinchisi shuncha chapga buradi. Sakkiz juftning har bir jufti bir xil nom bilan aytildi, lekin ularning nomi oldiga D yoki L harfi qo‘shiladi. Masalan, D glukoza yoki L glukoza. Bularning Fisher bo‘yicha proyekcion formulasi quyidagicha:




D va L harflar faol izomerlari qutblanish tekisligini burish yo‘nalishini ko‘rsatmay balki konfiguratsiya turini ko‘rsatadi. Moddalarning qutblanish tekisligini o‘ngga yoki chapga burishi


shu moddalarni tavsiflashda katta ahamiyatga ega. Lekin ularning konfiguratsiyasini aniqlashda asos qilib olinmaydi. Chunki burilish ishorasi ko'p omillarga: erituvchi tabiatiga, eritmaning konentratsiyasiga bog'liq. Shuning uchun qutblanish tekisligini turli yo'nalishda buruvchi ba'zi moddalar bir xil konfiguratsiyaga, masalan, D konfiguratsiyaga ega bo'lishi mumkin: qutblanish tekisligini o'ngga buruvchi D(+)-glitserin aldegidning oksidlanishi dan qutblanish tekisligini chapga buruvchi L(-)-glitserin kislota hosil bo'ladi. Lekin bu ikkala birikmaning konfiguratsiyasi bir xildir. E.Fisher monosaxiridlarni ulardag'i beshinch'i uglerod atomidagi vodorod atomi va gidrosil guruhning o'zaro joylanashiga qarab D hamda L qatorga bo'ldi. Monosaxirid molekulasi dagi beshinch'i uglerod ( $C_5$ ) atomiga bog'langan gidrosil guruh o'ng tomonda joylashgan bo'lsa bunday monosaxiridlarni D qatorga, gidrosil chap tomonda tursa L qatorga kiritdi. Masalan:




Hozirgi vaqtida M.A.Rozanovaning taklifi bilan optik faol moddalarning konfiguratsiyasini aniqlash uchun dastlabki modda sifatida glitserin aldegidning ikki antipodi qabul qilingan:



Hamma monosaxiridlarni glitserin aldegiddan kelib chiqadi deb, quyidagicha yozish mumkin:





D-monosaxarid





L-monosaxarid

**3. Siklo-okso-tuatomeriya.** Ma'lumki, glukoza ikki xil tautomeriya shaklda: ochiq zanjirli aldegid (okso) va yopiq zanjirli siklik ( $\delta$ -oksid) shaklda mavjud. Eritmada bu ikki shakl muvozanat holatida bo'ladi. Monosaxaridlarni turli siklik tautomer shakllarda bo'lishi, quyidagi 2 omilga bog'liq: a) monosaxarid tuzilishiing siklik shakli olti yoki besh a'zoli halqadan iborat. Glukoza uchun quyidagicha siklik tuzilish formulalarini yozish mumkin:




Glukozada gidropiran halqasi bor. Shuning uchun olti a'zoli halqadan iborat monosaxaridlar piranozalar, I formula bilan ifodalangan glukoza esa glukopiranoza deyiladi. Besh a'zoli siklik halqadan tuzilgan monosaxaridlar molekulasida tetragidrofuran halqasi bo'lganligi uchun furanozalar, II tuzilishga ega bo'lgan glukoza esa glukofuranoza deyiladi. Besh a'zoli siklik halqadan iborat bo'lgan fruktoza fruktufuranoza deyiladi. Fruktozaning besh a'zoli halqadan va glukozaning olti a'zoli halqadan iborat shakllari ancha barqaror bo'lib, qattiq holatda ular ana shunday shaklda bo'ladi. Glukozaning besh a'zoli halqasi beqaror, ular erkin holda

ajratib olinmagan. Siklik tuzilishli piranozalar tarkibiga kiruvchi glukozid gidroksili fazoda joylanishiga qarab  $\alpha$  yoki  $\beta$  izomerlari olingan. Monosaxaridlarda bunday shakllarning mavjudligini glu-koza misolida ko'rish mumkin. Glukozaning yangi tayyorlangan eritmasini solishtirma buruvchanligi  $[d]_D^{20} + 113^\circ$  ga teng, birozdan keyin uning solishtirma buruvchanligi asta kamayib boradi va nihoyat  $[d]_D^{20} + 52,5^\circ$  ga yetgandan keyin o'zgarmaydi. Buning sababi, eritmada glukoza ochiq zanjirli aldegid formada bo'lib, so'ngra qaytadan glukozaning siklik tuzilishidagi  $\alpha$ - va  $\beta$ -D-shakllari hosil bo'ladi ( $\alpha$ -D-glukoza —  $[d]_D^{20} + 113^\circ$ ;  $\beta$ -D-glukoza  $[d]_D^{20} + 19^\circ$ ). Vaqt o'tishi bilan ( $\alpha$ -D-glukoza molekula sonlari kamayadi;  $\beta$ -D-glukoza molekulasining soni ko'payadi, natijada eritma solishtirma buruvchanligi muvozanat holatga keladi. Bunday hodisa **mutarotatsiya** deb ataladi. Demak, glukoza eritmada vaqt o'tishi bilan kamroq solishtirma buruvchanlikka ega bo'lgan boshqa izomerga aylanadi. Tekshirishlar D-glukozaning ya'ni ikki xil stereoizomeri borligini ko'rsatadi. Bu izomerlar  $\alpha$ -D-glukoza (I) va  $\beta$ -D-glukozadir (II):




Yuqoridagi formulalardan ko'rinish turibdiki, D glukoza molekulasidagi glukozid gidroksilining holati siklik shakl hosil qilishda ishtirok etayotgan gidroksil holati bilan bir xil bo'lsa, bunday shakl  $\alpha$ -izomer, aksincha bo'lsa,  $\beta$ -izomer deyiladi. D-glukozaning bu ikki shakli eritmada osonlik bilan bir-biriga o'tib turadi. Masalan,  $\beta$ -glukoza yangi tayyorlangan eritmasining solishtirma buruvchanligi  $[\alpha]+19^\circ$  ga teng bo'lib, uning qiymati

+52,5°ga yetguncha o'zgarib boradi. Shunday qilib, solishtirma buruvchanligi +52,5°ga teng bo'lgan eritmada α va β shakllar muvozanatda bo'ladi. Kristallanish sharoitiga qarab bu D-glukozaning har ikkala α- va β-shakli toza holatda ajratib olingan hamda ularning bir nechta hosilalari sintez qilingan bo'lib, ular o'z xossalari bilan bir-biridan farq qiladi. Masalan: α-metil D-glukozid (I)da β-metil D-glukozid (II):




α-metil D-glukozid 166 °C da  
eriydi,  $[\alpha]_D +158^\circ$




β-metil-D-glukozid 105 °C da  
eriydi,  $[\alpha]_D -34^\circ$

Glukozaning α- va β-shakllarining tartibini kimyoviy reaksiyalar orqali ham aniqlash mumkin. α-D-glukoza xuddi etilen-glikol va boshqa ko'p atomli spirtlar kabi borat kislota bilan reaksiyaga kirishib, siklik birikma hosil qiladi. β-D-glukoza esa borat kislota bilan reaksiyaga kirishmaydi. Demak, α-D-glukozada gidroksili bilan birinchi uglerod atomidagi holati bir tekislikdadir, β-D-glukozada esa aksincha. D-glukozaning α- va β-izomerlarini U.Xeuorsning quyidagi formulalari bilan ifodalash mumkin:





α-D-glukopiranoya



β-D-glukopiranoya

Piranozalarda olti a'zoli halqa — gidropiran halqasi bo'lganligi uchun ularda siklogeksan kabi konformatsiya bo'lishi mumkin. Glukoza uchun quyidagi kreslo shaklidagi konformatsiyani yozish mumkin:




Ma'lumki, molekula tarkibidagi katta funksional guruhlar iloji boricha ekvatorial holatda joylashgan konformatsiyaga intiladi, chunki bunday holat energetik jihatdan qulay bo'ladi. Shuning uchun yuqorida yozilgan konformatsiya qulay va barqaror bo'lib, real mavjuddir. Konformatsiyada katta guruhlar aksial holatda joylashgan bo'lsa, ularning o'zaro itarilish kuchi ta'sirida bu guruhlar faqat ko'proq bo'sh joy olishga, ya'ni ekvatorial holatga o'tishga intiladi.

Monosaxaridlarning konformatsiyasini kimyoviy tajriba yo'li bilan ham aniqlash mumkin. Bunda ularni mis birikmalari bilan saxaratlar hosil qilishdan foydalanaladi. Agar qo'shni uglerod atomidagi gidroksil guruhlar bir tekislikda yotsa, bunday piranozalar mis ionlari bilan siklik birikma hosil qiladi. Qo'shni uglerod atomalaridagi hidrokil guruhlar turli tekislikda joylashganda esa piranoza-

lar mis birikmalari bilan reaksiyaga kirishmaydi. Shu asosda monosaxarid molekulasidagi uglerod atomlariga bog'langan gidroksil guruhlarning nisbiy joylanishini yoki konformatsiyasini aniqlash mumkin. Hozirgi vaqtda monosaxaridlarning konformatsiyasini aniqlashda yangi fizik usullar, masalan, PMR-spektroskopiyasi (protonomagnit-rezonans) keng qo'llanilmoqda.


## MONOSAXARIDLARNING OLINISH USULLARI

Monosaxaridlar tabiatda erkin holatda va birikmalar holida uchraydi. Glukoza va fruktoza monosaxaridlarning hayot uchun eng ahamiyatlari vakillaridan bo'lib, ular uzum va shirin mevalar tarkibida ko'p miqdorda bo'ladi. Biroq, monosaxaridlarning ko'pgina qismi polisaxaridlar tarkibiga kiradi. Shu bilan bir qatorda monosaxaridlar manbayi sifatida ko'pgina glukozidlar, oshlovchi moddalar ham ishlatiladi. Polisaxaridlar, glukozidlar va oshlovchi moddalar kislotalar yoki enzimlar ishtirokida gidrolizlanganda monosaxaridlar hosil bo'ladi. Sanoatda glukoza, asosan, kartoshka yoki arpa kraxmalini mineral kislotalar ishtirokida gidrolizlash yo'li bilan olinadi:




Hozirgi vaqtda polisaxaridlarni sintez qilishning bir qancha usullari mavjud:


1. Shakarsimon moddalarni birinchi marta A.M. Butlerov 1861-yilda chumoli aldegiddan sintez qilgan. Bu reaksiya bir necha bosqichda boradi. Dastlab ikki molekula chumoli aldegid kalsiy gidroksid ishtirokida aldol kondensatlanganda glikol aldegid hosil bo'ladi:



Glikol aldegid yana bir molekula chumoli aldegid bilan reaksiyasi natijasida glitserin aldegid hosil qiladi:




Xuddi shu tarzda 4, 5 va 6 molekula chumoli aldegidni reaksiysi yoki ikki molekula glitserin aldegidning kondensatlanishidan geksozalar hosil bo'ladi:




Lekin bu reaksiya bir necha bosqichda va turli yo'nalishda borgan uchun monosaxaridlarning murakkab aralashmasi hosil bo'ladi.


2. Ko'p atomli spirtlarni ohista oksidlab ham olinadi. Masalan, olti atomli spirtni oksidlash natijasida glukoza olish mumkin:



3. Molekulasida uglerod atomi ko'p bo'lgan monosaxaridlar uglerod atomlari soni kam bo'lgan aldozalardan vodorod sianidi ta'sirida olinishi mumkin. Bunda aldopentozadan oksinitril olinadi va uni gidrolizlab oksikislotaga aylantiriladi:



Oksikislota esa laktonga aylanitiralidi va natriy amalgamasi ta'sirida qaytaralganda, aldogeksoza hosil bo'ladi:




### *Bilasizmi?*

- Yiliga dunyo bo'yicha fotosintez jarayoni natijasida 100 mlrd tonnaga yaqin  $\text{CO}_2$  sarflanadi, atmosferaga esa 145 mlrd tonna erkin kislorod ajralib chiqadi.
- A.M. Butlerov birinchi bo'lib oddiy uglevodni chumoli aldegiddan sintez qilgan (1861).


## MONOSAXARIDLARNING FIZIK VA KIMYOVIY XOSSALARI

Monosaxaridlar kristall moddalar bo'lib, suvdagi eritmasi shirin mazaga ega.

1. Monosaxaridlar oson oksidlanadi. Ular ishqoriy yoki neytral muhitda sekin oksidlantirilganda faqat aldegid guruh oksidlanib, oksikislota hosil bo'ladi:




Aldozalar kuchli oksidlovchilar ta'sirida oksidlangunda ikki asosli oksikislotalar hosil bo'ladi:




Monosaxaridlar aldegidlar kabi «kumush ko'zgu» va Feling suyuqligi bilan sifat reaksiyalarini beradi.


2. Monosaxaridlar qaytarilganda ko'p atomli spirit hosil qiladi:




3. Monosaxaridlar fenilgidrazin bilan reaksiyaga kirishib, kristall moddalar — ozazonlar hosil qiladi. Bu jarayon bir necha bosqichda boradi; dastlabki fenilgidrazin monosaxaridning aldegid guruhiga ta'sir etib, suvda eruvchan fenilgidrazonga aylanadi:



Fenilgidrazon o'z navbatida iminoketon va analinga parchalanadi:



Iminoketon ikki molekula fenilgidrazin bilan reaksiyaga kiri-shishi natijasida ammiak hamda suv ajralib chiqadi va nihoyat, ozazon hosil bo'ladi:




Bu reaksiyada fenilgidrazin qoldig'i asosan monosaxaridlarni birinchi va ikkinchi uglerod atomlariga birikadi, natijada D-glukoza, D-mannoza va D-fruktozalarni uchinchli, to'rtinchli va beshinchli uglerod atomlaridagi atom va atomlar guruhi fazoda bir xilligicha qoladi. Shuning uchun D-glukoza, D-mannoza va D-fruktozalardan bir xil ozazon hosil bo'ladi.

4. Monosaxaridlar ko'p atomli spirit bo'lgani uchun ular mis (II)-gidroksidning havorang cho'kmasini eritib ko'k rangli


eritma hosil qiladi. Monosaxaridlar tarkibidagi hidroksil guruhning vodorodi kislota qoldiqlari bilan almashinib, murakkab efirlar hosil qiladi. Masalan, glukoza bilan esa, asosan, monofosfat efir hosil qiladi. Monosaxaridlarning fosfat efirlari ularning bijg'ish va fotosintez jarayonida oraliq mahsulot sifatida katta rol o'ynaydi.

5. Suyultirilgan ishqorlar ta'sirida glukoza qisman o'z epimerlari, ya'ni D-mannoza va D-fruktozaga o'tadi. Konsentrangan ishqor eritmasi ta'sirida monosaxaridlar parchalanadi. Glukoza suyultirilgan ishqorlar eritmasida qaynatilganda, asosan, sut kislota hosil bo'ladi:




Epimerlar hosil bo'lishining asosiy sababi glukozaga ishqor ta'sir ettirilganda enol hosil bo'ladi. U glukoza, fruktoza va mannoza uchun umumiy oraliq mahsulot hisoblanadi.

6. Monosaxaridlar, jumladan, pentoza va geksozalar suyultirilgan mineral kislotalari ta'sirida turli moddalar hosil qiladi. Bu reaksiyalardan geksozalarni va pentozalarni aniqlashda foydalaniadi. Pentozalar suyultirilgan kislota ta'sirida 3 molekula svuni ajratib chiqarib furfurolga aylanadi:




Geksozalar esa hosil bo'lgan beqaror furfurol hosilasining parchalanishi natijasida levulin va chumoli kislotani hosil qiladi:



7. Monosaxaridlarning eng muhim kimyoviy xossalardan biri ularning mikroorganizm chiqaradigan fermentlar ta'sirida bijg'ishiadir. Hosil bo'ladigan mahsulotlarning nomiga qarab monosaxaridlarning bijg'ishi bir necha turga bo'linadi:

a) **spiritli bijg'ish.** Bunday bijg'ish bilan biz etil spiritni olish usullarini o'rganganda tanishib chiqqan edik;


b) **sut kislotali bijg'ish.** Bunday bijg'ish glukozaning sut achituvchi bakteriyalarning fermentlari ishtirokida sodir bo'ladi:



d) **moy kislotali bijg'ish:**



e) **limon kislotali bijg'ish:**




Bijg'ish jarayoni sanoatda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa spiritli bijg'ish jarayoni texnikada spirit olishda keng qo'llaniladi.

## AYRIM VAKILLARI


**Pentozalar.**  $C_5H_{10}O_5$  tabiatda, asosan, birikma holda polisaxarid pentozanlar ( $C_5H_8O_4$ )<sub>n</sub> hamda o'simlik va daraxt yelimi tarkibida bo'ladi. Pentozanlar esa yog'ochda (10—15%), xashakda va urug'lar qobig'ida ko'p bo'ladi. Pentozalar asosan pentozanlarni suyultirilgan mineral kislotalar ishtirokida gidroliz qilib olinadi. Pentozalar monosaxaridlar uchun xos bo'lgan barcha reaksiyalarga kirishadi. Lekin pentozalarning geksozalardan farqi shuki, ular mikroorganizmlar ta'siriga ancha chidamli, bijg'imaydi. Pentozalar uchun yana bir xarakterli reaksiya ular mineral kislotalar ta'sirida furfurolga aylanadi.

L-arabinoza pentozalarning eng muhim vakilidir.


L-arabinoza gummiarabik yoki olcha yelimi tarkibiga kiradi va ularni kislotalar ishtirokida gidroliz qilib olinadi. U shirin ta'mli, 160 °C da suyuqlanadi. L-arabinoza barcha monosaxaridlar kabi eritmada 2 xil shaklda — ochiq va siklik muvozanatda bo'ladi:



D-riboza 2-arabinozaning epimeri bo'lib, u ribonuklein kislotalarning asosini tashkil etadi. Eritmada D-riboza asosan furanoza shaklida bo'ladi:




D-(+)-ksiloza (yog'och shakari) bug'doy somoni yoki kunga-boqar sheluxasini suyultirilgan kislotalar ishtirokida qaynatish, ya'ni tarkibidagi pentozanlar (ksilanlar)ning gidrolizlanishi natijasida hosil qilinadi:




Tabiiy D(+) -ksiloza kristall modda bo'lib, uning suyuqlanish temperaturasi 143 °C.

D-ksiloza va D-ribozalar kuchli oksidlovchilar ta'sirida shiddatli




oksidlanib, optik faol bo'lmanan trioksiglutar kislotalarga aylanadi:

Bu kislotalar uchta asimmetrik uglerod atomiga ega bo'lsa ham molekuladagi ichki kompensatsiya hisobiga ular qutblanish tekisligini burmaydi. Aksincha, D-arabinozaning oksidlanishi natijasida hosil bo'lgan trioksiglutar kislota optik faoldir, chunki uning molekulasi nosimetrikdir:




**Geksozalar.** Geksozalardan eng muhimlari: D-glukoza, D-mannoza, D-galaktoza va D-fruktozalar bilan tanishib chiqamiz. D-glukoza (uzum shakari):




D-glukoza tabiatda keng tarqalgan bo‘lib, erkin holda daraxt mevalarida, uzumda, asalda, odam va hayvonlar organizmida uchraydi. Masalan, odam qoni tarkibida hamma vaqt 0,08–0,11% gacha glukoza bo‘ladi. Qand kasaliga uchragan odam qonida va siydigida glukoza miqdori normadan oshib ketadi. Glukoza birikma holida ko‘p tabiiy polisaxaridlar: saxaroza, sut shakari (laktoza), kraxmal, selluloza va hokazolar tarkibida bo‘ladi. Sanoatda glukoza, asosan, kraxmalni mineral kislotalar ishtirokida gidroliz qilib olinadi. Toza glukoza suvda bir molekula suv bilan kristallanadi. Suvsiz glukoza ( $\alpha$ -shakl) 146 °C da suyuqlanadi. Yangi tayyorlangan  $\alpha$ -glukoza eritmasining solishtirma buruvchanligi  $[\alpha]_D +113^\circ$  ga teng bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan solishtirma buruvchanlik o‘zgaradi va nihoyat,  $[\alpha]_D +52,5^\circ$  ga yetganda o‘zgarmay qoladi (mutarotatsiya).

D-mannoza ham eritmada ikki xil tautomer shaklda muvozanatda bo‘ladi:




Mannoza tabiatda polisaxarid mannonlar holida uchraydi. Mannonlar, asosan, yong‘oq po‘chog‘ida va ayrim palmalarining mevasi tarkibida bo‘ladi. Yangi tayyorlangan D-mannoza eritmasi qutblanish tekisligini chapga buradi, vaqt o‘tishi bilan o‘zgarmas musbat solishtirma buruvchanlik  $[\alpha]_D +14^\circ 25$  ga ega bo‘ladi.

D-mannoza qaytarilganda D-mannit, oksidlanganda dastlab D-mannon kislota, so'ngra D-mannoshakar kislota hosil bo'ladi:




D-mannit shirin ta'mli kristall modda ( $165-166^{\circ}\text{C}$  da suyuqlanadi) bo'lib, ko'pgina o'simliklar tarkibida uchraydi.




D-galaktoza glukozaning tabiatda keng tarqalgan fazoviy izomeridir. U, asosan, birikma holida sut shakari tarkibida bo'ladi. Sut shakarining gidrolizlanishi natijasida D-glukoza bilan birga D-galaktoza hosil bo'ladi. D-galaktoza yaxshi kristallangani uchun bu aralashmadan osongina ajratib olinadi. Galaktoza ba'zi o'simlik polisaxaridlarini, shuningdek, ayrim glukozidlarni gidrolizlab olinadi. Toza tabiiy D-galaktoza kristall modda ( $165^{\circ}\text{C}$  da suyuqlanadi) bo'lib, suvda yaxshi eriydi.

U mutarotatsiya hodisasiiga uchraydi, mutarotatsiya tugagandan keyingi solishtirma buruvchanligi  $[\alpha]_D +81^{\circ}$ ga teng. D-galaktoza qaytarilganda olti atomli spirit — dulsit, oksidlanishi natijasida suvdan yomon eriydigan, optik faol bo'lмаган, shilliq kislota hosil bo'ladi:




D-fruktoza yoki meva shakari quyidagicha tuzilishga ega:




U shirin mevalar, qamish shakari (saxaroza) va asal tarkibida glukoza bilan birgalikda uchraydi. Fruktoza tabiiy polisaxarid-inulin tarkibiga ham kiradi. Uni asosan gidrolizlab olinadi.

D-fruktoza odatdagagi sharoitda  $2C_6H_{12}O_6 \cdot 1/2H_2O$  tarkibli kristall hosil qiladi va 102—104 °C da suyuqlanadi. U shakardan ancha shirin bo'lib, mutarotatsiya hodisasiga uchragach, qutblanish tekisligini chapga buradi. D-fruktoza va D-glukoza bilan fenilgidrazin bir xil ozazon hosil qiladi. Bu D-fruktozadagi asimetrik atomlari konfiguratsiyasi bilan D-glukoza asimetrik uglerod atomlari konfiguratsiyasini bir xil ekanligini, aldegid yoki keto-guruohni bor-yo'qligi bilan bir-biridan farq qilishini ko'rsatadi:




**Askorbin kislota.** Askorbin kislota tabiatda keng tarqalgan bo'lib, inson va hayvonlar organizmi uchun juda zarur moddalar (vitamin C) hisoblanadi. Organizmda askorbin kislota yetishmasa kishi singa kasali bilan og'riydi. Vitamin C barcha mevalarda, sabzavotlarda, limon, apelsin va na'mataklarda bo'ladi. Odam organizmi uchun bir sutkada 50 mg va undan ortiq askorbin kislota kerak.



Askorbin kislotaning tuzilishini 1933-yilda E.L.Xerst aniqlagan:



Vitamin C ning eng muhim kimyoviy xossalardan biri uning kuchli qaytaruvchanligidir. U oksidlangan degidroaskorbin (lakton 2,3-diketogulon) kislotaga o'tadi va bu kislota yana tezda qaytaralib, askorbin kislota hosil bo'ladi:



Hozirgi vaqtida askorbin kislota sanoatda D-glukozadan ko'plab miqdorda quyidagi sxema bo'yicha sintez qilinadi:




**Glikozidlar.** Monosaxarid tarkibidagi glikozid hidroksilining vodorodi radikal bilan almashinishi natijasida hosil bo'lgan moddalar glikozidlar deb ataladi. Glikozidlar hayvonot, ayniqsa, o'simlik dunyosida keng tarqalgan bo'lib, fiziologik faol moddalardir. Tabiiy glikozidlar kislotalar yoki enzimlar ta'sirida hidrolizlanganda monosaxarid hamda uglevod bo'limgan birikma qoldig'i -- aglukonga parchalanadi.


Tabiiy glikozidlar tarkibidagi aglukonlarning tabiatiga qarab bir necha guruhga bo'linadi. Masalan, fenolglikozidlar, antroxinon, flavon, antosian, sterin, sianofor glikozid va hokazo. Sianofor glikozidlar o'zida azot atomini saqllovchi glikozidlar bo'lib, ular hidrolizlanganda sianid kislota ajralib chiqadi. Bu guruhi glikozidlarga amigdalin va trunazinlar misol bo'la oladi.

Amigdalın  $C_{20}H_{27}O_{11}N \cdot H_2O$  ko'pgina o'simliklar tarkibida, masalan, achchiq bodomda (2,5–3,5%), olcha (0,8%), shaftoli (2–3%), olxo'ri, o'rik danaklarida (1–1,8%) bo'ladi. Tabiiy (ajratib olingan) suvsiz amigdalın 215°da suyuqlanadigan achchiq bodom mazali kristall modda. Qutblanish tekisligini chapga buradi  $[\alpha]_D^{20} - 40^\circ$ .

Amigdalın kislotalar ta'sirida gidrolizlanganda ikki molekula glukoza, benzoy aldegid vodorod sianidga parchalanadi:



Demak, amigdalın molekulasi quyidagicha tuzilishga ega:



## OLIGOSAXARIDLAR

O'simliklar va hayvonot olamida o'z xossalari bilan monosaxaridlardan xossalariiga o'xshash shakarsimon moddalar — oligosaxaridlardan ham ko'p tarqalgan. Oligosaxaridlardan hidrolizlanib monosaxaridlarga parchalanadi. Ularni ikki yoki bir necha monosaxarid molekulalarida suv ajralib chiqishi natijasida hosil bo'lgan monosaxaridlardan angidridlari deb qarash mumkin. Molekulasi oltitagacha monosaxarid qoldig'idan tashkil topgan uglevodolar oligosaxaridlardan jumlasida hidrolizlanganda hosil bo'lgan monosaxaridlardan molekulalasining soniga qarab oligosaxaridlari di-, tri-, tetra-, penta- va geksacaxaridlarga bo'linadi. Bularidan eng oddiy hamda ahamiyatlisi disaxaridlardir.

**Disaxaridlardan** suvda yaxshi eriydi, shirin ta'mga ega. Ularning ko'pchiligi yaxshi kristallanadi va aniq molekular massaga ega. Tabiatda keng tarqalgan saxaroza (qamish yoki lavlagi shakari), maltoza (solod shakari), sellobioza va lakoza (sut shakari)lar disaxaridlarga misol bo'ladi. Bu disaxaridlarning hammasi  $C_{12}H_{22}O_{11}$  umumiy formula bilan ifodalananadi. Disaxaridlardan hidrolizlanganda bir xil yoki ikki xilmonosaxarid molekulasi hosil bo'lishi


mumkin. Masalan, saxaroza gidrolizlanganda D-glukoza, D-fruktoza, maltoza gidrolizlanganda esa ikki molekula D-glukoza hosil bo'ladi. Disaxaridlar hosil bo'lishida doimo birinchi monosaxarid o'zining yarim asetal gidroksili bilan qatnashadi, ikkinchi monosaxarid molekulasi ham yarim asetal gidrosili yoki qolgan gidroksillari bilan qatnashadi.

Ikkala molekula monosaxaridlarni yarim asetal gidroksidlar ishtirok etishi natijasida hosil bo'lgan disaxaridlar glukozid-glukozid (tregaloza) guruhiga kiruvchi disaxaridlar bo'lib, ularning molekulasida karbonil guruhga oson o'ta oladigan guruh yo'q. Bunday disaxaridlar qaytaruvchi xossaga, ya'ni aldegidlarga xos reaksiyalarni bermaydi. Ular oksim va gidrazonlar hosil qilmaydi. Shuning uchun ham bunday disaxaridlar qaytarmaydigan disaxaridlar deb ataladi. Bunday disaxaridlarga saxaroza va tregaloza misol bo'ladi.


Agar disaxaridlar molekulاسini hosil bo'lishida bitta molekula monosaxaridning yarim asetal gidroksili, ikkinchi monosaxarid molekulасining spirit gidroksili qatnashsa, bunday saxaridlar qaytaruvchi (yoki glukozid—glukoza) disaxaridlar deyiladi. Ular Feling suyuqligini oson qaytarib, fenilgidrazon va oksimlar hosil qiladi. Demak, ular molekulasida aldegid holatga oson o'ta oladigan guruh bor. Maltoza, laktoza va sellobioza shu guruh disaxaridlariга kiradi. Quyida biz eng muhim disaxaridlarning ayrim vakillari bilan tanishib chiqamiz.

**Saxaroza.** Qamish shakari yoki lavlagi shakari deb ataladigan saxaroza o'simliklar dunyosida juda ko'p tarqalgan. U qand lavlagida 16—20%ni va shakar qamishda 14—20% ni tashkil etadi. Bundan tashqari u palma daraxtida (palma shirasi) va makkajo'xori tarkibida ham ko'p miqdorda uchraydi. Saxaroza eng zarur ozuqa bo'lib, inson hayotida katta ahamiyatga ega. Bu odatdagи keng qo'llaniladigan shakardir.


Saxaroza rangsiz kristall modda, uning suyuqlanish temperaturasi 160 °C. Suyuqlantirilgan saxaroza amorf massa — karamel holida qotadi. Yuqorida ko'rGANIMIZDEK, bu disaxarid gidrolizlanganida D-glukoza va D-fruktoza hosil bo'ladi:



Saxaroza qaytarmaydigan disaxaridlarga kiradi. U Feling suyuqligini qaytarmaydi va fenilgidrazin hamda fenilgidrazon hosil qilmaydi. Demak, saxaroza molekulasida osonlikcha karbonil guruhga o'tadigan yarim asetal gidroksil guruh yo'q. Saxaroza molekulasining hosil bo'lishida D-glukoza molekulasi bilan D-fruktoza molekulalari tarkibidagi yarim asetal gidroksillaridan suv ajralib chiqadi, ya'ni glukozid—glukozid bog' hosil bo'ladi:




Saxarozaning U. Xeuors bo'yicha tuzilish formulasi quyida-gicha ifodalanadi:




Saxaroza eritmasi qutblanish tekisligini o'ngga buradi. Uning suvdagi eritmasining solishtirma buruvchanligi  $[\alpha]_D^{20} + 66,5^\circ$  ga teng. Ma'lumki, saxaroza gidrolizlanganda teng miqdorda D-glukoza va D-fruktoza hosil bo'ladi.

D-fruktoza qutblanish tekisligini chapga kuchliroq buradi,  $[\alpha]_D^{20} - 92^\circ$ , glukoza esa o'ngga buradi,  $[\alpha]_D^{20} + 52,5^\circ$ . Shuning uchun ekvimolekular miqdordagi glukoza va fruktoza aralashmasi qutblanish tekisligini chapga buradi. Demak, saxarozaning gidrolizlanishida qutblanish tekisligining yo'nalishi o'zgaradi va bunday o'zgarish saxarozaning inversiyasi deyiladi. Qamish shakarining gidrolizi (inversiyasi) natijasida hosil bo'lgan teng miqdordagi glukoza va fruktozalar inversiyalangan shakar deyiladi. Asal tabiiy inversiyalangan shakarga misol bo'la oladi, chunki uning asosiy tarkibi teng miqdordagi glukoza bilan fruktozadan iborat.

**Maltoza (solod shakari).** Kraxmalga solod tarkibidagi diastaz ta'sir ettirilganda maltoza hosil bo'ladi. Shuning uchun ham maltoza solod shakari deb yuritiladi. Maltoza gidrolizlanganda ikki molekula glukozaga parchalanadi. U qaytaruvchi disaxaridlar guruhiiga kiradi, chunki Feling suyuqligini qaytaradi, natijada fenilgidrazin bilan fenilgidrazon hosil bo'ladi. Bu hol maltoza moleklasida osonlikcha aldegid guruhiга o'ta oladigan guruh borligini, ya'ni maltoza molekulasida bitta erkin yarim asetal gidroksil (glukozid gidroksili) borligini ko'rsatadi:




Demak, maltoza molekulasini hosil bo'lishida glukozaning birinchi molekulasidagi yarim asetal gidroksil bilan ikkinchi molekulasidagi spirit xarakteridagi gidroksil ishtirot etadi. Uning Xeuors bo'yicha tuzilish formulasi quyidagicha ifodalanadi:




Maltozaning suvdagi eritmasi qutblanish tekisligini o‘ngga buradi. Uning shirinligi qandga nisbatan 40% cha kam. Maltoza vino va pivo ishlab chiqarish sanoatida oraliq mahsulot hisoblanadi.

**Laktoza (sut shakari).** Laktoza sut tarkibida (sigir sutida — 4—5,5%, ona sutida 5,5—8,4%) bo‘ladi, shuning uchun u sut shakari deb ham ataladi. Laktoza gidrolizlanganda glukoza va uning izomeri — galaktoza hosil bo‘ladi:




Laktoza qaytaruvchi disaxaridlarga kiradi, ya’ni uning molekulasida erkin yarim asetal gidroksil guruhi bor. Uning U.Xeuors bo‘yicha tuzilish formulasi quyidagicha:



Laktozaning tuzilish formulasidan ko‘rinib turibdiki, uning molekulasida galaktoza molekulasiagi yarim asetal gidroksil bilan glukoza molekulasiagi spirit gidroksilidan suv ajralib chiqishi natijasida hosil bo‘ladi. Laktoza eritmasi qutblanish tekisligini o‘ngga buradi. Uning solishtirma buruvchanligi  $[\alpha]_D^{20} + 52,5^\circ$ . Sut shakari tibbiyotda katta ahamiyatga ega. U yosh bolalar uchun asosiy oziq modda hisoblanadi.

**Sellobioza.** Uning tuzilishi maltozaga o‘xshash bo‘lib, faqat farqi shundaki, maltozada birinchi qoldiq  $\alpha$ -D-glukoza qoldig‘i bo‘lsa, sellobiozada esa  $\beta$ -D-glukoza qoldig‘idir. Bunday  $\beta$ -anomerga ega disaxaridlar ferment emulsiya ta’sirida monosaxaridlarga parchalanadi:



4-( $\beta$ -D-glukopiranozil)-D-glukoza

## POLISAXARIDLAR (POLIOZLAR)

Polisaxaridlар табиий юқори молекулар мoddalar bo‘lib, табиатда жуда ко‘п тарқалган hamda инсон va hayvonlar hayotida muhim rol o‘ynaydi. Masalan, улардан бiri — kraxmal asosiy oziq modda, boshqalari — selluloza o‘simlik organizmi uchun nihoyatda muhim moddadir. Polisaxaridlар yuzlab va minglab monosaxaridlар qoldiq-laridan tashkil topgan bo‘lib, ular kislotalar yoki enzimlar ta’sirida gidrolizlanganda monosaxaridlар hosil bo‘lsa, bunday polisaxaridlар gomopolisaxaridlар deyiladi. Ularga kraxmal va sellulozalar misol bo‘ladi. Gidrolizlanganda har xil monosaxaridlар hosil bo‘lsa, bunday polisaxaridlар getero-saxaridlар deb ataladi. Gemiselluloza geteropolisaxaridlар jumlasiga kiradi.


Polisaxaridlар o‘ziga xos xossalarga ega bo‘lib, mono- va oligo-saxaridlarning xossalardan farq qiladi. Ularning ko‘philigi suvda erimaydi, ба’зили issiq suvda bo‘kib kolloid eritmalar hosil qiladi. Улар ширин та’mга ega bo‘lmagan amorf moddalardir. Ularning molekular massasi 20 000—1 000 000 oralig‘ida.

Quyida biz polisaxaridlarning eng asosiy vakillari bilan tanishib chiqamiz.

**Kraxmal.** Kraxmal ( $C_6H_{10}O_5$ ) $n$  табиий полимер modda bo‘lib, asosiy oziq modda sifatida o‘simliklar tarkibida uchraydi. У kartoshka tuganaklarida 20 % ga yaqin, bug‘doyda 70% gacha, guruchda 80% ga yaqin kraxmal bor.

Kraxmal suvda erimaydigan oq kukun modda, uni suvgaga solib ivitilsa kolloid eritma — kleyster hosil bo'jadi. Kraxmal yod ta'sirida ko'k rangga kiradi. U qaytaruvchi xossasiga ega emas, ya'ni Feling suyuqligini qaytarmaydi.

Kraxmal mineral kislotalar ishtirokida qizdirilganda uning katta molekulalari suvda eriydigan kichikroq molekulali ( $C_6H_{10}O_5$ )<sub>n</sub> dekstrinlarga parchalanadi. Kraxmal enzimlar, ya'ni solod tarkibidagi diastaza va so'lakdag'i ptalin fermentlari ta'sirida ham parchalanib dekstrinlar hosil qiladi. Ammo shu bilan kraxmalni gidrolizi bo'lmaydi. Dekstrinlar o'z navbatida gidrolizlanib maltozaga, maltoza molekulasi esa ikki molekula D-glukozaga parchalanadi. Kraxmalning asta gidrolizlanib, glukoza hosil qilish jarayonini quyidagi sxema bilan ifodalash mumkin:



Kraxmalning bunday kislotali va fermentativ gidrolizini 1814-yilda rus olimi K.S.Kirxof kashf etgan.

Kraxmal murakkab tuzilishiga ega bo'lib, u o'z navbatida ikki moddadang — amiloza va amilopektindan iborat. Kraxmalda amiloza 20—30% ni, amilopektin esa 70—80% ni tashkil etadi.

**Amiloza.** Amiloza molekulasi 180—950 glukoza qoldiqlaridan tashkil topgan uglevod bo'lib, ular chiziqli tuzilishga ega. Uning molekular massasi 32 000—160 000 oralig'ida bo'jadi. Amiloza issiq suvda eriydi, ammo uning eritmasi beqaror, chunki vaqt o'tishi bilan eritmada amiloza cho'kmasi hosil bo'jadi. Amiloza yod bilan ko'k rang beradi.

**Amilopektin.** Amilopektin molekulalari amiloza molekulalari kabi glukoza qoldiqlaridan iborat bo'lib, ular tarmoqlangan tuzilishga ega. Amiloza uglevod bo'lsa, amilopektin biror uglevodning fosfat kislotali efiridir. Amilopektin molekulasida glukoza qoldiqlari ning soni amilozaga qaraganda ko'p. Shuning uchun ham uning molekular massasi amilozaning molekular massasidan ancha katta. Molekular massasi 1 000 000 bo'lgan amilopektin ma'lum. Amilopektin suvda erimaydi, bo'kib kleyster hosil qiladi. Yod bilan qizg'ish binafsha rang beradi.


*Glikogen yoki hayvon kraxmali* ( $C_6H_{10}O_5$ )<sub>n</sub>. Glikogen oziq modda zaxirasi sifatida hayvonlar organizmida muhim rol o'ynaydi. Jigarda glikogen 20 % gacha bo'ladi. U oq amorf modda bo'lib, issiq suvda eriydi. Hosil bo'lgan modda — kalloid eritma ozroq tuz ta'sirida kaogulatsiyalanadi. Glikogen eritmasi qutblanish tekisligini o'ngga buradi, uning solishtirma buruchanligi  $[\alpha]_D + 196^0$  ga teng; ba'zi fermentlar va kislotalar ta'sirida gidrolizga uchrab maltoza hosil qiladi.

*Inulin* ( $C_6H_{10}O_5$ )<sub>n</sub>. Inulin kraxmal kabi o'simliklarning zaxira oziq moddasi hisoblanadi. Lekin u o'simliklar dunyosida kraxmal kabi ko'p tarqalgan emas. U ba'zi o'simliklarning ildiz qismida ko'p bo'ladi. Inulin glikagen kabi suvda yaxshi eriydi va kalloid eritma hosil qiladi. Yod ta'sirida rangi o'zgarmaydi. Inulin kislotalar yoki enzimlar ta'sirida to'liq gidrolizga uchratilsa, D-fruktoza hosil bo'ladi.

*Selluloza* ( $C_6N_{10}O_5$ )<sub>n</sub>. Selluloza ham tabiiy yuqori molekular polisaxarid bo'lib, barcha o'simliklar tarkibiga kiradi va ularda ho'jayra qobiqlarini hosil qiladi. Uning nomi «sellula» — hujayra ana shundan kelib chiqqan. Selluloza odatda o'simliklarda gemiselluzalalignin va pektin moddalar bilan birga bo'ladi. Eng toza tabiiy paxta tolasi tarkibida 92–96 % gacha, yog'och tarkibida esa 40–60 % gacha selluloza bo'ladi. Eng toza selluloza paxtadan olinadi. Buning uchun paxta 1% li NaOH eritmasi bilan bir necha bor ishlanib, 99,85% li toza selluloza olinadi. Toza selluloza qog'oz ishlab chiqarishda ko'p ishlatiladi. Bu maqsadlarda ishlatiladigan sellulozalar, asosan, archa yog'ochidan olinadi. Sellulozani yog'ochdan olishning bir necha usullari mavjud bo'lib, bulardan sulfit usuli keng tarqalgandir. Bu usulda selluloza ishlab chiqarish uchun yog'och qi piqlari kalsiy bisulfit  $Ca(HSO_3)_2$  eritmasi bilan yuqori bosim ostida katta avto-klavlarda qaynatiladi. Bunda yog'och parchalanib, qisman eritmaga o'tadi va eritma tarkibidagi selluloza tolasimon massaga aylanadi. Qaynash jarayoni tugagach, massa suzgichdan — tubi teshik rezervuarlardan, ya'ni elakdan o'tkaziladi. Suzgichda selluloza eritmadan ajratiladi va bir necha bor suv bilan yuviladi. ajratib olingan selluloza presslanadi, quritiladi, so'ngra qog'oz ishlab chiqarish uchun fabrikalarga jo'natiladi.

Selluloza bilan kraxmal o'z tarkibiga ko'ra bir xil molekular formula ( $C_6H_{10}O_5$ )<sub>n</sub> ga ega. Ammo bu birikmalar o'z xossalari

jihatidan bir-biridan tamoman farq qiladi. Buning sababi kraxmal molekulalari chiziqsimon (amiloza) hamda tarmoqlangan (amilopektin) strukturaga ega. Selluloza molekulalari chiziqsimon tuzilgan. Bundan tashqari kraxmal tarkibiga kiruvchi chiziqli tuzilishga ega bo‘lgan amiloza makromolekulalari  $\alpha$ -glukoza qoldiqlaridan tuzilgan. Selluloza molekulalari esa  $\beta$ -glukoza molekulasining qoldig‘idan tashkil topgan. Shunday qilib, sellulozada glukoza qoldiqlari  $\beta$ -1,4 glukozid bog‘ hosil qiladi:




Sellulozaning paxta, zig‘ir va kanop kabi materiallarni hosil qilishining sababi, uning chiziqli tuzilishidir. Selluloza molekulasida glukoza qoldiqlarining soni o‘rtacha 120–3 000 bo‘lib, molekular massasi 21 000–520 000 ga teng.

Sellulozadagi xar bir glukoza qoldig‘ida uchtadan erkin gidroksil guruh bo‘ladi.

Selluloza mazasiz, hidsiz, tolasimon oq modda. Suvda, efirda va spirtda erimaydi. U Shveysar reaktivi  $[Cu(NH_3)_4(OH)_2]$ da va boshqa ba’zi konsentrangan kislotalarda eriydi.

Selluloza kislotalarda eritilganda qisman gidrolizlanadi. Bunda bosqichli gidroliz borib oxirida glukoza hosil bo‘ladi:






Sanoatda sellulozani (yog‘ochdan olingan) gidrolizlash va hosil bo‘lgan glukozani bijg‘itish yo‘li bilan etil spirt olinadi. Selluloza kislotalarga nisbatan ishqorlar ta’siriga eng chidamlidir. U ishqor bilan  $[(C_6H_9O_4)ONa]_n$  tarkibli birikma – selluloza alkogolyatini hosil qiladi. Hosil bo‘lgan birikmani ishqordan tozalash maqsadida spirt bilan yuviladi. Selluloza alkolyatli suv ta’sirida osongina parchalanib, selluloza gidratni hosil qiladi.

Sellulozaning tuzilish formulasidan ko‘rinib turibdiki, uning har bir  $C_6H_{10}O_5$  zvenosida uchta gidroksil guruh bor. Ana shu gidroksil guruhlar hisobiga selluloza bir qator oddiy va murakkab

efirlar hosil qiladi. Sellulozaning bunday hosilalaridan nitrat, sirka va ksantogen kislota efirlari katta ahamiyatga ega.

Sellulozaning nitrat efirlar sellulozaga nitrat va sulfat kislota aralashmasini ta'sir ettirib olinadi. Reaksiya uchun olingan kislotalarning miqdori va boshqa sharoitlarga qarab selluloza molekulasining har bir zvenosidagi bitta, ikkita va uchta gidroksil guruhning hammasi eterifikatsiya reaksiyasiga kirishadi.




mono- va dinitrosellulozalar aralashmasi kolloksilin deb ataladi.

Uning spirt va efir aralashmasidan tayyorlangan eritmasi tibbiyotda kollodiy nomi bilan ishlatiladi. Kolloksilinga kamfora va spirt aralashtirilib, plastik massa – selluloid hosil qilinadi. Selluloid-dan kinolentalar, tez quriydigan, arzon va mustahkam emal ishlab chiqarishda foydalaniлади. Ammo selluloid yonuvchan modda bo'lgani uchun hozirgi vaqtda uning o'rniiga yangi – yonmaydigan plast-massalar ishlatilmoqda.


Trinitroselluloza piroksilin nomi bilan tutunsiz porox ishlab chiqarishda ishlatiladi.

Selluloza sirka kislota bilan bir qator murakkab efirlar, ya'ni mono-, di- va triasetilsellulozalar hosil qiladi. Bular orasida di- va triasetilsellulozalar sun'iy ipak – asetat ipagi olish uchun ishlatiladi:



Asetat ipak olish uchun bu asetilsellulozalar asetonda eritiladi va hosil bo'lgan eritma issiq fileralar (kichik teshikchalari bor metall qalpoqchalar) dan bosim ostida o'tkazilsa, aseton uchib ketib, sun'iy ipak tolasi hosil bo'ladi. Plastifikator qo'shilgan selluloza asetatlari plastmassalar ishlab chiqarishda ishlatiladi.

Sellulozaning yana bir hosilasi selluloza ksantogenati viskoza ipagi olishda katta ahamiyatga ega. Sellulozaning ishqor bilan ishlanishi natijasida hosil bo'lgan selluloza alkogolyatiga uglerod sulfid ta'sir ettirilganda selluloza ksantogenati hosil bo'ladi:



selluloza ksantogenati

Selluloza ksantogenati suyultirilgan ishqorda yaxshi eriydi. Bu eritma viskoza eritmasi deyiladi. Viskoza eritmasi fileralardan o'tkazilib sulfat kislotali vannaga tushirilsa, viskoza ipagi hosil bo'ladi. Viskoza eritmasidan hosil qilingan pylonka sellofan deb ataladi.


Selluloza murakkab efirlardan tashqari oddiy efirlar ham hosil qiladi. sellulozaning ishqordagi eritmasiga dialkilsulfat yoki galoidalkil ta'sir ettirilsa, sellulozaning oddiy efirlari hosil bo'ladi. Sellulozaning oddiy efirlaridan trimetilselluloza, trietilselluloza to'qimachilik va bo'yoychilik sanoatida keng ishlatijadidi:



*Gemiselluloza.* O'simliklarning xo'jayra tarkibida selluloza bilan bir qatorda gemisellulozalar ham bo'lib, ular suyultirilgan ishqorlarda yaxshi eriydi. Gemisellulozaning molekular massasi ( $\approx 30\ 000$ ) sellulozaning molekular massasidan kichik.


Gemiselluloza geteropolyar polisaxarid tipiga kiradi. Chunki uning makromolekulasi turli xil mannozalardan tuzilgan, asosan pentozalardan D- ksiloza, D- arabinoza hamda geksozalardan D- mannoza va D- glukozalardan tuzilgan. Gemiselluloza gidrolizlanganda ana shu mannozalarga parchalanadi.

*Pektin moddalar* ayrim o'simliklar: olma, nok, limon, zemlyanika mevalarida hamda sabzi va lavlagida ko'p bo'ladi. Tarkibida shakar bo'lgan meva sharbatlari qaynatilib, so'ngra sovitilsa, jelatinaga o'xshash modda hosil bo'ladi. Pektin moddalar ham selluloza kabi yuqori molekular polisaxaridlardir. Ularning makromolekulalari galaturon kislota qoldiqlaridan tashkil topgan bo'lib, ular (galakturon kislota qoldiqlari) xuddi selluloza molekulasidagi glukoza qoldiqlari kabi birikkan:



Pektin moddalarning molekular massasi 20 000–200 000 оралиг‘идадир.


*Xitin* selluloza tipidagi yuqori molekular gomopolisaxarid. У qisqichbaqasimon suv hayvonlarining mustahkam ustki qavati (qalqon)ning asosiy qismini tashkil etadi. Xitin suvda va boshqa organik erituvchilarda erimaydi. Ishqorlar ta’siriga chidamli. Xitin molekulasi N- asetilglukozaamin qoldiqlaridan tashkil topgan:



Xitin kislotalar ta’sirida gidrolizlanib, glukozaaminga va sırka kislotaga parchalanadi.

### *Savol va mashqlar*

1. Qanday birikmalarga uglevodlar (karbonsuvlari) deyiladi va nima uchun ular shunday nomlanadi?
2. Uglevodlar qaysi xususiyatlarga qarab, necha guruhga bo’linadi?
3. Rus olimi A.A. Kolli glukoza molekulasida beshta hidroksil va aldegid guruhlari borligini qanday aniqlagan?
4. Uglevodlarda qanday guruh «Kumush ko’zgu» reaksiyasini beradi va uni misol yozib ko’rsating.
5. Mutarotsiya hodisasi nima? Uni uglevodlar misolida bayon eting.
6. Glukoza ko’p atomli spirtlarga o’xshab, qaysi metal hidroksidlari bilan reaksiyaga kirishadi, reaksiya tenglamalarini yozing.
7. Qanday eritma qizdirilganda avval sariq, so’ngra qizil cho’kma paydo bo’ladi. Bu eritmada qanday uglevod bor va unga tegishli reaksiyalarni tenglamalarini yozing.
8. Monosaxaridlarni bijg’ishini bilasizmi? Necha xil bijg’ish usullari bor va ularni har biriga reaksiya tenglamalarini yozing.
9. Quyidagi o’zgarishlarni amalga oshirish reaksiya tenglamalarini yozing:





10. Riboza, glukoza va fruktozalarni ochiq va yopiq zanjirli tuzilish formulalarini yozing.
11. Glukozaning qaytarilish va aksidlanish reaksiya tenglamalarini yozing, natijada qanday moddalar hosil bo'ladi?
12. Disaxarid deganda siz qanday barikmalarni tushunasiz va ular tabiatda necha xil bo'ladi?
13. Polisaxaridlardan kraxmal va sellulozaning tabiatda tarqalishini hamda ularning xalq xo'jaligida ishlatalishi haqida gapirib bering.
14. Kraxmal va sellulozaning umumiy formulasini bir xil, ularning kimyoviy tuzilish formulasida nima bilan farqlanadilar?
15. Yog'ochdan, yog'och qipig'idan, g'o' zapoyadan metanol va etanol-larni olinish usullari, boshqa usullardan nima bilan farqlanadi?
16. Sellulozadan sun'iy ipak – «asetat ipagi»ning olinish tenglamalarini yozing.
17. Tabiiy tolalarni sun'iy tolalardan qanday belgilari, xususiyatlari bilan farqlanishini so'zlab bering.
18. Glukoza, saxaroza, kraxmal va sellulozaning xalq xo'jaligining qaysi tarmoqlarida ishlatalishini gapiring.
19. Tarkibida 20% kraxmal bo'lgan 1 t kartoshkadan qancha glukoza olish mumkin?
20. 5 mol miqdordagi glukoza spirtli bijg'ishi natijasida necha hajm (n.sh. da) uglerod (IV)-oksiidi hosil bo'ladi?
21. Tabiatda uglevodlar fotosintez jarayoni natijasida hosil bo'ladi? Buni mohiyatini tushuntiring.
22. Selluloza qanday moddalarda eriydi? Amilloid nima?

XIX bob


### AMINOKISLOTALAR VA OQSIL MODDALAR

**Tayanch iboralar:** aminokislotalar,  $\alpha$ ,  $\beta$ ,  $\gamma$ - amino kislotalar, peptid; peptid bog'; oqsil, bipolyar ion; kompleks tuzlar; dezaminlash va dekarboksillash reaksiyalari; organik amfoter moddalar; Merifild reaksiyasi, oqsillarning birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi va to'rtlamchi strukturasi; proteidlar.


Molekulasida amino  $-\text{NH}_2$  va karboksil  $-\text{COOH}$  guruhlari bor organik birikmalarga **aminokislotalar** deyiladi. Ular quyidagi umumiy formulalarga ega:



Aminokislotalar —NH<sub>2</sub> va —COOH guruhlarning soniga qarab ikkiga bo'linadi: 1) molekulasida ikkita —NH<sub>2</sub> va bitta —COOH guruhlari bo'lgan aminokislotalar diaminokislotalar deyiladi:




2) molekulasida ikkita —COOH va bitta —NH<sub>2</sub> guruhlari bo'lsa, ikki asosli aminokislotalar deyiladi:




Aminokislotalar juda muhim ahamiyatga ega, ular hayot uchun zarur bo'lgan oqsil moddalarning asosini tashkil etadi.


*Nomenklaturasi.* Aminokislotalar kelib chiqish turiga ko'ra alohida nomlarga ega. Masalan,  $\alpha$ - aminosirka kislota yoki (grekcha glyukos – shirin so'zidan olingan) glitsin deb ataladi:



Ratsional nomenklaturaga ko'ra, aminokislotaning nomi kislota nomiga amino NH<sub>2</sub> guruhini ko'rsatuvchi amino so'zini qo'shib o'qish bilan hosil qilinadi:




$\alpha$ -aminopropion kislota




$\beta$ -aminopropion kislota

Cistematishtan nomanklaturaga ko'ra, kislota molekulasining aminoguruh saqlagan CH – guruhiga amino so'zini qo'shib o'qib, uglerod atomlari sonlar bilan ko'rsatiladi:





2-aminopropan kislota





2-amino-2-metilpropan kislota


*Izomeriyasi.* Aminokislarning izomeriyasi, birinchidan funksional guruhlarning bir-biriga nisbatan joylashgan holatiga va ularning tarmoqlangan yoki tarmoqlanmaganligiga bog'liq:



Ikkinchidan, molekulada amino  $-\text{NH}_2$  guruhning karboksil  $-\text{COOH}$  guruhga nisbatan joylashishiga bog'liq:



Uchinchidan, aminokislolar molekulasidagi asimmetrik uglerod atomi hisobiga ko'zgu (optik) izomeriyaga ega. Masalan,  $\alpha$ -aminopropion kislota (alanin) d- va l- shakllarda bo'lib, l- shakli tabiatda keng tarqalgan:



### *AMINOKISLOLAR LARNING TABIATDA UCHRASHI VA OLISHI*


Aminokislolar tabiatda hayvon va o'simlik organizmlaridagi oqsillarning asosiy tarkibini tashkil etadi va shuning uchun oqsillarni kislotali muhitda gidroliz qilib aminokislolar olinadi.

Oqsillarning asosiy manbalari go'sht, teri, jelatina, jun, soch tolasi, kazein va boshqalar hisoblanadi. Shu bilan birga aminokislotalar sof va peptidlar holida ham uchraydi.


Oqsil moddalarni gidroliz qilib, 20 dan ortiq aminokislotalar ajratib olingan (17- jadval).

Oqsillar tarkibida aminokislotalar bilan birga kam uchraydigan quyidagi aminokislotalar ham olingan:


1. 5-oksilizin:



2. Desmozin:



3. Izodesmozin:




Yuqoridagi oqsillar tarkibidagi aminokislotalardan tashqari yana 150 dan ortiq aminokislotalar ajratib olingan. Ular oqsillar tarkibiga kirmaydi. Quyida shularni ba'zilaridan misol keltaramiz:

1.  $\beta$ - alanin:  $\text{NH}_2-\text{CH}_2-\text{CH}_2-\text{COOH}$


2.  $\gamma$ - aminomoy kislota:  $\text{NH}_2-\text{CH}_2-\text{CH}_2-\text{CH}_2-\text{COOH}$

Nº	Nomi	Formulasi	Qisqartirilgan belgisi	Suyuqlanish temperaturasi, C°
1.	Glitsin	$\text{NH}_2-\text{CH}_2-\text{COOH}$	Gli.	292
2.	Alanin	$\begin{matrix} \text{CH}_3-\text{CH}-\text{COOH} \\   \\ \text{NH}_2 \end{matrix}$	Ala.	297
3.	Valin	$\begin{matrix} \text{CH}_3-\text{CH}-\text{CH}-\text{COOH} \\   \\ \text{CH}_3 \quad \text{NH}_2 \end{matrix}$	Val.	315
4.	Leysin	$\begin{matrix} \text{CH}_3-\text{CH}-\text{CH}_2-\text{CH}-\text{COOH} \\   \\ \text{CH}_3 \quad \text{NH}_2 \end{matrix}$	Ley.	337
5.	Izoleysin	$\begin{matrix} \text{CH}_3-\text{CH}_2-\text{CH}-\text{CH}-\text{COOH} \\   \\ \text{CH}_3 \quad \text{NH}_2 \end{matrix}$	Iley.	284
6.	Asparagin kislota	$\text{HOOC}-\text{CH}_2-\text{CH}-\text{COOH}$ $\quad\quad\quad $ $\quad\quad\quad\text{NH}_2$	Asp.	270
7.	Glutamin kislota	$\text{HOOC}-\text{CH}_2-\text{CH}_2-\text{CH}-\text{COOH}$ $\quad\quad\quad $ $\quad\quad\quad\text{NH}_2$	Glu.	249
8.	Ornitin	$\begin{matrix} \text{CH}_2-(\text{CH}_2)_2-\text{CH}-\text{COOH} \\   \\ \text{NH}_2 \quad \text{NH}_2 \end{matrix}$	Ori.	140
9.	Lizin	$\text{NH}_2-\text{CH}_2-\text{CH}_2-\text{CH}_2-\text{CH}_2-\text{CH}-\text{COOH}$ $\quad\quad\quad\quad\quad $ $\quad\quad\quad\quad\quad\text{NH}_2$	Liz.	224
10.	Serin	$\text{HOCH}_2-\text{CH}-\text{COOH}$ $\quad\quad\quad $ $\quad\quad\quad\text{NH}_2$	Ser.	228
11.	Treonin	$\begin{matrix} \text{CH}_3-\text{CH}-\text{CH}-\text{COOH} \\   \\ \text{OH} \quad \text{NH}_2 \end{matrix}$	Tre.	253
12.	Sistein	$\text{HS}-\text{CH}_2-\text{CH}-\text{COOH}$ $\quad\quad\quad $ $\quad\quad\quad\text{NH}_2$	Sis.-n	178


Nº	Nomi	Formulasi	Qisqartirilgan belgisi	Suyuqlanish temperaturasi, C°
13.	Sistin	$\text{S}-\text{CH}_2-\text{CH}(\text{NH}_2)\text{COOH}$   $\text{S}-\text{CH}_2-\text{CH}(\text{NH}_2)\text{COOH}$	Sis.	260
14.	Metionin	$\text{CH}_3-\text{S}-\text{CH}_2-\text{CH}_2-\underset{\text{NH}_2}{\text{CH}}-\text{COOH}$	Met.	283
15.	Fenilalanin		Fen.	275
16.	Tirozin		Tir.	344
17.	Trifofan		Tri.	382
18.	Prolin		Pro.	299
19.	Oksi prolin		Pro-OH	270
20.	Gistidin		Gis.	277
21.	Arginin		Arg.	238




4. 3,5- diyodtirozin:



5. 3- metilgistidin



7.  $\gamma$ - metilenglutamin kislota:





Aminokislotalarni aniqlashda, ularni har xil kation (kumush, mis, qo'rg'oshin, rux, kobalt va boshqa)lar bilan ichki kompleks tuzlar hosil qilish xususiyatidan foydalaniladi. Aminokislotalarni ningidrin reaksiysi, eng oz miqdordagi aminokislotalar ham ko'k yoki binafsha rang hosil qilishi bilan aniqlanadi.


Aminokislotalar gidrofil moddalar bo'lganligi uchun organik erituvchilarda kam eriydi. Bu xususiyatdan foydalanib ularni qog'oz xromatografiyası yoki yupqa qavatlari xromatografiya yordamida ajratish mumkin. Organik kislotalar orasida faqatgina aminokislotalar amfoter xossaga ega, chunki aminoguruh hisobiga asoslik, karboksil guruh hisobiga kislotalik xususiyatiga ega bo'ladi. Bu xossalardan foydalanib, ularni har xil hosilalari (murakkab efirlar, amidlar, xlorangidridlar, tuzlar)ni hosil qilish bilan ajratiladi va taqqoslanadi.

### ***AMINOKISLOTALARNING OLINISH USULLARI***



1. *Aldegid va ketonlardan olish.* Aldegidlar va ketonlarning sianid kislota bilan aralashmasiga ammiak ta'sir ettirib tegishli aminonitril olinadi, so'ngra gidrolizlanganda  $\alpha$ - aminokislota hosil bo'ladi:




2. Galogenli kislotalardan olish. Bu usul bilan galoidli kislotalarga ammiak ta'sir ettirilsa, aminokislotalar hosil bo'ladi:



3. Nitrokislotalar va oksimlarni qaytarish usulida olish:



4. Aldegid va ketokislotalarni ammiak ishtirokida katalitik qaytarish usuli bilan olish:




### FIZIK VA KIMYOVII XOSSALARI

Aminokislotalardan  $\alpha$ - aminokislotalar ahamiyatli bo'lganligi uchun asosan  $\alpha$ - aminokislotalar ustida to'xtalib o'tamiz.

$\alpha$ - aminokislotalar rangsiz kristall moddalar. Ko'pchiligi suvda yaxshi eriydi; aminokislotalar ko'pincha shirin ta'mga ega, lekin noxush ta'mli va achchiq ta'mli aminokislotalar ham bor.

$\alpha$ - aminokislotalar parchalanish bilan eriydi. Erish temperaturalari bir-biriga yaqin. Shu sababli erish temperaturasi orqali ularni identifikasiya qilib bo'lmaydi. Aminokislotalarni xromatografiya qog'ozlarida Rf (taqsimlanish koeffitsiyentlarini) aniqlash orqali identifikasiya qilish mumkin.

$\alpha$ - aminokislotalar bir vaqtning o'zida asosli amino va kislotali karboksil guruhlarga ega. Shu sababli ham asoslar, ham kislotalar bilan reaksiyaga kirishib tuzlar hosil qiladi, ya'ni amfoter xususiyatga ega bo'lgan birikmalardir:




Monoamino kislotalarning suvli eritmalari deyarli neytral muhitga ega ( $\text{pH} = 6,8$ ).


Bir qator faktlar aminokislotalarning ichki tuz hosil qilganligidan dalolat beradi. Masalan, yog' qatori kislotalarda ham dissotsilanadigan karboksil guruh IQ- spektrda ( $1650 \text{ cm}^{-1}$ ) chiziq hosil qiladi. Amino guruh esa  $3320-3380 \text{ cm}^{-1}$  intensiv chiziqlar hosil qiladi. Aminokislotalarda bunday chiziqlar yo'q.

Agar aminokislotalarda ishqoriy muhitda IQ- spektri olinsa aminoguruh chiziqlari, kislotali muhitda esa karboksil guruh chiziqlari hosil bo'ladi.

Keltirilgan faktlarga asoslanib, aminokislotalarda ozod holda amino va karboksil guruhlar yo'q, degan xulosaga kelish mumkin. Ular ichki tuz hosil qiladi; bunda karboksil guruh azotning amoniysi atomi bilan ion holatida bog'langan:



Suvli sharoitda esa ular bipolyar ionlar hosil qiladi:



Elektr toki ta'sirida muhitning pH ga bog'liq ravishda ular katodga yoki anodga tomon yo'nalishi mumkin. Ana shu jarayonni xromatografiya qog'ozlarida amalga oshirilishiga elektroforez deyiladi. Bu usul aminokislotalarni identifikasiya qilish uchun qo'llaniladi.


Molekulasining tuzilishiga qarab, aminokislotalar asosli yoki kislotali xususiyatlarni namoyon etishi mumkin. Shu sababli ularning suvli eritmalarini pH = 7 dan farqlanadi. Aminokislotalarni titrlanganda pH ning qiymati NH<sub>2</sub> va -COOH guruh soniga tengligini ko'rsatadi. Demak, bipolyar ionlar uchun elektroforez sharoitida ionlarning siljishi kuzatilmaydi. pH ning bunday qiymati izoelektrik nuqta deyiladi.

Aminokislotalarning erish temperaturasining yuqoriligi, suvda yaxshi eruvchanligi va qutbsiz erituvchilarda yomon erishi ularning ichki tuz hosil qilganligidandir. Oqsil tarkibiga kirgan aminokislotalar asosan L- qatorga kiradi. D- qatorga kirgan aminokislotalar juda kam uchraydi va ba'zan antibiotiklar tarkibiga kiradi, masalan, gramitsidin-C.

L- aminokislotalar shirin ta'mga ega. D- qatorga kirgan aminokislotalar achchiq yoki ta'msiz bo'ladi. Ularning fiziologik ta'sirlari ham turlicha.


D- aminokislotalar tirik organizmda o'zlashtirilmaydi. Sintetik usulda olingan aminokislotalar rasemat holatda bo'lib, ularni optik antipodlarga ajratish uchun kimyoviy, mikrobiologik, fermentativ usullardan foydalanish mumkin.

1. Aminokislotalardan nitrit kislota ta'sirida azot va suv ajralib chiqadi:




Bu reaksiya yordamida aminokislotalar va oqsil moddalardagi aminoguruahlarni miqdor analiz qilish mumkin.


2. Aminokislotalarga formaldegid ta'sirida (eritma pH = 9) birlamchi aminoguruhlар bilan asos xarakteriga ega bo'lgan N-metilen hosilaari olinadi. Bunday birikmalar faqat kislota xususiyatiga ega, karboksil guruhni esa oddiy titrlash usuli bilan miqdor analiz qilish mumkin:



3. Aminokislotalarning ningidrin bilan reaksiyasi.  $\alpha$ - aminokislotalar ningidrin bilan qo'shib qizdirilsa, ko'k-binafsha rang hosil bo'ladi. Ningidrin qog'oz xromatogrammasi va elektroforegrammlarni aniqlashda ishlatalidi:




4. Aminokislotalarning xelatlarini hosil bo'lishi. Aminokislotalar alifatik kislotalar singari asoslar bilan tuzlar hosil qiladi. Oddiy tuzlardan tashqari maxsus sharoitlarda og'ir metallar bilan ichki kompleks tuzlar hosil qiladi. Masalan, mis tuzlari barcha  $\alpha$ - aminokislotalar uchun xos bo'lgan ichki kompleks tuz yoki xelat hosil qiladi. Bunda mis faqat karboksil guruhi bilan emas, balki aminoguruhi bilan ham bog'langan:




Mis va azot orasidagi bog' koordinatsion bog' (faqat azotning erkin elektronlar jufti hisobiga hosil bo'ladi).

5. Dekarboksillash, dezaminlash, aminalmashtirish reaksiyalarini faqat  $\alpha$ - aminokislotalarga xos bo'lib, ular maxsus fermentlar ta'sirida, yumshoq sharoitda amalga oshadi.


a) *Dekarboksillash reaksiyasi*. Bu reaksiya natijasida  $\text{CO}_2$  ajralib chiqadi va  $\alpha$ - aminokislotalar aminlarga aylanadi:



b) *Dezaminlash reaksiyasi*. Bunda ammiak ajralib chiqadi va fermentativ oksidlanish natijasida ketokislotalar hosil bo'ladi:




d) *Aminalmashtirish reaksiyasi*:




6.  $\alpha$ -,  $\beta$ -,  $\gamma$ - aminokislotalarga temperaturaning ta'siri.

a)  $\alpha$ - aminokislotalar qizdirilganda osonlik bilan suv ajralib chiqadi va diketopiperazinlar hosil qiladi:




Diketopiperazinlar siklik oson kristallanuvchi moddalar.

b)  $\beta$ - aminokislotalar qizdirilganda to'yinmagan karbon kislotalar hosil bo'ladi va ammiak ajralib chiqadi:





d)  $\gamma$ - amino kislotalar bir molekula suv ajratib laktamlarsiklik amidlarni hosil qiladi:



### *AMINOKISLOTALARNING AYRIM VAKILLARI*


Glikokol grekcha «**likos**» – shirin, «**kolla**» – yelim yoki glitsin deb ataluvchi aminosirkha kislota  $\text{NH}_2-\text{CH}_2-\text{COOH}$  tuban hayvonlarning muskullarida uchraydi. Ipak oqsilini gidroliz qilib (36% gacha) olinadi. Gippur kislotani gidrolizlab ham olish mumkin:




*Alanin*  $\text{CH}_3-\text{CH}(\text{NH}_2)-\text{COOH}$   $\alpha$ - aminopropion kislotasi yoki 2- aminopropion kislota. Ipak fibrionini gidrolizlab olinadi.

Oqsil moddalar gidrolizlanganda ham kam miqdorda alanin olish mumkin.

*Valin* ( $\alpha$  - aminoizovalerian kislota) kazein, gemoglobin va albulin, oqsillar tarkibiga kiradi. Agar bunday mahsulotlar achisa valin izobutil spirtga aylanadi:




*Leysin* ( $\alpha$ - aminoizokapron kislota):



Uni qon gemoglobinini, kazein, tuxum albumininidan gidroliz yo'li bilan ajratish mumkin.

*Izoleysin* (2-amino-3) metilpentan kislota:




Oqsil moddalar gidrolizlanganda leysin bilan birgalikda ajraladi.

**E'tibor bering!** Hayvon va inson organizmida ba'zi  $\alpha$ - aminokislotalar sintez qilinmaydi. Ularning organizmdagi rolini boshqa aminokislotalar bajara olmaydi. Bularga valin, leysin, izoleysin, treonin, metoinin, lizin, fenilalanin va triptofanlar kiradi. Bu aminokislotalar inson organizmiga ovqat bilan birga kiradi.


### *IKKI ASOSLI MONOAMINOKISLOTALAR*

L(-)- *asparagin* va L(+)- *glutamin* kislotalarda ikkita karboksil guruh bor.

*Asparagin* ( $\alpha$ - aminoqahrabo) kislota:



*Glutamin* ( $\alpha$ - aminoglutar) kislota:




Tarkibida karboksil (COOH) guruhnning ikkita bo'lishi kislotali xossasi ancha kuchliligini ko'rsatadi. Shu bilan bir negizli aminokislotalardan farqlanadi. Ular ko'p miqdorda teri, qoplovchi oqsillarda va fibrinogenlarda uchraydi.


Shuningdek, 28% gacha asparagin yovvoyi no'xat maysasida bo'ladi. Asparagin va glutamin kislotalarning amidlari o'simliklarda azot almashinuvida muhim rol o'ynaydi.

### *BIR ASOSLI DIAMINOKISLOTALAR*

L(+)- lizin ( $\alpha$ ,  $\epsilon$ - diaminokapron kislota):




L (+)- arginin:




Ular ko'pgina oqsillar tarkibiga kiradi va kuchli asosli xusu-siyatga ega.

Oksiaminokislotalar: serin ( $\beta$ - oksialanin). Ipak oqsilida uchraydi. Treonin ( $\beta$ - oksi- $\alpha$  aminomoy kislota) dastlab g'oz patlaridan ajratilgan va ikkita asimmetrik markazga ega:



Oltингugurtli aminokislotalarga sistein ( $\beta$ - merkaptoalanin) oksidlanganda osonlik bilan sistinga aylanadi:




Sistining sisteinga qaytarilishi ham osonlik bilan amalga oshadi.


Sisteinning osonlik bilan oltингugurt ko'priklarini hosil qilishi oqsilning uchlasmchi stukturasiini hosil bo'lishida muhim rol o'yndaydi.

Sistin – jun, soch, shox, tirnoq tarkibida uchraydi.

$\epsilon$ - aminokapron kislota. Aminokislotalar ichida  $\alpha$ - aminokislotalar oqsil tarkibiga kirib, tirik organizmda muhim rol o'ynasa, sanoatda (aminoguruh uglevodorodning chetida joylashgan) muhim ahamiyatga ega. Ular asosida sintetik tola – kapron va enat olish mumkin. Kaprondan ishlangan buyumlar suv shimmaydi, tez chirimaydi.




Kapronni  $\epsilon$ - aminokapron kislotaning polikondensatlanish mahsuloti deb atash mumkin.



Aromatik aminokislotalar. L(-)- fenilalanin:





va L(-)- tirozin:





Ular deyarli hamma oqsillar tarkibida uchraydi.

## GETEROSIKLIK AMINOKISLOTALAR

Ular pirrolidinin hosilaari L(-)- prolin L(-)- oksiprolindir:



Indol hosilasi triptofan va imidazol hosilasi gistedindir:



Geterosiklik aminokislalar ko‘pchilik oqsillar tarkibiga kiradi.



## PEPTIDLAR VA OQSIL MODDALAR

Peptidlар deb, oqsillarnи asosini tashkil etuvchi, ikki yoki undan ortiq aminokislalarnи polikondensatlanishidan hosil bo‘lgan moddalarga aytildi. Ular ikki aminokislota qoldig‘idan tashkil topgan bo‘lsa — dipeptid, uchtdan — tripeptid, to’rtadan — tetrapeptid va hokazo deyiladi.

Har qanday peptidlarni molekulalari uzun zanjirdan tashkil topib, ikkita uchga ega, birinchi uchi amino guruh  $-\text{NH}_2$ , hisobiga azot bilan tugaydi, ikkinchi uchi esa karboksil guruh  $-\text{COOH}$  hisobiga uglerod  $-\text{C}$  bilan tugaydi.

Peptidlarning nomi ularni tashkil etgan aminokislatalarni nomidan kelib chiqib, aminoguruhdan boshlangan aminokislatalarning nomlaridan «in» qo'shimchasi o'rniغا «il» qo'shimchasi qo'shib o'qilib, hosil bo'lgan nomlarga oxirgi karboksil guruh bilan tamomlangan aminokislota nomini qo'shib o'qish bilan hosil bo'ladi.

Masalan:



Peptidlarning qo'shilishidan polipeptidlар, polipentidlardan peptonlar va peptonlardan oqsil moddalar hosil bo'ladi.

Demak, oqsillar  $\alpha$ - aminokislatalarning qoldiqlaridan tashkil topgan yuqori molekular murakkab organik birikmalardir.

*Tabiatda tarqalishi.* Oqsillar barcha o'simlik va hayvonlar organizmi uchun juda zarur moddalardan biridir. Oqsillar o'simlik protoplazmasining asosini tashkil etadi. Ular hayvonlarning qoni, suti, muskuli va tog'ayi tarkibida bo'lib muhim hayotiy rol o'yнaydi. Oqsillar soch, tirnoq, teri, pat, jun, ipak tarkibiga ham kiradi. Shuningdek, tuxumning asosiy qismini tashkil etadi.

Oqsil moddalarni o'simliklar tuproq tarkibidagi azot hisobiga, dukkancli o'simliklar havodagi azot hisobiga sintez qiladi.

Hayvonlar ayrim oqsillarning sintez qila olmaydi, ular o'simlik yoki boshqa hayvonlarni eyish bilan oqsillarni tayyor holda oladilar.

Organizm tarkibidagi oqsil organizmning yashash davrida uzlusiz ravishda oksidlanib hamda parchalanib turadi: shuning uchun ovqat tarkibida albatta oqsil bo'lishi kerak.

Ko'pgina oqsillar tarkibiga 4 ta element kiradi: uglerod, vodorod, kislorod, azot. Ba'zi oqsillar tarkibiga esa beshinchi element S – oltingugurt kiradi.

Oqsillarda elementlar miqdori doimiy bo'lmaydi. Uglerod 50–55%, vodorod 6,6–7,3%, azot 15–18%, kislorod 19–24%, oltingugurt 0,2–2,4% miqdorda saqlaydi.


Ayrim oqsillar fosfor, temir va yod elementlarini ham saqlaydi. Oqsillar katta molekular massaga ( $10^4$ – $10^7$ ) ega.

### *OQSILNING TARKIBI VA TUZILISHI*

Istalgan oqsilni gidroliz qilganda aminokislolar aralashmasini hosil bo'lishi va 20 ga yaqin aminokislarni deyarli barcha oqsil tarkibida uchrashi aniqlangan.

Aminokislolar qanday qilib oqsil molekulasiini hosil qiladi?

O'tgan asrning 80- yillarda rus biokimyogari A.Y. Danilovskiy oqsil molekulasida peptid guruhlar borligini aytgan. XX asrning boshlarida nemis olimi E. Fisher oqsillar uchun polipeptidlarnazariyasini taklif qildi. Bu nazariyaga ko'ra oqsillarning molekulalari peptid (amid) bog'lar bilan bog'langan aminokislota qoldiq-larining uzun zanjiridan iborat bo'lishi kerak:




—CO—NH — peptid bog'i deyiladi.

*Bilasizmi!?*


Birlamchi strukturasi birinchi bo'lib, aniqlangan oqsil — insulin hisoblanadi (1954). Insulin molekulasi ikki polipeptid zanjirdan iborat bo'lib, ularning birida 21 ta, ikkinchisida 30 ta aminokislata qoldig'i mavjud. Uning sintezini amalga oshirishda birinchi poleptid zanjirini hosil qilish uchun 89 ta reaksiya, ikkinchisi uchun 138 ta reaksiya o'tkazishga to'g'ri kelgan.

1960- yil Merifild (AQSH) polipeptidni sintez qilishning ilg'or usulini taklif etdi. Bu usul peptidlarni qattiq fazada sintezlash deyiladi. Bunda birinchi aminokislota amino  $-\text{NH}_2$  guruhi muhofazalangan holatda qattiq fazaga avvaldan  $-\text{CH}_2\text{Cl}$  bor bo'lgan ion o'rinni olish mumiga biriktiriladi (1- bosqich). Bunda «murakkab efir» bog'i hosil qilinadi:



va hokazo.

So'ngra mumdan tegishli reagent eritmalari o'tkazilib, peptid bog'lari ko'paytiriladi. Buning uchun  $\text{NH}_2$ - guruhi muhofazalovchi moddalar ajratiladi (2- bosqich). Mumdan boshqa  $\text{NH}_2$ - guruhi muhofazalangan aminokislota eritmasi suv tortuvchi moddalar bilan birgalikda o'tkaziladi (3- bosqich).  $\text{NH}_2$ - guruhi muhofazalovchi qavatdan tozalanadi (4- bosqich) va hokazo. Peptid bog' o'stirilgandan so'ng murakkab efir bog' gidrolizlanadi, so'ngra ajralgan polipeptid mumdan yuvib olinadi:




Merifild usuli jarayonlarni avtomatlashtirish imkonini beradi. Insulin (51 ta aminokislotalar), ribonukleaza (124 ta aminokislotalar) klassik usullari bilan sintez qilinadi. Masalan, 1968- yilda Merifild tomonidan sal kam bir oy ichida ribonukleaza sintez qilindi. Sintez ketma-ket joylashgan 369 ta aminokislotalarning reaksiyasini amalga oshirishni talab etadi.


## OQSIL MOLEKULASINING TUZILISHI

20 ga yaqin  $\alpha$  aminokislordan amalda son-sanoqsiz oqsillar hosil bo'lishi mumkin.

Polipeptid zanjirida aminokislota zvenolarining ketma-ket kelishi oqsil molekulasining birlamchi zvenosi deyiladi:




Mana shunday cho'ziq zanjirli oqsillar soni uncha ko'p emas (masalan, tabiiy ipak oqsili – fibroyi stukturasi). Fibroin molekulasining 50% ini glitsin aminokislotalar qoldig'i tashkil etadi. Qolgan ko'pchilik oqsillar spiral shaklda o'ralgan bo'ladi. Vodorod bog'lar tufayli hosil bo'ladigan polipeptid zanjirlarning fazoda joylashgan spiral konfiguratsiyasi oqsillarning ikkilamchi strukturasi deyiladi.



15- rasm. Oqsil molekulasining ikkilamchi strukturasi.

Polipeptid va oqsillarni  $\alpha$ -spiral tuzilishga ega bo'lishini L. Poling va Korilar isbotlab berdilar (15- rasm). Bunday struktura spiralni bir-biriga qo'shni o'ramlarda joylashgan —CO va NH guruhlar o'rtasida ko'p miqdordagi vodorod bog'lanishlar tufayli saqlanib qoladi. Polipeptid zanjirda spiral holatda o'ralgan aminokislota redikallari spiralning tashqi tomoniga yo'nalgan boladi. Bu esa uchlamchi strukturani hosil bo'lishi uchun ahamiyatli. Uchlamchi struktura polipeptid zanjiriga birikkan funksional guruhlarning o'zaro ta'siri natijasida saqlanib turadi. Masalan, karboksil —COOH guruhlar bilan amino —NH<sub>2</sub> guruhlar tuz ko'prigini, oltin-



16- rasm. Oqsil molekulasining: a — o'lchami. b — to'rtlamchi strukturasi.

gugurt atomlari disulfid ( $-S-S-$ ) ko'priklarni hosil qiladi. Gidroksil ( $-OH$ ) va karboksil ( $-COOH$ ) guruqlar murakkab efir ko'priklarini hosil qiladi. Demak, yuqoridagi kimyoviy bog'lar ishtirokida va har xil kuch ta'sirida spiral holidagi polipeptid zanjirlar fazoda ma'lum shaklni egallab, oqsilning uchlamchi strukturasini (16- rasm, a) hosil qiladi.

Uchlamchi strukturaning fazoda joylashuvi o'ziga xos biologik faoliytkni ifodalaydi.

Oqsillarda turli xil funksional guruqlar bo'lganligi sababli, ularning organik birikmalar sinflarning xossalari umumlashib, butunlay yangi sifatni paydo qiladi. To'rtlamchi tuzilishli oqsillar deb, bir nechta uchlamchi tuzilishga ega bo'lgan polipeptidlardan tashkil topgan birikmalarga aytildi (16- rasm, b). Molekuladagi hamma uchlamchi tuzilishli polipeptid zanjirlari birgalikda yagona oqsil moddaning xususiyatini aks ettiradi. Bunday to'rtlamchi tuzilishga ega bo'lgan oqsillarni oligomerlar deb ataladi. Oqsillar – organik birikmalar rivojlanishining oliy shaklidir.

### *OQSILLARNING SIFAT REAKSIYALARI*

Oqsillar uchun xos bo'lgan reaksiyalar quyidagilardir:

a) biuret reaksiyasi: ishqoriy muhitda mis sulfatning eritmasi binafsha rangga bo'yaladi. Biuret reaksiyasi  $-CO-NH$  bog'lar yoki peptid bog'lar uchun xos reaksiyadir. Masalan, dipeptid – ko'k, tripeptid binafsharang, yuqori peptidlar esa qizil rang beradi;

b) ksantoprotein reaksiyasi — kons.  $\text{HNO}_3$  kislota ta'sirida sariq rangga bo'yaladi, kons. (25%)  $\text{NH}_4\text{ON}$  ta'sirida esa sariq rang to'q sariq rangga o'tadi;

d) million reaksiyasi — oqsilni simob nitrat tuzining nitrat va nitrit kislotalardagi eritmasi bilan qizdirilganda qizil-qo'ng'ir cho'kma beradi, bu reaksiya tirozin va triptofanlar uchun xos;

e) ningidrin reaksiyasi — ningidrin eritmasi bilan qo'shib qizdirilsa ko'k bo'yalish beradi.

*Oqsillar va ularning tabiatdagi roli.* Oqsillar tarkibi va tuzilishiqa qarab oddiy va murakkab oqsillarga bo'linadi. Oddiy oqsillar gidrolizlanganda faqat  $\alpha$ - aminokislolar hosil bo'ladi, bunday oqsillarga proteinlar deyiladi.

Murakkab oqsillar proteinlari deyiladi. Ularning tarkibiga oqsil moddalardan tashqari uglevodlar, nuklein kislolar, fosfat kislota, yog'lar va boshqalar kiradi.

Oddiy oqsillar (proteinlarning) xossalariqa qarab bo'linadi:

1. **A l b u m i n l a r** — suvda eriydi. Qizdirilganda ivib qoladi, neytral. Asosan tuxum oqsilida, qon zardobida, mushak va sut oqsillarida uchraydi.

2. **G l o b u l i n l a r** — juda kuchsiz kislotalardir. Suvda erimaydi, kuchsiz konsentratsiyali tuzning suvdagi eritmasida yaxshi eriydi. Fibrinogen, qon zardobi globulini, mushak to'qimasi globulin, tuxum globulini kabi turlari mavjud.

3. **G i s t o n l a r** — asos xossasiga ega bo'lgan oqsillar. Ular nukleoproteidlari shaklida leykosidlarda va qizil qon tanachalarida uchraydi.

4. **P r o t a m i n l a r** — ancha kuchli asos xususiyatiga ega. Tuzlari kristall holatda bo'ladi. Ular nukleoproteidlari, baliqlar urug'ida uchraydi.

5. **P r o l a m i n l a r**. Turli g'alla-don o'simliklari tarkibida bo'ladi. 80 % li spirtda yaxshi eriydi. Bunday oqsillar jumlasiga gliadin kiradi. Gliadin bug'doy va suli donidan olinadigan yelimning asosini tashkil etadi. Yelim tarkibiga kiruvchi boshqa oqsillar spirtda erimaydi.

6. **S k l e r o p r o t e i n l a r**. Suvda erimaydigan oqsillar bo'lib, hayvonlar terisining tashqi qavatida va biriktiruvchi to'qimalarida uchraydi. Ularga keratin, kollogenlar, elastin, fibroinlar kiradi.

*Keratin.* Soch, shox, timoq, pat va ternerining tashqi qavati deyarli keratindan tashkil topgan. Tuxum po'sti va uning tagidagi parda ham keratin saqlaydi. Keratin tarkibida oltingugurt miqdori ko'p bo'ladi.

*Kollagenlar,* asosan, suyaklarni biriktiruvchi to'qimalarda mavjud bo'ladi. Umurtqali hayvonlarning suyagi anorganik moddalar, kalsiy tuzlari, yog' va kollagenden tashkil topgan. Suyak kollagenlari suvda qaynatilsa yelim hosil qiladi.

*Elastin.* Tomir va boshqa biriktiruvchi to'qimalar tarkibiga kiradi.

Ho'l ipakda fibroin oqsili va ipak yelimida esa seritsin oqsili bor.

### *PROTEIDLAR*

1. *Fosfoproteidlар* – tarkibida fosfor bo'ladigan oqsillaridir. Ular aniq kislotali xususiyatga ega. Asosiy vakili sut kazeinidir. Kazeinlarda kislota xususiyati shunchalik kuchli ifodalanganki, u karbonat kislota tuzlaridan CO<sub>2</sub> ajratib chiqaradi. Ishqorlar bilan tuz hosil qiladi. Kazein tuzlari kazeinatlar deyiladi.

Qizdirilganda kazein ivimaydi. Uning tuzlariga kislota ta'sir ettirilganda erkin holda kazein ajralib chiqadi. Sutga achitqi ta'sir ettirilsa kazein o'zgarib, erimaydigan parakazeinga aylnadi. Undan pishloq tayyorlanadi.

Tuxum sarig'ida uchraydigan vitellin fosfoproteid oqsilga kiradi.

2. *Nukleoproteidlар* hujayra yadrosida bo'lib, ohista gidrolizlanganda oqsil va nuklein kislotaga parchalanadi.

Nuklein kislota murakkab modda bo'lib, fosfat kislota, uglevodlar (pentoza), pirimidin va purin guruhiga kiruvchi azotli organik moddalarga parchalanadi.

3. *Xromoproteidlар.* Oqsillarga rangli moddalarning qo'shilishidan hosil bo'ladigan proteidlar xromoproteidlar deyiladi. Xromoproteidlar gemoglobin qizil qon tanachalarining bo'yoq, moddasidir. Gemoglobin kislород bilan birikib, oksigemoglobin hosil qiladi. Oksigemoglobin o'z kislородини boshqa moddalarga berib yana gemoglobiniga aylanadi. Gemoglobin bu xususiyati bilan organizmda oksidlanish jarayonini boshqarishga imkon beradi.

Gemoglobin qon plazmasi bilan birgalikda qonning pH miqdori, shuningdek karbonat angidridning organizmdagi harakatini tartibga soladi. Gemoglobin uglerod (II)- oksid bilan yaxshi birikadi, kislородни биректирив олиш хусусиятини esa yo'qotadi. Shuning uchun ham uglerod (II)- oksid zaharli hisoblanadi.

Gemoglobin oqsil modda – globin bilan bo'yovchi asos gemning birikmasidir. Organizmdan tashqarida gemoglobin havo kilorodi bilan birikib metgemoglabinga aylanadi. Metgemoglobin konsentr-langan muz sirkalari kislota ta'sirida gematinga  $C_{34}H_{32}O_4N_4Fe(OH)$  parchalanadi. Gematin NaCl bilan ishlansa gemitin  $C_{34}H_{32}O_4N_4FeCl$  hosil bo'ladi. Gemin qizil-qo'ng'ir rangli kristall.

4. **Glikoproteidlar.** Bu oqsillar oshqozon, jigar, ichak, so'lak bezlari ishlab chiqaradigan suyuqliklarda bo'ladi. Glikoproteidlar oqsillarning oligo yoki polisaxaridlar bilan hosil qilgan birikmasidir.

5. **Likoproteidlar.** Ular gidrolizlanganda oqsilga, yog'larga, letsitinlarga va boshqa fosfariatlarga parchalanadi.


### *OQSILLARNING XOSSALARI*

Oqsillar suvda yomon eriydigan yuqqori molekular moddalardir. Suvda eriydigan oqsillar kolloid eritmalar hosil qiladi. Oqsillar kuydirilganda ko'mirga aylanadi va yonayotgan junga o'xshash o'ziga xos hid chiqaradi.

Oqsillar ham aminokislotalar singari amfoterdir. Bunda molekuladagi—COOH karboksil va  $NH_2$ —aminoguruuhlarning ko'payib ketishiga qarab kislota yoki asos xususiyatini namoyon etadi.


*Oqsillarni cho'ktirish.* Kuchli kislota, ishqorlar va og'ir metallarning tuzlari ta'sirida qizdirish, qattiq chayqatish kabi omillar oqsil molekulasi konfiguratsiyasini buzishi mumkin. Bu jarayonni denaturalish deyiladi. Denaturalish natijasida oqsil molekula-sining ikkilamchi va uchlamchi struktur zvenosini ushlab turadigan vodorodli bog'lanish, tuz ko'prigi, oltingugurt disulfid ko'prigi, murakkab efir ko'priklarining uzilishiga olib keladi. Bunda molekula o'zining biologik ta'sirini yo'qotadi.

*Oqsillarning izoelektrik nuqtasi.* Oqsil moddalar molekulasi dagi




guruhning soniga qarab kislota yoki asos xusu-

siyatiga ega bo‘ladi, pH = 2,8—10,8 gacha o‘zgaradi. Izoelektrik nuqtada oqsillar bipolyar ion hosil qiladi va natijada, elektr maydonida katodga ham, anodga ham, siljimaydi:



### KISLOTALI VA FERMENTATIV GIDROLIZ


Oqsillar kislota yoki ferment ta’sirida qizdirilganda hidrolizlanadi. Misol tariqasida tripeptidning hidrolizini ko‘rib chiqaimyz.



Gidrolizlanish mahsuloti  $\alpha$ - aminokislotalardir,  $\alpha$ - aminokislotalar organizmda sintez bo‘ladigan oqsillar uchun zarur material bo‘lib xizmat qiladi. Bir kecha-kunduzda katta yoshli odam organizmida 400 g gacha oqsil moddalar yangilanadi. Odam organizmidagi oqsillarning parchalanishi uchun 80 kecha-kunduz kerak bo‘ladi. Bunda parchalanib hosil bo‘lgan aminokislotalarning to‘rtdan bir qismi tiklanmaydi. Undan aminokislotalar organizmga tayyor holda ozuqalar orqali kiradi. Shuning uchun oqsillar tarkibiga kiradigan aminokislotalar ikkiga bo‘linadi: 1. Sintez bo‘ladigan aminokislotalar — glitsin, alanin, glutamin kislota, aspargin kislota, serin, sistin, tirozin, prolin, oksiprolin, sistein, arginin. 2. Sintez bo‘lmaydigan aminokislotalar — valin, leysin, izoleysin, treonin, metionin, feniladanin, triptofan, lizin, gistidin. Organizmda sintez bo‘lmaydigan aminokislotalarni tayyor holda ozuqalar orqali organizmga kiritish uchun, neft tarkibilagi uglevodorodlarni biologik usul bilan shu aminokislotalarni saqlaydigan ozuqa moddalarga aylantirilmoqda.

## *Savol va mashqlar*

1. Aminokislotalar deb qanday birikmalarga aytildi? Ular amino va karboksil guruhlarning soniga qarab necha guruhga bo'linadi?
2. Aminokislotalar qanday izomeriya xillariga ega va ularga misollar keltiring.
3. Digitsil—alanin—serin peptidning tuzilish formulasini yozing.
4. Aminokislotalarni aldegid va ketonlardan olinishining reaksiya tenglamalarini yozing.
5. Nima uchun aminokislotalarni amfoter xususiyatga ega bo'lgan birikmalar deyiladi? Misollar yozib tushuntiring.
6.  $\alpha$ ,  $\beta$  va  $\gamma$  aminokislotalarni qaysi reaksiya orqali bir-biridan farq qilish mumkin?
7. Ushbu amino kislota  $\text{HCOH}-(\text{CH}_2)_2-\overset{\text{NH}_2}{\underset{|}{\text{CH}}}-\text{COOH}$  ning eritmasiga lakmus qog'oz tegizilsa, u qanday rangga bo'yaladi.
8. Quyidagi sxema bo'yicha qanday aminokislata hosil bo'ladi, reaksiya tenglamalarini yozing:



9. 7,5 g aminosirka kislota dekarboksillanganda necha litr (n.sh. da) uglerod (IV)-oksid ajralib chiqadi?
10. Sanoatda qaysi aminokislotadan qanday reaksiya orqali sintetik kapron tolasi olinadi.
11. Qanday bog' peptid bog' deyiladi, digitsil — alanin — valin — peptidni tuzilish formulasini yozing va peptid bog'larni ko'rsating.
12. Qanday moddalar oqsillarga kiradi va ular tabiatda nimalarda uchraydi, ular tuzilishiga qarab necha guruhga bo'linadi?
13. Murakkab oqsillarga misollar yozing.
14. Oqsillarning tabiatdagi rolini so'zlab bering.

XX b o b

*GTEROHALQALI BIRIKMALAR*

**Tayanch iboralar:** geteroatom va geterohalqali birikma; geterohalqali birikmalarni sinflash, vitaminlar, antibiotiklar, alkaloidlar, nuklein kislotalari; Y.K.Yurbev reaksiyasi; G.Fisher sintezi; porfin, geteroauksin; elektrofil o'rinn olish reaksiyasi; vodorod bog'-lar; kondensirlangan geterohalqa;

Molekulasidagi uglerod va boshqa element atomlaridan tuzilgan halqalar (sikllar)ni saqlagan birikmalarga geterohalqali birikmalar deb ataladi. Uglerod atomidan tashqari geterohalqa tarkibiga kirgan element atomlarini geteroatomlar deyiladi. Tarkibida azot, kislorod, oltingugurt kabi geteroatom bo‘lgan geterosiklik birikmalar muhim ahamiyatga ega.

Geterohalqali birikmalar halqadagi zvenolarning va geteroatomlarning soniga, geteroatomning tabiatiga va boshqa belgilariiga qarab klassifikatsiyalanadi. Geterohalqali birikmalar 3, 4, 5 va 6 a’zoli halqalardan tashkil topgan bo‘lishi mumkin. 5 va 6 a’zoli halqalardan tashkil topgan geterohalqali birikmalar keng tarqalgan. Geterohalqalarda bir, ikki va bir necha geteroatom hosil bo‘lishi mumkin. Ular ikki va bir necha halqalarni qo’shilishidan ham hosil bo‘lishi mumkin.




Geterohalqali birikmalar tuzilishi va xossalari jihatidan karbohalqali birikmalardan farq qiladi. Geterohalqali birikmalar barqarorligi, ba’zilari o’zlarining xossalari jihatadan benzolga yaqin turadi, ya’ni aromatik xususiyatga ega bo‘ladilar.

Geterohalqali birikmalar xalq xo‘jaligida katta ahamiyatga ega. Ular qishloq xo‘jaligida, tibbiyotda, bo‘yoq sanoatida va texnikaning boshqa tarmoqlarida keng ishlataladi. O’simlik xlorofili, qon gemi, nuklein kislotalar, indigo bo‘yog‘i, ko‘pgina vitaminlar, antibiotiklar, alkaloidlar singari eng muhim tabiiy moddalar geterohalqali birikmalar safiga kiradi.

Quyida eng muhim 5 va 6 a’zoli geterosiklik birikmalar hamda ulaming hosilalari bilan tanishib chiqamiz.

### *BIR GTEROATOMLI BESH A’ZOLI GETEROHALQALI BIRIKMALAR*


Bir geteroatomli 5 a’zoli geterohalqalilarning muhim vakillari furan, teofen va pirroldir:



Bu tuzilish jihatidan bir-biriga yaqin bo‘lib, ko‘pgina umumiy belgilari bor. Bu geterohalqalar, xuddi, benzol kabi birikish reak-

siyasiga nitrolash, sulfolash, galogenlash va shunga o'xhash elektrofil o'rın olish reaksiyalariga kirishishga moyil, ya'ni ular aromatik xususiyatga egadirlar. Bunga sabab, ularning qo'shbog'laridagi to'rtta  $\pi$ - elektronlari va geteroatomning ikkita umumlashmagan  $\pi$ - elektronni hisobidan  $\pi$ - elektronli barqaror aromatik sekstetni hosil bo'lishidir.

*Furan yoki furfuran*, rangsiz suvda kam eriydigan suyuqlik bo'lib, 32 °C da qaynaydi:




Furan o'zining eng yaqin gomologlari  $\alpha$ - metilfuran va  $\alpha, \alpha'$  dimetilfuran bilan birgalikda yog'ochni quruq haydash natijasida olinadi. Furan neytral modda bo'lib, benzol kabi aromatik xossaga ega. Furanning bu xususiyati uni galoidlash, nitrolash va sulfolash reaksiyalarida namoyon bo'ladi.

*Furfurol* furanning eng muhim hosilasi



bo'lib, yangi yopilgan non isiga o'xhash, suvda yomon eriydigan rangsiz suyuqlikdir. Furfurol yog'och qipig'i, kepak tarkibiga kirgan pentozanlarni kislotali gidroliz qilib olinadi. Furfurol o'zining kimyoviy xossalari jihatidan aromatik aldegidlar, masalan, benzoy aldegidiga juda o'xshaydi. Furfurol texnikada selektiv erituvchi sifatida, hamda fenol-formaldegid smolalar olishda boshlang'ich aldegid sifatida formaldegid o'miga ishlatiladi.

*Tiofen* — rangsiz, benzol hidli suyuqlik bo'lib, 84 °C da qaynaydi:




Tiofen toshko'mir smolasи tarkibida bo'ladi. Sanoatda tiofen yuqori temperaturada butan va oltingugurt bug'idan olinadi. Tiofening aromatik xossasi benzolnikiga qaraganda kuchliroqdir.


U benzolga nisbatan osonroq, xlorlash, nitrolash va sulfolash reaksiyalariga oson kirishadi. Bunda elektrofil almashinish reaksiyalarini tiofenning  $\alpha$ - holatidagi vodorod hisobiga boradi.




Pirrol juda kuchsiz asos, uning imino guruh vodorodi kuchsiz kislota xossasiga ega. Na va K kabi ishqoriy metallar bilan oson gidrolizlanadigan natriy yoki kaliyli tuzlarini hosil qiladi:



Pirrol va uning hosilalari aromatik xossalarni yaqqol namoyon qiladi. U o'z xossalari jihatidan fenolga ham o'xshaydi. Pirrol xlor, brom, xattoki, yod bilan oson elektrofil o'rinalmashinish reaksiyasiga kirishadi. Masalan, ishqoriy muhitda yodlashga pirrolning to'rtta vodorodi yodga almashinadi, natijada 2,3,4,5-tetrayodpirrol hosil bo'ladi:




Pirrol rux kukuni va suyultirilgan xlorid kislota bilan gidrogenlanib pirrolin, Pt yoki Ni katalizatori ishtirokida vodorod yoki HI bilan gidrogenlanganda pirrolidining aylanadi:




Pirrolning gidrogenlanishidan hosil bo'lgan pirrolin va pirrolidinlar kuchli asos xossasiga ega. Pirrol va pirrolidin halqalari tabiatda ko'pgina alkaloidlar tarkibida (nikotin, atropin, kokain va hokazo) uchraydi. Oqsillar tarkibidagi prolin, oksiprolin va triptofan, qon gemoglobinini, yashil o'simliklar pigmenti-xlorofill pirrol va uning hosilalaridir.

G. Fisher pirrol kimyosining rivojiga katta hissa qo'shgan olim bo'lib, 1935-yilda  $\alpha$  pirrol aldegidini chumoli kislota bilan qizdirib porfin yadrosini sintez qiladi: Hosil bo'lgan porfin yadrosi aromatik xususiyatga ega bo'lib, 26 ta umumlashgan elektronlarni tashkil etadi. Porfin molekulasi juda barqaror bo'lib, elektrofil almashinish reaksiyasiga oson kirishadi.




Hosil bo‘lgan porfin yadrosi aromatik xususiyatga ega bo‘lib, 26 ta umumlashgan elektronlarni tashkil etadi. Porfin molekulasi juda barqaror bo‘lib, elektrofil almashinish reaksiyasiga oson kirishadi.

Qizil qon tanachalarida bo‘ladigan gemoglobin oqsil modda — globin va prostetik guruh gemdan iborat. Gem — porfirin bilan  $\text{Fe}^{+2}$  ionining hosil qilgan barqaror kompleks birikmasidir:




*Xlorofill* — barglarning yashil pigmenti, tuzilishi jihatidan bir-biriga o‘xshash bo‘lgan ikki moddadan: ko‘k-yashil xlorofill **a** va sariq- yashil xlorofill **δ** dan iborat. Xlorofill **a** to‘yinmagan fitol spirt  $\text{C}_{20}\text{H}_{39}\text{OH}$  qoldig‘ini saqlagan porfirinning magniyili kompleksi bo‘lib, uning tuzilishini G. Fisher (1935) aniqlagan (356-betga qarang).

Xlorofill **δ** xlorofill **a** dan ikkinchi halqadagi  $-\text{CH}_3$  guruh o‘rniga aldegid guruhi  $-\text{CHO}$  bo‘lishi bilan farqlanadi. 1956 — 1960- yillarda xlorofill amerikalik olim R.V. Vudvord va uning shogirdlari tomonidan to‘liq sintez qilindi.







*Indol va uning hosilalari.* Indol 52,5 °C da suyuqlanadigan, yoqimsiz hidli kristall modda:



indol


Indol ba'zi gullarning (jasmin, oq akatsiya) efir moylari tarkibida uchraydi. U toshko'mir smolasining tegishli fraksiyalaridan ajratib olinadi. Suyultirilgan indol eritmasi xushbo'y hidga ega bo'lib, parfumeriyada ishlataladi.

Kimyoiviy xossalari jihatidan indol pirrolga o'xshab ketadi. U asos xossalariiga deyarli ega emas. Indolning pirrol singari  $> NH$  guruhidagi vodorod atomi metalga oson almashinadi. Indol molekulasida elektron zichligi  $\beta$ - holatda maksimal bo'ladi. Shuning uchun ham elektrofil almashinish reaksiyalari birinchi navbatda shu holatdagi vodorod hisobiga ketadi:




Indolning ko'p hosilalari muhim ahamiyatga ega bo'lib, fiziologik faoliyoddalar qatoriga kiradi.

*Geteroausin* ( $\beta$  — indolisirka kislota) oz miqdorda o'simliklar tarkibida uchraydi va ularning o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi:




*Triptofan* ( $\beta$ - indolil- $\alpha$ - aminopropion kislota) oqsil tarkibiga kiruvchi eng muhim  $\alpha$ - aminokislota bo'lib, tirik organizmda sodir bo'ladigan oksidlanish-qaytarilish, dekarboksillash va dezaminlash reaksiyalarida qatnashib, triptamin, geteroauksin va 3- indolilpirouzum kislota hosil qiladi:




Triptamin eng muhim biogenik amin bo'lib, ko'pgina fiziologik moddalarning asosini tashkil etadi.

*Serotonin* (5-oksitriptamin) – qon bosimini oshiruvchi garmondir:




*Psilotsin* (4- oksidimetiltriptamin) – kuchli gallutsinogen bo'lib, uning tuzilishi:




## BIR GETEROATOMLI OLTI A'ZOLI GETEROHALQALI BIRIKMALAR

*Piridin* — bir geteroatomli olti a'zoli geterohalqalarning eng muhim vakili bo'lib, o'ziga xos yoqimsiz hidli suyuqlik. Qaynash temperaturasi 115 °C. Suv bilan har qanday nisbatda aralashadi.




Piridin yadrosi ko'pgina tabiiy birikmalar-alkaloidlar, vitaminlar tarkibida uchraydi. Sanoatda piridin va uinng gomologlari toshko'mir smolasidan ajratib olinadi.


Piridin asos xossasiga ega, uning suvli eritmasi laksusni ko'ktiradi. Piridin suv bilan ammoniy gidroksidga o'xshash birikma hosil qiladi:




Piridin kuchli kislotalar bilan oson kristallananadigan tuzlar hosil qiladi. Piridin yadrosi xuddi benzol singari oksidlovchilar va kislotalarga nisbatan barqaror bo'lib, aromatik xossalarni yaqqol namoyon qiladi. Piridin yadrosida elektronlarning taqsimlanishi elektrofil almashinish reaksiyalar  $\beta$ - vodorod ishtrokida, nukleofil reaksiyalar esa  $\alpha$  va  $\gamma$ - vodorod ishtrokida ketishini ko'rsatadi:




Piridin elektrofil o'r'in olish reaksiyalariga benzolga nisbatan qiyin (kislotali muhitda) kirishtadi. Bunday muhitda piridin kation holatida bo'ladi:




Azotdagi musbat zaryad yadroning umumiy elektron zichligini yanada kamaytiradi, natijada elektrofil reagentlarning hujumi qiyinlashadi. Piridinni nitrolash, sulfolash va galogenlash reaksiylari yuqori temperaturada va katalizator ishtirokida boradi. Bunda reaksiya mahsulotlarining unumi unchalik yuqori bo'lmaydi:




Aksinchalik nukleofil o'r'in olish reaksiyalarini piridinda oson boradi. Masalan, 2- xlorpiridin ishqoriy muhitda osongina 3- oksipiridining qadar gidrolizlanadi:




2- oksi piridinning tautomor shakli 2-piridondir:



Bu yerda muvozanat o'ngga kuchli siljigandir. Piridinning hosilalari turli organizmda sodir bo'ladigan biokimyoiy jarayonlarda muhim rol o'ynaydi. Vitamin PP – nikotin kislotaning amidi bo'lib, padagra kasalligini davolashda ishlataladi:




Izoniazid esa sil kasalligini davolashda ishlataladi. Vitamin B<sub>6</sub> (piridoksin) ham piridinning hosilasidir. Organizmda piridoksin fermentativ oksidlanish-qaytarilish va aminokislotalarni dekarbok-sillanish jarayonida katta rol o'ynaydi:



### *BIR NECHA ATOMLI GETEROHALQALI BIRIKMALAR*

Illi va undan ortiq geteroatomli 5 va 6 a'zoli geterohalqalarning eng muhim vakillari va ularning hosilalari bilan quyida tanishib chiqamiz.

## Imidazol va uning hosilalari. Imidazol rangsiz kristall




imidazol

modda bo‘lib, suvda yaxshi eriydi, qutbsiz organik erituvchilarda esa yomon eriydi. Uning suyuqlanish temperaturasi 90 °C, qaynash temperaturasi esa 236 °C. Kichik molekular massali imidazolning bunday yuqori temperaturadi qaynashi, imidazol molekulalari orasida vodorod bog‘larni mavjudligining natijasidir.



Imidazol ammiakka nisbatan kuchsiz, lekin piridinga nisbatan kuchli asosdir. U kuchli kislotalar bilan reaksiyaga kirishib kristall tuzlar hosil qiladi.

Imidazol aromatik birikmalar singari elektrofil almashinish reaksiyalariga kirishadi. U oson galogenlanadi. Nitrolovchi aralashma ta’sirida 4- nitroimidazol hosil qiladi:




4-bromimidazol

4-nitroimidazol


Imidazol yadrosi oqsil tarkibiga kiruvchi tabiiy aminokislotalar va ba’zi alkoloidlar tarkibida bo‘ladi.

**Gistidin** — oqsil moddalarning gidrolizlanish mahsuloti bo‘lib, imidazolning eng muhim hosilasıdir. Gistidin dekarboksillanib gistogramga aylanadi.



Gistamin kam konsentratsiyalarda qon bisimini pasaytirish va silliq muskullarni faollashtirish xususiyatiga ega.


**Pirimidin va uning hosilalari.** Ikki geteroatomli olti a'zoli geterohalqalarning eng muhimmi pirimidindir. Pirimidin yadrosi nuklein kislotalar, vitaminlar, alkoloidlar va dorivor modalar tarkibiga kiradi:




Pirimidin rangsiz kristall modda bo'lib, 22 °C da suyuqlanadi va 124 °C da qaynaydi, suvda yaxshi eriydi.

Pirimidin kuchli kislotalar bilan tuzlar hosil qiladi.

Elektrofil almashinish reaksiyalari pirimidining (piridinga o'xhash) qiyin ketadi va reaksiyalar 5- holatdagi vodorod hisobiga boradi. Nuklein kislotalar kimyosida pirimidinining gidroksi va amiko-hosilalari bo'lgan uratsil, timin va sitozinlar katta ahamiyaga egadir:






2-oxi-4-aminopirimidin (sitozin)

Kristall holatdagি urasil, timin va sitozinlar laktam shaklida mayjud bo'ladi, bunday shaklda bo'lisligi bir qator fizik-kimyoviy usullar yordamida aniqlangan. Bu uch birikma yuqori temperaturada suyuqlanadigan ( $300^{\circ}\text{C}$  dan yuqori), suvda yaxshi eriydigan moddalardir, ular sun'iy usullar bilan ham olingan.




**Purin va uning xossalari.** Purin aromatik geterohalqa bo'lib, uning molekulasi pirimidin bilan imidazol halqalarining kondensirlanishidan tarkib topgan:



purin

Purin suvda oson eriydigan kristall modda, suyuqlanish temperaturasi  $217^{\circ}\text{C}$ . Purin kuchsiz asos bo'lib, oksidlovchilar ta'siriga chidamli.

Purin tabiatda topilgan emas, lekin molekulasida purin yadrosi tutgan moddalar o'simlik va hayvonot dunyosida ko'p uchraydi. Purinning hidroksi va amina-hosilalari juda katta ahamiyatga egadir. Ular tautomer shaklda bo'lib, kristall holatda quyidagi tuzilishga ega:




adenin (6-aminopurin) guanin (6-oxi-2-aminopurin) siydik kislota (2.6.8-trioksipurin)

Barcha oksi va aminapurinlar yuqori temperaturada suyuqlanuvchi ( $300^{\circ}\text{C}$ ), rangsiz kristall moddalar bo'lib, suvda yomon eriydi. siyidik kislota, mochevina bilan birga siyidik tarkibiga kiradi va tirik organizmdan siyidik tarzida birga ajraladi. Qush va sudralib yuruvchilar chiqindisida, bo'g'ma ilonning chiqindisida uning miqdori 90% gacha bo'ladi.

Adenin va guanin nuklein kislotalarning asosiy qismini tashkil etib, bular choy, qand lavlagi tarkibida ko'p miqdorda bo'ladi.


**Pteridin va uning hosilalari.** Pteridin tarkibida to'rtta atom azot tutgan aromatik geterohalqa bo'lib, uning molekulasi pirimidin va pirazin halqalarining kondensirlanishidan hosil bo'lgan. U suvda yaxshi eriydi va asos xossasini namoyon qiladi:



pteridin


Pteridin hosilalari tabiatda topilgan bo'lib, pteridin yadrosi eng muhim vitaminlar — fol kislota va riboflavin (vitamin B) tarkibida bo'ladi.

**Fol kislota** (pteroilglutamin kislota) eng muhim vitaminlardan biri bo'lib, o'simlik olamida, o'simliklarning yashil bargida keng tarqalgan.




Fol kislotaning tuzilishi sintez yo'li bilan tasdiqlanib, hozirda uning sintezi sanoat miqyosida ham amalga oshirilgan.

**Riboflavin (vitain B<sub>2</sub>)** nemis olimi P.Kun tomonidan sut zardobidan ajratib olingen bo'lib, hozirda sanoatda D- riboza, alloksana va O- ksilidin asosida sintez qilib olinadi:




Riboflavin fol kislota kabi odam va hayvon organizmini normal rivojlanishi uchun eng muhim omillardan biri hisoblanadi.


**Piran va uning hosilalari.**  $\alpha$ - va  $\gamma$ - puranlar molekulasida kislород tutgan goterosikllar bo'lib, ular sof holda olinmagan qarorsiz moddalar, lekin ularning hosilalari  $\alpha$  va ayniqsa  $\gamma$ - pironlar tabiatda keng tarqalgan:




$\alpha$ - piran



$\gamma$ - piran




$\alpha$ - piron




$\gamma$ - piron

$\alpha$ - piron tabiatda keng tarqalgan, 206—209 °C da qaynaydigan moysimon suyuqlik bo'lib, unchalik amaliy ahamiyatga ega emas.  $\gamma$ - piron 32 °C da suyuqlanadigan, suvda yaxshi eriydigan qattiq modda bo'lib, asos xossalariini yaqqol namoyon qiladi, ya'nikuchli kislotalar bilan reaksiyaga kirishib piroksoniy tuzlarini hosil qiladi:




Piroksoniy tuzlari ancha barcha barqaror birikmalar bo‘lib, ko‘pgina tabiiy birikmalar tarkibida uchraydi. Xromon-2,3-benz- $\gamma$ -piron (suyuqlanish temperaturasi 59 °C):





Uning yadrosi vitamin E (tokoferal)da, shuningdek o’simliklarning gullarida va boshqa a’zolarida uchraydigan tabiiy pigmentlar tarkibida bo‘ladi.

**Flavon-2-fenilxromon** quyidagicha bo‘lib,




uning polioksi hosilalari o’simliklarning sariq yoki jigarrangli pigmentlaridir.

Masalan:



Bular o’simliklarda glikozidlar holida uchraydilar. Kversitinni 6- $\alpha$ -ramnozido-D-glukoza bilan hosil qilgan glikozidi rutin bo‘lib, u vitamin P- guruhiga kiruvchi moddalar qatoriga kiradi.

**Antosianlar** o'simlikka rang beruvchi pigmentlar bo'lib, glukozidlardir. Ular tarkibida uglevodlar va uglerod bo'l magan birikmalar — antosianidinlar bo'ladi. Antosianidinlar oksiflavanlarni Mg va kislota yordamida qaytarilganda hosil bo'ladi, kversetinni qaytarganda antosianidinning eng tipik vakili —sianidin hosil bo'lgan, sianidin gidrogenlanganda katexinga o'tadi:



Antosianidinlarning tuzilishini aniqlashda va to'liq sintezlarni amalga oshirishda nemis olimi R. Vilshetternigiz xizmati katta.

## ALKALOIDLAR

Alkaloidlar — tarkibida azot atomi tutgan, asos xossalariiga ega bo'lgan, ayrim o'simliklar tarkibida uchraydigan, odam va hayvon organizmiga kuchli fiziologik ta'sir qiladigan murakkab organik birikmalardir.

Ko'pgina o'simlik ekstratlarining shifobaxsh va zaharli xususiyatlari juda qadim zamonlardan ma'lum. Fransuz farmatsevti Sege (1804- yili) tozalanmagan morfinni, nemes farmatsevti Sertyurner (1806- yili) toza morfinni, rus olimlaridan F.I.Gize (1815- yili), A.A.Voskresenskiy (1842- yili) teobrominni ajratib oldilar. Alkaloid ionining tuzilishi 1886- yilda aniqlangandan so'ng alkaloidlar kimyosi keng rivojlanib ketdi.

Hamma o'simliklar alkaloid saqlamaydi. Ko'knoridoshlar, dukkaklilar, ayiqtovonguldoshlar, zirkdoshlar kabi oilalarga kiruvchi o'simliklar alkoloidlarga boydir.

Alkaloidlarni toza holatda o'simliklardan ajratib olish ancha murakkab va ko'p mehnat talab qiladi. Ular o'simliklarda, asosan, tuz holida uchraydi. Alkaloidlarni erkin asos holida ajratib olish uchun o'simlik maydalanadi, so'ngra ammiak yoki sodda eritmalar bilan ho'llanadi va biror erituvchi (efir, xloroform, spirt) bilan ekstratsiya qilinadi. Olingan ekstrakt suyultirilgan kislotalarning, masalan, 10% li  $H_2SO_4$  eritmasi bilan ishlanadi. So'ngra kislotali eritmaga eritma ishqoriy muhitga o'tgunga qadar ishqor yoki ammiak eritmasi qo'shiladi va alkaloidlar tegishli erituvchilar yordamida ekstratsiyalab ajratib olinadi. Bu usulda alkaloidlar aralashma holida olinadi. Hozirgi vaqtda alkaloidlar aralashmasidan toza individual alkaloidlarni ajratib olish uchun xromatografiya usullarining barcha turlari (adsorbsion, ion-almashinuvchi, yupqa qatlamda xromatografiya, gaz—suyuqlik (xromatografiya) va hozirgi zamon analitik usullari keng qo'llaniladi.


Alkaloidlarni identifikatsiyalashda va tuzilishini aniqlashda klassik usullar bilan bir qatorda IQ-, UB-, mass spektroskopiya, gaz xromatografiya, EPR, YaMR va rentgenostruktura tahlili singari hozirgi zamon fizik-kimyoviy usullar keng qo'llaniladi.


Rossiyada alkaloidlar kimyosi maktabini akademik A.P.Orexov yaratdi.

O'zbekiston olimlarining alkaloidlar kimyosini rivojlantirishdagi qo'shgan hissalarini dunyo miqyosida ham ma'lumdir. Mehnat Qahramonlari akademik S.Y.Yunusov, O.S.Sodiqov va ularning shogirdlari katta ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. S.Y.Yunusov o'simliklarning rivojlanish jarayonida alkaloidlarni o'simlik a'zolarida to'planish vaqtlarini ko'rsatuvchi va alkaloidlar bir a'zodan ikkinchi a'zoga o'tish davrida ma'lum kimyoviy jarayonlarda qatnashish qonunyatlarini yoritib berdi.


Alkaloidlar tuzilishiga ko'ra, ya'ni tarkibiga kirgan getero-halqalarning tabiatiga qarab klassifikatsiyalaniadi. Quyida eng muhim bo'lgan bir necha alkaloidlar ustida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

**Gigrin** — oddiy tuzilishga ega bo'lgan alkalsid bo'lib, tarkibida pirrolidin halqasini tutadi. U Janubiy Amerikada o'sadigan koka o'simligidan ajratib olingan:







**Nikotin.** Tamaki (*Nicotiana tabacum*) o'simligining bargi va ildizida uchraydigan, suvda yaxshi eriydigan moysimon suyuqlig. U eng zaharli alkaloidlardan biri bo'lib, qishloq xo'jaligidagi kontakt insektisidi sifatida ishlatiladi.




**Anabazin.** Markaziy Osiyoda o'sadigan *Anabasis aphylla* zaharli o'simlikning asosiy alkaloidi bo'lib, rangsiz, moysimon, kuchli zaharli suyuqlikdir. 1929- yilda anabazinning tuzilishini A.P.Orexov aniqlagan.

Anabazin, nikotin singari qishloq xo'jaligidagi kontaktli insektisidi sifatida ishlatiladi.

**Morfin** — ko'knor o'simligining pishmagan urug'idan sutsimon shiradan (afyun) ajratib olinadigan asosiy alkaloiddir. Afyun (opium) tarkibida 25 dan ortiq alkaloid topilgan. Morfin kuchli anestetik (og'riqni qoldiruvchi preparat) bo'lib, unga organizm tez o'rganadi, narkotik xususiyatiga ega. Kodein — morfmning O- metil efiri bo'lib, yo'talni qoldirishda ishlatiladi. Diatsetilmorfining xlorgidrati — «geroin» eng keng qo'llaniladigan narkotikdir.




**Xinin** — xin daraxti po'stlog'ida uchraydigan alkaloidlar ichida eng ko'p miqdorda bo'lib, tibbiyotda bezgakni davolashda ishlatiladigan muhim dorilardan biridir.




xinin

**Kofein** — choy bargini qayta ishlash sanoatida choy barglari chiqindisidan olinadi. U oq kristall bo'lib, 234–237 °C da eriydi, tibbiyotda markaziy nerv sistema faoliyatini yaxshilashda keng qo'llaniladi:



kofein

**Kokain** — ekgonining hosilasi bo'lib, *Erythroxuloncocae* ning bargidan olinadi. Uning vodorodxlorid tuzi tibbiyotda mahalliy og'riqni qoldirishda ishlataladi. Kokainga kishi a'zosi tez o'rGANISHI tufayli, uni ko'p iste'mol qilgan odamlar giyohvand bo'lib qoladi. U rangsiz ninasimon kristall bo'lib, 196 °C da eriydi:



kokain vodorodxlorid

**Galantamin** — uni birinchi *Galanthus woronowii* o'simligining yer ostki qismidan olingan, hozir esa Surxondaryo viloyatida o'sadigan *Ungernia victoris* o'simligining yer ustki qismidan

(Toshkent farmatsevtika zavodida) olinadi. Galantamin vodorod bromid tuzi tibbiyotda bolalarni shollik kasalliklaridan (poliomiyelit) davolashda ishlatiladi. Uni xlorid kislota bilan ishlab, metilpogalantamin preparati olinadi, u qon bosimini tushuruvchi dori sifatida keng ishlatiladi.

### Kashfiyotlar!

— O'zbek kimyogarlari S.Y.Yunusov, O.S.Sodiqovlar alkaloidlar kimyosi maktabini yaratib, o'zlarining shogirdlari bilan o'zbek alkaloidlar kimyosini dunyoga tanitdilar.

— Akademik R.Y.Yunusov maktabida birgina *Vinca erecta* — bo'rigul o'simligidan 80 dan ortiq alkaloidlar ajratib olinib, ulardan 40 tasi fanga ma'lum bo'limgan yangi alkaloidlar bo'lib, ularning tuzilishi aniqlandi (Professorlar F.X.Yo'ldoshev, V.M.Malikov va boshqalar).

— Surxondaryoda o'sadigan *Ungernia victorius* — omonqora o'simligining asosiy alkaloidi galantamin bo'lib, bolalarning shol kasalligini (poliomiyelit) davolashda ishlatiladi (akademik S.Y.Yunusov, professorlar X.A.Abduazimov, A.Abdusamatov).

— O'zbekistonda iqlimlashtirilgan *Liriodendron tulipifera* — lola daraxtining turli a'zolaridan 30 dan ortiq alkaloidlar ajratib olindi (Akademik R.Y.Yunusov, professorlar A.Abdusamatov, R.Ziyayev).

### Savol va mashqlar

1. Qanday moddalarga geterohalqali birikmalar deb ataladi, ularga misollar keltiring.
2. Geterohalqaning xiliga, soniga qarab va geterohalqaning kattachichligiga qarab geterohalqa birikmalarning xillarini aytib bering.
3. O'simliklar bargiga yashil rang beruvchi xlorofill molekulasini qanday geterohalqali birikmalar tashkil etadi?
4. 0,1 mol piridin bromlanishi natijasida 7,9 g brompiridin hosil bo'ladi. Bu miqdor nazariy hisobga nisbatan necha foizni tashkil etadi?
5. Nuklein kislotalarning gidrolizlanishi natijasida qanday geterohalqali birikmalar hosil qiladi?
6. Purin geterohalqali birikmaning molekulasi qaysi geterohalqalardan tashkil topgan?
7. Alkaloidlar qanday birikmalar? O'zbekistonda alkaloidlar kimyosi maktabini yaratgan o'zbek olimlarini qisqacha hayoti va ijodini gapirib bering.

8. Qishloq xo'jaligida insektisid sifatida ishlataladigan anabazin va nikotin alkaloidlarning formulasini yozing va ular qanday geterohalqalardan tashkil topgan?

## ANTIBIOTIKLAR HAQIDA TUSHUNCHA

**Tayanch iboralar:** antibiotiklar, antibiotiklarni sinflash, levomitsitin, ampitsillin, gramitsidin.

*Antibiotiklar* deb, ayrim miroorganizmlar, yuksak o'simliklar va hayvon to'qimalari ishlab chiqargan moddalarining boshqa mikroorganizmlarning o'sishini, ko'payishini to'xtatishiga va yo'q qilishiga aytildi.

X—XI asrlarda Abu Ali Ibn Sino ayrim mog'orlardan yiring boylagan yaralarni davolashda foydalangan. 1872- yili rus olimi V.A. Manassein *Penicillium glaucum* o'stirilgan suyuqlikda bakteriya bo'limganligini aniqlaydi.

1928- yili ingлиз олими A. Fleming *Penicillium notatum* mog'ori stafilokokkning o'sishini kamaytirganligini ko'rsatib, bu mog'orni *penitsillin* deb atadi.

1942- yilda Rossiyada professor Z.V. Yermoleva, T.I. Bolezina bilan birgalikda penitsillin olish texnologiyasini yo'lga qo'yib, Ikkinchı Jahon urushi yillarda undan keng foydalaniłgan.



Antibiotiklarning xossalari, tuzilishlarini va ta'sir etish mexanizmlarini o'rganishda, shuningdek taraqqiy ettirishda rus olimlaridan M.M. Shemyakin, A.S. Xoxlov, Y.A. Ovchinnikov, V.A. Engelgardt va A.S. Spirinlarning roli juda kattadir.

Hozirgi paytda Rossiyada o'nlab antibiotiklar ishlab chiqiladi.

Tabiiy antibiotiklarni va ularning sun'iy analoglarini quyidagi sinflarga bo'lish mumkin:

- 1) alisliklik tuzilishga ega bo'lgan antibiotiklar (tetrasiklin guruhi);
- 2) aromatik uglevodorod saqlaydigan antibiotiklar (levomitsetin guruhi);
- 3) geterosiklik molekula saqlaydigan antibiotiklar (penitsilin va ularning analoglari);
- 4) glikozidlar tipidagi antibiotiklar (neomitsinlar, eritromitsinlar va boshqalar);
- 5) shishga qarshi xususiyatga ega bo'lgan antibiotiklar (aktinomitsinlar hosilasi);
- 6) polipeptid tipidagi antibiotiklar (gramitsidinlar va boshqalar).

**Tetrasiklin.** Bu preparatni olishda mikroorganizmdan foydalaniladi. Sariq rangli kristall, achchiq mazaga ega. U tibbiyotda zotiljam, dizenteriya, ko'k yo'tal, brutsellyoz va tif kasalliklarini davolashda ishlataladi.





**Levomitsetin** — uni 1947- yilda *Steptomyces venezuelae* dan olingan va 1949- yilda molekula tuzilishi aniqlanadi hamda sintez qilinadi. Oq yoki sarg'ish kristall modda, achchiq ta'mga ega,  $149-153^\circ\text{C}$  da eriydi. Bu ham zotiljam, tif, dizenteriya, ko'k yo'tal va boshqa yuqumli kasallarni davolashda ishlataladi.

## BENZILPENITSILLINNING NATRIYLI TUZI


Oq kristall gigroskopik modda, u tibbiyotda zotiljam, so'zak, siflis, yiringli yaralarni, tomoq og'rishini va boshqa yuqumli kasalliklarni davolashda ishlataladi.

**Ampitsillin**, pensillin qatoridagi preparat, u quyidagi tuzilishga ega:






**Gramitsidin C.** 1942-yili rus olimlari G.F.Gauze va M.G.Brajnikova gramitsidinni *Bacillus brevis* bakteriyasidan ajratib oladilar va uni Moskva yaqinidagi tuproqlarda ham borligini aniqlaydilar. U sariq kristall bo'lib, 256–258 °C da eriydi. Bu preparat, asosan, streptokokk, stafilokokk, pnevmokokk va boshqa mikroorganizmlarni yo'q qilishda ishlataladi.




**Tayanch iboralar:** nuklein kislotalar, DNK; RNK, nukleotidlar, nuklezoidlar, genetik kod, komplementar asoslar.

Nuklein kislotalar [NK] yuqori molekular birikmalar bo'lib, tirik organizmlardagi irlsiy belgilarning nasldan-nasnga o'tishi, oqsillarning biosintez kabi muhim hayotiy jarayonlarda katta rol o'ynaydi. Shuning uchun ham keyingi yillarda nuklein kislotalarni q'rganishga alohida e'tibor berilmoqda. Nuklein kislotalar bиринчи marta 1868- yilda F. Misher tomonidan topilib, ularning tuzilishi uzoq vaqtgacha aniqlanmagan. XX asrning 40- yillariga kelib A.Todda nuklein kislotalarning tuzilishini o'rganib, ularning molekulasida  $\beta$ -D- ribufuranoza va 2-dezoksi- $\beta$ -D- ribofuranozalar kabi pentozalarning uzun zanjiri bo'lishligini aniqladi.





$\beta$ -D- ribufuranoza




2-dezoksi- $\beta$ -D- ribofuranoza


Nuklein kislotalarning tuzilishini o'rganishda ularning o'ziga xos fermentlar, kislota va ishqorlar ishtirokida gidrolizlanish reaksiyasi muhim rol o'ynaydi. Nuklein kislotalar quyidagi bosqichli sxema bo'yicha gidrolizlanadi:




Sxemadan ko'rinish turibdiki, nuklein kislotalarning gidrolizining so'nggi bosqichida purin va pirimidin asoslari, uglerod komponentlari riboza, dizoksiribosa va fosfat kislota hosil bo'ladi. NK tarkibiga kiruvchi purin va pirimidin asoslari:




sitozin (s)




uratsil (u)



timin (t)



adenin (a)



guanin (g)

pentoza larning qoldig'i bilan birikkan.

Nuklein kislotalar ikki katta sinfga bo'linadi:

1. Dezoksiribonuklein kislotalar (DNK) — gidrolizlanganda adenin, guanin, sitozin, timin, dezoksiriboza va fosfat kislotalar hosil bo'ladi.

2. Ribonuklein kislotalar (RNK) — gidrolizlanganda esa adenin, guanin, sitozin, uratsil, riboza va fosfat kislotaga parchalanadi.

Demak, D NK RNK dan tarkibiga kiruvchi pentoza larning hamda pirimidin asoslarining turlicha bo'lishligi bilan farqlanadi, ya'ni D NK molekulasi tarkibida dezoksiriboza hamda pirimidin asosi uratsil qoldig'i bo'lsa, RNK molekulasi tarkibiga riboza (dezoksiriboza o'rniga) hamda timin (uratsil o'rniga) qoldiqlari kiradi.

### *Bilasizmi?*


— NK lar kashfiyotining muallifi shvetsariyalik kimyogar F. Misherdir. U leykotsitlarda yangi kimyoviy modda borligini aniqladi va nuklein kislota deb atadi.

## NUKLEOTIDLAR


Nuklein kislotalarning gidrolizini ishqorlar ishtirokida nukleotid hosil bo'lish bosqichida to'xtatish mumkin. Nukleotidlardan tarkibidagi molekulalalar quyidagi tarkibda joylashgan: purin yoki pirimidin asosi — pentozi-fosfat kislota.

Nukleotidlarda fosfat kislota qoldig'i pentozi alarning C<sub>3</sub>, yoki C<sub>5</sub> uglerod atomlariga birikkan bo'lib, purin yoki pirimidin asoslari esa pentozi alarning C<sub>1</sub> uglerodi bilan bog'langan.


Masalan, RNK ning gidrolizidan hosil bo'lgan nukleotidlari:




adenil kislota yoki  
5-adenzilmonofosfat (AMF)



uradil kislota yoki  
3-uridilmonofosfat (UMF)



guanil kislota yoki  
guanilmonofosfat (GMF)




situdil kislota yoki  
sitidilmonofosfat (SMF)

Yuqorida keltirilgan nukleotidlar ribonukleotidlar bo'lib, tarkida dezoksiriboza qoldig'ini tutuvchi nukleotidlar esa dezoksinukleotidlardir. DNK tarkibiga kiruvchi barcha (to'rtta) dezoksinukleotidlar DNKnini gidrolizlanishidan hosil bo'lishi mumkin.


## NUKLEOZIDLAR

Nukleozidlар — azot saqlovchi N- glikozidlар bo'lib, NK larning chala gidrolizlanish mahsulotidir. Nukleozidlarni hosil qiluvchi purin yoki pirimidin asoslari va uglerod komponentlari (riboza yoki dezoksiriboza) bir-biri bilan glukozid bog' orqali birikadi. Bunda glukozid bog' uglerod komponentlarining C<sub>1</sub> atomi bilan pirimidin asosidagi uchinchi N- atomi va surin asosidagi to'qqizinchи N- atomi orqali birikkan bo'ladi.


RNKdan quyidagi 4 ta nukleozidni ajratib olish mumkin.




adenozin



sitidin




guanozin



uridin

DNKdan esa yuqoridagi kabi dezoksiribonukleozidlar ajratib olish mumkin:



2-dezoksiribosa qoldig'i


Bu yerda X — purin va pirimidin asoslari (adenin, guanin, sitozin va timin).

## NUKLEIN KISLOTALARNING TUZILISHI

Nuklein kislota molekulalari nukleotidlarning polimerlanishi natijasida hosil bo'lgan polinukleotidlar zanjiridan iborat. NK kimyoviy tuzilishiga ko'ra poliribonukleotidlar RNK polidezoksiribonukleotidlar DNK ga bo'linadi.

Nuklein kislotalar molekulasidagi nukleotidlar qoldig'i biribir bilan fosfat kislota vositasida birikkan. Fosfat kislota har doim bir nukleotid tarkibidagi riboza (dezoksiribosa)ning C<sub>1</sub> atomi bilan, ikkinchi nukleotid tarkibidagi riboza (dezoksiribosa)ning C<sub>1</sub> atomi bilan bog'langan bo'ladi. Demak, DNK da va RNK da fosfat kislota faqat 3- va 5- uglerod atomlari orqali bog'lanadi. Ularning molekulalarida tarmoqlanish kuzatilmaydi. Shunday qilib, DNK hamda RNKning nukleotidli tarkibi, ya'ni ularning birlamchi chiziqli strukturasi yaxshi o'rganilgan. 17- rasmda DNK molekula-sining 4 ta nukleotidli takrorlanuvchi zvenodan iborat birlamchi strukturasi keltirilgan:


DNK ningmolekular massasi juda katta bo'lib, 200 000 dan 20 000 000 ga yetadi. D NKning tirik organizmlarda irlar ihsiy belgilarni saqlash va nasldan-naslg'a o'tkazish funksiyasini bajarishi har tomonlama isbotlangan. D NK tarkibidagi nukleotidlarning o'zaro munosabati ma'lum qonuniyatlariga bo'ysunadi. Bu qonuniyat-lardan birini dastlab amerikalik olim Chargaff aniqlagan bo'lib, u Chargaff qoidasi deb ataladi. Bu qoidaga muvofiq, har qanday D NK tarkibidagi adenin molar miqdorini timinning molar miqdoriga va guaninning molar miqdorini sitozinning molar miqdoriga nisbati 1 ga teng, ya'ni A/T = G/S = 1.



17- rasm. DНK molekulasining birlamchi strukturasи.

1951- yilda M.Uilkins DНK ning rentgen struktura tahlilini amalga oshirdi. Chargaff, Todd, L.Poling ishlariga asoslanib, D.Uotson va F.Krik DНKning ikkilamchi to'liq strukturasini va uning qo'sh spiral modelini (18- rasm) aniqladilar.


Bu modelga asosan DНK molekulasi qo'sh spiral hosil qiluvchi ikkita polinukleotid zanjiridan tashkil topgan bo'lib, har ikkala zanjir bitta umumiyl o'qqa egadir. Bu zanjirlar bir-biriga qat'iy ravishda mos keladigan juft asos molekulalari orasida vujudga



18-rasm. DNA molekulasining qo'sh spiral shaklidagi ko'rinishi.

kelgan vodorod bog'lanish bilan bog'-langan. Vodorod bog'lanish faqat spetsifik just asoslar adenin-timin va guanin-sitozin molekulalari orasida bo'ladi. Bunda adenin bilan timin ikkita vodorod bog', guanin bilan sitozin esa uchta vodorod bog' hosil qilib birikadi.

DNK molekulasi dagi adenin miqdori har doim timin miqdoriga, guanin miqdori esa sitozin miqdoriga teng bo'ladi. Bu o'z navbatida Chargaff qoidalariga mos ekanligini ko'rsatadi.



## NUKLEIN KISLOTALARNING BIOLOGIK AHAMIYATI

DNK va RNK lar barcha tipik organizmlar tarkibiga kiradi va ularning hayotiy jarayonlarida muhim rol o'ynaydi. D NK tirik organizmda irsiy belgilarni saqlash va nasldan-naslga o'tkazish funksiyasini bajarishi hamda ularning o'z-o'zidan ko'payishi har tomonlama isbotlangan. Uotson va Krik yaratgan model D NKning bu xususiyatlarini qanday amalga oshirishni tushuntirib berdi.

DNK molekulasi, asosan, hujayra yadrosida mujassamlashgan bo'lib, hujayraning bo'linish davrida uning miqdori o'z-o'zidan ikki baravar ko'payadi. Bu jarayon *replikatsiya* deyiladi. Replikatsiya jarayonida DNK ning qo'sh spiralli molekulasini tashkil qiluvchi ikkita polinukleotid zanjir bir-biridan ajraladi. Keyin ularning har biri matritsa sifatida namoyon bo'ladi va ularga nisbatan to'ldiruvchi bo'lgan yangi polinukleotid zanjirlar vujudga keladi. Yangi polinukleotid zanjirdagi nukleotidlarning ketma-ket joylashishi eski zanjirdagi nukleotidlarni tomonidan belgilanadi. Shuning uchun ham eski zanjirga to'ldiruvchi bo'lgan yangi zanjir hosil bo'ladi. Keyin bu zanjirlar bir-biri bilan qo'shilib, DNK ning yangi molekulasini hosil qiladi. Demak, dastlabki bitta DNK molekulasidan aynan bir xil bo'lgan ikkita DNK molekulasi hosil bo'ladi.

RNK lar ho'jayraning hamma xilida uchraydi. Lekin ularning asosiy qismi ribosomalarda to'plangan. Hujayra tarkibida uchraydigan RNK molekulalarining massasi, kimyoiy tuzilishi va funksiyasiga qarab bir-biridan farq qiladi. Hujayrada asosan uch xil RNK uchraydi.

1. Hujayradagi RNK ning 80% ga yaqini ribosomalar RNK (r-RNK) tashkil qiladi. r-RNK hujayraning maxsus organida — ribosomalarda to'plangan bo'lib, ribosomada oqsillar sintezini amalga oshirishda ishtirok etadi.

2. Transport RNK (t-RNK) ayrim aminokislotalarni oqsil sintez qilinadigan joyga (ribosomalarga) tashish vazifasini bajaradi. Har bir oqsil tarkibiga kiruvchi aminokislotalarning o'ziga xos t-RNK si bor bo'lib, ularning soni 20 ga yaqindir.

3. RNK ning uchinchi turi informatsion RNK (i-RNK) yoki vositachi RNK deyiladi. i-RNK hujayralarda oqsillarning qanday turi sintez qilinishi to'g'risida informatsiya beradi. Bunday i-RNK mavjudligini 1957- yilda rus olimlari A.N.Belozerskiy va A.S.Spirin aytib o'tgan edilar. Lekin u faqat 1960- yilga kelib aniqlandi. Nuklein kislotalarning, ya'ni DNK va RNK ning uch xil turlanish to'liq funksiyasini o'rGANISH biologik kimyoning vazifasidir.

Ma'lumki oqsil molekulasini tashkil etadigan polipeptid zanjirdagi aminokislotalarning ketma-ketligi DNK molekulasidagi nukleotidlarni tomonidan aniqlanadi. Biron-bir xabar yoki ma'lumotni shartli belgilar yordamida ifodalash kodlash yoki kod deb ataladi. Biologiyada genetik informatsiyani, ya'ni oqsil molekulalarini tashkil etuvchi 20 xil aminokislotani DNK molekulasidagi 4 xil nukleotid yordamida ifodalashga *genetik kod* deyiladi.


Hozirgi vaqtida genetik kodning umumiy xarakterli xususiyatlari yaxshi o'rganilgan. 1961-yilda ingliz olimi Krik genetik kod tripletli xususiyatga ega ekanligini, ya'ni uchta nukleotid to'plamidan tashkil topganligini aniqladi. U Krik ifodasiga ko'ra kodon deb ataladi. Demak, barcha kodon uchta nukleotid (triplet) dan iborat. Yonma-yon turgan kodonlar bir-birini qoplamaydi, ya'ni birinchi kodonning oxirgi nukleotidi, undan keyingi kodonning boshlang'ich nukleotidi bo'la olmaydi. Informatsiya ma'lum punktdan boshlanadi. Bir xil aminokislotalarni ifodalovchi tripletlar bir-biriga o'xshaydi.

Genetik kod universal xarakterga ega bo'lib, bircha tirik organizmlarning kodlari ko'pincha umumiy yoki bir xildir.

**Kofermentlar.** Tirik organizmda sodir bo'ladigan biokimyoiy reaksiyalar fermentlar ishtirokida ketadi. Fermentlar oqsillarga mansub bo'lib, yuqori molekular kolloid birikmalardir. Ular oddiy oqsillardan, ya'ni faqat aminokislotalardan tashkil topgan bo'lishi mumkin. Ko'p hollarda ular murakkab oqsillar (proteidlar) bo'lib, ularning tarkibida oqsil qism apoferment (apoenzim) va oqsil bo'lmagan prostetik guruh kofermentdan iborat.

Kofermentlarga ba'zi nukleotidlari, vitaminlar va boshqa moddalar kiradi. HK lar tarkibiga kiruvchi nukleotidlari bilan birga, ba'zi nukleotidlari va ularning hosilalari ham ma'lum. Ular tirik organizm hujayralarida erkin holatda uchraydi va moddalar almashinuvida muhim rol o'yaydi.

Adenozinmonofosfat (AMF) o'ziga bir yoki ikkita fosfat kislota qoldig'ini biriktirib olishi mumkin. Bunda adenozindifosfat (ADF) va adenozintrifosfat (ATF) hosil bo'ladi:



**Tayanch iboralar:** pestitsidlar, pestitsidlarni sinflash, insektitsidlar, fungitsidlar, gerbitsidlar, o'stiruvchi moddalar, insektoakaritsidlar, defoliant va desikantlar.

Kimyo fani yutuqlari qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ko'paytirish va hosildorlikni yanada oshirishga qaratilgan. Bu vazifani muvaffaqiyat bilan hal etish ko'p jihatdan yer unumtdorligini oshirishga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining isrof bo'lishiga qarshi kurashni to'g'ri uyushtirishga bog'liq. Qishloq xo'jalik mahsulotlari begona o'tlar, zararkunandalar va madaniy o'simliklarga tushadigan kasalliklar tufayli juda ko'p miqdorda isrof bo'ladi. Begona o'tlar madaniy o'simliklardan namlikni, yerdagi oziq moddalarni tortib olib, ekinlarni siqib, o'sishiga to'sqinlik qiladi.

Qishloq xo'jaligi o'simliklari zararkunandalariga hasharotlar, kanalar, yumaloq chuvalchanglar, molluskalar, kemiruvchilar va boshqalar kiradi. Hasharotlar o'simliklar to'qimasini zararlash bilan birga, ularning shirasini so'rib oladi; yumaloq chuvalchanglar (nematodlar) o'simlik ichiga teshib kirib olib, ularning to'qimasini yemiradi, kemiruvchilar o'simlikning yer ustki va yer ostki qislalarini kemiradi.

Zamburug'lar, bakteriyalar va viruslar o'simliklarda parazit holda yashab, ularning normal oziqlanishini buzadi, o'simlik ayrim qismlarining chirishiga va o'lishiga hamda butun o'simlikning qurib qolishiga olib keladi.

Madaniy o'simliklarga tushadigan zararkunandalar va kasallik qo'zg'atuvchilar qishloq xo'jaligi o'simliklarining hosildorligini kamaytirib, davlatga juda katta iqtisodiy zarar yetkazadi. Masalan, bug'doyning faqat birgina qorakuya bilan zararlanishi hosildorlikni 30—50% ga kamaytirib yuboradi. Shunday qilib, hozirgi vaqtida dunyoda 70 000 dan ortiq zararkunanda hasharotlar bor. Shu tufayli qishloq xo'jaligida o'simlik ekinlarini hasharotlar, kanalar, kemiruvchilar, bekteriyalar, viruslar, zamburug'lar, begona o'tlar va boshqa zararkunandalarning rivojlanishini to'xtatish yoki ularni o'ldirish xususiyatiga ega bo'lgan xil kimyoviy birikmalar pestitsidlar deyiladi.

Pestitsidlarni ham kimyoviy tuzilishiga va qaysi maqsadda ishlatalishiga qarab sinflash mumkin.

I. Gerbitsidlari — begona o'simliklarga qarshi kurashda ishlataladigan kimyoviy moddalar.

II. Insektitsidlari — zarar keltiradigan hasharotlarni yo'q qilishda ishlataladigan kimyoviy moddalar.

III. Fungitsidlari — o'simlik kasalliklariga qarshi ishlataladigan kimyoviy moddalar.

IV. O'simliklarni o'stiruvchi moddalar deb, o'simliklarni rivojlanishi uchun ta'sir etuvchi kimyoviy moddalarga aytildi.

V. Insektorepellentlar — hasharotlarni hujum qilishdan saqlovchi kimyoviy moddalar.

VI. Insektoatraktantlar — hasharotlarni o'ziga jalb etuvchi kimyoviy moddalar.

VII. Xemosterilizatorlar — ziyon keltiruvchi organizmlarni ko'payishiga yo'l qo'yaydigan kimyoviy moddalar.

Gerbitsidlari — o'simliklarni quritib qo'yadigan kimyoviy moddalar. Gerbitsid latincha so'z bo'lib, «*gerba*» — o't va «*sido*» — o'ldirish degan ma'noni anglatadi.

Ishlangan maydondagi o'simliklarni yoppasiga quritadigan umum qurituvchi gerbitsidlarni va madaniy ekinlarga ziyon yetkazmay, begona o'tlarni quritadigan tanlab ta'sir qiluvchi gerbitsidlarni farq qilish qabul etilgan. Bunday ta'sir ko'rsatish begona o'tlarning va madaniy ekinlarning zaharli kimyoviy dorilarga turlicha ta'sir qilish tamoyiliga asoslangan. Faqat tekkan joyiga qurituvchan ta'sir ko'rsatadigan xili kontakt gerbitsid, o'simlik bo'ylab tarqalib, uning hamma qismini zararlaydigan xili sistemali gerbitsid deb ataladi. Bulardan tashqari, begona o'tlarning ildizi orqali yer ostidan ta'sir etadigan gerbitsidlari deb ataladi.

Barcha o'simliklarga ta'sir etuvchi gerbitsidlari yo'llardagi sport maydonlaridagi, sanoat korxonalaridagi va temir yo'l yoqalaridagi o'simliklarni yo'qotish uchun tavsiya etiladi. Bunday maqsadlar uchun avvallari ko'plab miqdorda anorganik moddalar ishlatalilar edi (ammoniy sulfat, natriy xlorat, natriy rodanid va hokazo).


Qo'llanilayotgan me'yoriga qarab ba'zi bir organik gerbitsidlami, masalan, pentaxlorfenol, endotal, monuron, diuron, 40% gacha aromatik uglevodorodlarni tutgan mineral moylar va hokazolarni ham barcha o'simliklarga ta'sir etuvchi preparatlar jumlasiga kiritish mumkin.

## TANLAB TA'SIR ETUVCHI GERBITSIDLAR


Fiziologik faol moddalar orasida fenoksialkil kislotalar va ularning har xil birkmalari eng yuqori faollikka ega. Shu tufayli ularning qo'llanish doirasi ham juda keng.

Shu guruhga kiruvchi birikmalar ikki pallali o'simliklarga ta'sir qiladi va hozirgi vaqtida millionlab hektar don ekinlari va o'tloqlar ishlanaadi. Fenoksialkilkarbon kislotalar va ularning birikmalarini ichida eng muhimlari bilan qisqacha tanishamiz.


2,4-dixlorfenoksiksirka kislotaning natriyli tuzi 2,4-dixlorfenolyat natriyiga xlorsirka kislotaning natriyli tuzi ta'sir ettirib olinadi:




Gerbitsid faollik xususiyatiga ega bo'lgan fenoksialkilkarbon kislotalar va ularning birikmalaridan tashqari, 2-metil-4-xlorfenoksiksirka kislota, 2,4,5-trixlorfenoksiksirka kislota, 2-metil-4-xlorfenoksipropion kislota, 2,4-dixlorfenoksipropion kislota va ularni tuz yoki efir holatida keng qo'llaniladi:




2-metil-4-xlorfenoksiksirka kislota



2,4,5-trixlorfenoksiksirka kislota




2-metil-4-xlorfenoksi-  
propion kislota



2,4-dixlorfenok-  
sipropion kislota


Hozirgi vaqtida mochevina va karbamin kislota birikmalari, shuningdek, karbon kislotalarning arilamidlari asosidagi gerbitsidlar qo'llash mashtabiga ko'ra asosiy o'rinni egallaydi va tanlab ta'sir ko'rsatuvchi gerbitsidlar guruhiga kiradi.

**Dixloralmochevina** — N,N- (bis 2,2,2-trixlor-1- oksietil)-mochevina. Uni kislotali muhitda mochevinaga xloral ta'sir ettirib sintez qilinadi:




Bu preparat 15—20 kg ga miqdorida qand lavlagi ekinzorlaridagi begona o'tlarga qarshi ishlatishga mo'ljallangan. Ko'p miqdorda qo'llanilganda ko'zni yallig'lantiradi.

**Mochevina sinfi birikmalari orasida kotoran paxta uchun ahamiyatlidir.** U O'zbekistonning Navoiy shahridagi kimyo zavodida ishlab chiqariladi.




Gerbitsid urug' unib chiqish oldidan har gektariga 1—4 kilogramm solinsa, paxta ekini orasidagi begona o'tlarni yo'qotadi.

**Meturin** — N-fenid-N'-oksi-N'-metilmochevina. Bu gerbitsid bir guruh olimlar tomonidan N.N.Melnikov rahbarligi ostida yaratilgan. Paxta, kartoshka ekinzorlaridagi begona o'tlarga qarshi kurashga mo'ljallangan:




meturin

## Propanid — 3,4-dixlorpropionanilid




Bu gerbitsid sholi ekini orasida uchraydigan kurmak kabi begona o'tlarni yo'qotish uchun keng qo'llanilmoqda. Karbon kislotalarning galoidli birikmalari o'tlarga qarshi keng ishlatiladi. Uch xlorli sirka kislota  $\text{CCl}_3\text{COOH}$ . Qishloq xo'jaligida uning natriyli tuzidan har gektar yerga 12—60 kg normada gerbitsid sifatida ishlatiladi.

**Dalapon** —  $\alpha, \alpha'$ -ikki xlorli propion kislantaning natriyli tuzi  $\text{CH}_3\text{CCl}_2\text{COONa}$ . Bu preparat tanlab ta'sir etuvchi gerbitsid hisoblanadi. Undan paxta, lavlagi, makkajo'xori va sabzavot ekinlari orasida uchraydigan bir pallali begona o'tlarni yo'qotishda foydalananiladi. Dalapon gektariga 30—40 kilogramm hisobidan kuzgi shudgorlashdan keyin yerga solinsa eng ashaddiy yovvoyi o't hisoblangan g'umayga qarshi kurashda juda yaxshi natija beradi. Aromatik karbon kislotalarning ayrim vakillari ham gerbitsid xususiyatiga ega, masalan 2,3,6-uch xlorli benzoy kislota:




Bu modda gektariga 0,5—5 kg miqdorda ishlatilsa, makkajo'xori va arpa kabi ekinlar bilan birgalikda o'sadigan ko'p yillik begona o'tlarga tanlab ta'sir ko'rsatadi.

**Toluin** — N- $\beta$ -metoksietilxlorasetat-O-toluidid. Bu preparat 1981-yilda g'o'za ekinlaridagi begona o'tlarga qarshi tanlab ta'sir etuvchi gerbitsid sifatida tavsiya etiladi:




**Triazinlar** keyingi yillarda to‘la o‘rganilib, ulardan gerbisid sifatida qishloq xo‘jaligidagi foydalanish joriy qilindi. Bular, asosan, simmatrik tuzilishga ega bo‘lgan triazinlardir.


**Simazin** — 2-xlor-4,6-bis-(etilamino) simmtriazin. Bu gerbitsid gektariga 1—4 kg normada makkajo‘xori ekinlari orasida uchraydigan begona o‘tlarga qarshi tuproqqa solish yo‘li bilan ishlatiladi:





**Propazin** — 2-xlor-4,6-bis-(izopropilamino)-simmtriazin. Preparat sabzi, ukrop, petrushka va shu kabi ekinlar orasida uchraydigan begona o‘tlarga qarshi gektariga 0,5—3 kg ishlatiladi, lekin uni pomidor ekilgan maydonlarda mutlaqo qo‘llab bo‘lmaydi.



**Prometrin** — 2-metiltio-4,6-bis(izopropilamino)-simmtriazin. Preparatni turli muddatlarda sabzi ekilgan maydonlarda 2—5 kg ga normada ishlatish mumkin:



Bu sinf moddalarini sintez qilish uncha murakkab emas va deyarli qimmatga tushmaydi. Sianid kislota va xlordan xlorsian olinadi, u trimerizatsiya qilinib sianur xloridga o‘tkaziladi. Sianur xloriddagi ikki xlor atomi nukleofil reagentlar bilan oson reaksiyaga kirishadi:



Triazin molekulałaridagi xlor boshqa funksional guruhlarga juda qiyin sharotlarda almashadi. Triazin preparatlar ichida simazin ba'zi kamchiliklarga ega, u juda uzoq vaqt tuproqda parchalanmay yotib, boshqa ekinlar ekilgan paytda ularga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shogun, maloran, stamp, pantera va boshqa yangi gerbitsidlarni ishlatishga tavsiya etildi.


### *Bilasizmi??*

O'zbek olimlari tomonidan yangi gerbitsid toluin yaratildi (professor To'laganov S. va boshqalar, 1981- y).


## INSEKTOAKARITSIDLAR

Bu guruhga kiruvchi moddalarning nomi lotinchcha «*insekt*» — hasharot va «*sido*» — o'ldirish so'zlaridan kelib chiqadi, ya'ni zararli hasharotlarni o'ldiradigan moddalar insektitsidlardir, kanalarga qarshi ishlatiladigan birikmalar esa akarisidlar deb yuritiladi.


Yaqin yillargacha zararkunandalarga qarshi DDT — 4,4-dixlor-difenil-trixloretan preparati keng qo'llanilar edi. Ammo bir necha yillar davomida doimiy ishlatilishi natijasida atrof muhitda uning miqdori orta bordi va ko'pgina ko'ngilsiz hodisalar ro'y berdi. Shuning uchun bu preparatdan foydalanish 1970- yildan boshlab ta'qilandi. Bu modda xlorbenzol va xloraldan sintez qilib olinadi.





DDT ning o‘rniga taklif etilgan preparatlardan biri sevin (1-naftil-N-metilkarbamat)dir. Sevin 200 xildan ortiq zararli hasharotlarga qarshi ishlataladi.



So‘nggi yillarda kontakt insektisidlar orasida siretrin sinfiga mansub bo‘lgan preparatlar muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Piretrinlar bu moychechak o‘simgidan ajratib olinadigan tabiiy insektisid — piretrumning ta’sir etuvchi qismidir. Piretrinlar orasida zararli hasharotlar uchun eng zaharlisi quyidagi tuzilishga ega:



Bu birikma siklik ketospirt piratrolonning xrizantem kislota bilan hosil qilgan murakkab efiridir. Piretroidlar zararkunandalarga ta’sir etidi va atrof muhitda saqlanib qolish xususiyatiga ega emas. Shuning uchun hozirgi vaqtida sintetik piratroidlar ishlab chiqilmoqda, lekin ular juda qimmat. O’simliklardan ajratib olingan alkaloidlardan nikotin va anabazin aktiv kontakt insektisid hisoblanadi, lekin ular odamlar va hayvonlar uchun zaharli, shu tufayli ular qishloq xo‘jaligida qo’llanilmaydi.




Zararli hasharotlarga qarshi kurashga DDT o‘rniga fosfor-organik preparatlarni qo‘llash taklif etilgan.

**Gardona** — 2-xlor-1-(2,4,5-trixlorfenil)-vinildimetilfosfatning trans-izomeri.




Bu preparat kam zaharli, yuqori temperaturaga chidamli. Uni olma qurti hamda o‘simliklar barglariga zarar etkazuvchi qurtlarga qarshi ishlataladi.


Hozirgi vaqtida insektisid sifatida tio, ditio va fosfat kislotalarning efirlari ishlatalmoqda, masalan: metafos, karbofos, xlorofos, benzofosfat va hokazo:



metafos




korbofos




xlorofos

Hozirgi vaqtida yangi insektoakaritsid-benzofosfat yoki fozalon-O, O-dietil-S-(6-xlorbenzoksazolonil-3-metil) ditifosfat qishloq xo‘jaligida keng o‘rin oldi. Bu preparat kam zaharli hisoblanadi, zararkunandalaming ichki yo‘llarini zaharlaydi. Benzofosfatdan urug‘larni dorilashda ham foydalaniladi:



**Ftalofos** – ftalimidometil-O, O-dimetilditiosfosfat, boshqa fosfororganik preparatlar singari hasharotlardagi xolinesterazaga ta'sir ko'rsatadi:



Oxirgi yillarda qishloq xo'jaligimizda g'o'zaning o'sish davrida uni zararkunanda hasharotlardan ximoya qilish maqsadida feromonli tutqichlar ishlatilmogda. Bu tutqichlar hasharotlarni paydo bo'lganidan xabar berib, ularga qarshi tadbirlar ishlashga yordam beradi.

## FUNGITSIDLAR

Zamburug'larga va o'simlik kasalligini qo'zg'atuvchi turli bakteriya hamda viruslarga qarshi kurashda ishlatiladigan kimyoviy oddalar fungitsidlar deb ataladi. Fungitsid so'zi lotincha «fungus» — zamburug' va «sido» — o'ldiraman degan ma'noni bildiradi. Ba'zi kimyoviy moddalarning o'zi ham hasharotlarga qarshi, ham zamburug'li kasalliklarni qo'zg'atuvchilarga qarshi kuchli ta'sir ko'rsatadi, bu holda bunday zaharli kimyoviy dorilar «insekt-fungitsidlar» degan umumiy nom bilan yuritiladi. Bakteriya va viruslar keltirib chiqaradigan kasalliklarga qarshi yaxshi ta'sir ko'rsatadigan vositalar «bakteritsidlar» degan umumiy nom bilan ataladi. Mishyak, simob, mis, oltingugurt preparatlari, shuningdek xlororganik va boshqa birikmalar fungitsidlar va insektitsidlar sifatida ishlatiladi.

Fungitsidlar ta'sir etishiga qarab quyidagilarga bo'linadi:

1. O'simlik kasalliklarga chalimmasligi uchun profilaktika maqsadida ishlatiladigan preparatlar. Bular o'simlik urug'ini, bargini va mevasini kasallanishdan saqlaydi.


2. Kasalga chalingan o'simliklarni davolovchi fungitsidlar. Bu preparatlar o'simliklardagi kasallik qo'zg'atuvchi zamburug'lar va viruslarga qarshi ishlatiladi.

3. O'simlik orqali ta'sir etuvchi fungitsidlar tanasida harakatlanishi sababli yoki o'simlikdagi modda almashinishiga kirishib boshqa kimyoiy mahsulotga aylanishi tufayli kasallik qo'zg'a-tuvchilarni yo'qotadi.

**Mis uch xlorfenolyat.** Bu preparatdan paxta urug'ini kasallanishdan saqlashda foydalilanadi. Fungitsidlarning ta'sir etuvchi asosi mis 2,4,5-uch xlorfenolatdir.


**Granozan.** Preparatning ta'sir etuvchi asosi etilmekurxloriddir ( $C_6H_5HgCl$ ). Preparat bilan don ekinlari, zig'ir moy olinadigan ekinlarning urug'lari dorilansa, o'simlik turli xil kasalliklardan xalos qilinadi. Barcha simob birikmalari singari bu fungitsid ham inson va hayvonlar uchun o'ta zaharli. Ditiokarbamin kislota asosida olingan preparatlar inson va hayvonlar uchun kam zaharli bo'lib, o'simliklarni kuydirmaydi. Mazkur gruppaning eng muhim vakillari quyidagilar:

#### Tetrametiltiuramidsulfid (TMTD):



Undan faqat kasallik qo'zg'atuvchilarga qarshi emas, balki zararli hasharotlarni yo'qotishda ham foydalilanadi.


**Etiten-bis-ditiokarbamin kislota tuzlaridan**, sineb va maneb o'silik kasalliklarga qarshi keng ko'lamda ishlatiladi.



Me = Zn = sineb


Me = Mn = maneb

Keyingi yillarda benzimidazol asosidagi fungisidlar qishloq xo‘jaligiga joriy etilmoqda maslan, «benleyt» yoki benomil-metil, 1-butikarbomoil-2-benzimidazol):




## O‘SIMLIKLAR O‘SISHINI BOSHQARISHNING KIMYOVIY USULLARI

**O‘silik o‘sishini tezlashtiruvchi moddalar.** Olimlami olib borgan kuzatishlari natijasida o‘siliklar poyasining ostki qismida va ildizining uch qismida to‘qimalarning o‘sishiga katta ta’sir etuvchi noma’lum moddaning to‘planishi aniqlandi. Bu modda o‘silikning o‘sishini tezlashtiruvchi moddalardan biri 3-indolil sirkal kislota ekanligi aniqlanib, uni geteroauksin deb ataladi:




Olimlar, agar o‘siliklarga shu modda purkalsa poyasida va hatto, mevalarida ham ildizlar hosil bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadilar. Geteroauksinning bu xususiyatlari aniqlangach, uni darhol o‘siliklar vegetasiyasini ko‘paytirishda va boshqa qismalarining o‘sishini tezlashtirish maqsadida qo’llay boshladilar. O‘siliklarning o‘sishini tezlashtirish maqsadida geteroauksinning bir qator analoglari (o‘xshashlari) va unga yaqin tuzilishga ega bo‘lgan birikmalarni sintez qilib sinab ko‘rildi. Shu toifadagi moddalarning ichida eng aktivlari 2-naftoksisirka kislota (I), naftilsirka kislota (II) va indol yog‘ kislota (III) ekanligini aniqladi:



Bu moddalning 0,001 va 0,0005% li eritmalari tirik organizmdagi gormonlar singari o'simlikning o'sish davrida biologik jarayonlarni aktivlashtiradi. Bu preparatlar miqdorini oshirish esa, o'simlikning o'sishini sekinlashtiradi, ko'p hollarda butunlay to'xtatadi. Yapon olimlari sholining kasallanishini o'rgana boshladilar. Bu kasallik natijasida sholi poyalarining bo'yи nihoyatda uzayib, barglari sarg'ayib, hosildorlik juda kamayib ketardi. Ko'p yillik izlanishlari natijasida sholipoya plantasiyalari «giberella fukaraye» zamburug'lari bilan kasallanishi aniqlanadi va u zamburug'dan aktivligi juda yuqori bo'lgan organik kislotani ajratib olishga muvofiq bo'lindi va uni «gibberellin» deb ataldi. Bu modda o'simliklarga ta'sir ettirilganda sholi, bug'doy va arpaning o'sishi tezlashdi. Giberellin qishloq xo'jaligida bir qator uzum navlari, gilos va boshqa ekinlarning hosildorligini oshirishda qo'llanilmoqda. O' sishni tezlashtiruvchi moddalarning mevali va dekorativ daraxtlami, ko'p yillik texnik ekinlarni hamda subtropik ekinlarni qalamcha qilib ko'paytirishda qo'llanishi katta ahamiyatga ega. Tez ildiz hosil qildirish uchun geteroauksindan foydalaniladi. Shu maqsadda naftilsirka kislotasi va uning aminlar, ishqoriy metallar bilan hosil qilgan tuzlarini ham ishlatish mumkin, chunki ular suvda yaxshi eriydi.


Daraxtlarni ko'chat qilib o'tqazishda geteroauksin kabi preparatlarni ishlatish yaxshi natija beradi. Chunki ular kuchli ildiz sistemasini hosil qilishga hamda o'simlikning tezroq o'sishiga yordam beradi. O'simlikning o'sishini vaqtincha to'xtatuvchi

kimyoviy moddalar regulyatorlar deyiladi. Ularni o'simlikning o'sishini vaqtincha to'xtatib turishda qo'llash katta amaliy ahamiyatga egadir. Masalan, bahorgi sovuqlar vaqtida kurtaklarning rivojlanishini to'xtatish va ayniqsa, mevali daraxtlarning olma6 nok va hokazo gullashini to'xtatib turish juda muhimdir. Bunday hollarda regulchtni qo'llash, hosilni qisman yoki butunlay saqlab qoladi. So'nggi vaqtarda qahrabo kislotaning dimetilgidrazidi, xlortexolinxlorid va mallein kislota gidrozidi ko'pgina o'simliklarga regulyator tarzida qo'llanilmoqda. Regulatorlar yordamida o'simliklarning o'sishini anchagina muddatga (10–60) kechiktirish mumkin bo'ladi, bu esa ba'zi hollarda katta ahamiyatga ega, masalan, sovuq erta tushganda. Qishloq xo'jaligida bug'doy, arpa, sholi va boshg'a boshoqli ekinlar poyasining cho'zilib o'sishida, ular shamol ta'sirida yiqlilib erga yotib qoladi va kombaynda yig'ishtirishni qiyinlashtiradi. Boshoqli ekinlarning poyasini tez o'sib ketishini to'xtatib turish maqsadida har xil kimyoviy birikmalar retardantlar ishlatilmoqda. Ulardan keng miqyosda o'r ganilayotgan preparat xlortexolinxlorriddir yoki preparat «tur» dir. Bu preparat ishlatilsa, bug'doy poyalari yo'g'onlashib, bo'y়i pastlashadi va yaxshi hosil olinadi:



Kimyoviy preparatlar yordamida har xil o'simliklarning ildiz sistemasining rivojlanishini yoki urug'ning unib chiqishini kechiktirishga erishish mumkin.

Kartoshkani uzoq saqlash uchun uning o'sishini vaqtincha regulyatoridan foydalananib to'xtatishning amaliy ahamiyati kattadir. Bu maqsadda naftilsirka kislotaning metil efiri bilan kartoshkani ishlash yaxshi natija beradi:




## DEFOLIANT VA DESIKANTLAR


O'simlik barglarini kimyoviy usulda to'kish uchun mo'ljalangan preparatlar defoliantlardir, desikantlar esa o'simlik barglarini qovjiratish uchun qo'llaniladigan praparatlardir.

Defoliant va desikantlarning qo'llanishi hosilni mexanizmlar yordamida tez va qisqa muddatlarda yig'ib olishga imkon beradi.

Paxta bargini to'kish uchun defoliant sifatida kalsiy sianamid, magniy xlorat, kalsiy xlorat-xlorid va dropp kabi preparatlar keng qo'llanilmoxda. Bu preparatlarning bir-biridan afzalliklari va farqlari bor. Dropp g'o'za bargiga tez kunda kuchli ta'sir ko'rsatadi:



O'zbekiston fanlar akademiyasining O'simlik moddalari kimyosi institutining kollektivt tomonidan yangi defoliant butilkaptaks (2-butylthiobenzotriazole)ni tavsiya etildi:



Shunday qilib turli kasallikkarni tarqatuvchilarga, zararkunandalar va begona o'tlarga qarshi kurashda kimyoviy birikmalar katta aharniyatga ega. Kimyoviy birikmalar o'z o'mida to'g'ri foydalanilsa qishloq xo'jaligi mahsulotlari unumdarligini oshirish va uni saqlab qolishda keng qo'llash mumkin.

### *Savol va mashqlar*

1. Antibiotiklar haqida nima bilasiz? Shu sohaga bиринчи bo'lib o'zbek олимларидан kim asos solgan?
2. Qanday birikmalarga nuklein kislotalar deyiladi?
3. Dezoksiribonuklein kislotalar, ribonuklein kislotalardan nimalar bilan farqlanadi?
4. Nuklein kislotalarning biologik ahamiyatini so'zlab bering.
5. Qishloq xo'jaligida ishlataladigan biologik faol organik birikmalarga qanday moddalar kiradi?
6. Qishloq xo'jaligida ishlataladigan preparatlar asosan qanday guruhlarga bo'linadi va ularning ishlatalishi haqida so'zlab bering.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari, T., «O'zbekiston», 1997.
2. Артемеко А.И. Органическая химия. М., «Высшая школа», 1987.
3. Abdusamatov A. Organik ximiya. T., «Mehnat», 1987.
4. Abdusamatov A., Ziyayev R., Obidov U., O'rolov A. Organik kimyodan amaliy mashqlar. T., «O'zbekiston», 1996.
5. Abdusamatov A., Ziyayev R., Akbarov B. Kimyodan testli savol va masalalar. T., «O'qituvchi», 1998.
6. Ahmedov Q.N., Aliyev N.A. Geteroksalqli birikmalar kimyosi, T., «Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti» bosmaxonasi, 2002.
7. Бенкс Ж. Названия органических соединений. М., «Химия», 1980.
8. Грандбер И.И. Органическая химия. М., «Высшая школа». 1987.
9. Iskandarov S., Sodiqov B. Organik ximiya nazariy asoslari. T., «Mehnat», 1987.
10. Iskandarov S., Abdusamatov A., Shoymardonov R. Organik ximiya. T., «O'qituvchi», 1979.
11. Мельников Н., Новожилов К.В., Белан С.Р., Пилова Т.Н. Справочник по пестицидам. М., «Химия», 1985.
12. Несмеянов А.Н., Несмеянов Н.А. Начало органической химии. М., «Химия», 1974.
13. Нейланд О.Я. Органическая химия. М., «Высшая школа», 1990.
14. Потапов В.М. Органическая химия. М., «Просвещение», 1976.
15. To'uchiyev K.T., Aloviiddinov A.B., Namozov M.B. Organik ximiyadan savollar, mashqlar, masalalar. T., «O'qituvchi», 1990.

## MUNDARIJA

So'z boshi .....	3
Kirish .....	5
Organik moddalarning tuzilish nazariyasi .....	10
A.M.Butlerovning moddalarning kimyoviy tuzilish nazariyasi .....	13
Organik moddalarning asosiy manbalari.....	15
Organik moddalarni olish, ajratish, tozalash, taqqoslash va tuzilish formulalarini aniqlalash .....	20
<b>I b o b . KIMYOVİY BOG'LANISH</b> .....	33
Kovalent bog'lanishning fizik tabiatı .....	38
<b>II b o b . KIMYOVİY REAKSİYA MEXANİZMI</b>	
Induksion effekt .....	44
Mezomer (rezonans) effekt .....	45
Organik reaksiyalarning tasnifi va mexanizmi .....	46
Organik birikmalarning tuzilish formulalarini ifodalash.	
Gomologiya va izomeriya .....	50
<b>III b o b . UGLEVODORODLAR</b> .....	55
To'yingan uglevodorodlar .....	56
Izomeriyasi .....	57
Nomenklaturasi .....	59
Tabiatda uchrashi va olinishi .....	62
Fizik xossalari .....	63
Kimyoviy xossalari .....	64
Alkanlarni identifikasiyalash .....	67
To'yingan uglevodlarning ishlatalishi .....	67
<b>IV b o b . TO'YINMAGAN UGLEVODORODLAR.</b>	
<b>ALKENLAR</b> .....	69
Nomenklaturasi .....	69
Izomeriyasi .....	70

Olinish usullari .....	71
Fizik xossalari .....	72
Kimyoviy xossalari .....	73
<b>V b o b . ALKINLAR (ASETILEN UGLEVODORODLAR)</b> .....	<b>78</b>
Nomenklaturasi va izomeriyasi .....	78
Olinish usullari .....	79
Fizik xossalari .....	80
Kimyoviy xossalari .....	81
Alkinlarning ishlatalishi .....	84
<b>VI b o b . DIYEN UGLEVODORODLAR</b> .....	<b>85</b>
<b>VII b o b . ARENLAR (AROMATIK UGLEVODORODLAR)</b> .....	<b>89</b>
Nomenklaturasi va izomeriyasi .....	91
Olinish usullari .....	93
Fizik xossalari .....	95
Kimyoviy xossalari .....	95
Ko'p halqali aromatik uglevodorodlar .....	101
Ko'p halqali aromatik uglevodorodlarning olinishi .....	102
Aromatik uglevodorodlarinng tuzilishini aniqlash .....	104
<b>VIII b o b . ALISIKLIK UGLEVODORODLAR</b> .....	<b>105</b>
Alisiklik birikmalarning tabiatda uchrashi va olinishi .....	108
<b>IX b o b . TERPENLAR, FITOGORMONLAR VA STEROIDLAR</b> .....	<b>111</b>
Terpenlarning tasnifi .....	112
Karotinoidlar .....	114
Fitogormonlar .....	115
Steroidlar .....	117
<b>X b o b . UGLEVODORODLARNING GALOIDLI BIRIKMALARI</b> .....	<b>125</b>
Goloidli birikmalar .....	125
Nomenklaturasi va izomeriyasi .....	125
Olinish usullari .....	128
Monogaloidli alkanlarning kimyoviy xossalari .....	130
Di-, tri- va poligaloidli birikmalar .....	131
Olinish usullari .....	132

Poligaloidli birikmalar .....	133
To'yinmagan galoidli birikmalar .....	134
Ayrim vakillari .....	135
Aromatik galoidli birikmalar .....	136
<b>XI bob . SPIRTLAR, FENOLLAR, MARKAPTANLAR, ODDIY EFIRLAR VA ANORGANIK KISLOTA EFIRLARI .....</b>	<b>139</b>
Spirtlar .....	139
Nomenklaturasi va izomeriyasi .....	140
Spirlarning tabiatda uchrashi va olinish usullari .....	141
Spirtning fizik xossalari .....	143
Kimiyoiy xossalari .....	144
Propil, butil, amil va yuqori molekulali spirtlar .....	149
Ikki atomli spirtlar .....	150
Uch atomli va ko'p atomli spirtlar .....	154
Alisiklik spirtlar .....	158
To'yinmagan spirtlar .....	159
Fenollar .....	160
Uch atomli fenollar .....	167
Vitamin-E guruhি (tokoferollar) .....	168
Aromatik spirtlar .....	169
Markaptanlar .....	170
Oddiy efirlar .....	171
Ayrim vakillari .....	173
Anorganik kislotalarning murakkab efirlari .....	175
Nitrit va nitrat kislota efirlari .....	176
Fosfor kislotalarning efirlari .....	176
<b>XII bob . AMINLAR VA AMINOSPIRTLAR .....</b>	<b>179</b>
Aminlar .....	179
Nomenklaturasi va izomeriyasi .....	180
Olinish usullari .....	181
Fizik xosalari .....	182
Kimiyoiy xossalari .....	183
Ayrim vakillari .....	185
Aminospirtlar .....	187
Aromatik aminlar .....	188
<b>XIII bob . OKSOBIRIKMALAR (ALDEGID VA KETONLAR) .....</b>	<b>193</b>
To'yingan aldegid va ketonlar .....	193
Nomenklaturasi .....	194

Olinish usullari .....	195
Fizik xossalari .....	196
Kimyoviy xossalari .....	197
Aldegid va ketonlarning muhim vakillari .....	203
To'ymagan aldegidlar .....	205
Aromatik aldegid va ketonlar .....	206
Xinonlar .....	207
<b>XIV bob. KARBON KISLOTALAR VA ULARNING HOSILALARI .....</b>	<b>209</b>
Nomenklaturasi va izomeriyasi .....	210
Olinish usullari .....	211
Fizik xossalari .....	212
Kimyoviy xossalari .....	215
Ayrim vakillari .....	218
Karbon kislotalarning hosilalari .....	221
Kislota amidlari. Mochevina .....	227
Kislota amidlarining xossalari .....	228
To'yingan dikarbon kislotalar .....	231
To'ymagan kislotalar .....	235
To'ymagan ikki asosli kislotalar .....	239
Aromatik karbon kislotalar .....	241
<b>XV bob. LIPIDLAR .....</b>	<b>246</b>
Yog'lar, moylar .....	247
Yog'larining fizik xossalari .....	250
Yog'larning kimyoviy xossalari .....	250
Yog' va moylarining ishlatalishi .....	254
<b>XVI bob. OKSI-, ALDEGIDO- VA KETOKISLOTALAR .....</b>	<b>255</b>
Oksikarbon kislotalar .....	255
Nomenklaturasi va izomeriyasi .....	256
Olinish usullari .....	257
Fizik va kimyoviy xossalari .....	259
Eng muhim vakillari .....	262
Fenolkarbon kislotalar .....	266
Aldegido va ketonokislotalar .....	268
<b>XVII bob. OPTIK IZOMERIYA .....</b>	<b>277</b>
Ikkita asimmetrik markazi bor birikmalar va ularning diastereoizomeriyasi .....	280

Rasematlarni antipodlarga ajratish usullari .....	283
Asimmetrik sintez .....	284
O'r'in olish reaksiyalarinig stereoizomeriyasi.....	285
<b>XVIII bob. UGLEVODILAR (KARBONSUVLAR) .....</b>	<b>288</b>
Uglevodlarning klassifikatsiyasi, tuzilishi va izomeriyasi .....	289
Monosaxaridlarning olnish usullari .....	300
Monosaxaridlarning fizik va kimyoviy xossalari.....	302
Ayrim vakillari .....	306
Oligosaxaridlar .....	312
Polisaxaridlar (poliozidlar) .....	318
<b>XIX bob. AMINOKISLOTALAR VA OQSIL MODDALAR .....</b>	<b>325</b>
Aminokislotalarning tabiatda uchrashi va olinishi .....	327
Aminokislotalarning olinish usullari .....	331
Fizik va kimyoviy xossalari .....	332
Aminokislotalarning ayrim vakillari .....	337
Ikki asosli monoaminokislotalar .....	338
Bir asosli diaminokislotalar .....	338
Geterosiklik aminokislotalar .....	340
Peptidlar va oqsil moddalar .....	340
Oqsilning tarkibi va tuzilishi .....	342
Oqsil molekulasingin tuzilishi .....	344
Oqsillarning sifat reaksiyalari .....	345
Proteidlar .....	347
Oqsillarningi xossalari .....	348
Kislotali va fermentativ gidroliz .....	349
<b>XX bob. GETEROHALQALI BIRIKMALAR .....</b>	<b>350</b>
Bir geteroatomli besh a'zoli geterohalqali birikmalar .....	351
Bir geteroatomli olti a'zoli geterohalqali birikmalar .....	359
Bir necha atomli geterohalqali birikmalar .....	361
Alkaloidlar .....	368
Antibiotiklar haqida tushuncha .....	373
Benzilpenitsillinining natriyli tuzi .....	374
<b>XXI bob. NUKLEIN KISLOTALAR .....</b>	<b>376</b>
Nukleotidlar .....	378
Nukleozidlar .....	379

Nuklein kislotalarning tuzilishi .....	380
Nuklein kislotalarning biologik ahamiyati .....	382
<b>XXII боб. BIOLOGIK AKTIV ORGANIK BIRIKMALARNING QISHLOQ XO'JALIGIDA ISHLATILISHI .....</b>	<b>385</b>
Tanlab ta'sir etuvchi gerbitsidlar .....	387
Insektokaritsidlar .....	391
Fungitsidlar .....	394
O'simliklar o'sishini boshqarishning kimyoviy usullari .....	396
Defoliant va desikantlar .....	399
<b>Foydalanilgan adabiyotlar .....</b>	<b>401</b>

**Abdusamatov A.**

Organik kimyo: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik/  
A.Abdusamatov. — T.: «Talqin», 2005. — 408 b.

ББК 24.2я73

Abdulatif Abdusamatov

## ORGANIK KIMYO

*Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik*

Toshkent – «Talqin» – 2005

Muharrir *F.Oripova*  
Musahhih *Sh.A’zamov*  
Dizayner *A.G’ulomov*

Original-maketdan bosishga 2005.10.11 da ruxsat etildi. Bichimi 60×90<sup>1/16</sup>.  
Ofset bosma usulida bosildi. Nashr. t. 28,0. Sharqli kr-ott. 25,75.  
Adadi 1000. Bahosi shartnoma asosida.

«Talqin nashriyoti», 700129, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.  
Shartnoma № 9/05–2005.

«Noshir-fayz» MChJ bosmaxonasida bosildi. Toshkent tumani,  
K.G’ofurov ko‘chasi, 97.